ISAKULOVA N.J., JUMANIYOZOVA M.T.



UMUMIY PEDAGOGIKA

DARSLIK



ISBN:978-9910-671-92-0

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ISAKULOVA N.J., JUMANIYOZOVA M.T.

UMUMIY PEDAGOGIKA

2-QISM

DARSLIK

Toshkent - 2025

UO`K 371.031
KBK 74.00
U 96

Мазкур darslik 60111800-Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun yaratililgan bo`lib, 4 ta modulga ajratilgan. “Ta’lim innovatsiyalari” deb nomlangan birinchi modulda pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari hamda ta’lim innovatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari va turlari tahlil etilgan. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari” deb nomlangan ikkinchi modulda shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalarining mohiyati, muammoli ta’lim texnologiyalari, ta’limning interfaol metodlari va strategiyalari, ta’limda keys texnologiyasi, ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalarilarini qo‘llash o`rganilgan. “Kreativ fikrlash pedagogikasi” deb nomlangan uchinchi modulda kreativ fikrlash pedagogikasining o`ziga xos xususiyatlari, shaxs kreativligini aniqlash metodlari, evristik o`qitish va o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish metodikalari, tanqidiy fikrlash texnologiyalari, o‘quv-loyihaviy ta’limning asosiy tamoyillari, ta`lim muassasalarida bolalar faoliyati turlari va ularni tashkil etishga qo`yiladigan umumiy talablar hamda pedagogik muloqot va pedagogik munosabatlar texnologiyasi yoritilgan. “Ilg‘or xorijiy tajribalar” deb nomlangan to`rtinchi modulda zamonaviy ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar, ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlarilari va ularni amalda qo`llash hamda XXI asr pedagogikasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar yo`nalishlari va pedagogik konsepsiyalar bayon etilgan.

Mazkur darslikdan professor-o‘qituvchilar, malaka oshirish tinglovchilari, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar, doktorantlar va talabalar foydalanishi mumkin.

Данный учебник создан для студентов направления 60111800-Иностранный язык и литература (по языкам) и разделен на 4 модуля. В первом модуле под названием «Образовательные инновации» анализируются научно-теоретические основы педагогической технологии и сущность, теоретические основы и виды образовательных инноваций. Во втором модуле «Персонализированные образовательные технологии» изучается сущность личностно-ориентированных и развивающих образовательных технологий, проблемных образовательных технологий, интерактивных методов и стратегий обучения, кейс-технологий в образовании, применения в образовательном процессе игровых технологий. В третьем модуле под названием «Педагогика творческого мышления» рассмотрены уникальные особенности педагогики творческого мышления, методы определения индивидуальной креативности, эвристические методы обучения и самотворческого развития, технологии критического мышления, основные принципы проектного обучения, виды детского творчества, деятельность в образовательных учреждениях и общие требования к ее организации, а также технология педагогического общения и педагогических отношений. В четвертом модуле под названием «Передовой зарубежный опыт» изложены передовой зарубежный опыт в современном образовании, программы международной оценки в системе образования и их практическое применение, а также направления научных исследований и педагогические концепции, реализуемые в педагогике XXI века.

Данный учебник может быть использован профессорами, стажерами, независимыми исследователями, докторантами и студентами.

This textbook was created for students of 60111800-Foreign language and literature (on languages) and is divided into 4 modules. The first module called "Educational Innovations" analyzes the scientific-theoretical foundations of pedagogical technology and the essence, theoretical foundations and types of educational innovations. In the second module called "Personalized educational technologies", the essence of personally oriented and developing educational technologies, problematic educational technologies, interactive methods and strategies of education, case technology in education, the application of game technologies in the educational process are studied. In the third module called "creative thinking pedagogy", the unique features of creative thinking pedagogy, methods of determining individual creativity, heuristic teaching and self-creative development methods, critical thinking technologies, basic principles of project-based education , the types of children's activities in educational institutions and the general requirements for their organization, as well as the technology of pedagogical communication and pedagogical relations are highlighted. In the fourth module called "advanced foreign experiences", advanced foreign experiences in modern education, international assessment programs in the educational system and their practical application, as well as directions of scientific research and pedagogical concepts carried out in the pedagogy of the 21st century are stated.

This textbook can be used by professors, advanced trainees, independent researchers, doctoral students and students.

Mas`ul muharrir:

pedagogika fanlari doktori, professor N.J.Isakulova

Taqrizchilar: pedagogika fanlari doktori, dotsent M.Murtozoyeva

pedagogika fanlari doktori, dotsent M.J.Shodiyeva

O`zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024 yil 1-apreldagi 132-son buyrug`iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan (ro`yxatga olish raqami 132/2).

ISBN:978-9910-671-92-0

© "ZUXRO BARAKA BIZNES"

© ISAKULOVA NILUFAR JANIKULOVNA, JUMANIYOZOVA MUHAYYO TOJIYEVNA

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarida rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshiriimoqda.

Jumladan, O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;

dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

ta’lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o‘qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag‘batlantirish;

pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish;

ilmiy-tadqiqot va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xususiy sektorning salmog‘ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali

raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta’lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish [4].

«Umumiy pedagogika» fanidan o‘quv dasturi asosida xorijiy til va adabiyoti yo`nalishi uchun 2-qism darsligi tayyorlangan bo‘lib, unda pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari, ta’lim innovatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari va turlari, shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalarining mohiyati, muammoli ta’lim texnologiyalari, ta’limning interfaol metodlari va strategiyalari, ta’limda keys texnologiyasi, ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalarilarini qo‘llash bayon etilgan. Shunungdek, kreativ fikrlash pedagogikasining o`ziga xos xususiyatlari, shaxs kreativligini aniqlash metodlari, evristik o`qitish va o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish metodikalari, tanqidiy fikrlash texnologiyalari, o‘quv-loyihaviy ta’limning asosiy tamoyillari, ta`lim muassasalarida bolalar faoliyati turlari va ularni tashkil etishga qo`yiladigan umumiy talablar, pedagogik muloqot va pedagogik munosabatlar texnologiyasi, zamonaviy ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar, ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlarilari va ularni amalda qo`llash hamda XXI asr pedagogikasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar yo`nalishlari va pedagogik konsepsiyalar yoritilgan.

«Umumiy pedagogika» darsligining 2-qismi quyidagi modullar asosida o`qitiladi:

1-modul. Ta’lim innovatsiyalari (1-2 mavzu);

2-modul. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari (3-7 mavzu);

3-modul. Kreativ fikrlash pedagogikasi (8-12 mavzu);

4-modul. Ilg‘or xorijiy tajribalar (13-14 mavzu).

“Ta’lim innovatsiyalari” deb nomlangan birinchi modulda pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari hamda ta’lim innovatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari va turlari tahlil etilgan.

“Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari” deb nomlangan ikkinchi modulda shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalarining mohiyati, muammoli ta’lim texnologiyalari, ta’limning interfaol metodlari va strategiyalari, ta’limda keys texnologiyasi, ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalarilarini qo‘llash o`rganilgan.

“Kreativ fikrlash pedagogikasi” deb nomlangan uchinchi modulda kreativ fikrlash pedagogikasining o`ziga xos xususiyatlari, shaxs kreativligini aniqlash metodlari, evristik o`qitish va o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish metodikalari, tanqidiy fikrlash texnologiyalari, o‘quv-loyihaviy ta’limning asosiy tamoyillari, ta`lim muassasalarida bolalar faoliyati turlari va ularni tashkil etishga qo`yiladigan umumiy talablar hamda pedagogik muloqot va pedagogik munosabatlar texnologiyasi yoritilgan.

“Ilg‘or xorijiy tajribalar” deb nomlangan to`rtinchi modulda zamonaviy ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar, ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlari va ularni amalda qo`llash hamda XXI asr pedagogikasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar yo`nalishlari va pedagogik konsepsiyalar bayon etilgan.

Mazkur darslikdan professor-o‘qituvchilar, malaka oshirish tinglovchilari, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar, doktorantlar va talabalar foydalanishi mumkin.

1-MODUL. TA’LIM INNOVATSIYALARI

§ 1.1. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
2. Pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari va tamoyillari.
3. Pedagogik texnologiyaning klassifikatsiyasi.

Tayanch so`z va iboralar: pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari, pedagogik texnologiya tamoyillari, pedagogik texnologiyaning klassifikatsiyasi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

Ma’lumki 1950-yillarda AQShda “pedagogik texnologiya” atamasi paydo bo'lgan va qisqa vaqt ichida barcha rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlarini qamrab olgach, olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida pedagogik texnologiyalarning paydo bo'lish davri ilmiy va texnologik taraqqiyotning jadalligi bilan tavsiflanadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot va uning ta'lim tizimiga taqdim etishning asosiy xususiyatlariga murojaat qilsak, birinchidan, fanning roli ortib bormoqda. XX-XXI asr boshlarida ilm-fan rivojlanish sur'ati maksimal qiymatlarga yetdi. Asosiy ilmiy faoliyat ko'rsatkichlari har 10-15 yilda ikki baravar ko'paymoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy ilm-fan rivojlanishining ko'lami, shuningdek, 2-3 yoki undan ortiq ma'lum fanlar asosida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi bilan ta'minlanadi. Masalan: biofizika, biogeokimyo, informatika, fizik-kimyoviy mexanika va b.

Uchinchidan, fanning rivojlanishi va ilmiy-texnik ma'lumotlarning tegishli o'sishi kompyuter texnologiyalari yordamida axborotni uzatish va qayta ishlashni tezlashtirishga yordam beradi.

To'rtinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning o'ziga xos xususiyati muhandislik va texnologik yechimlarning keskin o'sishiga imkon beradi.

Beshinchidan, oliy maktab mutaxassislarni tayyorlash uchun intensivlashtirilgan ta'lim, ta'lim tizimining barcha imkoniyatlaridan foydalanishni talab etadi [62].

Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Texnologiya (yunon. *“techne”* – mahorat, san’at, *“logos”* – tushuncha, ta’limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi.

Ta’lim texnologiyasi (ingl. *“an educational technology”*) – ta’lim (o‘qitish) jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi.

Ta’lim texnologiyasi – ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Ta’lim metodi – o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo‘lsa, ta’lim metodikasi esa muayyan o‘quv predmetini o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi.

O‘qituvchining samarali faoliyat ko‘rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o‘laroq, ta’lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib, u talabalarning shaxsiy hamda o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Ta’lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya nazariyasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo‘lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiq

qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta’riflaydi hamda asosiy diqqatni o‘quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi [44].

Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va boshqalarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi (YUNESKO).

O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jishatdan asoslangan shamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi. Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g‘oyasi o‘tgan asrning boshlarida G‘arbiy Yevropa va AQShda ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o‘rtaga tashlandi. Mazkur g‘oya 30-yillarda ta’lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta’lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi “o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi” tarzida talqin etildi hamda o‘quv jarayoniga o‘quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko‘rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi. XX asrning 50-yillarida ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo‘llash “ta’lim texnologiyasi” yo‘nalishini belgilab beruvchi omil deya e’tirof etildi, asosiy e’tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta’lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o‘quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o‘rganishga alohida urg‘u berildi. 60-yillarning boshlarida ta’limni

dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko‘rila boshlandi. Dasturiy ta’lim talabalarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta’lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan “Dasturiy ta’lim va o‘rgatuvchi mashinalar bo‘yicha birlashgan Qo‘mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta’lim o‘zida ta’lim maqsadlari, ularni o‘zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta’lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o‘zgartirish majmuasini to‘laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi (1.1-jadvalga qarang):

1.1-jadval.

“Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanish bosqichlari

№	Bosqichlar	Yillar	Ta’lim texnologiyasi-TT
1.	I-bosqich	XX asrning 30-yillari	TT= Ptex O‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi (pedagogik texnika – Ptex)
2.	II-bosqich	XX asrning 50-yillari	TT=Ptex. + TV Ta’lim jarayonida texnik vositalar (TV)ni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini takomilashtirish, axborot sig‘imini kengaytirish, ularni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, talaba faoliyatini individuallashtirish
3.	III-bosqich	XX asrning 60-yillari	TT = Ptex. + TV + dasturiy ta’lim (DT) Dasturiy ta’lim – ta’lim maqsadlarining aniqlanishi, ta’lim jarayonini umumiy loyihalash, talabalar tomonidan nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashhislash, ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlash, ta’lim maqsadining natijalanganligini o‘rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish

“Pedagogik texnologiya” tushunchasiga tadqiqotchilarning fikrlari o‘rganildi (1.2-jadvlaga qarang):

1.2-jadval.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasiga tadqiqotchilarning fikrlari

№	Tadqiqotchilar	Pedagogik texnologiya tushunchasiga ta’riflar
1.	V.Bespalko	Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi. Bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan pedagogik muvaffaqiyatlarini kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash-loyihalashdir
2.	M.V.Klarin	Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibini bildiradi
3.	V.M.Monaxov	Pedagogik texnologiya – zarur sharoit yaratish orqali o‘quvchi va o‘qituvchining o‘quv jarayonini loyixalashtirish, tashkil etish va

		o‘tkazish bo‘yicha pedagogik faoliyatning har tomonlama o‘ylangan modelidir
4.	N.Sayidahmedov	Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatish va aks ta’sir mahsuli sifatida ularda oldindan berilgan shaxs sifatlarini jadal shakllantirishni kafolatlaydigan jarayondir
5.	G.K.Slevko	Pedagogik texnologiya – o‘zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta’riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi
6.	R.Jo‘raev	Pedagogik texnologiya – ilmiylikka asoslangani holda, vaqt va makonga nisbatan dasturlashtirilgan, oldindan aniq belgilangan natijaga olib keluvchi, pedagogik jarayonlarga oid komponentlarning barchasini birdek ishga sola oluvchi tizimdir
7.	N.Azizxo‘jaeva	Pedagogik texnologiya – ta'lim maqsadlariga va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimini loyihalashdir
8.	O.Musurmanova	Pedagogik texnologiya – dunyo fan-texnika taraqqiyoti talablari asosida kadrlar tayyorlash sifat samaradorligini ta'minlash maqsadida o‘qituvchi va o‘quvchining intellektual imkoniyatlari, mahorati ilg‘or pedagogik tajribalar, fan yutuqlaridan unumli foydalangan holda o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, loyihalashtirish, oldindan rejalashtirilgan, yuqori natijaga erishish kafolatidir

Ta’limga 3 xil yondashuv amaliyotdan ma’lum (1.3-jadvalga qarang):

1.3-jadval.

Ta’limga 3 xil yondashuv

Ko‘rgazmali tushuntirish (an’anaviy)	**Texnologik**	**Izlanuvchan**
Axborotni ta’lim beruvchidan ta’lim oluvchiga o‘tkazish	Tizimli yondashuv asosida o‘quv jarayonini loyihalash	Muammolarni hal qilish
O‘quv maqsadlarining noaniqligi. Suhabt va hikoyaga ko‘proq e’tibor berish	O‘quv maqsadlarini mumkin qadar aniqlashtirish va ularni ta’lim oluvchi hatta-harakatini anglatuvchi fe’llarda ifodalanishi	O‘quv ishlariga oid izlanishlar olib borish. Fanlararo bog‘lanish. Ilmiy taxminni olg‘a surish va uni tekshirish
Ta’riflashga ko‘proq e’tibor berish, ma’lum darajada aqidaparastlik. Axborotni o‘z hihishiga qarab yodlash	Ta’lim oluvchilarni ularning hatti-harakati orqali o‘qitish. Sozlovchi qaytuvchan aloqa. Shakllanuvchi va to‘planuvchi baholash	Ma’lumotlar yig‘ish. Modellash, tajriba o‘tkazish. Ijodiy, tanqidiy fikr yurgizish. Ko‘p mezoniylik. Asoslanganlik
Doimo eslab qolishga undash, xotirada axborotlarni yig‘ilishi. Bilish bosqichlarini alohida olingan fanlar tashkil qilishi, yaxlitlikning yetishmasligi. Mashg‘ulotlar yuqori ilmiy salohiyatda va ta’lim oluvchilarning mutaxassisligi bilan bog‘lanmagan tarzda olib borilishi	Mezoniy nazorat (test). Bilim va ko‘nikmalarning to‘la o‘zlashtirilishi. Belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlanishi. O‘qitishning samaradorligi	Qaror qabul qilish. Rollarni ijro etish. shaxsiy fikr ma’nosini izlash. Aql-zakovat, javobgarlik, ma’naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantiruvchi yangiliklarga sezgir bo‘lish

Pedagogik texnologiya manbalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar;

ijtimoiy fanlar;

ilg‘or tajribalar;

vatanimiz va xorijiy davlatlarning ta’lim-tarbiya sohasidagi zamonaviy tajribalari;

xalq pedagogikasi an’analari.

Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish mexanizmi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

pedagogik jamoani zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari bilan tanishtirish, ma’ruza, adabiyotlar tavsiya etish;

zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ishlashni xohlovchi ta’lim beruvchilar jamoasini aniqlash. Ular orqali ta’lim beruvchilarga pedagogik texnolgiyani qo‘llashni ko‘zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish;

seminar, trening, individual maslahat berish, ko‘rgazmali darslar tashkil etish kabi tashkiliy ishlarni amalga oshirish;

zamonaviy texnologiya asosida ishlovchilarning ishini nazorat qilish, metodik yordamlar ko‘rsatish, ularning hisobotlarini eshitib borish;

zamonaviy pedagogik texnologiya bo‘yicha ishlash uchun zarur didaktik materiallar, vositalar xonasini tashkil etish;

yangilanishning uzluksizligi, davomiyligini ta’minlash.

Pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari va tamoyillari

Pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos qonuniyatlari ham mavjud bo‘lib, ular o‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik faoliyat natijalaridaga ijobiy sifat o‘zgarishini kafolatlanadi. “Ta’lim qonuniyatlari ta’lim jarayonida ro‘y beradigan xodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar, ularning mohiyatini ifodalovchi shart-sharoit, asosdir” [53]. *Pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari quyidagilardan iborat:*

o‘quv-tarbiya jarayonini puxta loyihalashtirish, bashoratlash, dasturlashtirish zamirida o‘qituvchi va o‘quvchi bilimi, imkoniyatlari, qobiliyatini metodik-texnik vositalar bilan birlashtirgan holda sifat va samaradorlikka erishish;

o‘quv-tarbiya jarayonini jamiyat taraqqiyoti talablari, asosida tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, natijaning kafolatlanganligi;

o‘quv-tarbiya jarayonida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan samarali foydalanishda subyekt-subyekt faolligi, navatorligi, ijodkorligining ustuvorligi, pedagogik hamkorligi;

ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli, metod va vositalarining progressiv xarakterga egaligi;

ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning innovatsion xarakterdaligi;

o‘zlashtirishning puxtaligi, natijaning amaliy xarakterdaligi;

o‘quv materiali mazmunining mohiyati texnologik vositalar (interfaol metodlar, AKT, texnologiyalar) asosida o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlanishi.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo‘lishi bilan birga, quyidagi aynan o‘zigagina xos bo‘lgan tamoyillarga ham ega (1.1-rasmga qarang):



1.1-расм. Pedagogik texnologiya tamoyillari

1. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili ikki jihatni o‘zida aks ettiradi: 1) ta’lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; 2) pedagogik texnologiyaning muayyan, qat’iy tizimga egaligi, “tizimlilik” tushunchasi bu o‘rinda ham ma’lum o‘quv fanini o‘qitish jarayoniga, ham umumiy ta’lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

2. Asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning o‘rganish obyekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko‘ra turli yo‘nalish (blok)larga bo‘lib o‘rganish afzalliklarini ifoda etadi. O‘quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har

bir o‘quv fani uning uchun “yadro”, “o‘zak” sanaluvchi axborotlarga ega bo‘lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o‘rganilishi, aniq mutaxassislik bo‘yicha mustaqil bilim olish, o‘zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo‘lida tayanch tushunchalar bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv ma’lum yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O‘quv fanlarining muayyan yo‘nalishlar tarzda biriktirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo‘riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelshini ta’minlaydi. XX asrning 80-yillarida ta’lim jarayonini tashkil etish ta’lim oluvchilarga mavjud fanlar soshalari biyicha oz-ozdan ma’lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo‘lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o‘zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo‘yicha yangi ma’lumot (bilim)larga ega bilish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e’tirof etildi.

3. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste’molga kiritilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta’lim berilishini nazarda tutadi. O‘tgan asrda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi yetakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e’tirof etilgan bo‘lsa, bugungi kunda o‘qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo‘lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib bo‘lmasligi barchaga ayon. Mazkur o‘rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediya vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e’tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar “soha (yoki yo‘nalish)larning o‘ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma’lum yutuqlarga erisha olishlari” g‘oyasi yetakchi o‘rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

4. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug‘aviy jihatdan (yunon. “humanus” – insoniylik,

“humanitas” – insoniyat), bir o‘zakka ega bo‘lsa-da, ularning har biri o‘ziga xos ma’nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, insonparvarlashtirish – inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmati, sha’ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo‘lsa, insoniylashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun” degan g‘oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi. Ta’lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o‘qituvchi ushbu tamoyilga qat’iy amal qilishi lozim yoki o‘z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un bo‘lishiga e’tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog talabalar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta’limiy hamkorlik g‘oyalariga sodiqlik asosida ta’lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta’limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta’minlaydi. Ushbu holat o‘z navbatida yuksak ma’naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

5. O‘qitib tadqiq etish, tadqiq etib o‘qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta’lim muassasalarining har bir o‘qituvchisi o‘z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o‘qituvchi ta’lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko‘radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya’ni, u ta’lim jarayonini tadqiq etadi. O‘qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo‘lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

6. Ta’limning uzluksizligi tamoyili ta’lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo‘lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o‘n yil mobaynida o‘zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o‘qituvchining o‘z faoliyatida

mustaqil ta’limni tashkil etishga e’tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta’minlagan ta’limdan talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

7. Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog‘liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma’noda izohlanadi: a) ta’lim oluvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar; b) ular tomonidan o‘zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo‘llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Pedagogik texnologiyaning klasifikatsiyasi

Pedagogik texnologiya ko‘rinishlari amaliyotda iuyidagicha namoyon bshladi (1.4-jadvalga qarang):

1.4-jadval.

Pedagogik texnologiya ko‘rinishlari

№	Pedagogik texnologiya ko‘rinishlari	Pedagogik texnologiya ko‘rinishlari mazmuni
1.	Ijtimoiy hodisa sifatida	Bunda pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya masalalari bilan bog‘liq motivlar, ehtiyoj, talab, manfaat, qiziqish maqsadlaridan kelib chiqadi va ularni amalga oshirish uchun xizmat qiladi
2.	Nazariy fan sifatida	Bunda pedagogik texnologiya o‘z maqsadi, vazifalari, muammolari, metodologiyasi va boshqa nazariy asoslarga ega. O‘z muammolarini hal qilishda boshqa fanlar bilan bog‘liqlikka ega
3.	O‘quv fani ko‘rinishida	Bunda pedagogik texnologiyalarni ijtimoiy hodisa, nazariy fan, ta’lim-tarbiya tizimi, jarayoni, pedagogik faoliyat va uning uslublari, aloqador fanlarning ilmiy tadqiqot sohasi sifatida turli ta’lim muassasalarida belgilangan o‘quv dasturi asosida o‘rgatishdan iborat
4.	Ta’lim-tarbiya tizimi ko‘rinishida	Bunda pedagogik texnologiya belgilangan ta’lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi moddiy ta’minot va ma’naviy qadriyatlardan iborat
5.	Pedagogik faoliyat va uning metodikalari ko‘rinishida	Bunda pedagogik texnologiya o‘zini to‘liq namoyon qiladi. Pedagogik texnologiyaning harakatga kelishi va unda ko‘zda tutilgan natijaga erishishi faqat pedagogik faoliyat jarayonida amalga oshiriladi
6.	Aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi sifatida	Bunda pedagogik texnologiyalarning turli fanlar bilan bog‘liqlari yaqqol ko‘rinadi. Pedagogik texnologiya keng ko‘lamli ijtimoiy hodisa bo‘lib, u ko‘p fanlarning tadqiqot obyekti sanaladi. Har bir fan o‘z maqsad va vazifalariga pedagogik texnologiyani chuqur o‘rganish natijasida erishadi

Pedagogik texnologiyalarining turlari quyidagicha tasniflanadi (1.2-rasmga qarang):



1.2-rasm. Pedagogik texnologiyalarining turlari

Qo‘llash darajasi va tavsifiga ko‘ra қуйидагича ажратилади:

ijtimoiy-pedagogik, umumpedagogik (metatexnologiyalar);

sohaviy, xususiy, predmetli (makrotexnologiyalar);

modulli, lokal, tormetodik (mezotexnologik);

integrativ texnologiyalar;

mikrotexnologiyalar;

o`tuvchi, moslashuvchan, qat’iy belgilangan.

Falsafiy asosiga ko‘ra quyidagicha ajratiladi: materialistik, idealistik, dialektik, metafizik, ssentistik, texnokratik, insonparvarlik, tabiiylik, pragmatik, oqilonalilik, ekzistensiyalistik, antropologikfreydistik, diniy, ko-evolyusion, kosmizm, ezoterik.

Asosiy metodologik yondashuvga ko‘ra quyidagicha ajratiladi:

insonparvarlik, tabiiylik, valeologik, manipulyativ;

tizimlilik, majmuaviylik, integrallilik;

guruhli, tabaqalashtirilgan, yakkama-yakka;

bilimlilik, yaxlitlilik, vazifalilik, layoqatlilik;

shaxsga yo‘naltirilgan, amaliy yo‘naltirilgan, faoliyatlilik;

vaziyatlilik, taktik, strategik;

algoritmik, izlanuvchanlik, tadqiqotchilik, ijodiylik;

ijtimoiy-madaniy, muhitga moslashgan, deterministik, sinergetik;

axborotchilik, kommunikativlik, diagnostik.

Yetakchi rivojlantiruvchi omillariga ko‘ra quyidagicha ajratiladi: biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik.

Tajribani o‘zlashtirish va uzatishdagi ilmiy konsepsiyasiga (mexanizmiga) ko‘ra quyidagicha ajratiladi: assotsiativ-reflektorli, interiorizatorli (ichki rivojlantiruvchi), rivojlantiruvchi ta’lim va tarbiya, bixevioristik, psixoanalitik, geshtalt texnologiya, suggestiv, neyro-lingvistik dasturli, genetik, sotsioenergetik, faol-faoliyat ko‘rsatuvchi, kognitiv.

Shaxsga yo‘nalganlik va layoqatlilik sohalariga ko‘ra quyidagicha ajratiladi: axborotchililik bilimlar sohasi, aqliy xatti-harakatlar sohasi, shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmlari sohasi, axloqiy-estetik sifatlar sohasi, amaliy hatti-harakatlar sohasi, ijodiy sifatlar sohasi, psixologik-fiziologik rivojlantirish sohasi, muhim kompetentliklar.

Mazmuni va tuzilmasining tavsifiga ko‘ra quyidagicha ajratiladi: dunyoviy, diniy, umumta’limiy, kasbga yo‘naltirilgan, gumanitar, texnokratik, tarbiyalovchi, valeologik, ekologik tasodifiy tavsifiy, umummadaniy, aniq predmetli, qat’iy-meyorli standartlashtirilgan, moslashuvchan-variativ kasbga yo‘naltirilgan, har tomonlama.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat ko‘rinishiga ko‘ra quyidagicha ajratiladi:

ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;

qo‘llab-quvvatlovchi, reabilitatsiyalovchi, yordam ko‘rsatuvchi;

ijtimoiylashtiruvchi, moslashtiruvchi, avtomatlashtirish, ijtimoiy tarbiyalash;

boshqarish, tashhis, tuzatish, manipulyatsiyalash;

psixologik-pedagogik, ijtimoiy-pedagogik, tibbiy-pedagogik, madaniylik.

Ijtimoiy o‘quv-tarbiya jarayonlarni boshqarish turiga ko‘ra quyidagicha ajratiladi: mumtoz-ma’ruza, mumtoz an’anaviy uzatish, kichik guruhlar tizimi, kompyuterli individual, dasturiy va dasturli ta’lim, o‘zaro boshqarish o‘zaro bir-birini

o‘qitish, ommaviy o‘qitish, nashriy axborotlarni mustaqil o‘qib o‘rganish, mumtoz tizimi vositalaridan foydalanib zamonaviy va an’anaviy o‘qitish, individual repititor tizimi, individual maslahatchi tizimi, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini tashkil etish, ma’muriy boshqarish.

Yetakchi ta’lim metodlariga ko‘ra quyidagicha ajratiladi:

faol, nofaol;

dogmatik, mahsulsiz;

ko‘rsatmali-tushuntirish, muammolili;

ishontirish, ko‘rsatish, amaliy;

muammoli izlanuvchan tadqiqotchilik;

ijodiy evristik, art-texnologiyalar;

guruh holda, jamoaviy;

majburiy, erkin tanlov;

dasturlashtirilgan ta’lim;

dialogik, kommunikativ, interfaol;

loyiha ishi, mahsulli;

rivojlantiruvchi o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi;

axborotli, kompyuterli, multimediali.

Tashkil etish shakllariga ko‘ra quyidagicha ajratiladi: sinf-dars, muqobil, akademik, klublar, yakka tartibli, guruh holda, jamoavi faoliyat ko‘rsatish usuli, tabaqalashtirilgan, integratsiyalashtirilgan, ochiq, yopiq.

Ustuvor o‘qitish vositalariga ko‘ra quyidagicha ajratiladi: verbal, belgilash, ko‘rsatmali, video o‘qitish, dasturli, elektron o‘qitish vositalari, kompyuterli, telekommunikatsion, masofaviy, yerning sun’iy yo‘ldoshi orqali, amaliy.

O‘quvchi-talabaga yondashish va pedagogik o‘zaro ta’sirlashishning yo‘nalishiga ko‘ra quyidagicha ajratiladi:

subyekt-obyekt, subyekt-subyekt;

interfaol, ekstrafaol;

avtoritar, demokratik, liberal;

didaktik, ijtimoiy antropotsentrik;

shaxsga, faoliyatga, muhiga, yo‘naltirilgan;

jamoaviy ta’sirga asoslangan tarbiya, individual o‘zaro muloqotga asoslangan ta’lim-tarbiya;

hamkorlik pedagogikasi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish.

An’anaviy ta’lim tizimiga munosabat va uni modernizatsiyalash yo‘nalishiga ko‘ra quyidagicha ajratiladi:

munosabatlarni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida;

tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini faollashtirish va jadallashtirish asosida;

o‘quv matererialini didaktik va metodik rekonstruksiyalash asosida;

zamonaviy axborot va telekommunikatsiyalari asosida;

ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalarni kuchaytirish asosida;

muqobil, tabiatga moslik;

erkin ta’lim;

mualliflik tarbiya texnologiyalari.

Pedagogik ta’sir obyektlarining kategoriya(tushuncha)lariga ko‘ra quyidagicha ajratiladi: ommaviy ta’lim; uzaytirilgan ta’lim; to‘ldiruvchi (kompensiyalovchi) ta’lim; muammolari mavjud bolalar bilan ishlash texnologiyasi; vitimologik; akmeologik; penitensiar [43; 185-b.].

Shuningdek, pedagogik texnologiya turlari quyidagicha aniqlangan (1.5-jadvalga qarang):

1.5-jadval.

Pedagogik texnologiya turlari

№	Pedagogik texnologiya turlari	Pedagogik texnologiya turlari mazmuni
1.	O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar	Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyalari, ta’limning jamoa usuli, guruhi, kompyuterli ta’lim texnologiyalari kabilar kiradi
2.	Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar	Bunga ta’lim oluvchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi
3.	Rivojlantiruvchi texnologiyalar	Bunga ta’lim oluvchi shaxsining insoniy sifatlarini ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi

4.	Empirik	Sezgi a’zolari orqali bilish
5.	Kognitiv	Atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish
6.	Evristik	Yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta’lim berish tizimi
7.	Kreativ	Tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantirish
8.	Inversion	Axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, fikrlashni shakllantirish
9.	Integrativ	Axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash
10.	Adaptiv	Axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish asosida natijaga erishish
11.	Inklyuziv	Ta’im beruvchi ta’lim oluvchining o‘zaro munosabatlarida hamkorlik asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish

Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbiqiga ega bo‘lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin (1.3-rasmga qarang):



1.3-rasm. Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligi mezonlari

O‘qitish tizimida pedagogik texnologiyalarini samarali qo‘llash pedagogning kasbiy kompetentligiga ham bog‘liq. Shu sababli pedagogik texnologiyalarning

samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo‘llanilishiga ko‘ra ham baholash mumkin (1.4-rasmga qarang):



1.4-rasm. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo‘llanilishiga ko‘ra baholash

Xulosa qilib aytganda, mazkur mavzuda pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari va tamoyillari hamda pedagogik texnologiyaning klassifikatsiyasi o`rganilgan.

Nazorat va muhokama savollari:


1. Pedagogik texnologiya deganda nivani tushunasiz?
2. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish davrlarini sanang?
3. Pedagogik texnologiyalarning qanday tamoyillari mavjud?
4. Pedagogik texnologiya qonuniyatlarini tushuntirib bering.
5. Pedagogik texnologiyaning qandau klassifikatsiyasi mavjud?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanish bosqichlarini “Toifalash jadvali” metodi asosida loyihalashtiring:

I-bosqich	II-bosqich	III-bosqich


2. Texnologiya tushunchasini “Klaster” metodi asosida loyihalashtiring:



3. “Pedagogik texnologiya” tushunchasiga tadqiqotchilarning fikrlari “Toifalash jadvali” metodi asosida loyihalashtiring:

V.Bespalko	**M.V.Klarin**	**V.M.Monaxov**	**N.Sayidahmedov**
G.K.Selevko	**R.Jo‘raev**	**N.Azizxo‘jayeva**	**O.Musurmanova**

4. Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligi mezonlari hamda pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo‘llanilishiga ko‘ra baholashni “Venna diagrammasi” metodi asosida loyihalshtiring:



§ 1.2. TA’LIM INNOVATSIYALARINING MOHIYATI, NAZARIY ASOSLARI VA TURLARI (INNOVATSION PEDAGOGIKA)

Reja:

1. O’zbekiston Respublikasida “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonun va uning mohiyati.
2. Pedagogikada va ta`lim tizimida innovatsiyalar, ularning turlari.
3. Novatsiya (yangilanish). Novatsiya va innovatsiyaning farqli jihatlari.
4. Pedagogning innovatsion faoliyati mazmuni.

**Tayanch so`z va iboralar:** novatsiya, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsiyalarning turlari, innovatsion o`zgarishlarning yo`nalishlari.

O’zbekiston Respublikasida “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonun va uning mohiyati

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida ol-iy pedagogik ta’lim tizimini tarkibiy qayta qurish va mazmunini takomillashtirish, tayyorlanayotgan mutaxassislar sifatini oshirishning yangi zahiralarini izlab topish, oliy ta’lim tizimida bo’lajak pedagoglarni kreativ sifatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” qarorlari, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan O’RQ-637-son Qonunida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta’lim oluvchilarda bilim, malaka, ko’nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga, o’quv rejalari va o’quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o’qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya va kredit-modul tizimiga asoslangan o’qitish texnologiyalarini keng qo’llash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo’yilgan. 2020 yil 24 iyulda imzolangan “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni esa innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari sifatida innovatsion rivojlanishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta’minlash; ustuvor yo’nalishlarni belgilash; zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish; innovatsion faoliyat subyektlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish; respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; investitsiyalarni jalb etishga ko’maklashish; davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish; kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish; xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni belgilab berdi [3]. Mamlakatimizda o’zining huquqiy asoslariga ega bo’lib, keng quloch yozayotgan innovatsion faoliyat quyidagi asosiy printsiplarga tayanadi:

innovatsion faoliyatning erkinligi;

innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashdan teng foydalanilishini ta’minlash;

innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo’llab-quvvvatlashning oshkoraligi va aniq yo’naltirilganligi;

raqobatni rivojlantirishga ko’maklashish;

axborotni erkin almashish; innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;

fuqarolarning hayoti va sog’lig’iga, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik [3].

O’zbekiston qonunchiligida innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlar, innovatsiya va innovatsion faoliyat sohasidagi tushunchalar, ishtirokchilar tarkibi va ushbu jarayonda ularning o’zaro munosabati, aprobatsiya mexanizmlarini samarali tashkil etish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish va sanoatda o’zlashtirishni tartibga soluvchi qonun hujjati sifatida 2020 yil 24 iyul kuni “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni imzolangan. Qonunning maqsadi innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo’lib, qonunda innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, texnologiyalar transferi va yangi ishlanmalar tushunchalariga quyidagicha ta’riflar keltiriladi: innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo’llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma [3]. Innovatsion faoliyat esa, yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o’tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo’yicha faoliyatdir. Qonunda quyidagilar innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari etib belgilangan:

innovatsion rivojlantirishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta’minlash;

ustuvor yo’nalishlarni belgilash;

zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish;

innovatsion faoliyat subyektlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish;

respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

investitsiyalarni jalb etishga ko’maklashish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish [3].

Qonunga muvofiq, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

innovatsion rivojlantirish strategiyalarini qabul qilish va amalga oshirish;

normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

innovatsion faoliyat subyektlariga soliq, bojxona imtiyozlari va preferentsiyalar berish;

respublika Davlat byudjeti mablag’lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan innovatsiyalarni yaratishga oid davlat buyurtmasini bajarish;

innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga xo’jalik yurituvchi subyektlar mablag’larini jalb qilish uchun shart-sharoit yaratish;

ilm-fan yutuqlariga asoslangan mahsulotning va ilg’or texnologiyalarning davlat xaridlarini tashkil etish;

innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga ko’maklashish.

Innovatsion faoliyat subyektlari:

innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar;

sohadagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar;

yangi ishlanmalarni yaratadigan, joriy etadigan va innovatsiyalardan foydalanadigan ilmiy, ilmiy-tadqiqot, oliy ta’lim, ishlab chiqarish tashkilotlari va boshqa tashkilotlar;

ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlari;

faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan va foydalaniladigan intellektual mulk obyektlariga bo’lgan huquq egalari;

faoliyatga investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investorlar va tadbirkorlik subyektlari [3].

Qonunning 18-moddasida innovatsiyalar quyidagi turlari berilgan:

mahsulotga oid innovatsiyalar — texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqishga hamda joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar;

jarayonga oid innovatsiyalar — texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish yoxud ta'lim usullarini ishlab chiqish va joriy etishga, shuningdek texnologiyalar transferini amalga oshirishga qaratilgan innovatsiyalar;

marketingga oid innovatsiyalar — mahsulotlarning dizayni va qadoqlaridagi o‘zgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan usullarni joriy etishga, mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotish va taqdim etishning yangi usullaridan foydalanishga, yangi narxlash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsiyalar;

tashkiliy innovatsiyalar — biznesni tashkil etish va yuritish, ish o‘rinlarini tashkil etish va tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar [3].

Innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va ular birlashmalarining majmui innovatsion infratuzilma hisoblanadi. Uning subyektlari quyidagilardan iborat:

Innovatsion texnologik park (texnopark) – innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladigan yagona moddiy-texnika majmuasi bo'lgan hududga egalik qiluvchi yuridik shaxs. Texnoparkning asosiy vazifasi – uning rezidentlarini qo'llab-quvvatlashdir. Uning faoliyat ko'rsatish muddati 30 yilgachani tashkil etadi, keyinchalik bu muddat uzaytirilishi mumkin. Texnopark rezidentining maqomi tanlov asosida 10 yil muddatgacha beriladi [3].

Innovatsion klaster tegishli hududda innovatsiyalarni yaratishda ishtirok etuvchi innovatsion faoliyat subyektlarining, innovatsion faoliyat natijalari iste'molchilarining yig'indisi sifatida yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladi. Ularning asosiy maqsadi samarali hamkorlik qilishdan, quvvatlardan birgalikda foydalanishdan hamda bilimlar,

ko’nikmalar almashishdan, shuningdek texnologiyalar transferiga ulushni ta’minlash orqali innovatsion faoliyatni rag’batlantirishdan iborat bo’ladi.

Venchur tashkilotlar, fondlar, shirkatlar – asosiy faoliyat turi xavfli innovatsion loyihalar amalga oshirilishini moliyalashtirishdan iborat bo’lgan, ham yuridik shaxs shaklida tashkil etiladigan, ham yuridik shaxs sifatida tashkil etilmaydigan ixtisoslashtirilgan moliya institutlari. Innovatsiya markazi innovatsion faoliyat sohasida yangi g’oyalarni yaratishdan yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishgacha bo’lgan to’liq ishlar turkumini amalga oshirish maqsadida yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi. Mavjud qonunchilik doirasida iqtidorli yoshlarni aniqlash, akademik litseylarga jalb qilish, oliy ta’lim muassasalariga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta’lim dasturlari asosida o’qitish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyatga bo’lgan qiziqishini oshirish, «ustoz-shogird» tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish, bu boradagi ma’lumotlar elektron bazasini yaratish; oliy ta’lim muassasalarining Yoshlar akademiyasi hamda Fan va texnologiyalar bo’yicha respublika kengashi bilan hamkorligini yo’lga qo’yish va rivojlantirib borish; oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshirish, maqsadli doktorantura orqali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish; xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo’shma ilmiy daraja dasturlarini ishlab chiqish; oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim institutlari faoliyatini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ilmiy kengashlar va himoyalar tizimini xalqaro tajribaga muvofiqlashtirish ta’lim sohasidagi innovatsiyalarn ing asosiy yo’nalishlari sifatida belgilab berilgan.

Innovatsion faoliyat turlari

Innovatsion faoliyat – to‘plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlari majmui. Yangi yoki qo‘shimcha tovarlar/xizmatlar yoki yangi xususiyatlarga ega tovarlar/xizmatlar innovatsion faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni innovatsiyalarni yaratish, o‘zlashtirish, tarqatish va ulardan foydalanish faoliyati sifatida ham belgilash mumkin.

Innovatsion faoliyat – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) nomenklaturasini kengaytirish va yangilash va sifatini yaxshilash, ularni tayyorlash, keyinchalik ichki va xorijiy bozorlarda joriy etish va samarali amalga oshirish texnologiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini ishlatish va tijoratlashtirishga qaratilgan, birgalikda innovatsiyalarga olib keladigan ilmiy, texnik, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlarini kompleksni nazarda tutuvchi faoliyat. Innovatsion faoliyatning bir necha turlari mavjud (1.5-rasmga qarang):



1.5-rasm. Innovatsion faoliyatning turlari

Texnologik innovatsiyalar: mavjud mahsulot, buyum, texnikani yangi yoki samarali ishlab chiqarishni olish; ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish, yangi mahsulotni ishlab chiqarish yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish va sifat nazorati taomillari, usullari va standartlaridagi o‘zgarishlar. Jarayon innovatsiyalari: ishlab chiqarishni loyihalash, ishlab chiqarishning yangi usullari, yangi ishlab chiqarish jarayonlari, shu jumladan rejalar va chizmalarni, texnik spetsifikatsiyalar va boshqalar dizayni va ishlab chiqish. Tashkiliy yangiliklar – menejment tizimini takomillashtirish. Amalga oshirilgan texnologiyalar – o‘z texnologik maqsadiga ko‘ra texnologik va boshqa innovatsiyalarni joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan mashina va uskunalar sotib olish. Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellardan foydalanish, nou-xauni oshkor qilish, shuningdek texnologik mazmundagi xizmatlardan foydalanish uchun patent,

litsenziyalar (shartnomalar) shaklidagi amalga oshirilmagan texnologiyalarni xarid qilish; texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq dasturiy vositalarni xarid qilish. Marketing innovatsiyalari – mahsulotlar dizayni va qadog‘idagi muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan marketing usullarini amalga oshirish, mahsulot (xizmatlar) ni sotish va taqdimoti, ularni marketing bozorlarida taqdim etish va targ‘ib qilish, yangi narx strategiyalarini shakllantirishning yangi usullarini qo‘llash [18].

Innovatsion pedagogika va ta`lim innovatsiyalari. Ta`lim innovatsiyalarining turlari

Innovatsion pedagogika, innovatsion faoliyat va ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSh va G’arbiy Yevropa mamlakatlarida «ta’lim texnologiyasi» tushunchasi e’tirof etilgan vaqtdan boshlab, innovatsion ta’lim nazariyasining yaratilishi to’g’risida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu haqda ma’lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, bu tushunchalar ta’lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga kiritish orqali ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta’lim jarayonida bolaga do’stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o’tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat bu – ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo’nalish tarkib topdi. Bu esa o’qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

O’qituvchi innovatsion faoliyatining umumiy va alohida jihatlarini I.Shumpater va N.Kondratev, K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Kuzьmina, V.A.Slastenin, L.M.Fridman kabi olimlar o’zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar.

«Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: «Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, bo’lajak

o’qituvchiningning innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko’p bo’lsa, bo’lajak o’qituvchining xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi».

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog’liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsiyaning maqsadi-sarflangan mablag’ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o’z-o’zidan paydo bo’ladigan yangiliklardan farqli o’laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o’zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi.

Innovatsion jarayon deb – innovatsion o’zgarishlarga tayyogarlik ko’rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. “Innovatsiya – maqsadga yo`naltirilgan o`zgarishlar bo`lib, ma`lum bir ijtimoiy birlikka-muassasa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi va nisbatan barqaror bo`lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma`naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog`liq bo`lgan yangiliklarni kiritishdir” [22].

“Innovatsiya ... ta`limda “miqdor”ning “sifat”ga o`zgarishi ya`ni kuchli darajadagi sifat bu-sinfda o`zaro interfaol harakatlar, fikrni ifodalash uchun imkoniyatlar yaratish, hayotiy tajribalarni o`rganish kabi yangi va samarali yondoshuv va strategiyalar orqali ifodalanadigan atamalarning jamlanmasidir” [40].

Novatsiya (yangilanish). Novatsiya va innovatsiyaning farqli jihatlari

Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat

Lug`aviy jihatdan **“innovatsiya”** tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma`noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

“O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko`rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta`minlash uchun iqtisodiyotga

sarflangan mablag`lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg`or tajribalarga asoslangaan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo`llanishi" [102].

A.I.Prigojinning fikriga ko`ra, innovatsiya deganda maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg`un elementlar bilan boyitib borish tushunilishi lozim. Bu o`rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o`ziga xos innovatsion faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog E.Rodjers o`z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi Shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo`lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo`lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan Shaxslar toifalari o`rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o`rgangan [28].

*Innovatsion ta`lim* (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta`lim oluvchida yangi g`oya, me`yor, qoidalarni yaratish, o`zga Shaxslar tomonidan yaratilgan ilg`or g`oyalar, me`yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta`lim.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar


"Innovatsion ta`lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda "Rim klubi"da qo`llanilgan.

Innovatsion ta`lim jarayonida qo`llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta`lim texnologiyalari yoki ta`lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Innovatsiyalar turli ko`rinishga ega [59].

Ta`lim tizimida yoki o`quv faoliyatida innovatsiyalarni qo`llashda sarflangan mablag` va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko`zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o`zgaruvchan mexanizmga ega bo`lishi zarur. Mohiyatiga ko`ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi [89]. Ta`lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi (1.6-rasmga qarang):

Innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari:

- yangi g‘oyalar;
-tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;
- ilg‘or ish uslublari



1.6-rasm. Ta`lim innovatsiyalarining turlari

I.P.Podlasiyning fikriga ko`ra, ta`lim innovatsiyalari quyidagi o`zgarishlarga olib keladi:

pedagogik tizimning tamomila o`zgarishi;

o`quv jarayonining o`zgarishi;

pedagogik nazariyaning o`zgarishi;

o`qituvchi faoliyatining o`zgarishi;

talaba faoliyatining yangilanishi;

pedagogik texnologiyaning o`zgarishi;

ta`lim mazmunining yangilanishi;

o`qitish shakl, metod va vositalarining o`zgarishi;

ta`lim tizimi boshqaruvning o`zgarishi;

ta`lim maqsadi va natijalarning o`zgarishi.

Mohiyatiga ko`ra novatsiya va innovatsiya o`rtasida muayyan farqlar mavjud (1.6-jadvalga qarang):

1.6-jadval.

Novatsiya va innovatsiya tishunchalari

Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo`llaniladi; 2) ko`lam va vaqt bo`yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	1) tizimli, yaxlit va davomli bo`ladi; 2) ma`lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) subyektlarning faoliyati to`la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o`zi ham yangilanadi

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo`lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo`ysunadi [19].

Innovatsion faoliyat mazmuni. Pedagogning innovatsion faoliyati

Zamonaviy ta`limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o`tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o`rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g`oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor

bo`lish orqali pedagogik jarayonda ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo‘naltirilgan jarayonlar majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko‘ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub'yektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag‘batlantirish maqsadini ko‘zlaydi

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo‘lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi

«**Innovatsion faoliyat** – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an`anaviy me`yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me`yorining mavjud me`yor bilan to`qnashuvi natijasida vujudga kelgan muammolarni yyechishga qaratilgan faoliyatdir»,- deb ta`kidlaydi V.I.Slobadchikov [84]. Inson faoliyati o`z oldiga qo`ygan maqsadlariga ko`ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, ijodiy faoliyat, ilmiy faoliyat, pedagogik faoliyat, tadbirkorlik faoliyati, o`quv-bilish faoliyati, boshqaruv faoliyati va innovatsion faoliyat kabilar. Faoliyatning mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari o`zgarib borishi natijasida insonning axloqiy madaniyati takomillashib boradi. O`qituvchining innovatsion faoliyati xususiyatlarini o`rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni **innovatsion faoliyatning asosiy belgilari** deb hisoblash mumkin (1.7-rasmga qarang):




1.7-rasm. Innovatsion faoliyatning asosiy belgilari

Ta`lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish

Odatda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi: 1. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya`ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo`lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo`llariga ongli munosabat bildirilmaydi. 2. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya`ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi.

Ta`lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi (1.8-rasmga qarang):



1.8-rasm. Ta`lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bosqichlari

Innovatsion faoliyat muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo`lishbi talab etadi. “Motivatsiyaning turli xil ko`rinishida Skot Barmen 4 ta asosiy kategoriyani aniqlaydi:

1. Faoliyatning o`zidagi qiziqishdan kelib chiqadigan holat– ichki motivatsiya.


2. Boshqa odamlarni xursand qiladigan holat yoki vazifa – ijtimoiy motivatsiya.

3. Yutuq motivatsiyasi – bunda boshqalar bilan raqobatlashish maqsadida vazifalarni yaxshi bajarish.

4. Ko`makchi motivatsiya – bunda motivatsiya rag`batlantirish yoki jazolash orqali paydo qilinadi” [40].

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko`nikma, malakalariga ega bo`lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko`nikma, malakalarini o`zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo`lishlari talab etiladi. O`z mohiyatiga ko`ra pedagoglar tomonidan innovatsion

faoliyat ko`nikma, malakalarining o`zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo`lib, u bir necha bosqichda kechadi. O`qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanish bosqichlari quyidagilardan iborat (1.9-rasmga qarang):



1.9-rasm. O`qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanish bosqichlari

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko`ra ta`lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O`qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg`a undovchi, bunyodkorlikka rag`batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo`lib, ta`lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o`qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to`la tushungan holda o`z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Nazorat va muhokama savollari:

1. O‘qituvchining innovatsion faoliyatini samaradorligini oshirishga tegishli bo‘lgan yondashuvlarni sanang?.
2. “Innovatsion faoliyat” tushunchasiga ta'rif bering.
3. “Novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi farqlarni ajrating.
4. Innovatsion ta'limning o‘ziga xos xususiyatlarini sanang.
5. Innovatsion faoliyat nima va unga qanday belgilar xos?
6. Innovatsiyalarni asoslash qanday bosqichlarda kechadi?
7. Innovatsion jarayon qanday tuzilmalarga ega?

8. Innovatsiya jarayon qanday qonuniyatlarga bo‘ysunadi?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. O’zbekiston Respublikasida “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonun va uning mazmunini “Insert jadvali” metodi asosida tahlil qiling:

“V” Buni oldindan bilardim	“+” Men uchun yangi ma’lumot	“-” Bu ma’lumotni aniqlashtirish yoki to`ldirish kerak	“?” Tushunmadim yoki ochiq qolgan savollar

2. Innovatsion pedagogika va ta`lim innovatsiyalarining turlarini “Konseptual jadval” metodi asosida tahlil qiling:

	Ta'riflar, toifalar, xususiyatlar va boshq.		

3. Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish muammolarini “FSMU” metodi asosida tahlil qiling.

Mavzu:			
Fikr	Sabab	Misol	Umumiy xulosa

4. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni “T-chizma” (T-sxema) metodi asosida tahlil qiling:

Afzalliklari	Kamchiliklari

2-MODUL. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

§ 2.1. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN VA RIVOJLANTIRUVCHI TA`LIM TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI

Reja:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – talaba fikrlashi va harakat strategiyasi sifatida.
2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining turlari va talablari.
3. Rivojlantiruvchi ta’limining asosiy nazariyalari.

Tayanch so`z va iboralar: shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, an’anaviy yondashuv, individual yondashuv, innovatsion ta’lim texnologiyalari, hamkorlik ta’limi texnologiyalari, interfaol ta’lim texnologiyalari, masofaviy ta’lim texnologiyalari, muammoli ta’lim texnologiyalari, loyiha ta’limi texnologiyalari, kompyuter ta’lim texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari, tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyalari, modul ta’limi texnologiyalari, individual ta’lim texnologiyalari, mustaqil ta’lim texnologiyalari, insonparvarlik texnologiyalari, erkin tarbiya texnologiyasi, ezoterik texnologiya.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – talaba fikrlashi va harakat strategiyasi sifatida

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda ta’lim oluvchi ta’lim beruvchi bilan teng huquqli mustaqil bilim oluvchi subyekti sifatida, ta’lim beruvchi esa ta’lim oluvchi shaxsi rivojlanishiga yordam beruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi va tashhis qo‘yuvchi hisoblanadi. Ta’lim beruvchi tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan darsi ijodiy muhitni tashkil etishdan iborat bo‘lib qolmasdan, ta’lim oluvchi shaxsiy tajribasiga ularning hayotiy faoliyati tajribasi sifatida foydalaniladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mohiyati o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchi shaxsiy tajribasini ochib berish, berilayotgan bilimlar bilan moslashtirish va mos ilmiy mazmunga o‘tkazishdir. Pedagogik jarayonda talaba va o‘qituvchi munosabatiga yo‘naltirilgan texnologiyalar amaliyotdan mavjud (2.1-jadvalga qarang):

2.1-jadval.

Talaba va o‘qituvchi munosabatiga yo‘naltirilgan texnologiyalar

Avtoritar texnologiyalar	Didaktik texnologiyalar	Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar
O‘qituvchi boshqaruvchi, talab qiluvchi, yetaklovchi sifatida, talaba esa tobe bo‘ladi. Talaba qiziqishlari va ehtiyojlari ta’limni tashkil etishda e’tiborga olinmaydi, bajaruvchi sifatida maydonga chiqadi	Bu texnologiya markazida ta’lim jarayoni turib, shaxsni shakllantirish, kasbiy ko‘nikmalarni hosil qilish maqsad qilib qo‘yiladi. Bunda o‘qituvchi yetaklovchi bo`lib, o‘qituvchi va talaba bir xil pozitsiyani egallaydi. Asosiy maqsad ta’lim olish va tomonlar hamkorlikda ish olib boradilar	Ta’lim markazida talaba shaxsi turadi. Talaba rivojlanishida sog‘lom psixologik muhitni tashkil qilish, nizo va inqirozlarsiz, tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirish, qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – talaba fikrlashi va harakat strategiyasi, uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. U pedagog va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, talabani qadriyat sifatida e’tirof etilishini uchun sharoit yaratib beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – bu ta’lim oluvchi shaxsini hisobga olish, o‘z-o‘zini qiymatini oshirish, o‘zining subyektiv tajribasini muvofiqlashtiradi. An’anaviy ta’limda shaxs ijtimoiy-pedagogik modellari bilish standartlari bilan cheklangan bo‘lsa-da, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda esa shaxsni tan olish, talaba o‘ziga xos subyektiv tajribasi, o‘ziga xosligi, shaxsiy hayot faoliyatida namoyon bo‘ladi. O‘quv jarayoni loyihasi o‘rganish va o‘qitish jarayonlarini bajarishi kerak. O‘qitish o‘rganish natijasi, lekin u shaxsiy rivojlanishning samarali manbasi hisoblanadi. Shaxsga

yo‘naltirilgan ta’limni boshqarishga tashkilot, talaba qobiliyatlari, o‘quv jarayoni ta’siri namoyon bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim moslashuvchan, o‘zgaruvchan, ko‘p faktorli loyihalashtiriladi:

o‘quv jarayonining asosiy mavzusi sifatida talabani tan olish;

shaxsning individual qobiliyatlarini loyihada rivojlantirish;

talabaning subyektiv tajribasini aniqlash orqali o‘quv jarayonini rivojlantirish [90].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning an’anaviy ta’limdan farqi ta’lim oluvchilar imkoniyati va qobiliyatlari to‘laligicha hisobga olinadi, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ifodalaniladi. Bunda shaxsga yo‘naltirilgan, an’anaviy va individual yondashuvlarni anglash talab etiladi (2.2-jadvalga qarang):

2.2-jadval.

Shaxsga yo‘naltirilgan, an’anaviy va individual yondashuvlar

An’anaviy yondashuv	**Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv**	**Individul yondashuv**
Ta’lim odatda qat’iy reglamentlashtiriladi	Ta’lim oluvchi individual faoliyatini korreksiyalash va pedagogik qo‘llab-quvvatlash	An’anaviy pedagogik paradigma g‘oyalari
Rivojlanish vektori beriladi	Ta’lim rivojlanish vektorini belgilash bilan birga kerakli sharoit yaratadi	Talabalar individual xususiyatlaridan kelib chiqib, BKMni shakllantirish va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish
Hamma uchun umumiy, yagona va majburiy psixik rivojlanishga yo‘naltiriladi	Har bir ta’lim oluvchi bilish tajribasi hisobiga individual qobiliyatlarini takomillashtirish, shaxs sifatida rivojlanadi	Kognitiv, ilmiy-amaliy, aksiologik kabi ta’lim mazmuning tarkibiy qismlari rivojlanadi
Rivojlanish vektori o‘rganish asosida shakllantiriladi	Rivojlantirish vektori ta’lim oluvchidan uning rivojlanishiga yordam beruvchi ma’lum pedagogik ta’sirni aniqlash tomon quriladi	Pedagogikani shakllantirish texnikasi va usullari, predmet-obyekt munosabatlari ustunligi saqlanadi
Shaxs shakllantiriladi	Shaxsiy strategik faoliyat, kreativlik, tanqidiy munosabat, ijodkorlik, ehtiyojlar va motivlar tizimi, o‘zligini anglash, ijobiy «Men-konsepsiyasi» rivojlantiriladi	Asosiy mezonlar talabalarning BKMni shakllantirish va tarbiyalashning ijtimoiy tasdiqlangan meyor va qadriyatlarni o‘zlashtiradi

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga quyidagi nazariy asoslari kiritiladi:

shaxsni o‘qitish jarayonidagi o‘rnini belgilash, ta’lim olayotgan shaxsni rivojlantirish;

ta’lim oluvchi shaxsining kasbiy shakllanish talablari Davlat ta’lim standartlarida o‘z aksini topish;

pedagogning ijodiy qobiliyati va mahoratiga ega bo‘lishi;

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash;

tabaqalashtirilgan ta’limni rivojlantitirish;

mashg‘ulotlar uchun sharoitlar yaratish, amaliy ustaxonalar, tajriba va o‘quv xonalarini tashkil etish;

bo‘lajak mutaxassisning kasbiy xususiyatlarini belgilash;

ta’lim oluvchining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

ta’lim oluvchining BKMni mustaqil egallash va amalda qo‘llashni rivojlantirish [52].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni texnologiyalashtirish bilim olish paytida jarayonida o‘quv matnining maxsus qurilishini o‘z ichiga oladi, ya’ni didaktik materiallar, ulardan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar, o‘quv dialogining turlari, talabaning shaxsiy rivojlanishi e’tiborga olinadi. Ta’limning subyektivligi tamoyilining didaktik ta’minoti quyidagicha amalga oshiriladi:

o‘quv materiallarni aniqlash;

darslikdagi bilimlarni taqdim etish;

bilimlar ko‘lamini kengaytirish;

mavzu mazmunini integratsiyalash;

har bir talabaning mavjud subyektiv tajribasiga tayanish;

dars mavzusini doimiy ravishda talabalarning tajribasi bilan muvofiqlashtirish;

talaba o‘z-o‘zini tarbiyalashi, o‘zini rivojlantirishi, o‘zini namoyon qilish;

talaba o‘zini-o‘zi qadrlaydigan ta’limning faol rag‘batlantirish;

talabaga mashg‘ulotning mazmuni, turini tanlash, vazifalarni bajarish;

tarbiyaviy ish usullarini aniqlash va baholash;

meta-bilimlarni joriy qilish;

tarbiyaviy harakatlarni amalga oshirish.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining antroposentrik, insonparvarlik, psixoterapevtik yo‘nalganigi hamda bolaning erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishi bo`yicha tavsiflanadi. Bunda tushuntirishdan tushunishga, monologdan dialogga, nazoratdan rivojlanishga, boshqarishdan o‘zini-o‘zi boshqarishga o‘tish kabi fundamental g‘oyalar mavjud. O`qituvchi asosiy urg‘uni “fanni” bilishga emas, balki muloqotga o‘zaro bir-birini tushunish, o‘quvchini ijod qilishga qaratishi kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiya muhitida ta’lim oluvchining ijodi va izlanishi asos bo‘ladi. Ammo ta’lim oluvchining jismoniy, intellektual va ruhiy holati ijodiy izlanish talab qiladigan topshiriqlarni bajarish va hayotiy muammolarni yechishga yetarli emas.

Bunda pedagogik qo‘llab-quvvatlash va yordam kerak bo‘ladi [96] (2.3-jadvalga qarang):

2.3-jadval.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining turlari va talablari

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari turlari	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi talablari	Pedagog talablar
shaxsga insonparvarlik yondashuvi; hamkorlik texnologiyasi; o‘yin texnologiyasi; kommunikativ ta’lim texnologiyasi; erkin tarbiya texnologiyasi; bolani qo‘llab-quvvatlash texnologiyasi	dialog (o‘zaro suhbat); faollik va ijodkorlik; bolaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash; ta’lim oluvchiga mustaqil ijod qilish; qaror qabul qilish; ta’lim olish turi va uslublarini tanlash	san’at, ijod va bolani hurmat qilish; insonparvarlashtirish; bolalarning ruhiy va jismoniy sog‘lom bo‘lishi; madaniy-informatsion yangiliklardan foydalanib, ta’lim jarayonini boyitish; shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunini berish; pedagogik texnalo-giyalardan foydalanish; bolaning individual xususiyatlarini rivojlantirish

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasida ta’lim oluvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olinib, uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi (2.4-jadvalga qarang):

2.4-jadval.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi tamoyillari, shaxsga yangicha qarash va munosabatlarni demokratlashtirish

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining asosiy tamoyillari	Shaxsga yangicha qarash	Munosabatlarni demokratlashtirish

insonparvarlik tamoyili – insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash; *hamkorlik tamoyili* – pedagog va ta’lim oluvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik; e*rkin tarbiyalash tamoyili* – shaxsga uning hayot faoliyatini tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish	pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, balki subyekt hisoblanadi; ta’lim oluvchi qobiliyat va iste’dod egasi hisoblanadi; yuqori etik qadriyatlar shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi	talaba va o`qituvchi huquqlarini tenglashtirish huquqi; xatoga yo‘l qo‘yish huquqi; o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi; talaba va o`qituvchi munosabatiga ta’qiqlamaslik; birgalikda boshqarish; ishontirish; erkin tanlab olish

Ta’limda erkin o‘qitish, individual va shaxsiy yondashuvlar bir-biridan farq qilganligi sababli mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash talab etiladi. Erkin o‘qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

erkin talabchanlik ishonchga asoslangan;

o‘quv materialini qiziqishi, bilishi va faol ijodiy fikrlashi rag‘batlantirilgan;

ta’lim oluvchilar mustaqilligi va tashabbusiga tayanilgan;

jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablari amalga oshirilgan.

Individual yondashuv ta’lim tizimida o‘quv fanidan ta’lim oluvchiga emas, ta’lim oluvchidan o‘quv faniga harakatlanishni taqozo etadi, ta’lim oluvchilarni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi. Individual yondashuv quyidagilardan iborat:

ta’lim oluvchining o‘rtacha o`zlashtirishdan voz kechish;

shaxsning ijobiy xislatlarini izlash;

shaxs rivojlanishining individual dasturlarini ishlab chiqish.

Shaxsiy yondashishda quyidagilar zarur bo‘ladi:

har bir ta’lim oluvchi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish;

shaxsga yutuqni ma’qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish;

majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlik va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;

ta’lim oluvchilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish va ko‘maklashish [68].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining turlari va talablari

Amaliyotda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining turlari farqlanmoqda (2.5-jadvalga qarang):

2.5-jadval.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining turlari

№	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari turlari	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining mazmuni
1.	innovatsion ta’lim texnologiyalari	turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o‘zlashtirish va amalda tatbiq etishni boshqarish [31]
2.	hamkorlik ta’limi texnologiyalari	talabalar o‘quv jarayonida jamoa, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, “pedagog-talaba” munosabati hamkorlikda tashkil etilishini ta’minlovchi ta’limiy xarakterdagi texnologiyalar
3.	interfaol ta’lim texnologiyalari	individual, juftlik, guruh va jamoa interfaol ta’lim texnologiyalari amalga oshiriladi. O‘qituvchi ta’limda talabalar qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, mustaqil ijodiy va tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirish
4.	masofaviy ta’lim texnologiyalari	axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida muayyan nuqtadan ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’limiy mahsulotlarni tarqatish, yetkazib berishdagi an’anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta’lim resurslaridan foydalanish
5.	muammoli ta’lim texnologiyalari	talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish
6.	loyiha ta’limi texnologiyalari	ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borish
7.	kompyuter ta’lim texnologiyalari	kompyuterlardan foydalangan holda axborotni saqlash, qayta ishlash, uzatish, himoyalash va ishlab chiqishga javob beradi
8.	rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari	ta’lim oluvchilarda mantiqiy, tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni rivojlantirish
9.	tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyalari	maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida o‘quv jarayonini maxsuslashtirish
10.	modul ta’limi texnologiyalari	o‘quv dasturlarini to‘la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan o‘qitishni tabaqalash
11.	individual ta’lim texnologiyalari	shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarida u yoki bu darajada individual yondashish qo‘llaniladi. Individuallashtirilgan o‘qitishda talabaning individual-pedagogik xususiyatlarini o‘rnatish hisoblanadi. O‘qitish usuli tanlanadi, qabul qilingan texnologiyalar, qoidalar va tamoyillarga ko‘ra o‘qitish
12.	mustaqil ta’lim texnologiyalari	mustaqil ta’lim qaysi shaklda bajarilishidan qat’iy nazar, talaba shaxsida bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga

		xizmat qiladi. Talabaga bo‘lajak mutaxassis sifatida erkin fikrlash, kasbiy o‘z-o‘zini tarbyalashi asosida ijtimoiy faol malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash
13.	insonparvarlik texnologiyalari	talaba shaxsini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va talaba ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Talabaga nisbatan hurmat, mehr bilan qarash va majburiylikdan voz kechish
14.	erkin tarbiya texnologiyasi	talabaga tanlash, mustaqillik erkinligi beriladi. Talaba o‘zi tanlagan vosita va mazmunni to‘liq qabul qiladi hamda bu faoliyatni xohish bilan bajarish
15.	ezoterik texnologiya	ezoterik bilimlar qonuniyatlarini o‘rganish orqali haqiqatga yaqinlashish

Innovatsion ta’lim texnologiyalari. «Innovatsion texnologiya» tushunchasi deganda ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanib, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash, amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari tushuniladi. «Innovatsion texnologiyalar» esa turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o‘zlashtirish, amalda tatbiq etish, jarayonini boshqarishdan iborat. So‘nggi yillarda innovatsiya namunalarini joriy etish uchun ijodiy yondashish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiy faolligini kuchaytiradi.

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari. Rivojlantiruvchi ta’lim bir vaqtda ta’lim oluvchining ta’limiy, tarbiyaviy, ma’naviy, ruhiy va jismoniy rivojlantirish, tez o‘zgaruvchan dunyoda jamiyat, hayotga moslashuvini ta’minlaydi. Shaxsga taalluqli barcha ijtimoiy ta’sirlari insonning rivojlanishi, o‘zligini anglashi va namoyon qila olishi uchun yo‘naltiriladi. Ta’lim oluvchilarda topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantirish rivojlantiruvchi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridir (2.6-jadvalga qarang). Ta’lim oluvchilar ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi [49].

2.6-jadval.

Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy yo‘nalishlari va yetakchi tamoyillari

Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy yo‘nalishlari	Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining yetakchi tamoyillari
1. Muammoli ta’lim. 2. Evristik ta’lim. 3. Tadqiqotchilik ta’limi. 4. IMEN	inkorporatsiya turli fanlarga oid bilimlarni umumlashtirish; moslanuvchanlik ta’lim shakli, usullarining turli ta’lim muassasalarida qo‘llash; uyg‘unlik muayyan o‘quv predmetiga oid o‘quv materiali mazmunining shaxsni rivojlantirish shakl, usullar bilan uyg‘unlashtirih; yaratuvchanlik turli ta’lim muassasalari pedagoglarining pedagogik texnologiyalarini yaratish; tabiiylikka asoslanish genetik va ijtimoiy jihatlarga muvofiq o‘quvchilar o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar qiziqishi ortishi, bilimlar ko‘nikmaga aylanishi, bilim sifat-samaradorligi oshiriladi. Rivojlantiruvchi ta’lim maqsadi ta’lim oluvchilarda mantiqiy, tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni rivojlantirishdan iborat. Rivojlantiruvchi ta’lim vazifalari bo`lib shaxs individual kamol topishi uchun zarur bo‘ladigan hayotiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyalari. O‘quv jarayonini tashkil etishning shakli sifatida tabaqalashtirib o‘qitish bo`lib, umumiy didaktika tamoyillariga asoslangan, maxsus tashkil ettirilgan ta’lim oluvchilar gomogen guruhlarida, o‘quv jarayonini ixtisoslashtiradi. Uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida o‘qitishni tabaqalashtirish, turli xildagi gomogen guruhlarda o‘qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratadi. O‘qitishning eng yuqori darajasi individual o‘qitish hisoblanadi. Umumta’lim maktablarida ta’lim oluvchilar aqliy rivojlanish darajasi bo‘yicha tabaqalashning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjud bo‘ladi [51].

Modul ta’limi texnologiyalari. Modulli o‘qitishda kasbiy ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini yechish imkoniyatlarini yaratadi:

modul – qitish mazmunini maqbulash va tizimlash dasturlarni faoliyatli yondashuv asosida o‘o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlash;

individual o‘qitish;

amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash;

o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;

kasbiy motivatsiya asosida o‘qitish jarayonini faollashtirish;

mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish nazariyasi va amaliyotida fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi kabi ikki xil yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin [51].

Individual ta’lim texnologiyalari. Individual o‘qitish – bu o‘quv jarayonini tashkil etish shakli bo‘lib, pedagog ta’lim oluvchilar bilan yakkama-yakka shug‘ullanadi, o‘quv vositalari yordamida ta’lim oluvchi uzluksiz mustaqil ta’lim oladi. Pedagogik jarayonni ta’lim oluvchi qobiliyatlariga moslashuvchanlik imkoniyati individual

o‘qitish afzalligi hisoblanadi. Bunda ta’lim oluvchining bilim olish darajasi doimiy monitoringing qilinadi, maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi. Individual yondashishda pedagogning ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olinadi, guruh hamda har bir ta’lim oluvchi rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi. Individuallashtirilgan o‘qitish o‘qitish yo‘llari, usullari, sur’ati individual yondashish asosida tanlanadi, turli o‘quv-uslubiy psixologik-pedagogik va tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta’minlanadi. Yakka tartibdagi o‘qitish texnologiyasida o‘quv jarayonini individual yondashish va o‘qitish individual shakli ustuvor hisoblanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarida individual yondashish qo‘llaniladi, ammo individuallashtirilgan o‘qitish, individuallashtirish, o‘quv maqsadlariga erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Individuallashtirilgan o‘qitish asosi ta’lim oluvchining individual-pedagogik xususiyatlarini o‘rnatish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida o‘qitish usuli tanlanadi. Qabul qilingan texnologiyalar, qoidalar va tamoyillarga ko‘ra o‘qitish jarayoni amalga oshiriladi [51].

Mustaqil ta’lim texnologiyalari. Talabalar mustaqil bilim olishini yo‘lga qo‘yishda dars jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini ko‘tarish, ta’lim berish jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq. O`quv materiallari, kompyuter texnikasi, avtomatlashtirilgan dasturlar kabi yetarli sharoitlardan foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, o‘quv jarayoni to‘g‘ri tashkil etilmagan bo‘lsa-da yuqori natijaga erishib bo‘lmaydi. O‘qituvchi va talaba o‘zaro munosabatlari muhim o‘rin egallaydi. Mustaqil ta’lim uchun talabalarning pedagogik-psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Talabalar mustaqil ish topshiriqlarini tayyorlashda quyidagilarga amal qilishlari lozim:

ma’ruza mashg‘ulotida mustaqil ta’lim topshiriqlarini tanlash, auditoriyada o‘rganiladigan mavzular bilan uzviyligini ta’minlash;

uyda mustaqil ravishda o‘rganiladigan mavzular va asosiy savollarning aniq bayon etilishiga erishish;

amaliy mashg‘ulotlar topshiriqlarini o‘rganilayotgan nazariy o‘quv materiallari bilan mutanosib bo‘lishini hisobga olish;

amaliy ishlar, mustaqil ishlarni bajarishga oid metodik ishlanmalar yaratilganligini hisobga olish;

mustaqil ravishda yechilishi lozim bo‘lgan misol va masalalar aniq ro‘yxatini tuzish;

mustaqil ish topshiriqlarining axborot ta’minoti, adabiyotlar ro‘yxati, betlari ko‘rsatilgan holda elektron o‘quv qo‘llanmalar va Internet manzili ko‘rsatilishiga erishish [69].

Insonparvarlik texnologiyalar o‘zining insoniyligi va psixoterapevtik yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Talaba shaxsini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi. Talabaga hurmat va mehr bilan qaraladi.

Erkin tarbiya texnologiyasi talabaga tanlash, mustaqillik erkinligi beriladi. Talaba o‘zi tanlagan vosita va mazmunni to‘liq qabul qilish xohish bilan bajaradi. Ichki ehtiyoj bilan uyg‘unlik hosil bo‘ladi.

Ezoterik texnologiyada ezoterik bilimlar qonuniyatlarni o‘rganish orqali haqiqatga yaqinlashish nazarda tutiladi.

Rivojlantiruvchi ta’limining asosiy nazariyalari

Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy nazariyasi 1950-yillarning oxiri 1970-yillarida yaratilgan bo‘lib, unga L.S.Vigotskiyning o‘rganish va rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlar nazariyasi, L.V.Zankovning didaktik nazariyasi va D.B.Elkonin, V.V.Davidovning mazmunli umumlashtirish va o‘quv faoliyatini shakllantirish nazariyasi kiradi.

"Rivojlantiruvchi ta’lim" atamasini V.V.Davidov pedagogik amaliyotga kiritgan. Yosh maktab o‘quvchilarining ta’limi va rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik muammosini ilmiy va amaliy hal etish uchun an’anaviy boshlang‘ich ta’limning mazmuni va usullarini o‘zgartirish bolalarning rivojlanishiga ma’lum bir ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kashf etilgandan keyin, L.S.Vigotskiyning madaniy va tarixiy psixologiya nazariyasiga va A.N.Leontevning psixologik faoliyat nazariyasiga asoslanib, rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi yaratilgan.

O‘rganish va rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlar muammosini hal qilishda L.S.Vigotskiy, bolaning aqliy funksiyalari genezisining umumiy qo‘llaniladigan qonuniga asoslangan. Bolaning rivojlanishi uning ta’lim jarayonida, kattalar va o‘rtoqlar bilan muloqotda shakllanadigan "proksimal rivojlanish zonalari" orqali amalga oshiriladi. Bu pozitsiya shuni anglatadiki, bola yangi harakatni faqat boshqalar bilan o‘zaro munosabat qilganda o‘zi bajara oladi. Yangi aqliy funksiya uni tashkil etishni o‘rganadigan jamoaviy faoliyatda bajarilishining o‘ziga xos "individual davomi" bo‘ladi. O‘rganish rivojlanishning ajralmas zarur va universal vaqti hisoblanadiю L.S.Vigotskiy o‘rganish va rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik gipotezasini shakllantirib, o‘z gipotezasini asoslashda inson aqliy funksiyalari rivojlanishining asosiy genetik qonuni mazmunini aniqlaydi va bu bog‘liqlik u taklif qilgan nazariyaning asosi bo‘lib xizmat qildi. U bolalarning rivojlanishidagi yeng yuqori aqliy funksiyaning ikki marta, ya’ni birinchisi jamoaviy faoliyat sifatida, ikkinchisi individual faoliyat sifatida paydo bo‘lishini asosladi.

L.V.Zankovning didaktik tizimi eksperimental didaktika laboratoriyasida maktab o‘quvchilarining umumiy aqliy rivojlanishiga yordam beradigan didaktik tizimni ishlab chiqilishi bilan izohlanadi. L.V.Zankovning didaktik tizimi darsning moslashuvchan tuzilishiga ega bo‘lishini talab etadi hamda mashg‘ulotda o‘qilgan va ko‘rilgan narsalar, tasviriy san’at, musiqa, ish, didaktik o‘yinlar, o‘quvchilarning intensiv mustaqil faoliyati, kuzatish, taqqoslash, guruhlash, tasniflash, naqshlarni aniqlashtirish, xulosalarni mustaqil shakllantirish asosida jamoaviy izlanish orqali bolalarning fikrlash, kuzatish va amalda harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Ko‘p yillik eksperimental tadqiqotlar natijasida D.B.Elkonin va V.V.Davidov rivojlantiruvchi ta’limni tashkil etish shartlarini aniqladi va rivojlantiruvchi ta’lim faoliyati nazariyasini ishlab chiqqan. An’anaviy ta’limdan farqli ravishda V.V.Davidov, zamonaviy sharoitda, maktab yoshidagi o‘quvchilarda nazariy fikrlash va xatti-harakatlarni boshqarishni rivojlantirish orqali aniq ta’lim vazifalarini hal qilish mumkinligini asoslab bergan. Uning fikricha, “an’anaviy boshlang‘ich ta’lim ko‘pchilik boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining to‘liq rivojlanishini ta’minlamaydi.

An’anaviy boshlang‘ich ta’lim bolalar bilan ishlashda proksimal rivojlanishning zarur zonalarini yaratmaydi, balki asosan maktabgacha yoshda paydo bo‘lgan va rivojlana boshlagan aqliy funksiyalarni o‘zgartiradi va kuchaytiradi (hissiy kuzatish, yempirik fikrlash, utilitar xotira va boshqalar). Muallifning fikricha, ta’lim proksimal rivojlanishning zarur zonalarini yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak, shunda ta’lim natijasida hosil bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar oxir-oqibat aqliy neoplazmalarga aylanadi.

Maktab o‘quv fanlari maktab o‘quvchilari o‘rtasida empirik jihatdan farq qiladigan o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lgan nazariy fikrlashni shakllantirishni o‘z ichiga olishi kerak. Bunda o‘quvchi nafaqat faktlar bilan tanishishga, balki ular o‘rtasidagi munosabatlarni bilishga, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatishga va munosabatlarni o‘rganish obyektiga aylantirishga qaratilishi lozim.

Shunga asoslanib, V.V.Davidov va D.B.Elkonin rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasini birinchi navbatda o‘quv fanlari mazmuni va uni o‘quv jarayoniga joylashtirish mantig‘i (usullari) bilan bog‘lashadi. Elkonin-Davidov tizimida rivojlanayotgan ta’lim o‘quvchilarning nazariy tafakkurini shakllantirishi kerak, ya’ni.u nafaqat faktlarni yodlashga, balki ular o‘rtasidagi munosabatlar va sababiy munosabatlarni tushunishga ham qaratilishi kerak. Nazariy fikrlash deganda shaxs tomonidan narsa, hodisa, tushunchaning kelib chiqishi, ushbu kelib chiqish shartlarini kuzatish qobiliyati, nima uchun bu tushunchalar, hodisalar yoki narsalar u yoki bu shaklga yega bo‘lganligini aniqlash, o‘z faoliyatida takror ishlab chiqarish qobiliyati tushuniladi.

Elkonin-Davidov tizimidagi o‘quv fanlarining mantig‘i va mazmuni, o‘quv jarayonini tashkil etish uchun asosdir (bu o‘quv faoliyatini shakllantirish nazariyasi va uning predmetiga asoslanishi kerak). Bunday holda, o‘quvchida umuman unchalik ko‘p bilimlarni emas, balki umumbashariy ta’lim harakatlarini shakllantirish, o‘quvchida nazariy fikrlashni, analitik qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘quvchida ilmiy bilimlar mantig‘ini "mavhumdan konkretga"tamoyili asosida rivojlantirishga asoslanishi lozim.

O‘quv faoliyatini shakllantirish nazariyasi va predmeti rivojlanayotgan ta’lim muhitida tahlil qilish, rejalashtirish va aks yettirish orqali maktab o‘quvchilarida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi inson tomonidan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish haqida emas, balki muayyan ta’lim faoliyati shaklida yuzaga keladigan assimilyatsiya haqida fikr yuritishni talab etadi. Bu assimilyatsiya jarayonida o‘quvchi nazariy bilimlarni egallaydi, ularning mazmunini xilma-xillikning birligi sifatida qaraydilar.

Har qanday o‘quv fanini o‘zlashtirishni boshlashda o‘quvchilar o‘qituvchi yordamida o‘quv materialining mazmunini tahlil qiladilar, undagi ba’zi bir boshlang‘ich umumiy munosabatni aniqlaydilar, tanlangan boshlang‘ich umumiy munosabatni ramziy shaklda o‘rnatib, o‘rganilayotgan o‘quv materialini tahlil qilishni davom yettirib, o‘quvchilar o‘qituvchining yordami bilan ushbu dastlabki munosabatlarning turli xil ko‘rinishlari bilan tabiiy bog‘liqligini ochib berishadi va shu bilan o‘rganilayotgan mazmunni umumlashtirishadi. Navbatdagi bosqichda o‘quvchilar mazmun bilan bog‘liq abstraksiyalar va umumlashmalardan foydalanib, o‘qituvchining yordami bilan izchil ravishda boshqa, aniqroq abstraksiyalarni yaratadilar va ularni yaxlit o‘quv faniga birlashtiradilar.

Bilimlarni o‘rganishning bu usuli ikkita xarakterli xususiyatga ega. Birinchidan, o‘quvchilarning fikri maqsadli ravishda umumiydan xususiyga o‘tadi. Ikkinchidan, assimilyatsiya o‘quvchilar tomonidan ular o‘zlashtirgan tushunchalar mazmunining kelib chiqish shartlarini aniqlashga qaratilgan.

Nazariy tushunchani faqat munozara jarayonida o‘rganish mumkin. Rivojlantiruvchi ta’lim mohiyatida bolalarning ta’limiy faoliyatida umumiydan xususiyga, mavhumdan konkretgacha bo‘lgan ilmiy bilimlarni shakllanish jarayoni asos sifatida olingan. Nazariy fikrlash deganda shaxs tomonidan narsa, hodisa, tushunchaning kelib chiqishi, nima uchun bu tushunchalar, hodisalar yoki narsalar u yoki bu shaklga yega bo‘lganligini aniqlash, o‘z faoliyatida qo‘llash qobiliyati tushuniladi. Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat (2.1-rasmga qarang):



2.1-rasm. Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy tamoyillari

Rivojlantiruvchi ta’limda darsning xususiyatlari jamoaviy aqliy faoliyat, dialog, munozara va bolalarning ishbilarmonlik muloqotini o‘z ichiga oladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor bilim bilan emas, balki savol bilan murojaat qilib, o‘quvchilar bilimlarni egallashlari uchun qo‘yilgan o‘quv muammollarini hal qilish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimining markazida talaba shaxsi bo`lib, talabaning rivojlanishiga sog‘lom psixologik muhitni tashkil qilish, nizo va inqirozlardan asrash, tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirish, qobiliyatini o‘stirishga qaratiladi.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Shaxsga yo`naltirilgan ta’limning mohiyati nimada?
2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining qanday turlari mavjud?
3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga qanday talablar qo`yiladi?
4. Rivojlantiruvchi ta’limning qanday asosiy yo‘nalishlari mavjud?
5. Rivojlantiruvchi ta’limning qanday yetakchi tamoyillari mavjud?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining turlarini “Toifalash jadvali” metodi asosida loyihalashtiring:

Innovatsion ta’lim texnologiyalari	Hamkorlik ta’limi texnologiyalari	Interfaol ta’lim texnologiyalari	Masofaviy ta’lim texnologiyalari	Muammoli ta’lim texnologiyalari

Loyiha ta’limi texnologiyalari	Kompyuter ta’lim texnologiyalari	Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari	Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyalari	Modul ta’limi texnologiyalari
Individual ta’lim texnologiyalari	**Mustaqil ta’lim texnologiyalari**	**Insonparvarlik texnologiyalari**	**Erkin tarbiya texnologiyasi**	**Ezoterik texnologiya**

2. Qiyidagi test topshiriqlarini bajaring:

1. Qanday ta’lim talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

2. Qanday ta’lim sohasiga kirtilgan va kiritilayotgan yangiliklar hamdaa yangilangan, yangi texno-logiyalar asosida tashkil etilgan?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

3. Qanday ta’lim modullashtirilgan o‘quv dasturi asosida tashkillashtiriladigan o‘qitish jarayonini ifodalaydi?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

4. Qanday ta’limda o‘quv mashg‘ulotlarining barchasi yoki ko‘p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladigan masofadan turib o‘qitish mavjud?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) masofaviy o‘qitish;

d) mustaqil ta’lim.

5. Qanday ta’lim talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) muammoli ta’lim.

6. Qanday ta’limda insonning o‘zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan shaxsiy harakatlari jarayoni ifodalangan?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

7. Qanday ta’limda o‘quvchi yoki talabaning ta’lim vositasida bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o‘tishini ta’minlovchi va har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda o‘qitish jarayoni ifodalangan?

a) rivojlantiruvchi ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

8. Qanday ta’limda ta’lim oluvchilarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda alohida o‘quv rejasi va dasturlar asosida olib boriladi?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) tabaqalashtirilgan ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

9. Qanday ta’limda o‘qituvchining o‘quvchiga yakka tartibda pedagogik ta’sirini amalga oshiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari shakllaridan biri, o‘qituvchining o‘quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan alohida faoliyati ifodalangan?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) individual ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

10. Qanday ta’limda tadrijiy ketma-ketlikda joylashgan sertarmoq o‘quv materiali qismlaridan tashkil topgan o‘rgatuvchi dasturlar yordamida o‘qitish texnologiyasi ifodalangan?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) dasturli ta’lim.

11. Qanday ta’lim ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi hisoblanadi?

a) o‘yin texnologiyalari;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

12. Qanday ta’limda talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanadi?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) interfaol ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

13. Qanday ta’limda ta’limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta’minlaydi, nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi, talabalarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi hamda kasbiy layoqatni shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydi?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) loyiha ta’lim.

14. Qanday ta’limning asosiy natijasi o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligida ko‘zlangan maqsadga erishish hisoblanadi?

a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) hamkorlik ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

15. Kompyuter vositasida amalga oshiriladigan ta’lim tizimi – nima ...

a) kompyuter ta’lim;

b) modulli ta’lim;

s) innovatsion ta’lim;

d) mustaqil ta’lim.

§ 2.2. MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. Muammoli ta`limning ilmiy-nazariy asoslari.
2. Muammoli ta`limining asosiy turlari. Muammo va muammoli vaziyat.
3. Muammoli ta’lim jarayonida o`quv maqsadlarini belgilash.

**Tayanch so`z va iboralar:** muammoli o`qitish, muammo, muammoli vaziyat, o`quv muammosi, ilmiy muammo, muammoli o`qitish metodlari.

Muammoli ta`limning ilmiy-nazariy asoslari

Axborot texnologiyalari yoki postindustrial deb atalayotgan bugungi jamiyat Shaxsdan faol harakat qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o`zgarayotgan sharoitlariga moslashishni talab qiladi. Buning uchun har bir shaxs ma`lum sifatlarga ega bo`lishi talab etiladi. Xususan:

har bir o`quvchi zarur bilimlarni mustaqil egallash, egallangan bilimlarini turli muammolarni yyechishda mahorat bilan qo`llash;

axborotlar bilan savodli ishlash (ma`lum masalani tadqiq qilish uchun zarur faktlar yig`ish, ularni tahlil qilish, muammolarni yechishga qaratilgan gipotezalarni taklif qilish, qonuniyatlarni, yangi muammolarni aniqlash va yechish);

olingan bilimlarning qaerda va qanday qo`llanilishi mumkinligini aniq bilish va bu bilimlarni qo`llash sohasini anglay olish;

mustaqil tanqidiy fikrlash, real dunyoda paydo bo`layotgan qiyinchiliklarni ko`ra bilish va ularni bartaraf etishning optimal yo`llarini izlab topish;


ijodiy fikrlash, yangi g`oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo`lish, turli ijtimoiy guruhlarda kirishimli bo`lish, birgalikda ishlashni bilish yoki nostandart vaziyatlardan chiqishni bilish,

o`zining ma`naviyati, intellekti va madaniy salohiyati ustida mustaqil ishlash kabi ko`nikma va malakalarga ega bo`lishi zarur.

Yuqorida aytilgan sifatlarga ega shaxsni shakllantirishga nafaqat ta`lim mazmuni, balki qo`llanilayotgan o`qitish texnologiyalari ham muhim rol o`ynaydi. O`quv jarayonida bilish faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlaridan biri muammoli o`qitish texnologiyasini tatbiq etishdan iborat. Chunki muammoli o`qitish jarayonida o`qituvchilar ham, o`quvchilar ham real vaziyatlarda muammodan chiqish uchun o`zining intellektual, ma`naviy imkoniyatlarini sinovdan o`tkazadilar. Bu jarayonda hosil bo`lgan ko`nikma va malakalar tayyorlanayotgan mutaxassislarda axborot jamiyati sharoitlarida yashash uchun zarur sifatlarni shakllantirishga olib keladi.

Inson tafakkuri muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoni qo`yish va uni yechishdek noyob qobiliyatga ega bo`lganligi sababli insoniyat tomonidan ilmiy-texnikaviy kashfiyotlar amalga oshirilgan. Pedagogik tafakkurni o`quv jarayonida

muammolarni yechishga yo`naltirish, ya`ni ta`lim jarayoniga muammoli o`qitishni joriy etish o`quvchilariga tayyor bilimlarni o`zlashtirishdan asta-sekin mustaqil faoliyatga o`tish imkoniyatini beradi. Muammoli o`qitishni chuqur o`rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo`lib, uning asosida "Tafakkur – muammoli vaziyatdan boshlanadi"- degan g`oya yotadi. Muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha ko`rinishga ega bo`ladi [26] (2.2-rasmga qarang):



2.2-rasm. Muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi

An`anaviy ta`lim tizimida o`qituvchi va darslik bilimning asosiy manbasi bo`lsa, muammoli o`qitish falsafasi va metodologiyasida o`qituvchi o`quvchilarning izlanish-tadqiqotchilik faoliyatining tashkilotchisi, mutasaddi maslahatchisi va yordamchisi sifatida faoliyat olib boradi. Bu o`qituvchining an`anaviy o`qitish jarayonidagi faoliyatidan ancha murakkab bo`lib, u yuqoriroq mahorat va mehnat talab qiladi. Muammoli o`qitish konsepsiyasida muammoli vaziyatning birinchi sharti o`quvchi o`zi yechishi lozim bo`lgan zidlik (muammo)ni ko`rishidan iborat ekanligi ta`kidlanadi. Muammoli o`qitish nazariyasining asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog J.Dyui g`oyalari yotadi. U 1894 yilda Chikago shahrida o`qitish asosini o`quv rejasi emas, balki o`yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O`qish, hisoblash, yozish bo`yicha mashg`ulotlar bolalarning fiziologik balog`atiga qarab, o`z-o`zidan paydo bo`lgan ehtiyojlariga muvofiq o`tkazilgan [20].

J.Dyui o`qish uchun to`rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so`z, san`at asarlari, texnik qurilmalar. J.Dyui g`oyalari bo`yicha bola bilishda insoniyat yo`lini qaytaradi, bilimlarni o`zlashtirish boshqarilmaydigan jarayon bo`lib, bola o`zida hosil bo`lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida o`quv materialini o`zlashtiradi. Ya`ni, o`qitish samaradorligi shartlari, o`quv materialini muammolashtirish bola faolligi bilan bog`liq bo`lishi kerak [21].

Muammoli o`qitishni chuqur o`rganish XX asrning 1960 yillarida boshlangan.

Fikrlash psixologiyasi nuqtayi nazaridan muammoli o`qitish g`oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.

S.L.Rubinshteynning «Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi» degan g`oyasi muammoli o`qitishning psixologik asosi sifatida qabul qilingan. 1970-1980 yillarda an`anaviy o`qitish shakllari samaradorligi pasayib ketganligi qayd etilganda, etakchi pedagoglar muammoli o`qitish nazariyasiga e`tibor qarata boshladilar. Chunki an`anaviy o`qitish shaklida asosiy diqqat o`qituvchi faoliyatiga qaratilgan bo`lsa, muammoli o`qitish konsepsiyasida asosiy urg`u o`quvchilarga ko`chadi. Muammoli o`qitish tamoyili bo`yicha bilim o`quvchilarga tayyor shaklda uzatilmaydi, balki ilmiy tadqiqot jarayoniga o`xshatib, o`quv faoliyati jarayonida o`quvchilar tomonidan egallanadi. Muammoli o`qitish – o`quvchining muammoli taqdim etilgan ta`lim mazmuni bilan faol o`zaro bog`lanishini tashkil etadi. Bu jarayonda o`quvchi ilmiy bilimning ob`yektiv zidliklari va ularning yyechilmlariga yaqinlashadi, fikrlash, bilimlarni ijodiy o`zlashtirishga o`rganadi.

Muammoli ta'lim – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta'lim

Muammoli o`qitish ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo`lib, bu jarayonda o`quvchilar ijodiy fikrlashining rivojlanishi an`anaviy o`qitishdagiga nisbatan jadalroq bo`ladi. Muammoli o`qitishning bu funksiyasi oshishi uchun o`quv jarayoniga muammolarning tasodifiy majmuasini kiritish yyetarli emas. Muammolar tizimi bilimning mazkur sohasiga xos muammolarning asosiy turlarini qamrab olishi kerak.

Muammoli o`qitishni ta`lim jarayoniga tatbiq etishda o`qituvchi ilmiy va o`quv muammolar orasidagi umumiylikni va farqni ajratishi lozim. Ularning umumiyligi har ikkalasida ham ob`yektiv zidliklar mavjudligi bo`lsa, ilmiy va o`quv muammolarini farqi shuki, ilmiy muammoda qo`yilgan masala hali yechilmagan, o`quv muammoda esa masala yechilgan, uni yechish yo`li va natijasi ma`lum. Faqat bu yo`llar va natijalarni o`quvchilar izlab topishi kerak. Muammoli o`qitishning yakuniy maqsadi –

o`quvchilarni muammolarni ko`rish va yechishga o`rgatishdan iborat bo`lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi [26].

Shaxsning ijodiy mustaqil fikrlashi jamiyat uchun zarur bo`lib, fikrlash jarayoni muammoli vaziyatdan boshlanadi. Muammoli o`qitish usullariga tadqiqiy usul, evristik usul, muammoli vaziyatlar yaratish usuli kiradi. O`qitishning tadqiqiy usullarini qo`llaganda o`quvchilarga:

nostandart masalalarni tuzish bo`yicha;

shakllantirilmagan savol bilan;

ortiqcha ma`lumotlar bilan;

o`zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;

yo`riqnomalardan foydalanmasdan qandaydir ob`yekt mohiyatini bayon etish;

olingan natijalarni qo`llash chegaralarini va darajalarini aniqlash;

hodisaning namoyon bo`lish mexanizmini aniqlash;

«bir lahzada» topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.


Hozirgi kunda bu sohadagi izlanishlar dunyoning turli mamlakatlarida davom ettirilmoqda, umumta`lim fanlari bo`yicha ham, oliy ta`lim fanlari bo`yicha ham muammoli o`qitish texnologiyalarining majmuaviy ishlanmalari yaratilmoqda.

Fanda muammoli o`qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiladi: “muammo” va “muammoli vaziyat” tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan ob`yektlar o`z hajmi bilan farqlanadi. Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Demak, muammoli masalani muammoning oddiy, xususiy bir masaladan iborat holati sifatida ko`rish mumkin.

Muammoli o`qitishning yaqqol ko`rinib turgan afzalliklariga qaramasdan ta`limning hech qaysi bosqichi to`liq muammoli tuzilishi mumkin emas. Muammoli o`qitishni amalga oshirish uchun qism (ayrim bo`lim, mavzu, band) larni ajratib olish lozim. Bunda o`quv materialining mantiqiy-didaktik tahlili, muammolarni qo`yish imkoniyatlari, o`qitish maqsadlariga erishishda ularning samarasini aniqlash talab etiladi. Ko`p narsa u yoki bu guruhda ishlashning aniq sharoitlariga bog`liq. Bundan tashqari, darsliklardagi o`quv materiali kamdan kam hollarda muammoli o`qitishga moslashtirilgan. Lekin muammoli o`qitishni amalga oshirish uchun o`qituvchi o`quv

matnlarini osongina qayta ishlashi mumkin. Muammoli vaziyatlarni modellashtirish uchun eng optimal o`quv materiali bu – darslikdagi fan va texnika tarixiga oid ma`lumotlardir.

S.L.Rubinshteyn «tafakkur – inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo`lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi va muammoni yechishga qaratilgan bo`ladi» - deb ta`kidlaydi [81]. Demak, *muammoli vaziyat* – psixik qiyinchilik, ziddiyatlar vaziyati bo`lib, o`quvchilarni muammoli vaziyat holatiga tushirish orqali ularda fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi shaxsning ijodiy, mustaqil fikr yuritishi jamiyat uchun zarur bo`lib, fikrlash jarayoni muammoli vaziyatdan boshlanadi. J.Dyui muammoli ta`lim asosi sifatida quyidagi yo`nalishlarni belgilagan (2.3-rasmga qarang):



2.3-rasm. Muammoli ta`limning asosiy yo`nalishlari

Muallif ko`rsatilgan yo`nalishlarda ta`limni tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan:

1) so`z; san`at asarlari; texnik qurilmalar;

2) o`yinlar; mehnat.

Muammoli o`qitishni chuqur o`rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo`lib, uning asosida “Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi”- degan g`oya yotadi. O`tgan asrning 60-yillarida muammoli ta`lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.YA.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g`oyasi muammoli ta`limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.


Muammoli ta`limining asosiy turlari. Muammo va muammoli vaziyat

Muammoli ta`limning bir necha turlari mavjud. Masalan M.N.Skatkin o`z ishlarida muammoli ta`limning quyidagi turlari borligiga urg`u beradi:

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli ma`ruza).
2. Muammoli topshiriqlarni hal qilish (muammoli amaliy mashg`ulot).
3. Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba).

Muammoli ta`limning asosini muammo (yun. “to`siq”, “qiyinchilik”) yoki muammoli vaziyat tashkil etib, muammoli ta`lim texnologiyalari ularning yechilmini topishga xizmat qiladi. *Muammo* (yunon. “to`siq”, “qiyinchilik”, arab. “jumboqli”, “sirli”, “tushunilishi qiyin”) – hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo`lgan masala. *Muammoli vaziyat* – talabalarning ma`lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog`liq ruhiy holati bo`lib, u hal etilayotgan masala bilan bog`liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi. Ko`p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimdek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Mohiyatiga ko`ra muammo uni keltirib chiqargan sabablarni o`rganish, uni hal etishda ahamiyatli, samarali bo`lgan yo`l, metod va vositalarni izlash, ularning samarali ekanligini asoslovchi dalillarni to`plash, dalillarni yangicha, yangi tahlitda izohlash asosida hal qilinadi. Pedagogika sohasida ko`p holatlarda “muammo” tushunchasi tashkiliy- pedagogik, psixologik, ta`limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo`llaniladi. Soha nuqtayi nazaridan pedagogik jarayonda quyidagi xarakterdagi muammolarga murojaat qilinadi (2.4-rasmga qarang):



2.4-rasm. Pedagogik jarayondagi muammolar

Ma`lum va noma`lum bilimlar hamda mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo`ladi. Ta`lim jarayonida muammoni qo`yish bir necha sathda kechadi (2.7-jadvalga qarang):

2.7-jadval.

Muammoni qo`yish darajalari

№	Darajalar	Muammoni qo`yish mohiyati
1.	1-daraja	O`qituvchi muammoni qo`yadi va talabalarni uni hal qilishga yo`naltiradi
2.	2-daraja	O`qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarning o`zlari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi
3.	3-daraja	O`qituvchi muammoni qo`rsatib bermaydi, balki unga talabalarni ro`para qiladi. Talabalar muammoni anglagan holda uni o`zlari shakllantirib, muammoni yechish usullarini tahlil qiladi

Ta`lim jarayonida masalani qo`yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoyon bo`ladi. O`quv materiallari mazmunini o`zlashtirishda muammoning qo`yilishi va hal etilishi quyidagi bosqichlarda kechadi (2.8-jadvalga qarang):

2.8-jadval.

Muammoning qo`yilishi va hal etilish bosqichlari

№	Bosqich	Bosqich vazifalari
1.	1-bosqich	Masalaning asosini tashkil qiluvchi muammoni belgilab olish
2.	2-bosqich	Maqsadni aniqlashtirish
3.	3-bosqich	Masala yechimi shartini tahlil qilish
4.	4-bosqich	Tashkiliy-pedagogik ishlarni amalga oshirishga sharoit yaratish
5.	5-bosqich	Masalaning yechimini topishga yo‘naltirilgan amaliy harakatni tashkil etish
6.	6-bosqich	Muammoning yechimini bayon etish
7.	7-bosqich	Muammo yechimini muhokama qilish

Pedagogik jarayonda talaba “muammo”ga emas, balki muammoli vaziyatga ro`baro` qilinadi. Darhaqiqat, muammoli vaziyat deganda talabanining hozirda yoki kelgusida ta`lim maqsadiga erishishi uchun xavf tug`diradigan vaziyat tushuniladi. Muammoli ta`lim haqidagi to`plangan ma`lumotlarga asoslanib, shuni ta`kidlash lozimki, bu ta`lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko`rinishga ega:

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.


2. Muammoning qo`yilishi.

3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o`quv mashg`ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko`p shakllantirish o`qituvchiga bog`liq.

Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o`quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o`quvchilarning izlanishga, fikrlashga o`rgatadi. Muammoli ta`lim o`qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o`quvchilarning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalarni ijodiy o`zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojoantirishga imkon beradigan ta`lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli ta`limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog`liq (2.5-rasmga qarang):



2.5-rasm. Muammoli ta’lim omillari

Muammoli ta`lim nazariyasida muammoli vaziyatning ikki turi mavjud:

1. Psixologik muammoli vaziyatlar.

2. Pedagogik muammoli vaziyatlar.

Psixologik muammoli vaziyatlar o`quvchi faoliyatiga, pedagogik muammoli vaziyatlar o`quv jarayonining tashkil etilishiga taalluqli. Muammoli vaziyatlarning bu ikki turi bir-birini taqozo etadi. Pedagogik muammoli vaziyatlar o`quvchidan faqat fikr yuritishnigina talab qilmay, balki bilish munozarasida ishtirok etish, u yoki bu hodisa haqidagi hayotiy va ilmiy tasavvurlarni qiyoslash, olimlarning nuqtayi nazarlarini taqqoslash, shuningdek, ularning qiziqishlarini orttirish maqsadida dars davomida yangi dalillarni ma`lum qilish, mazkur dalillarning fan-texnika rivoji uchun ahamiyatini yoritish orqali vujudga keltiriladi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o`qituvchi o`quvchilar faoliyatini fikr


yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo`naltiradi. Muammoli vaziyatlardan o`quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda o`rganilayotgan mavzuni muammoli dars shaklida o`tish tavsiya etiladi. O`qitish jarayoniga muammoli darslarni qo`llash uchun o`qituvchi quyidagilarni hal qilishi kerak:

1. O`quv dasturi bo`yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o`tish mumkinligini;

2. Mavzu matnidagi masalalar bo`yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar va topshiriqlarni aniqlashda didaktikaning ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga amal qilish;

3. O`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta`minlaydigan vosita va usullarni aniqlash, ulardan o`z o`rnida va samarali foydalanish yo`llarni belgilash zarur.

Quyida ta`lim jarayonida qo`llaniladigan muammoli vaziyatlarning turlari keltirilgan (2.6-rasmga qarang):



2.6-rasm. Muammoli vaziyatning turlari

Muammoli vaziyatlarning bir qancha turlari bor. Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish o`qituvchining mahoratiga, bilimi va pedagogik vaziyatlarni to`g`ri baholay olish malakasiga bog`liq. Muammoli darslarda o`quvchining faoliyati,

eng avvalo, mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, o`quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlarni yaratish, o`quvchilar oldiga o`quv muammolarini yuqori ilmiy va uslubiy saviyada qo`yish, darsda mazkur o`quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o`quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo`naltirishdan iborat.O`quvchi faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtayi nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat. Muammoli darsning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

o`quv muammolarini hal etishda o`quvchilar ijodkorligini va tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish;

o`quvchilarning yangi bilimlarni egallash ko`nikmalarini shakllantirish;

o`quvchilarda bilimlarni ijodiy o`zlashtirish va amalda qo`llash malakalarini rivojlantirish;


o`quvchilarning izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti va zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli ta’lim jarayonida o`quv maqsadlarini belgilash

O`qitishning kutilayotgan natijalarini ishlab chiqishda zamonaviy psixologik yondashuvlar qadimda yaratilgan bo`lib, Aristotel ta’lim maqsadlarining uchta asosiy kategoriyasini, ya’ni tafakkur, sezish qobiliyati va qo`l amallarini bir-biridan farqlagan. Pestolotssi es bu amallarga muvofiq inson tanasining uch organini keltiradi: bosh, yurak va qo`l. Bugungi kunga kelib, uchta soha bo`yicha o`quv maqsadi(kutilayotgan natijalar, vazifalar)ni rejalashtirish qabul qilingan (2.7-rasmga qarang). Dars jarayonini o‘quv maqsadlarini belgilashda quyidagi amallarni bajarish lozim:

1. Ma’lum mavzu bo‘yicha o‘quvchilar uchun topshiriqlar sonini aniqlash.

2. Shu mavzu bo‘yicha talaba bajarishi lozim bo‘lgan amallarni aks ettiruvchi va o‘qitishning kutilayotgan natijalarini ifodalashda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan aniq fe’llar ro‘yxatini tuzish.



2.7-rasm. O‘quv maqsadlarining yo‘nalishlari

3. Har bir topshiriqni (kutilayotgan natijani) talabaning (o‘qituvchi faoliyati atamalarida emas) ishi atamalarida shunday qo‘yish kerakki, u mashg‘ulot davomida o‘qituvchi o‘tishi lozim bo‘lgan bosqichlarga emas, balki "o‘quvchining yakuniy amallari"ga qaratilgan bo‘lsin.

4. Har bir topshiriqda talaba faoliyati aks etishi lozim. Masalan: sanab o‘tadi, tavsiflaydi, ajratadi, namoyish qiladi, tanlaydi, tahlil qiladi, hisoblaydi va h.k.

5. Talabalardan kutilayotgan, kuzatiladigan, kuzatilmaydigan "hulqni" ("ko‘nikmalarni shakllantirish", "anglashiga erishish" va h.k.larni) aniq ifodalash.

6. Har bir topshiriqni (kutilayotgan natijani) shunday qo‘yish kerakki, u ikkita-uchta o‘qitish natijasini emas, faqat bitta natijani o‘z ichiga olsin.

7. Topshiriqlarni amalga oshganligini o‘lchash mumkin bo‘lsin va maqsadga erishilganligini tasdiqlash imkoniyati bo‘lishiga ahamiyat berish lozim.

9. Agar talaba ma’lum davr ichida o‘z ishini namoyish etishi kerak bo‘lsa, vaqt chegaralarini belgilash.

10. O‘quv topshiriqlarini (kutilayotgan natijalarni) uchta soha bo‘yicha ifodalash:

kognitiv (bilishga oid, tafakkur sohasida) - o‘zlashtirilgan bilimlar va egallangan ko‘nikmalar;

psixomotor (amallar sohasida) - tana harakatlarini muvofiqlashtirish, ularning asab-mushaklar koordinatsiyasi. Masalan, yozuv, sport anjomlarida mashqni bajarish;

affektiv (emotsional-qadriyatlar, hissiyot sohasida) - hissiy qadriyatlar (quvonch, hayajon, qoidalarga rioya qilish va h.k.).

11. O‘quv topshiriqlarini (kutilayotgan natijalarni) ishlab chiqqandan so‘ng, kutilayotgan natijalarga erishganlik darajasini baholash bo‘yicha nazorat topshiriqlarini tuzish.

12. Dars mazmunini aks ettirish uchun usul va vositalarni tanlash. Ular ham an’anaviy, ham interfaol usullar bo‘lishi mumkin.

Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar. Muammoli ta’lim XX asrning 70-80 yillarida olib borilgan izlanishlar va tajribalarning ijobiy yakuni sifatida vujudga kelgan ta’lim shaklidir. Muammoli ta’lim haqida fikr yuritganimizda, bu ta’lim o‘zi nima? Uning qanday nazariy asoslari bor? U an’anaviy ta’limdan nima bilan farq qiladi? Muammoli ta’limning maqsadi nima? Muammoli ta’limni o‘qituvchi qanday amalga oshiradi?-degan savollarga duch kelamiz.

Muammoli ta’lim bu-o‘quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo‘l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta’lim darsda bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u o‘quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o‘rganiladigan mazmunning murakkab qismini o‘zlashtirishda o‘qituvchining faoliyati qanday bo‘lsa, o‘quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta’limning asosiy maqsadidir. Muammoli ta’lim – o‘quvchilarning erkin fikrlashlariga, o‘zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta’sir etish. Bunda o‘quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg‘iz fikrlashi, jamoa bo‘lib fikrlashi, tahlil qilishi,

ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilishi va to‘plangan fikrni bayon qila olishi kerak. Agar o‘qituvchi yangi mavzuni ta’sirli bayon qilib, ko‘rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim o‘quvchilar bilan ish olib borsa, o‘quv jarayoni samarali bo‘ldi yoki faol bo‘ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta’lim usuli an’anaviy ta’lim berishdir.

Muammoli ta’lim o‘qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo‘lishi uchun o‘zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o‘qituvchining bo‘lajak o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta’limning barcha ko‘rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta’limga tayyorgarlik ko‘rishda o‘qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o‘qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta.

Ana shunday qiyinchiliklardan biri darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o‘rganish usulini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o‘quv materialini o‘zlashtirishni ta’minlabgina qolmay, balki o‘quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham ta’minlashi zarur. Ikkinchi qiyinchilik esa muammoli ta’limni ko‘rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya’ni o‘qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha o‘quvchilarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o‘quvchilariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o‘qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarning yetishmasligidan kelib chiqadi. Uchinchi qiyinchilik esa darsda o‘quvchilarni qiziqishini uyg‘otish va uni uzluksiz rivojlantirib borishida ko‘rinadi. Chunki o‘quvchilar diqqatini bir nuqtaga muntazam to‘plashga o‘qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda mazkur mavzuda muammoli ta`limning ilmiy-nazariy asoslari, muammoli ta`limining asosiy turlari, muammo va muammoli vaziyat hamda muammoli ta’lim jarayonida o`quv maqsadlarini belgilash yoritilgan.

Nazorat va muhokama savollari:

1. O‘qituvchining innovatsion faoliyatini samaradorligini oshirishga tegishli bo‘lgan yondashuvlar qaysilar?.

2. “Muammoli vaziyat” tushunchasiga ta'rif bering.

3. “Muammo” va “muammoli vaziyat” tushunchalari o‘rtasidagi farqlarni ajrating.

4. Muammoli ta'limning o‘ziga xos xususiyatlarini sanang.

5. Pedagogikada innovatsion o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini belgilang.

6. IVEN pedagogikasi nima va unga qanday belgilar xos?

7. Evristik o‘qitishning xususiyatlarini sanab bering.

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:


1. Muammoli ta’limni paydo bo`lish tarixi va nazariy asoslarini “Insert jadvali” metodi asosida tahlil qiling:

“V” **Buni oldindan bilardim**	**“+”** **Men uchun yangi ma’lumot**	**“-”** **Bu ma’lumotni aniqlashtirish yoki to`ldirish kerak**	**“?”** **Tushunmadim yoki ochiq qolgan savollar**

2. Muammoli o`qitishning afzalliklari va kamchilirlarini “T-chizma” (T-sxema) metodi asosida tahlil qiling:

Afzalliklari	**Kamchiliklari**

3. Mutaxassislik yo`nalishida ixtiyoriy mavzu uchun quyidagi sxema asosida darsning o`quv maqsadlarini shakllantiring:



4. Ta`lim tizimida ixtiyoriy muammoni tanlang va uni “Muammoli vaziyat metodi” asosida ishlab chiqing:

Muammo	**Muammoning kelib chiqish sabablari**	**Muammoning oqibatlari**	**Muammoni yechish yo`llari**	**Eng to`g`ri yechimni tanlang**

§ 2.3. TA’LIMNING INTERFAOL METODLARI VA STRATEGIYALARI

Reja:

1. Passiv, faol va interfaol metodlar.
2. Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar.
3. Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashning ahamiyati va zarurati.
4. Interfaol metodlarning klassifikatsiyasi.

Tayanch so`z va iboralar: passiv metod, faol metod, interfaol ta’lim, interfaol metodlarning klassifikatsiyasi, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash, interfaol metodlar strategiyalar, grafik organayzerlar.

Passiv, faol va interfaol metodlar

O‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning uchta shakli ma’lum bo‘lib, hozirgacha ta’lim tizimida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bular passiv (an’anaviy), faol va interfaol metodlarni o‘z ichiga oladi [87].

Passiv metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakli bo‘lib, unga ko‘ra o‘qituvchi asosiy faoliyat yurituvchi bo‘lib, mashg‘ulotni olib boradi va ta’lim oluvchilar passiv subyekt, tinglovchi sifatida ishtirok etadi. O‘qituvchining ta’lim oluvchilar bilan aloqasi amaliy mashg‘ulotlarda so‘rovlar, nazorat ishlarini bajarish orqali amalga oshiriladi. Asosiy maqsad imkon qadar ko‘proq axborot berishdan iborat bo‘ladi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan har qaysi yo‘nalishdagi metodlarning o‘z afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Ta’limda qo‘llaniladigan passiv metodlarning asosiy afzalligi o‘qituvchi oddiy tayyorgarlik va cheklangan vaqt oralig‘ida nisbatan katta hajmdagi o‘quv materialini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qitish metodlarini soddalashtiradi, tayyorgarlikka hamda ta’lim oluvchilar bilimini nazorat qilishga kamroq vaqt sarflanadi. Passiv metodlarning kamchiligi o‘qituvchining ta’lim oluvchilarga individual yondashuv imkoniyatlari cheklangan


bo‘lib, sinfda ko‘pchilikni tashkil etuvchi, o‘rtacha o‘zlashtiruvchi ta’lim oluvchilarga mo‘ljallangan material va topshiriqlar bilan faoliyat olib boriladi. Differensial yondashuv bo‘lmaganligi sababli iqtidorli ta’lim oluvchilar o‘rtacha o‘zlashtiruvchilar darajasiga tushib qolsa, past o‘zlashtiruvchilar yanada orqada qolib ketadi. Shu bilan birga bu metodlar ta’lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi.

Faol metodlar o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakli bo‘lib, ular dars davomida bir-biri bilan muloqotda bo‘ladi, ya’ni, ta’lim oluvchilar darsning faol ishtirokchilariga aylanadi. Hozirgi vaqtda ushbu usul seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida keng qo‘llanilib kelinadi. Obyekt va subyekt orasidagi faol aloqa natijasida o‘qituvchining ta’lim oluvchilar o‘zlashtirish darajalarini aniqlab olish va differensial yondashish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada, iqtidorli ta’lim oluvchilar o‘z bilim darajasida topshiriqlar olishi hisobiga rivojlanishda davom etadi, mashg‘ulotda zerikib qolmaydi. Past o‘zlashtiruvchilar alohida yondashuv, e’tibor hisobiga o‘rtacha o‘zlashtiruvchilar darajasiga yetib olishga intiladi, oradagi farqni qisqartiradi. O‘rtacha o‘zlashtiruvchi ta’lim oluvchilarda ham iqtidorlilar safiga yetib olish imkoniyati ortadi. Faol metodlarning kamchiligi ta’lim oluvchilarga idividual yondashuv uchun o‘qituvchidan juda ko‘p kuch va vaqt talab etadi. Ko‘p sonli auditoriyalar bilan ishlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Ta’lim oluvchilarda o‘qituvchi yaratgan imkoniyat darajasidagina rivojlanish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Interfaol metodlarga o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi, shuningdek, talabalarning o‘zaro ta’siriga asoslangan metodlar kiradi. Interfaol metodlarning yuqoridagi ikki metodlar guruhidan farqi subyekt-subyekt aloqalarning ham mavjudligidir. Shu bilan birga faol munosabatlar nafaqat o‘qituvchi-talaba yo‘nalishiga qaratiladi, balki talaba-o‘qituvchi yo‘nalishida ham faol aloqa o‘rnatiladi. Ta’lim oluvchilar rejalashtirilgan, tashkillashtirilgan o‘quv hamda baholash jarayonida maksimal ishtirok etadi. O‘qituvchi faqat ahborot manbai emas, balki ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyatida boshqaruvchi, tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi kabi vazifalarni ham bajaradi.

Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar

Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Interfaol ta’lim (ingl. “interact”, rus. “interaktiv”; “inter” – o‘zaro, “act” – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim. Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi (2.8-rasmga qarang):



2.8-rasm. An’anaviy ta’limga asoslangan suhbat

Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi. Interfaol ta’limda suhbat quyidagi shaxslar o‘rtasida tashkil etiladi (2.9-rasmga qarang):



2.9-rasm. Interfaol ta’limda tashkil etiladigan suhbat (dialog)

Interfaol ta’lim mohiyatiga ko‘ra suhbatning “talaba – axborot- kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi. O‘qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol ta’limni qo‘llash orqali o‘qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi. O‘quv jarayonining interfaol ta’limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uyg‘otadi.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi [54; 63].

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni *Blum taksonomiyasi* deb nomlanadi (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi *bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash* darajalarida bo‘ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan [54; 64]:

Bilish dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni yetkaza

olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo‘llash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noa’nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to‘g‘ri qo‘llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o‘rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o‘quvchi yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o‘quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma’lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o‘lchash, nazorat qilish, asoslash, ma’qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Bunda an’anaviy hamda interfaol dars orasidagi farqlarni bilish kerak (2.10-jadvalga qarang) [29].

2.10-jadval.

An’anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

№	Asosiy tushunchalar	An’anaviy dars	Interfaol dars
1.	Qo‘llanish darajasi	Barcha mavzular bo‘yicha ular uchun qulay bo‘lgan dars turlari shaklida qo‘llaniladi	Ayrim mavzular bo‘yicha interfaol darsning qulay bo‘lgan turlari shaklida qo‘llaniladi. Boshqa mavzular uchun an’anaviy dars qo‘llaniladi
2.	Dars maqsadi	Dars bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash	Dars mavzusi bo‘yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o‘rgatish
3.	O‘qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish	O‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish
4.	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash
5.	O‘quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo‘yicha vazifalarni bajarib kelish	Yangi dars mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilish
6.	O‘quvchining vazifalari va ish usullari	O‘qituvchini tinglash va o‘zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish	O‘qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo‘yicha mustaqil fikrlash, o‘z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7.	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko‘p qismi o‘qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o‘zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi	Dars vaqtining ko‘p qismi o‘quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o‘z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi
8.	Darsning modul va algoritmi	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o‘qituvchi o‘zi qo‘llayotgan metodga muvofiq foydalanadi	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o‘tkaziladi
9.	O‘quvchilar ning faollik darajasi	O‘qituvchi har tomonlama faol, o‘quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha faol	O‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham har tomonlama faol. shakllari: o‘qituvchi-o‘quvchi; o‘quvchi-o‘quvchi; o‘quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o‘quvchi-o‘qituvchi; kichik guruh-o‘qituvchi; guruh-o‘qituvchi
10.	Kutiladigan natija	Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari	Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning o‘z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o‘rgatish


Interfaol mashg‘ulotning ushbu jadvalda ko‘rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O‘quv rejadagi fanlarni o‘qitishda qaysi mavzular bo‘yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning maqsadiga to‘liq erishishni ta’minlaydigan interfaol yoki an’anaviy mashg‘ulot turlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi.

2. Interfaol mashg‘ulotning samarali bo‘lishi uchun o‘quvchilar yangi mashg‘ulotdan oldin uning mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilishlarini ta’minlash zarur.

3. Interfaol mashg‘ulotda o‘quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an’anaviy mashg‘ulotga nisbatan ko‘p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Biroq, bunda o‘qituvchining ma’lum darajada quyidagi omillarga ega bo‘lishi talab qilinadi (2.11-rasmga qarang):



2.11-rasm. Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha ayrim tajribalarni o‘rganish asosida bu mashg‘ulotlarning sifat va

samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o‘qituvchiga, o‘quvchilarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishini nazarda tutishimiz lozim [29].

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

1) o‘qituvchilardan interfaol mashg‘ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

2) o‘qituvchilarga interfaol usullarni o‘rgatishni tashkil qilish;

3) o‘quv xonasida interfaol mashg‘ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;

4) ma’ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo‘lishini ta’minlash;

5) sanitariya-gigiyena meyorlari buzilishining oldini olish;

6) xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta’minlash;

7) davomatni va intizomni saqlash;

8) nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

1) DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko‘zda tutilgan maqsadga to‘liq erishishni ta’minlash uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol usullarni to‘g‘ri tanlash;

2) interfaol mashg‘ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;


3) interfaol mashg‘ulotning har bir elementi o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lishini ta’minlash;

4) mashg‘ulotlar mavzusi va mazmunini so‘nggi ilmiy-nazariy ma’lumotlar asosida belgilash;

5) o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

6) interfaol mashg‘ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

Shu bilan birga interfaol TTni qo‘llash samaradorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog‘liq (2.12-rasmga qarang):



2.12-rasm. Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ikkilamchi omillar

Odatda interfaol ta’limga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual; juftlik; guruh; jamoa bilan ishlash

Interfaol ta’limni qo‘llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;

tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to‘siqlarsiz namoyish etish;

muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;

guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;

o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish;


fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash;

o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;

o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;

turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish

Interfaol ta’lim muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interfaol ta’limga xos asosiy belgilar sanaladi (2.13-rasmga qarang):



2.13-rasm. Interfaol ta’limning asosiy belgilari

Izoh: Refleksiya (lot. “reflexio” – ortga qaytish, aks etish): kishining o‘z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash), o‘z-o‘zini tahlil qilishi.

Barcha ta’lim turlari kabi interfaol ta’lim ham ustuvor tamoyillarga ega:

1. Mashg‘ulot – ma’ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.

2. Guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko‘p.

3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko‘ra o‘zaro teng.

4. Har bir talaba o‘rganilayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrini aytish huquqiga ega.

5. Mashg‘ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqid qilinishi mumkin).


6. Bildirilgan g‘oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma’lumot) bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida interfaol ta’limning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma’lum (2.14-rasmga qarang).

Interfaol ta’lim quyidagi imkoniyatlarga ega:

talabalarda bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi;

ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag‘batlantiradi;



2.14-rasm. Interfaol ta’limning asosiy shakllari

har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

o‘quv materialining puxta o‘zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;

talabalarga ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatadi;

talabalarda mavzular bo‘yicha fikr hamda munosabatni uyg‘otadi;

talabalarda hayotiy zarur ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi;

talabalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirilishini ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashning ahamiyati va zarurati

Ta’limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror toptirish uchun o‘qituvchilar bir qator shartlarga rioya etishlari zarur:

ta’lim jarayoniga jamoadagi barcha o‘quvchilarning to‘la qamrab olinishi;

o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga ruhan tayyorgarliklarini inobatga olish;

o‘quvchilar sonining ko‘p bo‘masligi;

o‘quv xonasining jihozlanishi;

topshiriqni bajarish, materialni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi;

o‘quvchilarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi [29].

Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada talabalar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi.

Interfaol ta’lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. O‘qitishning interfaol metodlari:

1. *Kognitiv* (cognito – lotincha so‘z, «bilim», «bilish» ma’nosini anglatadi) – eng avvalo, o‘quvchi-talabalarni tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog‘lik bo‘lgan metoddir.

2. *Eksperimental* o‘quvchi-talabalarning «jonli», shaxsiy tajriba orttirishga yo‘naltirilgan.


3. Rolli o‘yinlar, modellashtirish hayotiy vaziyatlarni model-lashtirish hamda ma’lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko‘rishga yo‘naltirilgan. Bu metod jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog‘lik, ammo muhokama rolli uyin tahlili asosida olib boriladi.

4. Fasilitatsiya (inglizcha fasilitate - osonlashtirish) – guruh ishini tashkil etish, ko‘pincha aniq, real, amaliy topshiriqlar bilan bog‘lik, aniq qaror qabul qilish bo‘yicha muhokama, faoliyatning real rejasini ishlab chiqish, real, mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirish [29].

Qabul qilish vositalari (kanallari) – qabul qilishning eng muhim filtrlaridan biri: ko‘rish, eshitish, his-tuyg‘u. *Vizual* - biz ko‘rayotgan narsa (obrazlar, rasm, kino). *Audial* - biz eshitayotgan narsa (nutq, shamolning xushtagi, tomchilayotgan suv, oxang, tembr, ovoz balandligi). *Kinestetik* - (grekcha «kines» - «harakat») - biz xis qilayotgan narsa, hid va ta’m.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat

bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Quyidagi 2.15-rasmda guruh bo‘lib ishlashning tashkiliy, uslubiy, tarbiyaviy va amaliy jihatlari ko‘rsatilgan (2.15-rasmga qarang):



2.15-rasm. Guruh bo‘lib ishlash

Guruhlarni tashkil etish usullari aniqlangan (2.10-jadvalga qarang):

2.10-jadval.

Guruhlarni tashkil etish usullari

Guruhlar bilan tanishish	Guruhlarga bo`lish	Ta’lim oluvchilar bilan kontaktga kirishish
Anketa Intervyu Muz yorar Predmetli (koptok, shar va b.) Sanoq (30 gacha sanash)	Xohishiga ko`ra Tasodifiy (jrebiy, fanta va b.) Belgi (simvol) (rasmlar, ranglar, yil fasllari va b.) Lider orqali (lider tanlovi) O`qituvchi tanlovi	O`quv jarayonni demokratik boshqaruvi Partner (hamkor) bo`lib ishlash Hamkorlikda rejalashtirish “Biz va o`qituvchi” usuli

Interfaol mashg‘ulotlar o‘ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo‘lib, uni tashkil qilish va olib borish bo‘yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo‘yicha alohida vazifalar belgilangan. Guruh bo‘lib ishlash modeli quyidagi 2.11-jadvalda o‘z ifodasini topgan (2.11-jadvalga qarang):

2.11-jadval.

Guruh bo‘lib ishlash modeli

Muhit	Talab	Tamoyil	Harakat
Psixologik Pedagogik Ijodiy O`ziga ishonch Ishchanlik	Bevosita tajriba (o`zaro maqsadli kuzatish va b.) O`rganish (mustaqil, seminar, malaka	Mehnat (NOT va mahorat) Intellekt (aql zakovat, madaniyat) Motiv (boshqarish)	Verbal va noverbal aloqa Munozara qilish Ijodiy va ko`p qirrali fikrlash

Mas’uliyat	oshirish, guruhlarda ishlash)		Konsensusni qidirish Qaror qabul qilish Baholash va uni aks ettirish

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Interfaol metodlarning klassifikatsiyasi

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;

ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;

ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;

o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashti-rilishi;

ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab- quvvatlanishi;

amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limni tashkil etishda eng ommaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda (2.12-jadvalga qarang):

2.12-jadval.

Interfaol ta’limni tashkil etish texnologiyalari

Interfaol ta’limni tashkil etish texnologiyalari	Namunalar
Interfaol metodlar	“Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va b.
Strategiyalar	“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig- zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va h.k.
Grafik organayzerlar	“Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b.

Bugun jahon g‘oyalarni izlash, ijodiy tasavvur va uni rivojlantirshning intellektual qurollari uslublaridan foydalanishning qo‘llab-quvvatlanishi avj olmoqda. Hozirgi kunda bunday uslublarning ko‘plab turlari mavjud. Quyida 3-jadvalda jahonda eng taniqli va hozirgi kunda ta’lim va tarbiya tizimida ko‘p qo‘llanilayotgan yangi g‘oyalarni izlash, ijodiy tasavvur va uni rivojlantirishning intellektual qurollari safidan joy olgan uslublarning umumiy xarakteristikasini keltiramiz (2.13-jadvalga qarang) [39]:

2.13-jadval.

Mualliflik uslublari

№	Uslub	Ixtiro qilingan		Muallif
		Davlat	Yil	
1.	Diagramma Pareto	Italiya	1897	V.Pareto
2.	Katalog	Olmoniya	1926	F.Kunse
3.	Morfologik tahlil	AQSH	1942	F.Svikki
4.	Sinektika	AQSH	1944	V.Gordon
5.	Nazorat savollar	AQSH	1945	Dj.Poya
6.	Bosqchma-bosqich tahlil qilish	Rossiya	1950	Y.Sobolev
7.	Isikavi uslubi	Yaponiya	1952	Kaoru Isikavi
8.	Tushunchalarn tashkil etish	GDR	1953	F.Xazen
9.	Nazorat savollar	AQSH	1954	R.Krouford

10.	Ixtiro matritsalar	AQSH	1954	A.Mol
11.	Kashfiyot algoritmi	Rossiya	1956	G.Altshuller
12.	Aqliy hujum	AQSH	1957	A.Osborn
13.	Fokal obyektlar	AQSH	1958	CH.Vayting
14.	Delfi	AQSH	1950-1960	Olaf Helmer, Norman Dalkey N.Rescher
15.	Yechimga yo‘naltirilgan	Rossiya	1961	N.Sereda
16.	Muhandislik-narxlik tahlil	AQSH	1961	L.Maylz
17.	Nazorat savollar	AQSH	1964	A.Osborn
18.	Yetti karra izlash	AQSH	1964	G.Bush
19.	Ratsional konstruksiya	AQSH	1966	R.Mak-Krori
20.	Funksional loyihalash	Buyuk Britaniya	1966	YE.Metchett
21.	Delfi	AQSH	1966	O.Xelmer
22.	Muammolarni majmuaviy yechish	Chexislovakiya	1967	S.Vit
23.	Psixoevristik dasturlash	Rossiya	1968	V.Chavchanidze
24.	Nazorat savollar	Buyuk Britaniya	1969	T.Eyloart
25.	Yechimga zinama-zina yondashish	AQSH	1969	A.Freyzer
26.	Evristik usullar kutubxonasidan foydalanish	Rossiya	1969	A.Polovinkin
27.	Funksional ixtiro	Buyuk Britaniya	1970	Mualliflar jamoasi
28.	G‘oyalar anjumanlari	GDR	1970	V.Gilde, K.Shtarke
29.	Tizimli evristika	GDR	1970	M.Myuller
30.	Kano modeli	Yaponiya	1970	Noriaki Kano
31.	Kreatikan	Fransiya	1970	M.Dimor, X.Ebert
32.	Iste’mol narx asosdagi sarfni tahlil qilish	Olmoniya	1971	K.Tomas
33.	Izlashni o‘nli matritsalari	Rossiya	1972	R.Povileyko
34.	Ixtiro masalalarini yechishga tizimli-mantiqiy yondashuv	Rossiya	1972	V.Shubin
35.	Tasodiflar va assotsiatsiyalar marjonlari uslubi	Rossiya	1972	G.Bush
36.	Integrllashgan “Metra”	Fransiya	1972	N.Buven
37.	Berk vaziyatlarni yo‘q qilish	Buyuk Britaniya	1972	Dj.Djons
38.	Tizimlarni transformatsiya qilish	Buyuk Britaniya	1972	Dj.Djons
39.	Bichmarking	AQSH	1972	
40.	Tuzilishli tahlil	Rossiya	1973	G.Altshuller
41.	“Kichik odamchalar bilan” modellashtirish	Rossiya	1974	G.Altshuller
42.	Fikrlshshning olti shlyapasi	AQSH	1974	T.Gollvey

Yuqorida bayon etilgan yangi g‘oyalarni izlashning uslublarini uch guruhga ajratiladi:

1. Fikrlashni psixologik faollashtirish uslublari.
2. Tizimlashtirilgan izlash uslublari.
3. Yo‘naltirilgan izlash uslublari [39].

Fikrlashni psixologik faollashtirish uslublariga aqliy hujum, teskari aqliy hujum, ko‘lankalik aqliy hujum, kemalik kengash, fokal obyektlar uslubi, sinetika, analogiyalar usullari, RVS operaori, g‘oyalar anjumani, kichik odamchalar, assotsiatsiyalar marjoni va metaforalr oltita shlyapalar, kouching vaboshqa uslublarni kiritish mumkin.

Tizimlashtirilgan izlash uslublariga nazorat savollar ro‘yxati, morfologik tahll, funksional tahlil, Metchett funksional lyihalash, fokal obyektlar, assotsiatsiyalar marjoni va metaforalar, ko‘p qirrali ketma-ket sinflashtirish, optimal shakllar sintezi, tizimli iqtisodiytahlil va elementli konstruktiv yechimlarni ilash besh nima uchun va boshqa shu kabi uslublarni kiritsh mumkin.

Yo‘naltirilgan izlash uslublariga R.Keller izlanishli konstruksiyalashning funksional-fizik uslubi, jodiy masalalarni yechish nazariyasi (TRIZ-IMEN) kabi uslublarni kiritish.

G‘oyalarni izlash uslublarini ichidan alohida boshqarishga oid uslublariga oltita sigma, sifatli boshqarishning yettita qurollari, AVS tahlil, tejamkorlikdagi ishlab chiqarish, nazorat varaqasi, Delfi, sochilgan diagramma, qarindoshlik diagrammasi, aloqalar diagrammasi, Pareto diagrammasi, Gistogrammalar, Isikavi diagrammalari, nazorat xaritalari, ustivorliklr matritsasi, Kano modeli, autsorsing, parallel muhandislik ishlanma, siyosatni yoyish, xatolarni himoyalash, ko‘rinishlar va rad etishlar oqibatining tahlili, AVS benchmarking, Taguti, strelkachilik diagramma, strelkachilik xaritalar va boshqa shu kabi uslublarni kiritish mumkin.

Blits-so‘rov. Ushbu usul talaba (o‘quvchi)larni, harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga o‘rganalayotgan predmet asosidan hilma-xil fikrlar ma’lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini o‘tkaza olish hamda o‘z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o‘rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi talabalarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki fikridan qolish, boshqalar bilan hamfikr bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. *Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi* bir necha bosqichlarda o‘tkaziladi:

o‘qituvchi talabalarga ushbu mashg‘ulot bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga mo‘ljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, talabalar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

o‘qituvchi hamma talabalarga alohida-alohida tarqatma material beradi va ulardan ushbu materialni sinchiklab o‘rganishlarini so‘raydi;

o‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifa(tarqatma materialda berilgan harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash, belgini qog‘ozda alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan qo‘yish kerakligi)ni tushuntiradi;

tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta’kidlaydi;

har bir talaba o‘zining shaxsiy fikri asosidagi tarqatma materialdagi “yakka baho” bo‘limiga berilgan harakatlarning manttiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi;

talabalarning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o‘qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so‘raydi. Kichik guruhlar talabalarning hohishlariga qarab yoki raqamlar bo‘yicha tashkil etishi mumkin;

kichik guruhlardagi talabalarning har biri o‘z qog‘ozidagi “yakka baho” bo‘limida belgilangan harkatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin ular 3 kishida uch xil bo‘lgan ketma-ketlikni birgalashib kelishgan holda tarqatilgan qog‘ozdagi “guruh bahosi” bo‘limiga muqobil raqamlarni belgilab chiqadilar;

bacha kchik gruhlar o‘z ishlarni tugatgach, o‘qituvchi harakalar ketma-ketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi ya’ni talabalardan ularga tarqatilgan qog‘ozlardagi “to‘g‘ri javob” bo‘limiga u tomonidan aytilggan harakatlar ketma-ketligi raqamlarini yozishni so‘raydi;

o‘qituvchi “to‘g‘ri javob” bo‘limda berilgan raqamlar bilan “yakka xato” hamda “guruh bahosi” bo‘limidagi raqamlarni solishtirish va kattasidan-kichigini ayirish, ayirmalarni mos holda “yakka xato” va “guruh xatosi” bo‘limlariga yozishlarini so‘raydi;

o‘qituvchi yakka va guruh xatolarinig umumiy soni bo‘yicha tushunchacha beradi va ularning har birini alohida-alohida sharhlab beradi;

o‘qituvchi mashg‘ulotni yakunlab, ba’zi guruhlarning mashg‘ulot mobaynidagi ish faoliyatlariga o‘z fikrini bildiradi va talabalarning bilimini ilovadagi mezonlar asosida baholaydi yoki mos kelgan to‘g‘ri javoblar soniga qarab har bir talaba o‘z bahosini ilovada ko‘rsatilgandek aniqlaydi [54; 40-41].

Blits-so‘rov: Kasbiy ta’lim

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Tushunchalar	Tushunchalarga izoh
		2			Kasbiy tarbiya	muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim
		1			Kasbiy ta’lim	inson kasbiy madaniyatiga oid strategiya, usul, malaka, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni
		3			Kasbiy mahorat	ta’lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon

7-8 ta to‘g‘ri javob – “qoniqarli”

9-10 ta to‘g‘ri javob – “yaxshi”

11-12 ta to‘g‘ri javob – “ya’lo”

Suhbat metodi – og‘zaki bayon qilish metodi bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarni asta-sekin o‘zlashtirishlariga olib keluvchi puxta o‘ylangan savollar sistemasidir.

Takrorlash, mustahkamlash va yangi bilimlarni bayon qilishda qo‘llaniladi.

1. Evristik suhbat (evristika yunoncha so‘z – heurisko – izlayman, topaman, kashf etaman)

Maqsad – o‘qituvchining mohirlik bilan qo‘ygan savollari yordamida hamda o‘quvchilarning tirishqoqligi va mustaqil fikrlashlari tufayli ularni yangi bilimlarni jadal o‘zlashtirishlariga olib kelish.

Bu suhbatda o‘qituvchining bitta savoliga o‘quvchilarning ko‘plab javoblarini kutish mumkin.

2. Katexizik suhbat (katexizis yunoncha so‘z – katechesis – nasihat, o‘git – biron-bir ta’limot asoslarini savol-javob tarzidagi qisqacha bayoni).

Maqsad – o‘quvchilarning bilimlarni tushunganlik va o‘zlashtirganliklarini nazorat qilish. Bu metod birinchi o‘rinda xotira va tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi.

Bu suhbatda o‘qituvchining bitta savoliga o‘quvchilar bitta aniq tug‘ri javob berishlari kerak.

Germenevtik suhbat – (yunoncha so‘z –hermeneutikos – tushuntiruvchi, talqin qiluvchi) – matnlarni sharxlash san’ati.

Maqsad – o‘qilayotgan, o‘rganilayotgan matnni, tomosha qilinayotgan rasmni, eksperiment va ekskursiya natijalarining asl ma’nosi, mazmunini o‘quvchilar hamkorligida tushuntirish va izoxlash.

Bu suhbatda o‘rganilayotgan materialni tug‘ri tushunish va baho berish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Sokrat suhbati – Sokrat metodi va mayevtikaga asoslangan (*mayevtika* – yunoncha so‘z - *maieutike* – *povival* san’at, insondagi yashiringan bilimlarni o‘ylab ko‘rishga undaydigan, yordamchi savollar yordamida yuzaga chiqarish).

Maqsad – dialektik fikrlashga, baxs-munozara san’atiga o‘rgatish, qat’iyan man qilinadigan fikrlardan qochish.

Bu suhbatda suhbatdoshni ikkilanish, hz fikrini bayon etish, pozitsiyasini aniqlashga qaratilgan og‘zaki dialogik metod ishlatiladi [54].

FSMU strategiyasi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘qv-seminari yakunida (talaba, o‘quvchi)larning o‘quv mashg‘ulotlari hamda o‘tilgan mavzu va bo‘limlardagi ba’zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida yoki o‘quv rejasi asosida biror-bir bo‘lim o‘rganilgach qo‘llanilishi mumkin [55].

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (talabalarning o‘quv mashg‘ulotlari hamda o‘tilgan mavzu va bo‘limlardagi ba’zi mavzular muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biror-bir bo‘lim o‘rganilgach qo‘llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda

bahslashishga, shu bilan qatorda o‘quvchi-talabalar tomonidan o‘quv jaryonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallanganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda talabalarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi talabalarni tarqatilgan oddiiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam berishdan iborat. Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

o‘qituvchi har bir talabaga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqalarini tarqatadi va yakka taribda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

F-fikringizni bayon eting;

S-fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating;

M- ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U-fikringizni umumlashtiring.

o‘qituvchi talabalar bilan bahs mavzusini belgilab oladi;

yakka tartibdagi ish tugagach, talabalar kichik guruhlarga ajratiladi va o‘qituvchi kichik guruhlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi;

kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardagi fikr va dalilllarni katta formatda umumlashtirgan holda to‘rt bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etiladi;

o‘qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o‘rtasida himoya qilishlarini so‘raydi;

mashg‘ulot o‘qituvchi tomonidan muammo bo‘yicha bildirilgan fikrlarni ummlashtirish bilan yakunlanadi [54].

*Namuna: “*Ommaviy madaniyatning insonlarga ta’siri” mavzusi bo‘yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting:

F-fikringizni bayon eting;

S-fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating;

M- ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U-fikringizni umumlashtiring.

Kungaboqar. Talabalar 4-5 kishidan iborat bo‘lgan guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi o‘quv predmeti mavzusidan kelib chiqib, o‘rtaga 1ta muammo yoki asosiy muammodan kelib chiqib har bir guruhga bittadan muammo tashlaydi. Har bir guruh bittadan kungaboqar yasab, uning markaziga doira yopishtirib, barglar yopishtiradi [29].

Mavzuga qarab, doiraga yoki umumiy bitta muammo yoki har bbir guruhnig muammolari yozilib doskagayopishtiriladi (yetarli miqdorda qog‘oz baglar oldidan tayyolab qo‘yilshi kerak).

Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlashib, umumiy yoki bir-birlarining muammolari bo‘yicha fikr almashmoqchi bo‘lsalar fikrlarini bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar va har bir guruhning “muammoli guli” vaqt o‘tishi bilan o‘sib boraveradi.

O‘qituvchi barcha guruhlar qatnashchilariga muammonning eng qulay yechish yo‘llarini topishga doim yordam berib boradi.

Bu uslubdan o‘tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talabalar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin. Uslub, talabalrga muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va fikrlarini erkin bayon qilishga o‘rgatadi [54].

Namuna: Professinal ta’limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni.

Guruhlarga ajratiladi. Ajratilgan vaqt (5-10minut). Birinchi guruh ishi quyidagicha taqdimot qilishi mumkin.

Labirint texnologiyasi. Texnologiya talaba (o‘quvchi)larning o‘quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan o‘z obro‘larini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to‘g‘ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimini topish ko‘nikmalarini shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga ko‘maklashish, ularning fikrlash qobiliyatini va nurqiy faoliyatini o‘stirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirish [29].

O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishi oldidan talabalar uchun, stullardan doira shaklidan joy tayyorlaydi.

1. Muammo beriladi.

2. Muammoning 2 yechimi o‘qituvchi tomonidan beriladi.

3. Talaba 1 ta variantni tanlaydi.

4. Tanlangan variantlar izohlanadi (nima uchun tanlanganini).

5. 3 ta kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi.

6. Eng qiziqarli muammo ishlab chiqiladi.

Texnologiyaning maqsadi talabalarning o‘quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan o‘z obro‘larini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to‘g‘ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimni topish ko‘nikmalarini shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga ko‘maklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini o‘stirish hamda muloqot qilish madaniyatni Shakllantirishdan iborat.

Mashg‘ulotn o‘tkazish tartibi: o‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishi oldida talabalar uchun stullardan doira shaklida joy tyyorlaydi (doira shaklidagi joyning o‘rtassiga savvatdagi guldasani qo‘yish maqsadga muvofiq. Joyning bunday jihozlanishi mashg‘ulotniqiziqarli va jonli o‘tishiga yordam beradi. Imkon bo‘lsa. Bunday mashg‘ultni ochiq havoda, tabiat qo‘ynid o‘tkazilsa, u holda talabalar yashil mysalar ustida doira shaklida bemalol joylashib olsalar ham bo‘ladi).

O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishi bilan talabalarni shu davradan joy egallashlarini so‘raydi. So‘ngra talabalarning faoliyati rang-barang va hamisha turli qiziq voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg‘ulotni boshlaydi. Misol tariqasida o‘qituvchi, talabalar faoliyatida uchragan yoki uchraydigan vaziyatlardan biri to‘g‘risida gapirib beradi va shu vaziyatdan chiqish yo‘lini so‘raydi yoki o‘qituvchi vaziyatni aytib, uning uchta yechimini ham aytadi va talabalardan uchta to‘g‘ri variantdan bittasini tanlashlarini va nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushintirib berishlarini so‘raydi. Shundan so‘ng o‘qituvchi talabalarni hohishlariga ko‘ra, uch kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi va ularga har bir kichik guruh a’zolari o‘z ish tajribalardan kelib chiqqan holda o‘quv va tarbiyaviy jarayonlarda o‘qituvchi va talabalar faoliyatida uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatlarni eslashlari, ulardan eng qiziqarli, eng muammolisini tanlab,

ularning yechimini (vaziyat muammoning yechimini uch variantdan test yoki aniq bir javobdan iborat bo‘lishi mumkin) ham topib qo‘yish topshirig‘ini beradi.

O‘qituvchi yordamida har bir kichik guruh navbati bilan o‘zlari tayyorlagan vaziyat yoki muammolarni boshqalarga og‘zaki bayon etadilar. Kichik guruhlar tomonidan aytilgan vaziyat yoki muammoni yechimini topish uchun o‘qituvchi ularga aniq vaqt belgilab beradi. Berilgan vaqt ichida kichik guruh a’zolari vaziyat yoki muammo yechimini topishga harakat qiladilar, vaqt tugagach. guruhlarning javoblari tinglanadi. Masalan, avval bir kichik guruh tanlagan vaziyat yoki muammo yana bir marotaba esga tushiriladi va qolgan kichik guruhlar navbati bilan ushbu vaziyat va muammoga o‘z yechimlarini aytadilar. Barcha kichik guruhlar o‘zlari tanlagan javoblarini aytib bo‘lishgach, vaziyat yoki muamoni o‘rtaga tashlagan kichik guruhning o‘zi to‘g‘ri yechim haqida fikr bildiradi. O‘qituvchi ham shu vaziyat yoki muammoga nisbatan o‘z fikrini bildiradi va bildirilgan barcha kichik guruh fikrlarni umumlashtiradi. So‘ngra ikkinchi guruh o‘rtaga tashlagan vaziyat yoki muammoni muhokamasiga o‘tiladi, shu kabi davradagi guruhlar tomonidan o‘rtaga tashlangan barcha vaziyat yoki muammolar muhokamasi o‘tkaziladi.

Mashg‘ulot oxirida o‘qituvchi talabalar va guruhlar ishiga baho beradi va vaziyat yoki muammolarni yechimini topishda nimalargga ko‘proq e’tibori qaratish kerakligi to‘g‘risda tavsiyalar beradi, so‘ngra mashg‘ulotni yakunlaydi [54].

Ijodiy ish” metodi talabarni ijodiy faollikka undash orqali ulard o‘zlashtirilgn nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodni qo‘llashda talabalarning erkinligi ta’minlanadi, mustaqil fikrlashlari uchun imkonyat yaatiladi. Talabalar mavjud bilimlariga tayangan holda o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradi. Talabalarning mantiqan to‘g‘ri fikrlay olishlari, shaxsiy mulohazalarni dalillar bilan isbolay bilishlari yagona talab sifatida olinadi [82].

3x4 texnologiyasi. Ushbu mashg‘ulot talaba (o‘quvchi)larni aniq bir muammoni (yoki biror mavzuni0 yakka holda (yoki kichik jamoa bo‘lib) fikrlab hal etish, yechimini topish, ko‘p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni

umumlashtirish va ular asosida qo‘yilgan muammo (yoki mavzu) yuzasidan bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, o‘z fikrlarini ma’qullay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya talabalar bilan avval yakka holda, so‘ngra ularni kichik guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi.

Texnologiyani qo‘llanilish tartibi:

1. Guruhlarga ajratiladi 4 ta guruhga.

2. Guruhlarga yozuvli varaqlar tarqatiladi.

3. O‘qituvchi kichik guruh a’zolarini tarqaatma materiallaga yozilgan asosiy fikrni faqat 3 ta fikr yaniy 3 ta so‘z yoki 3 so‘z brikmasi yoki 3 ta gap bilan davom ettirilishi mumkin ekanligi o‘qtiriladi.

4. Guruhlarda ish bajariladi.

5. Guruh a’zolari o‘rinlaridan turib soat mili bo‘yicha joylarni o‘zgartiradi.

6. Yangi joyga kelgan gurux a’zolari shu yerda qoldirilgan tarqatma materiallardagi fikrlar bilan tanishib yana 3 tadan o‘z fikrlarini yozadi. 3 ta gap yoki 3 ta so‘z.

7. Yana joylar o‘zgartirilaadi 1- gurux o‘z joyiga kelguncha joy almashadi.

8. O‘z joylariga qaytib kelgan kichik guruxlar umumlashtiriladi, ta’rif yoki qoida yozadi.

9. Taqdimot guruhlar o‘z qoida yoki ta’riflarini yozadilar.

10. O‘qituvchi baholaydi.

Texnologiyaning maqsadi: talabalarni erkin mustaqil va mantiqiy fikrlashga; jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o‘z fikrini o‘tkazishga, uni ma’qullashga; qo‘yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

Texnologiyaning qo‘llanilishi: seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlarga ajrtilgan holda) o‘tkazish hamda guruh a’zolarini bir necha marotaba joylarini o‘zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan [54].

1. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va h.k.

Aqliy hujum. Bevosita jamoa bo‘lib «fikrlar hujumi» («mozgovaya ataka») olib borish. bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yig‘ishdir.

«Aqliy hujum» metodi – muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod [76].

«Aqliy hujum» - bevosita jamoa bo‘lib «fikrlar hujumi» («mozgovaya ataka») olib borish. bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yig‘ishdir [54].

“Aqliy hujum” – g‘oyalarni ilgari surish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar, uni yechish uchun shaxsiy g‘oyalarini ilgari suradilar [64].

“Aqliy hujum” texnologiyasining tarkibi quyidagidan iborat:

1. Guruhlarga ajratish.
2. Guruhlarga topshiriqlar beriladi.
3. Vaqt belgilanadi va taqdimotga tayyorgarlik.
4. Taqdimot (har bir guruhning g‘oyalari).
5. G‘oyalar hujumi (asosiy g‘oya).
6. Xulosa (1 ta g‘oya).

Breynstorming. Bu termin inglizcha so‘z bo‘lib, u ikki tushunchadan iborat: brain-miya, storming-xujum, bo‘ron, qattiq xayajon. Ushbu metodni «miyani xayajonga solish» deb yuritilishi, uning asl mohiyatini ochib beradi, lekin ba’zida ushbu metodni «jamoaviy ijodiy fikrlash» deb ham tushunsa bo‘ladi. Rus tilidagi tarjimada ushbu metod «Mozgovaya ataka», o‘zbek tilida esa «Aqliy hujum» yoki «Fikrlar hujumi» deyilishi uning asl mohiyatini saqlashga yordam beradi. Bu metod 15 kishidan ortiq bo‘lmagan guruhlarda o‘tkaziladi. Asosiy prinsip: erkin muloqot-munozara jarayonida

berilgan mavzu asosida yangi novatorlik g‘oya, fikrlar to‘planadi. Aytilgan g‘oya, fikrlarning sifatiga emas, ularni qanchalik ko‘p aytilganiga e’tibor qaratiladi.

Aytilgan g‘oya, fikrlar muhokama ham, tanqid ham qilinmaydi. Munozara erkin va o‘zaro samimiy munosabat holatida o‘tkaziladi. To‘plangan g‘oya, fikrlar asosida mavzu bo‘yicha umumiy fikr shakllantiriladi. Aytilgan g‘oya, fikrlarning sifati va ular asosida tuzilgan umumiy g‘oya, fikrlarning qay darajada muhimligi shu muammo yoki mavzu bilan yaxshi tanish bo‘lgan mutaxassis-ekspertlar tomonidan baholanadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchining asosiy vazifasi – imkoni boricha har bir aytilgan g‘oya, fikrni to‘plab borishdan iborat.

Breynrayting. Ushbu metodni qo‘llanishi breynstorming metodiga o‘xshash bo‘lib, faqat bu metodda barcha g‘oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa o‘z g‘oya. fikrlarini og‘zaki bayon etishga uyaladigan yoki qiynaladigan ba’zi tinglovchilar uchun qulaylik yaratadi. O‘quvchi-talabalar tomonidan yozilgan fikrlar, g‘oyalarning imlo va grammatik xatolariga e’tibor qaratilmaydi hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik hayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo‘sh joylar ham qoldiriladi. Ishtirokchilar o‘z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiriladi. G‘oyalar tahlili keyinroq o‘tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda muammoni yechish variantlari maksimal darajada ortadi.

Yumaloqlangan qor. Bu metod har qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq ta’rif topishga imkon beradi, o‘quvchilarga guruhlarda ishlashni, boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtai nazarni ishlab chiqishni o‘rgatadi. Bu metod bosqichma-bosqich hamda har bir bosqichga aniq vaqt belgilanishi bilan o‘tkaziladi.

1-bosqich. Har bir qatnashchi 2 minut mustaqil ishlaydi

2-bosqich. Juftlarda ishlash – uchliklarda ishlash 5 minut.

3-bosqich. To‘rtliklarda ishlash - oltiliklarda ishlash 5 minut.

4-bosqich. Sakkizliklarda ishlash 5 minut.

5-bosqich. 5 minut muhokama.

Guruhlardagi ish tugashiga ko‘ra har bir guruh vakillari navbati bilan o‘z plakatlarini ilib qo‘yadilar va uni o‘qiydilar. Agar savollar bo‘lsa, guruh javob beradi. O‘qituvchi barcha guruhlar ishtirokidagi umumiylikni topishga yordam beradi.

“T - jadval” grafik organayzerining tarkibi quyidagilardan iborat: “T - jadaval” 1ta konsepsiyaning jihatini o‘zaro solishtirish yoki (“ha/yo‘q”, “ha/qarshi”) tanqidiy mushohadani rivojlantirish maqsadida ishlatiladi.

1. Juftlikda ishlanadi.

2. Ma’lumot beriladi.

3. T chiziladi. “T”ning chap tomoniga sabab yoziladi. O‘ng tomoniga qarama-qarshi g‘oyalar yoziladi.


4. Jadvallar juftlikda taqqoslanadi.

5. Barcha o‘quv guruhi yagona “T” tuzadi.

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b.

“Nima uchun?” sxemasi muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri, tizimli, ijodiy, taxliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Namuna:



Insert jadvali. Har bir talabaga jadval shaklidagi matn tavsiya etiladi Talaba matnni o‘qish jarayonida jadvalning chap tomoniga maxsus belgilarna qo‘yib boradi [76]. Mustaqil o‘qish vaqtida olgan bilimlarni, eshitgan ma’lumotlarni tizimlashtirishni ta’minlaydi. Olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, kuzatish, avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobilyatini shakllantirishga yordam beradi. O‘qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtiradilar, jadval ustunlariga kiritadilar.

“V” – men bilgan ma’lumotlarga mos.


“ – “ – men bilgan ma’lumotlarga zid.

“ + ” – men uchun yangi ma’lumot.

“?” – men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

Insert jadvali			
V	**-**	**+**	**?**

“Baliq skeleti” chizmasi bir qator muammolarni tasvirlash va ularni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. *Namuna:*



Toifalash jadvali. Toifa – xususiyat va munosabatlarning muhimligini namoyon qiluvchi alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Toifa sharxlashni tuzish, olingan ma’lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlashdan iborat. Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. G‘oyalarni, ma’lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish natijalarining taqdimoti.

Namuna: Shoira Zulfiyaning hayoti va ijodi

Hayoti va ijodi	**Faoliyati**	**“Begim” she’ri**	**“Sen qaydasan yuragim” she’ri**
Shoira Toshkentda temirchi oilasida tug‘ilgan Hamid Olimjon bilan 10 yil hayot kechirgan Uni she’rlari Hamid Olimjonga atalgan	Pedagogika insititutida o‘qigan Taxririyatda ishlagan	“Begim sizni tabiat raso qilib yaratgan…” She’ri 1-mrotaba “Toshkent oqshomi” gazetasida chop etilgan	Ushbu she’rni har bir o‘quvchi yod olishi kerak

Bilaman, bilmayman, bilishni hohlayman. Bu texnalogiyada har bir talaba yoki o‘quvchining yangi fan yuzasidan bilimini bilish uchun va bilishni hohlaydiga va bilmaydigan ma’lumotlarni jadval asosida ifodalaydi. O‘qituvchi esa shunga asosan darsni olib boradi.

Namuna:

Bilaman	**Bilmayman**	**Bilishni hohlayman**

Klaster. Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarning biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq uzviy bog‘lagan holda ketma-ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi.

Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

1. Xayolga kelgan har qanday fikr bir so‘z bilan ifoda etib ketma-ket yoziladi.

2. Fikrlar tugamaguncha yozishda davom etaverish kerak, Mabodo fikrlar tugab qolsa, u holda yangi fikr kelguncha biron rasm chizib turing.

3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o‘zaro bog‘liqlik ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilinishi lozim [55].

Xulosa qilib aytganda mazkur mavzuda interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillari, ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashning ahamiyati va zarurati, interfaol metodlarning klassifikatsiyasi o`rganilgan.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi qanday asosiy omillari mavjud?

2. Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashning qanday ahamiyati va zarurati bor?

3. Interfaol metodlarning qanday klassifikatsiyasi mavjud?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” – nimalar?

a) interfaol metodlar;

b) strategiyalar;

s) grafik organayzerlar;

d) an’anaviy metodlar.

2. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig- zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” – nimalar?

a) interfaol metodlar;

b) strategiyalar;

s) grafik organayzerlar;

d) an’anaviy metodlar.

3. “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” – nimalar?

a) interfaol metodlar;

b) strategiyalar;

s) grafik organayzerlar;

d) an’anaviy metodlar.

4. Qaysi metod mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yig‘ish maqsadini o‘z oldiga qo‘yadi?

a) “Aqliy hujum”;

b) “Breynstorming”;

c) “Breynrayting”;

d) “Tarmoqlash” metodi.

5. SWOT deganda nimani tushunasiz?

a) imkoniyat, ojizlik, tahdid, kuch;

b) ojizlik, imkoniyat, tahdid, kuch;

c) kuch, ojizlik, imkoniyat, tahdid;

d) tahdid, ojizlik, imkoniyat, kuch.

6. ..... auditoriyadagi ruhiy taranglikni yengish, guruhning shakllanish jarayonini tezlatish, muloqot, axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, samimiylik va hamkorlik muhitini yaratishga yordam beradi.

a) “Ishbilarmon o‘yini”;

b) “Muzyorar”;

c) rolli o‘yin;

d) “Aqliy hujum”.

7. Qaysi metodda 6 guruh (har birida 6 kishidan) ishtirokchilari o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni 6 minut mobaynida muhokama qiladilar?

a) “6x6x6”;

b) “Menyu”;

c) “ARIZ-TRIZ”;

d) “3x4”.

8. “Kungaboqar” qanday metod?

a) doirada mavzuga qarab yoki umumiy bitta muammo yoki har bir guruhning muammolari yozilib, doskaga (devorga, taxtachaga) yopishtiriladi (yetarli miqdorda qog‘oz barglar oldindan tayyorlab quyilishi kerak);

b) ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlashib umumiy muammo yoki bir birlarining muammolari bo‘yicha fikr bildirmoqchi bo‘lsalar, aniqlangan fikrni bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar;

c) 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. o‘qituvchi o‘quv predmeti mavzusidan kelib chiqib o‘rtaga bitta muammoni yoki asosiy muammodan kelib chiqib har bir guruhga bittadan muammo tashlaydi. har bir guruh kungaboqar yasab,uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi;

d) hamma javoblar to‘g‘ri.

9. Qaysi metod konkret vaziyat, hodisaga asoslangan o‘qitish metodi hisoblanadi?

a) “Menyu”;

b) “ARIZ-TRIZ”;

c) “3x4”;

d) “Keys-stadi”.

10. Og‘zaki bayon qilish metodi bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarni asta-sekin o‘zlashtirishlariga olib keluvchi puxta o‘ylangan savollar sistemasiga qaysi metod misol bo‘la oladi?


a) “Suhbat” metodi;

b) “Akvarium” metodi;

c) “Keys-stadi” metodi;

d) To‘g‘ri javob yo‘q.

11. Har bir juftlikka 9 ta jumla (hikoya) bo‘lgan konvert beriladi va ularni quyidagi shaklda qaysi metodda joylashtirish topshiriladi?



a) “Olmos”;

b) “Menyu”;

c) “ARIZ-TRIZ”;

d) “3x4”.

12. Tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratib, fikrlarni og‘zaki va yozma ifodalashni qaysi texnologiya amalga oshiradi?

a) “Modul” texnologiyasi;

b) “Bumerang” texnologiyasi;

c) “Blits-so‘rov”;

d) “Labirint” texnologiyasi.

13. “Menyu” metodi qanday tartibda amalga oshiriladi?

a) topshiriq beriladi, “tillar” uzun qirqilgan qog‘ozlardan foydalaniladi;

b) kichik guruh bo‘lib ishlanadi;

c) yakka tartibda ishlanadi;

d) hamma javoblar to‘g‘ri.

14. “Roziman” va “Rozi emasman” deb yozilgan plakatlardan qanday metodda foydalaniladi?

a) “O‘z o‘rningni top” metodi;

b) “Menyu” metodi;

c) “Debat” metodi;

d) “Qarorlar shajarasi” metodi.

15. Axborotlarni lo‘nda, qisqa bayon qilish, voqea, hodisa, jarayonni bir necha so‘zlar vositasida ifodalaydigan metod nima?

a) “Sinkveyn” metodi;

b) “Insert” metodi;

c) “Klaster” metodi;

d) Multimediali texnologiya.

16. O‘quv predmetining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olib, ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv materialini yirik turkumlarga ajratib o‘rgatish, uning maxsus bo‘limlariga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish tushuniladigan texnologiya nima?

a) “Sinkveyn” metodi;

b) “Modul” texnologiyasi;

c) “Klaster” metodi;

d) multimediali texnologiya.

17. “Ajurli arra” metodi qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?

a) birlamchi va ekspert guruhlar;

b) topshiriqni bo‘lish, birlamchi guruhlar, ekspert guruhlar;

c) topshiriqni bo‘lish, birlamchi guruhlar, ekspert guruhlar, birlamchi guruhlar;

d) to‘g‘ri javoblar yo‘q.

18. “Insert” metodining sxemasini ko‘rsating:

a) “B.B.B”;

b) “6x6x6”;

c) “3/3”, “4/4”, “5/5”;

d) “V+ ? –“.

19. “Klaster” metodi qanday mazmunni bildiradi?

a) tushunchalarni tarmoqlashni;

b) tushunchalarni izohlashni;

c) tushunchalarni tartiblashni;

d) tushunchalarni ifodalashni.

§ 2.4. TA’LIMDA KEYS TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. “Keys-stadi” texnologiyasi.
2. “Keys-stadi” yordamida talabalar egallaydigan bilim, ko‘nikma, malakalar haqida.
3. Keyslarning sinflari, turlari, janrlari va taqdim etish usullari.

4. O‘quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari va zamonaviy o‘qitish amaliyotida o‘quv keyslarining turlari.

Tayanch so`z va iboralar: “Keys-stadi” texnologiyasi, keyslarning sinflari, keyslarning turlari, keyslarning janrlari, keyslarni taqdim etish usullari, o‘quv keyslari, o‘quv keyslarining turlari.

“Keys-stadi” texnologiyasi

“Inson jamoada yoki vaziyatlarda uzoq yillar davomida o‘rganilishi” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar nashr etila boshlangan edi. Agar ish jamoaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, jamoaning xulqini har tomonlamma o‘rganadi, jamoadagi har bir insonning xulqini emas [15]. Darhaqiqat, keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

“Keys-stadi” texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta’lim jarayonida qo‘llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo‘llanila boshlangan. Keyslarning ilk to‘plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda mazkur texnologiyani ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Ta’limda qo‘llaniladigan “Keys-stadi”ning tayyor variantlari ham mavjud bo‘lib, ularni sotib olish mumkin. Biroq, eng samarali yo‘l har bir fan bo‘yicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir. Birgina Garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. Ularning narxi 10 $. Ammo ba’zi keyslarning narxi 500 ta 1000 $ gacha. London biznes maktabi va boshqa biznes maktablar o‘zlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shug‘ullanadi. Texnologiya talabalarda predmetni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni, amaliy ko‘nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o‘zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

“Keys-stadi” texnologiyasi (ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – 1) talabalarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya; 2) real vaziyatlarni bayon etishda qo‘llaniladigan o‘qitish texnikasi

Texnologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
5. Noaniqliklar mavjud bo‘lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish

Keys – texnologiyasini loyihalashtirish. O‘qituvchi harakatlarining izchilligi:

ishchi dasturi asosida o‘quv mashg‘uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (amaliy mashg‘ulot/mustaqil ish/ o‘quv amaliyoti);


o‘quv mashg‘uloti maqsadini oydinlashtiradi, o‘quv mashg‘ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi;

ta’limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo‘yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta’lim metodlari, shakl va vositalari majmui)ni tanlaydi.

Keysning tekshirilishi va baholanishi. Yaratilgan keys ekspert tekshiruvidan va bahosidan o‘tishi kerak. Quyidagilar tekshirish usullari bo‘lishi mumkin:

1. Keys loyihasining korxona xodimi tomonidan ko‘rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilarning tekshirilishi.

2. Ekspertlik bahosi va hamkasblar fikrlari, o‘qituvchi-keysologning keysning ta’limdagi qimmati xususidagi fikri, uni tekshirishning ikkinchi usulidir.



Keys texnologiyasini amalga oshirishda o‘qituvchi faoliyatining bosqichlari: tayyorgarlik bosqichi; asosiy bosqich: keys texnologiyasini amalga oshirish; tahliliy, baholovchi bosqich.

“Keys-stadi” yordamida talabalar egallaydigan bilim, ko‘nikma, malakalar

“Keys-stadi” yordamida talabalar quyidagi ko‘nikma, malakalarga ega bo‘ladi:

1. Tahliliy ko‘nikmalar (ma’lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma’lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

2. Amaliy ko‘nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo‘llay bilish).

3. Ijodiy ko‘nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

4. Muloqot ko‘nikmalari (unga ko‘ra talaba bahs-munozara olib borish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko‘nikmalarini o‘zlashtira bilishi zarur).

5. Ijtimoiy ko‘nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o‘zgalarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o‘zini boshqara olishi lozim).

6. O‘z-o‘zini tahlil (bahs-munozara jarayonida o‘zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo‘lishi muhim)

Har o‘qituvchi keys-stadiga asoslangan o‘quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy- didaktik xarakterga ega bo‘lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e’tiborni qaratish talab etiladi:

maqsad aniq ifoda etish (maqsad ikki xil (yoki undan ortiq) tushunilmasligi;

savol yoki topshiriqlar ma’lum darajada murakkab bo‘lishi;

ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yorita olishi;

tezda o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotmasligi;

milliy xususiyatlarni o‘zida namoyon eta olishi;

ta’limning barcha yo‘nalish yoki sohalariga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi;

dolzarb ahamiyatga ega bo‘lishi;

talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;

bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;

bir necha yechim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta’minlay olishi

Talabalar tomonidan keysni yechish bosqichlari. Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, agar talabalarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo‘lsa, ta’limiy maqsadlarga erishishda yanada ko‘proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo‘yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo‘lib (auditoriyada) ishlash (2.14-jadvalga qarang):

2.14-jadval.

Talabalar tomonidan keysni yechish bosqichlari

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo‘yicha individual ish	**Ikkinchi bosqich – keys bo‘yicha jamoa bo‘lib ishlash**
Talaba mustaqil ravishda	Talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, birgalikda keys ustida ishlashadi
1) keys materiallari bilan tanishadi	1) guruh a’zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi; eng maqbul variantni tanlashadi;
2) taqdim etilgan vaziyatni o‘rganadi, izohlaydi va asoslaydi;	2) yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo‘yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun

3) muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;	3) muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo‘lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
4) berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;	4) taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.
5) taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.	

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o‘tkazish:

1) real vaziyat yechimiga doir o‘z variantlarini taqdim etadilar;

2) tanlangan harakatlar yo‘lini izohlaydilar va yechimning to‘g‘riligini asoslaydilar;

3) boshqa guruh a’zolarining savollariga javob beradilar va o‘z takliflarini asoslaydilar.

Jamoa bo‘lib keys ustidan ishlash:

guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarining muhokamasi;

taklif etgan yechimlarning o‘zaro baholanishi;

taklif etilgan yechimlarning xayotiyligi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (talabalar va o‘qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

Keyslarning sinflari turlari, janrlari va taqdim etish usullari

Keyslarni sinflarga ajratish turli usullarda bo‘lishi mumkin. Jumladan, keyslar maqsad va o‘qitish jaryonining vazifalari, tuzilishi, ifodalash shakli, o‘lchami, murakkablik darajasi, fanlar, kompaniya turlari, hududlar va boshqa tomonlari bo‘yicha sinflarga ajratiladi.

Maqsad va o‘qitish jarayonining vazifalari bo‘yicha: namunali va namunali bo‘lmagan muammolarni yechishga hamda qaror qabul qilishga o‘rgatish; vaziyat tamoyillari tahlili va baholashga o‘rgatish, aniq uslubiyotni, yondashuvni aniq misolda qo‘llashni, yechimni yoki umuman konsepsiyani namoyish qiladigan turlarga ajratish mumkin.

Keys sinflari shartli ravishda ikki: “dalali” va “o‘rindiqli” tularga ajratiladi. Ularning birinchisi haqiqiy omilli materiallarga asoslagan holda, ikkinchisi esa xayoliy yaratilgan bo‘lishi mumkin.

Tuzilishi bo‘yicha: tuzilmali keyslar – aniq raqam va ma’lumotli vaziyatni qisqa va aniq bayon qilish. Bunday turdagi keyslarga aniq sondagi aniq javoblar mavjud. Ular aniq bilimlar sohasidagi bitta formula, ko‘nikma, uslubni, bilim yoki ko‘nikmani baholash uchun foydalanishga mo‘ljallangan.

Katta tuzilmaga ega bo‘lmagan keyslar. Ular katta miqdordagi ma’lumotlaga ega bo‘lgan materiallarni ifodalaydila, fikrlash uslubi va tezligi, asosiyni ikkinchi darajalikdn ajratish kshnikmasi va aniq ish sohasidagi malakalarni baholash uchun mo‘ljallangan. Ular uchun bir necha to‘g‘ri javob variantlari mavjud.

Dastlabki ochilgan keyslar juda qisqa shuningdek, juda uzun ham bo‘lishi mumkn. Bunday keyslar o‘quvchi nostandart fikrlashi, ajratilgan vaqtda qancha kreativ g‘oyalar berishi mumkinligini ko‘rish imkoniyatini beradi. Agar guruhiy yechim bo‘layotgan bo‘lsa, u holda u “begona fikrni ilg‘ay oladimi, uni rivojlantira va amaliyotda foydalana oladimi” degan savolga javob beradi.

Kichik xomaki yozuvlar – asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi, bilimlari tor sohada (o‘rganilayotgan fanng bo‘limid) qo‘llashni talab etadi.

Ifodalash shakli bo‘yicha: qog‘oz keyslar, videokeyslar, multimedia keysllar.

O‘lchami bo‘yicha: to‘la keyslar (o‘rtacha 20-25 bet) bir necha kun mobaynida jamoa bo‘lib ishlashga mo‘ljallangan va, odatda, o‘z yechimining taqdimotini jamoaviy ishlab chiqishga qaratadi; qisqa keyslar (3-5 bet) bevosita darsda ishlashga mo‘ljallangan va umumiy munozara, deb qaraladi. Mini keyslar (1-2 bet) qisqa keyslar kabi auditoriyada muhokama etishga mo‘ljallangan va qisman darsda beriladigan nazariyaga ko‘rgazma sifatida qo‘llaniladi.

Murakkablik darajasi bo‘yicha: maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari uchun keys, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun keys, bakalavrlar uchun keys, magistrlar uchun keys, MVA dasturi uchun keys, ilmiy tadqiqotchilar uchun keys bo‘lishi mumkin.

Fanlar bo‘yicha: buxgalteriya hisobi va nazorat; tijorat va davlatlararo munosabatlar; raqobatli strategiyalar; tadbirkorlik; moliya; menejment; boshqaruv;

tashkiliy xulq va sardorlik; kichik va o‘rta biznes, xizmatlarni boshqarish; tijorat, pedagogika va boshqalar.

Tarmoq bo‘yicha: TNK (transmiliy korxona) keyslari, hududiy katta tijorat haqidagi keyslar; kichik va o‘rta biznes haqidagi keyslar.

Hududlar bo‘yicha: Shimoly-Amerika keyslari, Yevropa keyslari, rivojlanayotgan davlatlar haqidagi keyslar va iqtisodiyotni o‘tish davridagi davlatlar haqidagi keyslar.

Keyslrni sinflarga ajratishda keng fodalanilayotgan yondashuvlardan biri ularnig murakkabligi bo‘yichadir. Ana shudaytomonlari bo‘yicha quyidagi guruhlarga ajratish mumkin (2.15-jadvalga qarang):

2.15-jadval.

Keyslarning sinflari

O‘quv vaziyatlari-keyslar	**Maqsadi**
Illyustrativ	Aniq bir amaliy misolda talabalar aniq bir vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish algoritmiga o‘rgatiladi
Muammo ifodalangan	Aniq vaqt mobaynidagi vaziyat tavsiflanadi, muammo aniqlanadi va aniq ifodalanadi
Muammo ifodalanmagan	Oldingi variantdagiga qaraganda, murakkabroq vaziyat tavsiflanadi, unda muammo aniqlanmagan bo‘lib, statisik ma’lumotlarda, jamoat fikri, hokimiyat organlari va boshqalarning bahosi orqali taqdim etiladi
Amaliy mashqlar	Aniq paydo bo‘lgan vaziyat tavsiflanadi, undan chiqish yo‘llarini topish tavsiya etiladi. Bunday keyslarning maqsadi – muammoni yechish yo‘lini izlashdan iborat

O‘quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo‘lmagan, ya’ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta’lim amaliyotida o‘z tasdig‘ini topgan.Aytib o‘tilganidek, xorijiy mamlakatlar katta hajmli, murakkab ilmiy-tadqiqot xarakteriga ega keyslar ko‘p qo‘llaniladi va ularni hal etish butun bir semestr, hatto o‘quv yili davomida amalga oshiriladi. O‘zbekiston sharoitida ham ushbu keyslaran samarali foyalanish mumkin. Shu bilan birga o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida kichik hajmli, sodda – mini keyslardan ham foydalanish foydadan holi emas. Murakkab va oddiy mini keyslar o‘rtasidagi eng muhim farqlar – ularning hajmi, murakkablik darajasi va tarkibiy tuzilmasida aks etadi. Murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo‘ladi:

1. Pedagogik annotatsiya.
2. Kirish.
3. Keys (muammo)ning bayoni.
4. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
5. Foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati.
6. Metodik ko‘rsatmalar.
7. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
8. Keys yechimi bo‘yicha taqdimotni tashkil etish.
9. Keys yechimini tahlil qilish.
10. O‘qituvchi (keysolog)ning yechimi.

Mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir:

1. Keys (muammo)ning bayoni.
2. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
3. Foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati.
4. Metodik ko‘rsatmalar.
5. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
6. Keys yechimi bo‘yicha taqdimotni tashkil etish.
7. Keys yechimini tahlil qilish.
8. O‘qituvchi (keysolog)ning yechimi.

Keys metodini amalga oshirish bosqichlari:

keys bilan tanishuv;
asosiy muammoni ajratib olish;
g‘oyalar yig‘ish va izlash;
keys yechimini tavsiya qilgan g‘oyalarni tahlil qilish;
keys yechimi va tavsiyalar.

Keyslar tipologiyasi aniqlashtirildi (2.16-jadvalga qarang):

2.16-jadval.

Keyslar tipologiyasi

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari bo‘yicha	Bevosita obyektda
	Ta’lim jarayonida
	Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatida
Syujet mavjudligi	Syujetli
	Syujetsiz
	O‘tmish va bugun

Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	Avval bo‘lib o‘tgan voqea
	Istiqbolga yo‘naltirilgan
Keys obyekti	Alohida obyektga
	Tashkiliy
	Ko‘p obyektli
Materialni taqdim etish usuli	Hikoya
	Esse
	Tahlili ma’lumot
	Jurnalistik
	Hisobot
	Ocherk
	Faktlar majmui
	Statistik materiallar
	Hujjatlar
O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli	Savolli
	Topshiriq tarzida
Didaktik maqsadlari	Muammo, yechim, konsepsiya
	Biror mavzuga bag‘ishlangan trening
	Tahlil va baholov
	Muammoni ajratish, yechish, boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish
Taqdim etish usuliga ko‘ra	Bosma
	Elektron
	Video-keys
	Audio-keys
	Multemedia-keys

O‘quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari va zamonaviy o‘qitish amaliyotida o‘quv keyslarining turlari

O‘quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari talabalarga muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan talabalar e’tiboriga adabiyotlar ro‘yxatining taqdim etilishi, ularga metodik ko‘rsatma, yo‘riqnomalarning berilishi va albatta, o‘qituvchi tomonidan muammoning yechimi bo‘yicha o‘z variantining taqdim etilishi sanaladi. Adabiyotlar ro‘yxati o‘rganilayotgan muammoga bevosita taalluqli bo‘lishi zarur.

Ta’lim jarayonida o‘quv keyslarini qo‘llashda jarayon (mashg‘ulot) yakunida albatta o‘qituvchi (keyolog)ning yechimi taqdim etilishi zarur. Buning didaktik ahamiyati bu yechim asosida talabalarning o‘z o‘quv-bilish harakatlarining qanchalik to‘g‘ri, samarali, maqsadga muvofiq amalga oshira olganliklarini tahlil qilish, solishtirish, yo‘l qo‘ygan xatolarini aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi. Xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida qo‘llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o‘rtacha (Yevropa), katta (AQSH) hajmga ega bo‘ladi.

Keyslarni yechishga doir metodik ko‘rsatma, yo‘riqnomalar taxminan shunday bo‘lishi mumkin:

1. Keys (muammo) bilan tanishing.
2. Muammoning dolzarbligini baholang.
3. Muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.
4. Keys (muammo)ni samarali yechish yo‘llarini aniqlang.
5. Keys (muammo)ning samarali yechimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.
6. Keys (muammo)ning samarali yechimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shakllantiring


Ko‘p holatlarda keyslar birgina mashg‘ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto o‘quv yili davomida yechiladi. Ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat), magistrlik dissertatsiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiqir. Keyslar tipologiyasida o‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli savolli hamda topshiriqli bo‘lishi ko‘rsatilgan. Shunga ko‘ra talabalarning e’tiborlariga havola etiladigan keyslar yoki savolli, yoki topshiriqli bo‘lishi mumkin.

Agar keys savolli-keys bo‘lsa, u holda muammo yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechishga oid bir necha savollar keltiriladi. M: Yoshlarning “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilishining asosiy omillari nimalardan iborat? Yoshlarning “ommaviy madaniyat”ta’siriga berilishlarida OAVning o‘rni va rolini qanday aniq dalillar asosida baholay olasiz? Odatda keyslarni tayyorlashda darslik va o‘quv qo‘llanmalardan, balki ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet materiallaridan ham maqsadli foydalanish mumkin. Pedagogik turkum fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan keyslarni ularning xarakteriga ko‘ra B.Blum taksonomiyasi (bilish-tushunish-anglash-tahlil-sintez-qo‘llash tizimi)ga muvofiq bir necha guruhga ajratish mumkin (2.16-rasmga qarang).

Agar keys topshiriqli-keys bo‘lsa, u holda keysni yechish jarayonida bajarilishi zarur bo‘lgan topshiriqlar beriladi. M:


1. Yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siridan himoyalash omillarini aniqlang.

2. Yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni samarali shakllantirish yo‘llarini belgilang.



2.16-rasm. O‘quv keyslarining asosiy guruhlari

Zamonaviy o‘qitish amaliyotida o‘quv keyslarining quyidagi turlari qo‘llanilmoqda (2.17-rasmga qarang):



2.17-rasm. O‘quv keyslarining asosiy turlari

Pedagogik turkum fanlarni o‘qitishda ushbu keyslardan samarali, maqsadli va o‘rinli foydalanish uchun zarur sharoitlar mavjudligi aniqlandi. Quyidagi misollar ushbu fikrning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

1. Pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan keys.

Keys bayoni. Sobir o‘rta maktabning 9-sinfini tamomladi. Shahodatnomasida “uch” baholar ko‘p bo‘lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, Sobir hech bir kasb-hunar

kollejiga qabul qilinmadi. Har bir kollejning rahbari Sobirni boshqa akademik litsey va kasb-hunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. Biroq, Sobirning ota-onasi har gal o‘g‘illarini o‘zlari yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta’lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

Keys savollari:

1. Ayting-chi, kasb-hunar kollejlarining rahbarlari Sobirni o‘qishga qabul qilmaslikka haqlimilar?

2. Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti?

O‘qituvchining yechimi. Kollej rahbarlari ijtimoiy xavf bo‘lmagan holda “uch” bahoga o‘qiganligi va xulqida salbiy holatlar ko‘zga tashlanishi uchungina Sobirni o‘qitishga qabul qilmaslikka haqli emaslar. Ular shaxsning bilim olishga bo‘lgan huquqini poymol yetishgan. Qolaversa, kasb-hunar kollejlarida ta’lim olish majburiy-ixtiyoriy xarakterga ega. Shu sababli Sobir va uning ota-onasi kasb-hunar kollejini o‘zlari tanlay oladi. Bordi-yu, kollejga qabul qilish sinov, imtihonlar asosida olib borilsa va Sobirning o‘zi ularga puxta tayyorlanmaganligi sababli sinovdan o‘ta olmasa, u holda ana shu kasb-hunar kollejiga qabul qilinmaydi. Bu vaziyatda Sobirning bilim olish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi) poymol etganliklari sababli kasb-hunar kollejlarining rahbarlari ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

2. Pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keys.

Keys bayoni. Uzoq yillik ish tajribasiga hamda talabalar o‘rtasida alohida hurmatga ega tarix fani o‘qituvchi auditoriyaga kirib, doskada o‘zining karikatura janrida ishlangan rasmini ko‘radi. Karikatura yorqin ishlangan, har bir shtrix aniq ishlangan, qolaversa, rasm juda kulgili chiqqan. Butun guruh o‘qituvchining karikaturagaya, uning ijodkoriga nisbatan munosabatini kutyapti. Biroq, o‘qituvchi shoshilmasdan, katta qiziqish bilan karikaturani tomosha qiladi va shunday dedi: “Karikatura shunchalik yaxshi chiqibdiki, uni hatto o‘chirgim kelmayapti. Rasm ijodkori – yosh rassom uni qog‘ozga ko‘chirib olishi kerak. Men karikaturist (rassom)ni munosib baholayman!”.

Keys savollari:

1. O‘qituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan Siz qanday baholaysiz?

2. Bu vaziyatda o‘qituvchi qanday tarbiya metodini qo‘lladi?

O‘qituvchining yechimi. Bu vaziyatda o‘qituvchi o‘zining tarjribali va pedagogik nazokatga egaligini namoyon eta oldi. U karikaturani o‘zining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, san’at asari sifatida qabul qildi. Natijada o‘qituvchi aybdor talabani qidirib, unga tanbeh berishni istamadi. Buning o‘rniga o‘zining san’atga bo‘lgan muhabbatini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv talabalarga o‘qituvchining irodali, o‘ziga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, hissiyotlarini jilovlay olish, o‘z-o‘zini boshqara bilish qobiliyatiga egaligini ko‘rsatdi. Oqibatda talabalar o‘qituvchining ruhan barqaror ekanliklarini angladi. Shu sababli keyingi safar ular o‘qituvchini kamsitish yoki ustidan kulishni istashmaydi. Bayon etilgan vaziyatda o‘qituvchi: 1) izohlash (o‘zida muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganlikni ifodalovchi hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli); 2) xulq va faoliyatni rag‘batlantirish metodlaridan biri bo‘lgan – qo‘llab-quvvatlash metodidan foydalandi.

3. Ta’lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro birlik va aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo‘naltirilgan keys.

Keys bayoni. Tarix fani o‘qituvchisi bir soatlik darsida quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirdi:

1) ma’lumotlarni izchil bayon qildi;

2) zarur o‘rinlarda tayanch tushunchalarga alohida urg‘u berdi;

3) xaritadan tarixiy voqelar sodir bo‘lgan joylarni ko‘rsatdi;

4) vaqti-vaqti bilan talabalarga savollar berib, ulardan javoblar oldi;

5) o‘quv filmi orqali tarixiy voqelikka oid dalillarni namoyish etdi.

Keys topshirig‘i. O‘qituvchining xatti-harakatlari qanday metodlar yordamida amalga oshirilganligini aniqlang.

O‘qituvchining yechimi. Tarix fani o‘qituvchisi qo‘llagan metodlar:

1) hikoya;

2) tushuntirish;

3) tasvirlash;

4) suhbat;

5) namoyish.

4. Ta’lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqozo etadigan keys.

Keys bayoni. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

1) o‘qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o‘quv harakatining;

2) zarur ko‘nikma va malakalar shakllangunicha o‘quv harakatlarning ko‘p bora takrorlanishi;

3) dastlabki bajarilishi o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;

4) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi. Ushbu holatda mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari noto‘g‘ri ko‘rsatilgan. Keys topshirig‘i. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlarini zarur izchillikda ifodalang.

O‘qituvchining yechimi. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

1) o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;

2) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi;

3) o‘qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o‘quv harakatining dastlabki bajarilishi;


4) zarur ko‘nikma va malakalar shakllangunicha o‘quv harakatlarning ko‘p bora takrorlanishi.

5. Pedagogik bilimlarni amalda qo‘llash, mavjud ko‘nikma va malakalarni to‘laqonli namoyon etishga doir keys.

Keys bayoni. Og‘zaki bayon qilish metodlari talabalarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlash va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keys topshirig‘i. Og‘zaki bayon qilish metodi turlarini “Baliq skeleti” grafik organayzerida ifodalang.

O‘qituvchining yechimi:



Xulosa qilib aytganda, mazkur mavzuda Keys-stadi” texnologiyasi, “Keys-stadi” yordamida talabalar egallaydigan bilim, ko‘nikma, malakalar, keyslarning sinflari, turlari, janrlari va taqdim etish usullari, o‘quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari va zamonaviy o‘qitish amaliyotida o‘quv keyslarining turlari yoritilgan.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Keys-stadi” texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. “Keys-stadi” yordamida talabalar tomonidan qanday bilim, ko‘nikma, malakalar egallanadi?
3. Keyslarning qanday sinflari mavjud?
4. Keyslarning qanday turlari mavjud?
5. Keyslarning qanday janrlari mavjud?
6. Keyslarning qanday taqdim etish usullari mavjud?
7. O‘quv keyslarining qanday muhim xarakterli jihatlarini bilasiz?
8. Zamonaviy o‘qitish amaliyotida o‘quv keyslarining qanday turlari bor?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Keyslar asosiy manbalar bo‘yicha necha xil bo‘ladi?

a) 3 ta;

b) 4 ta;

c) 5 ta;

d) 2 ta.

2. Hikoya, esse, tahliliy ma’lumot, hisobot, ocherk, faktlar majmui, statistik materiallar va hujjatlar keyslarning qanday tipini tashkil qiladi?

a) syujet mavjudligi;

b) materiallni taqdim etish usuli;

c) hajmi;

d) o‘quv topshiriqlarni taqdim etish usuli.

3. Bosma, video-keys, audio-keys, multemedia keys, elektronlar keyslarning qanday tipini tashkil qiladi?

a) syujet mavjudligi;

b) materiallni taqdim etish usuli;

c) taqdim etish usuliga ko‘ra;

d) o‘quv topshiriqlarni taqdim etish usuli.

4. Keys metodini amalga oshirish bosqichlari necha xil bo‘ladi?

a) 3 ta;

b) 4 ta;

c) 5 ta;

d) 2 ta.

5. Pedagogik annotatsiya, keys, ta’lim oluvchiga uslubiy ko‘rsatmalar, o‘qituvchi-keysologning keys yechimi bo‘yicha varianti hamda o‘qitishning keys texnologiyasi keysning nimasini tashkil qiladi?

a) keys texnologiyasini amalga oshirishda o‘qituvchi faoliyatining bosqichlarini;

b) keys tipologiyasini;

c) keys metodini;

d) keysning pedagogik pasportini.

6. Keys texnologiyasini amalga oshirishda o‘qituvchi faoliyatining bosqichlari nechtani tashkil qiladi?

a) 3 ta;

b) 4 ta;

c) 5 ta;

d) 2 ta.

20. Insonning voqealar to‘plami boshlanishini qabul qilshi hama faoliyatiga ochilidigan hayotiy sharoit, holatlarga o‘tishi aali va uning takrorlanmasligi nima?

a) vaziyat;

b) pedagogik vaziyat;

c) ideal aniq vaziyat;

d) standart vaziyat.

21. Tarbiyachi o‘zining kudalik hayotida duch kelgan va yechim tlab etiladigan pedagogik masalalarni tug‘dirgan dall, hayotiy tarix nima?

a) vaziyat;

b) pedagogik vaziyat;

c) ideal aniq vaziyat;

d) standart vaziyat.

22. Qandaydir (biznes, marketin yoki boshqa) faoliyatining biror qiziqarli tarixi yoki ushbu faoliyat tarixidan joy olgan, yechish talab etiladigan boshqotirma; tahlili eskirgan va qo‘shimcha axborot izlash talab etadigan axborotlarning ko‘pligi; kelajakda vaziyatning davomini berishga qodir bo‘lgan dolzarb muammo nima?

a) vaziyat;

b) pedagogik vaziyat;

c) ideal aniq vaziyat;

d) standart vaziyat.

23. Qandaydir darajada tipik bo‘lib, bir xil vaziyatlarda tez-tez takrorlanadi; bir xil manbalar, sabablarga ega; u salbiy ham, ijobiy ham tabiatga ega bo‘lishi nima?

a) vaziyat;

b) pedagogik vaziyat;

c) ideal aniq vaziyat;

d) standart vaziyat.

24. Moslikni o‘rnating:

Keysning tipologik belgilari bo‘yicha keys turini aniqlang: A. Asosiy manbalari B. Syujet mavjudligi	1. Bevosita obyektda olib boriladigan 2. Syujetli 3. Ta’lim jarayondagi 4. Syujetsiz 5. Ilmiy-tadqiqotchilik

a) A – 1, 3, 5; B – 2, 4.

b) A – 2, 1, 3; B – 1, 4.

c) A – 1, 3; B – 1, 2, 4.

d) A – 2, 1; B – 1, 4, 3.

25. Moslikni o‘rnating:

Keysning tipologik belgilari bo‘yicha keys turini aniqlang: A. Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi. B. Keys obyekti.	a) O‘tmish va bugungi kunni bog‘lash asosidagi keys b) Alohida obyektga yo‘naltirilgan c) Avval bo‘lib o‘tgan voqelikka asoslangan keys d) Tashkiliy-institusional e) Istiqbolga yo‘naltirilgan keys f) Ko‘p obyektli

a) A – 2, 4, 6; B – 1, 3, 5.

b) A – 1, 3, 5; B – 2, 4, 6.

c) A – 1, 4, 5; B – 2, 3, 6.

d) A – 2, 3, 5; B – 1, 4, 6.

26. Moslikni o‘rnating:

Keysning tipologik belgilari bo‘yicha keys turini aniqlang: A. Materialni taqdim etish usuli. B. Hajmi.	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy ma’lumot 4. O‘rtacha hajmdagi 5. Jurnalistik taftish 6. Hisobot 7. Ocherk 8. Qisqa 9. Faktlar majmui 10. Statistik materiallar majmui 11. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui 12. Katta

a) A – 4, 2, 3, 5, 6, 7, 9, 10, 11. B – 1, 8, 12.

b) A – 1, 8, 3, 5, 6, 7, 9, 10, 11. B – 4, 2, 12.

c) A – 1, 2, 3, 5, 6, 7, 9, 10, 11. B – 4, 8, 12.

d) A – 1, 2, 12, 5, 6, 7, 9, 10, 11. B – 4, 8, 3.

27. Moslikni o‘rnating:

Keysning tipologik belgilari bo‘yicha keys turini aniqlang: A. Tuzilmaviy o‘ziga xos xususiyatlari. B. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli. V. Didaktik maqsadlari.	1. Aniq strukturaga ega bo‘lgan 2. Savolli 3. Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash 4. Aniq strukturaga ega bo‘lmagan 5. Topshiriq tarzidagi 6. Biror mavzuga bag‘ishlangan trening mashg‘uloti / fan bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga mo‘ljallangan 7. Tahlil va baholashga o‘rgatuvchi 8. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvga doir qarorlar qabul qilishga o‘rgatuvchi

a) A – 3, 4. B – 2, 5. V – 1, 6, 7, 8.

b) A – 1, 6. B – 2, 5. V – 3, 4, 7, 8.

c) A – 8, 4. B – 2, 5. V – 3, 6, 7, 1.

d) A – 1, 4. B – 2, 5. V – 3, 6, 7, 8.

28. Moslikni o‘rnating:

Quyidagi keys turlari qaysi tipologik belgilarni ifodalaydi 1. Bosma 2. Elektron 3. Video-keys 4. Audio-keys 5. Multimedia-keys	A) Taqdim etish usuliga ko‘ra B) Didaktik maqsadlari. B) O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli. G) Tuzilmaviy o‘ziga xos xususiyatlari.

§ 2.5. TA’LIM JARAYONIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARILARINI QO‘LLASH

Reja:

1. O‘yin tushunchasining mohiyati.
2. O‘yin texnologiyalari.
3. O‘yin metodikasiga ko‘ra turlari.

Tayanch so`z va iboralar: o‘yin, o‘yin texnologiyalari, o‘yin metodikasi, faoliyat mohiyatiga ko‘ra o‘yin turi, pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra o‘yin turi, o‘yin metodikasiga ko‘ra o‘yin turi, fan sohalariga ko‘ra o‘yin turi, o‘yin muhitiga ko‘ra o‘yin turi.

O‘yin tushunchasining mohiyati

Dastlab “o‘yin” tushunchasining mohiyatini anglab olish talab etiladi. O‘yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda ta’lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o‘yinlardan samarali foydalanilmoqda. Amaliy o‘yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o‘yinlar.

Ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda “didaktik o‘yinlar” deb yuritiladi. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o‘yin subyekt faoliyatining eng birinchi

va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o‘qish bilan birga o‘yin ham uning shakllanlanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘yinlar vositasida katta avlod tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan. O‘yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta’lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. “Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin faoliyatida o‘qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg‘aygan sari o‘yinning roli biroz kamayib boradi.

O‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi”. Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi. “O‘yin inson hayotining hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o‘yinda va o‘yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi”.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan.

Zamonaviy pedagogikada o‘yinlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo‘llaniladi:

tushuncha, mavzu va alohida bo‘lim mohiyatini o‘zlashtirishda alohida texnologiya sifatida;

pedagogik texnologiyalarning elementi sifatida;

o‘quv mashg‘uloti shakli yoki uning bir qismi sifatida;

sinf (auditoriya)dan tashqari ishlardan biri (“Zakovat”, “Bilimon”, “Huquq fani bilimdoni” va b.) sifatida.

O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma’lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur. O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, o‘zining hayotda o‘rnini belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o‘yin jarayonida shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

O‘yin texnologiyalari

O‘quv faoliyatining asosiy motivi – bu o‘quv-bilish motivi bo‘lsa, o‘quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa talabada o‘zi tanlangan va asoslarini o‘zlashtirayotgan kasbga bo‘lgan qiziqishi sanaladi. Talaba o‘quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko‘nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o‘qitish jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘yinli texnologiyalari, shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o‘stiradi. Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o‘yinlar o‘yin texnologiyalari deb nomlanadi.

O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) – ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri.

O‘yin texnologiyalari ta’lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (m: ta’lim oluvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a’zolari, ta’lim muassasalarining

rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va b.) sifatida turli rollarni bajarish talaba (o‘quvchi)larga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi. O‘quv mashg‘ulotlaridan o‘yinlar va o‘yinli vaziyatlarni qo‘llash quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

didaktik maqsad talabalar oldiga o‘yinli topshiriq shaklida qo‘yiladi;

o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysundiriladi;

didaktik o‘quv materialdan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;

o‘quv faoliyatida didaktik vazifani o‘yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi qo‘llaniladi;

muvaffaqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o‘yin natijasi sanaladi.

O‘quv jarayonida o‘yin texnologiyalarining o‘rni, roli, shuningdek, o‘yin elementlari hamda ta’limning o‘zaro uyg‘unligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan pedagogik o‘yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o‘yinlar o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi (2.18-rasmga qarang):



2.18-rasm. Pedagogik o‘yinlarning asosiy belgilari

Har qanday o‘yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o‘yinlar ham o‘zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo‘ladi. Ta’lim muassasalarida ko‘p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbilarmonlik o‘yinlarian foydalaniladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo‘llaniladigan o‘yinli texnologiyalarining asosini talabalarning faollik va tezkorlikka asoslangan faoliyati tashkil etadi. Pedagogik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish, mustahkamlash, talabaning ijodiy

qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko‘nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida talabalar turli holatlardan o‘quv materialini tushunish, uning negizida ma’lum ko‘nikma, malaka va sifatni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mashhur pedagog G.K.Selevko pedagogik o‘yinlarni quyidagi tartibda tasniflagan (2.17-jadvalga qarang):

2.17-jadval.

G.K.Selevkoning pedagogik o‘yinlar tasnifi

№	O`yin tasniflari	O`yin turlari
1.	Faoliyat mohiyatiga ko‘ra	Jismoniy Intellektual Mehnat Ijtimoiy Psixologik
2.	Pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra	O‘rgatuvchi, mashqlantiruvchi, nazorat qiluvchi, umumlashtiruvchi Ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi Produktiv; reproduktiv; ijodiy Muloqotga asoslanuvchi; tashxislovchi; kasbga yo‘naltiruvchi; psixologik-texnik
3.	O‘yin metodikasiga ko‘ra	Didaktik Syujetli Rolli Ishbilarmonlik Imitatsion Dramatik
4.	Fan sohalariga ko‘ra	Matematik, biologik, kimèviy, fizik, ekologik Musiqiy, teatr tomoshasi; badiiy Mehnat, texnik, ishlab chiqarishga doir Jismoniy, sport, harbiy, sayèhlik, xalqona Ijtimoiy, boshqaruv, iqtisodiy, tijorat xarakteridagi
5.	O‘yin muhitiga ko‘ra	Predmetli, predmetsiz Stol o‘yinlari; xona o‘yinlari; ko‘cha o‘yinlari; joy bilan bog‘liq o‘yinlar Kompyuter; televizon; texnik vositalarga asoslangan o‘yinlar Texnik, harakatni ta’minlovchi o‘yinlar

O‘yin metodikasiga ko‘ra turlari

Ayni o‘rinda o‘yin metodikasiga ko‘ra guruhlangan o‘yin texnologiyalarining mohiyati xususida so‘z yuritiladi.

Didaktik o‘yinlar – o‘rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o‘yinlar o‘quvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o‘qish ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib,

ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o‘yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo‘riqishlarni kamaytiradi.

Syujetli o‘yinlar – pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar sanaladi. Bu kabi o‘yinlar odatda pedagogik muammolarning yechimini izlash, ta’im-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, shaxsni qayta tarbiyalash maqsadida qo‘llaniladi.

Rolli o‘yinlar – ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi. Rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari o‘quvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (m: o‘quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a’zolari, ta’lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarning vakillari va b.) sifatida turli rollarni bajarish talabalarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratsa, o‘quvchilarga ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.


Ishbilarmonlik o‘yinlari – ma’lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to‘g‘ri, oqilona uyushtirishga doir ko‘nikma, malaka hamda sifatlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o‘yinlar. Bu turdagi o‘yinlar ta’lim oluvchilarda aniq faoliyat yo‘nalishida zarur BKM va sifatlarni shakllantirish yoki rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Shu jihatdan ishbilarmonlik o‘yinlari ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy faoliyatining modellashtirilishini anglatadi. Ishbilarmonlik o‘yini talabalarda kasbiy sifatlarni hosil qilish bilan birga shaxsiy sifatlarni ham tarbiyalaydi, ularning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

Imitatsion o‘yinlar – ishlab chiqarish korxonalari, ish o‘rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga

samarali tayyorlashga yo‘naltiradigan o‘yinlar. Bu turdagi o‘yinlar ssenariyasi, syujetidan tashqari, imitatsiya jarayon, obyektlarning tarkibiy tuzilmasi va ahamiyatini to‘la ochib berish maqsadia modellashtiriladi. Imitatsion o‘yinlar jarayonida ta’lim oluvchilar muayyan operatsiyalarni, m: masalalar yechish, ma’lum bir usulni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Dramatik o‘yinlar (psixologik va ijtimoiy dramalar) – psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘yinlar bo‘lib, ular tashkil etilishi, metodik xususiyatlariga ko‘ra rolli va ishbilarmonlik o‘yinlariga yaqin. Odatda psixologik va ijtimoiy xarakterdagi dramatik o‘yinlar jamoadagi muhitni yaxshilash, shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo‘lishiga erishish, muloqotga kirisha olish, jamoada yagona birlikni qaror toptirish, o‘zgalarning ruhiy holatini to‘g‘ri baholash, og‘ir vaziyatlarga uch kelgan subyektlarga yordam ko‘rsatish hamda samarali, unumli faoliyat ko‘rsatish uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Barcha o‘yinlarda bo‘lgani kabi pedagogik o‘yinlar jarayonida ham ishtirokchi-talabalar faol holatda bo‘ladi, sheriklari bilan o‘zaro munosabatga kirishadi, shuningdek, o‘z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslash, jamoa bilan zarur munosabatni o‘rnatish orqali o‘zini o‘zi o‘rganadi.


Pedagogik jarayonda o‘yinlardan foydalanishda ayrim jihatlarga e’tibor qaratish lozim (2.19-rasmga qarang):



2.19-rasm. Pedagogik jarayonda o‘yinlardan foydalanish holatlari

Ssenariy va uning mohiyati muhim ahamiyatga ega. Zero, aynan ssenariygina tegishli ta’lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish imkoniyatini ta’minlaydi. O‘qituvchilar o‘yin ssenariylarini tayyorlashga alohida e’tibor qaratishlari, ssenariyni tayyorlash malakasiga ega bo‘lishlari zarur. Pedagogik xarakterdagi o‘yinlarning tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat: o‘quv maqsadi; o‘yinning vazifasi; o‘rganiladigan muammo tafsiloti; o‘yin vaziyatining tafsiloti;

ishtirokchilarning tasnifi. Ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalari qo‘llash quyidagilarga asoslanadi (2.20-rasmga qarang):



2.20-rasm. Ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalari qo‘llash

O‘yin texnnologiyalarini qo‘llashda rollar qur’a tashlash yo‘li bilan taqsimlanadi. Bunda rollar nomi yozilgan kichik qog‘ozchalarda foydalanish mumkin. Rollarning talabalar o‘rtasida qur’a asosida taqsimlanishi kelib chiqish ehtimoli bo‘lgan noroziliklarning oldini oladi. O‘yin jarayonida belgilangan vaqt (reglament)ga, muloqot odobiga rioya etish, faollik ko‘rsatish hamda o‘yinni oxirigacha davom ettirish kutilgan natijani kafolatlaydi. Shuningdek, quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi:

o‘yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;

o‘yin maqsadi va vazifalarining to‘g‘ri, aniq belgilanishi;

o‘yin qoidalarining aniq, lo‘nda (8-10 tagacha) ifodalanishi;

o‘yin yo‘riqnomasining mavjudligi;

talabalarning o‘yin jarayoniga qiziqishlari;

rollarning samarali, to‘g‘ri taqsimlanishi;

jamoada ko‘tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;

ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo‘llab-quvvatlashlari;

har ishtirokchining o‘yin natijasi uchun mas’uliyatni his etishi;

barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo‘naltirilishi

Pedagogik maqsadlarda qo‘llaniladigan o‘yinlar quyidagi texnologiyaga ega (2.18-jadvalga qarang):

2.18-jadval.

Pedagogik o‘yinlar texnologiyasi

№	O`yin bosqichlari	Bosqich topshiriqlari	O`yin shartlari
1.	Tayyorgarlik bosqichi	O‘yinni loyihalash	Ssenariyni ishlab chiqish; yo‘riqnoma mazmunini ishlab chiqish; moddiy ta’minotni tayyorlash
		O‘yinni boshlash	Rollar taqsimoti; muammo va maqsadlarni vujuga keltirish; shartlar, qoidalar, reglament o‘rnatish; maslahat berish
2.	O‘yin bosqichi	Guruhda topshiriq ustida ishlash	Manbalar bilan ishlash; trening; “Aqliy hujum”; o‘yin texnikasi bilash ishlash
		Guruhlardagi munozara	Guruhlarning chiqishi; natijalarni himoya qilish; munozara qoidasi; ekspertlar
3.	Tahlil bosqichi	Jamoadagi munozara	O‘yinni yakunlash; tahlil; ishni baholash va o‘ziga baho berish; xulosa va umumlashtirish; tavsiyalar

O‘yin jarayonida hech kim halaqit qilmasligi kerak. Bordi-yu, zaruriyat bo‘lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarning harakatlarini tuzatishi, ularni to‘g‘ri yo‘naltirishi mumkin. Har qanday jarayon singari o‘yin yakunida uning tashkil etilishi, o‘tkazilishi yuzasidan muhokama o‘tkazilishi zarur. Muhokama chog‘ida o‘yin ishtirokchilari, tomoshabin (jamoaning o‘yina ishtirok etmagan a’zolari), ekspertlar o‘yinning tashkil etilishi va o‘tkazilishi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalari, takliflarini bildiradi. Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

taqrizchilarning chiqishlari;

fikrlar almashinuvi;

ishtirokchilarning o‘z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari;

o‘yinga yakun yasash.

O‘yin texnologiyalarining metodik ta’minoti loyiha, o‘yinning mezonlari, ish qog‘ozlari (metodik ko‘rsatmalar), o‘yin mohiyatini yorituvchi hujjatlar (ssenariy) kabilardan iborat. Pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan o‘yinlar subyekt faoliyatini taqozo etadigan hamda mashina (m: kompyuter) o‘yinlari tarzda farqlanadi. O‘yinlar chog‘ida turli vositalar (kompyuter, imitatsion trenajyorlar, sport anjomlari (koptok, arqon, halqa), xomashyolar (plastlin, yumshoq o‘yinchoqlarni yasash uchun materiallar, rangli qalamlar, ish qog‘ozlari, o‘yinchoqlar, legolar, konstruksiyalar, dekoratsiyalar va b. kerak bo‘ladi.

Nazorat va muhokama savollari:

1. O‘yin tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
2. O‘yin texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?
3. O‘yin metodikasiga ko‘ra qanday turlari mavjud?
4. Faoliyat mohiyatiga ko‘ra qanday turlari mavjud?
5. Pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra qanday turlari mavjud?
6. Fan sohalariga ko‘ra qanday turlari mavjud?
7. O‘yin muhitiga ko‘ra qanday turlari mavjud?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli nima deb ataladi?

a) dars;

b) o‘yin;

s) mustaqil ta’lim;

d) amaliy o‘yin.

2. Muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o‘yinlar?

a) dars;

b) o‘yin;

s) mustaqil ta’lim;

d) amaliy o‘yin.

3. O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) – ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri

a) o‘yin texnologiyalari;

b) o‘yin;

s) mustaqil ta’lim;

d) amaliy o‘yin.

4. Jismoniy, intellektual, mehnat, ijtimoiy, psixologik o‘yinlar o‘yinning qaysi turiga kiradi?

a) faoliyat mohiyatiga ko‘ra;

b) pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra;

s) o‘yin metodikasiga ko‘ra;

d) fan sohalariga ko‘ra.

5. O‘rgatuvchi, mashqlantiruvchi, nazorat qiluvchi, umumlashtiruvchi, ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, produktiv, reproduktiv, ijodiy, muloqotga asoslanuvchi, tashxislovchi, kasbga yo‘naltiruvchi, psixologik-texnik o‘yinlar o‘yinning qaysi turiga kiradi?

a) faoliyat mohiyatiga ko‘ra;

b) pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra;

s) o‘yin metodikasiga ko‘ra;

d) fan sohalariga ko‘ra.

6. Didaktik, syujetli, rolli, ishbilarmonlik, imitatsion, dramatik o‘yinlar o‘yinning qaysi turiga kiradi?

a) faoliyat mohiyatiga ko‘ra;

b) pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra;

s) o‘yin metodikasiga ko‘ra;

d) fan sohalariga ko‘ra.

7. Matematik, biologik, kimyoviy, fizik, musiqiy, teatr tomoshasi, badiiy, mehnat, texnik, ishlab chiqarishga, jismoniy, sport, harbiy, sayyohlik, ijtimoiy, boshqaruv, iqtisodiy, tijorat o‘yinlari o‘yinning qaysi turiga kiradi?

a) faoliyat mohiyatiga ko‘ra;

b) pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra;

s) o‘yin metodikasiga ko‘ra;

d) fan sohalariga ko‘ra.

8. Predmetli, predmetsiz, stol o‘yinlari, xona o‘yinlari, ko‘cha o‘yinlari, kompyuter, televizon, texnik vositalarga, texnik, harakatni ta’minlovchi o‘yinlar o‘yinning qaysi turiga kiradi?

a) o‘yin muhitiga ko‘ra;

b) pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra;

s) o‘yin metodikasiga ko‘ra;

d) fan sohalariga ko‘ra;

9. O‘rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati o‘yinning qaysi turi hisoblanadi?

a) syujetli o‘yinlar;

b) didaktik o‘yinlar;

s) rolli o‘yinlar;

d) ishbilarmonlik o‘yinlari.

10. Qanday o‘yinlar pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar sanaladi?

a) syujetli o‘yinlar;

b) didaktik o‘yinlar;

s) rolli o‘yinlar;

d) ishbilarmonlik o‘yinlari.

11. Qanday o‘yinlar ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi?

a) syujetli o‘yinlar;

b) didaktik o‘yinlar;

s) rolli o‘yinlar;

d) ishbilarmonlik o‘yinlari.

12. Qanday o‘yinlar ma’lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to‘g‘ri, oqilona uyushtirishga doir ko‘nikma, malaka hamda sifatlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o‘yinlar hisoblanadi?

a) syujetli o‘yinlar;

b) didaktik o‘yinlar;

s) rolli o‘yinlar;

d) ishbilarmonlik o‘yinlari.

13. Qanday o‘yinlar ishlab chiqarish korxonalari, ish o‘rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo‘naltiradigan o‘yinlar hisoblanadi?

a) imitatsion o‘yinlar;

b) didaktik o‘yinlar;

s) rolli o‘yinlar;

d) ishbilarmonlik o‘yinlari.

14. Qanday o‘yinlar psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘yinlar bo‘lib, ular tashkil etilishi, metodik xususiyatlariga ko‘ra rolli va ishbilarmonlik o‘yinlariga yaqindi?

a) dramatik o‘yinlar;

b) didaktik o‘yinlar;

s) rolli o‘yinlar;

d) ishbilarmonlik o‘yinlari.

15. Pedagogik o‘yinlarni tashkil etish bosqichi nechta?

a) 2 ta;

b) 3 ta;

s) 4 ta;

d) 5 ta.

16. O‘yinni loyihalash va boshlash pedagogik o‘yinning qaysi bosqichda amalga oshiriladi?

a) tayyorgarlik bosqichi;

b) o‘yin bosqichi;

c) tahlil bosqichi;

d) asosiy bosqich.

17. Guruhda topshiriq ustida ishlash va guruhlardagi munozara pedagogik o‘yinning qaysi bosqichda amalga oshiriladi?

a) tayyorgarlik bosqichi;

b) o‘yin bosqichi;

c) tahlil bosqichi;

d) asosiy bosqich.

18. Jamoadagi munozara pedagogik o‘yinning qaysi bosqichda amalga oshiriladi?

a) tayyorgarlik bosqichi;

b) o‘yin bosqichi;

c) tahlil bosqichi; d) asosiy bosqich.

3-MODUL. KREATIV FIKRLASH PEDAGOGIKASI

§ 3.1. KREATIV FIKRLASH PEDAGOGIKASINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. SHAXS KREATIVLIGINI ANIQLASH METODLARI

Reja:

1. “Kreativliklik” tushunchasining mohiyati.
2. Shaxsning kreativlik sifatlari.
3. Kreativlik va ijodkorlik tushunchalarining farqi.
4. Kreativ fikrlashni shakllantirish mexanizmlari.

Tayanch so`z va iboralar: kreativliklik, shaxsning kreativlik sifatlari, ijodkorlik, kreativ fikrlash.

“Kreativlik” tushunchasiining mohiyati

O‘tgan asrning 1960-1970 yillarida psixologiya, pedagogika, o‘qitish metodikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga shaxsni kreativ rivojlantirish, pedagogik ijodkorlikning ko‘rinishlari, kreativlik bilan bog‘liq shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, kreativ qobiliyatlarni shakllantirish, oliy maktab o‘qituvchisining kreativ potensialini rivojlantirish, kreativ o‘quv muhitini tashkil etish muammolari, xususiy fanlarni kreativ o‘qitish metodikalarini yaratish, tafakkur va kreativlik o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalarini ilmiy tahlil qilingan.

MDH va Yevropa davlatlarida pedagogika va psixologiya sohasida shaxsning individual kreativlik xususiyatlarini o‘rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarda:

pedagogik ijodkorlikni o‘rganish (Yu.P.Azarov, E.E.Vyazemskiy, L.S.Vigotskiy, M.S.Kagan, N.V.Kuzmina, A.P.Leontev, S.L.Rubinshteyn, V.I.Sherbinalar);

pedagogik kreativlikning o‘ziga xos xususiyatlari (V.V.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, M.M.Potashnik va b);

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kreativ faoliyatini rivojlantirish masalalari (V.I.Andreev, N.V.Kuzmina);

o‘qituvchining individul kreativligini tadqiq qilish masalalari (N.F.Vishnyakova, V.A.Slastenin, G.A.Sukerman);

kreativlikka o‘rgatish, kreativ fikrlashni shakllantirish masalalari (Dj.Gilford, G.S.Gamidov, V.G. Kolosov, K.Rodjers, E.Torrens) ilmiy asosda o‘rganib chiqilgan va tahlil qilib berilgan.

Sanab o‘tilgan tadqiqot ishlarida kreativlik yondashuv, qobiliyat, faoliyat turi sifatida o‘rganilgan bo‘lib, pedagogning kreativ kompetentligi, uning rivojlanish bosqichlari, tuzilmasi alohida tadqiq etilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Kreativ pedagogikaning mazmun-mohiyatini aniqlashda gneseologik, kompetensiyaviy, akmeologik, aksiologik, andragogik, tizimli, integrativ, evtagogik yondashuvlar muhim. Bular:

gnoseologik yondashuv - ilmiy bilish tabiat, jamiyat va inson haqida tasdiqlangan bilimlarni yaratishga qaratilgan faoliyat turi sifatida tabiiy, ijtimoiy, ruhiy-ma’naviy jarayonlar mohiyati va qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, uni amalga oshirish uchun bir qancha maxsus tushunchalar, tamoyillar va tadqiqot usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Ilmiy bilishning asosiy maqsadi obyektiv haqiqatga erishish bo‘lib, bunda isbotlash, tasdiqlash, tadqiqot natijalarining asoslanganligi, xulosalarining ishonchli bo‘lishi ahamiyatlidir. Ilmiy bilish yangi g‘oyalar, tasavvurlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida inson va borliq voqealar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va ta’sir jarayonini o‘rganish obyekti sifatida talqin qiladi.

Bu yondashuv vakillari kreativlikni rivojlantirishda nazariy bilish darajasida aql, tushunchalar, tamoyillar, nazariyalar kabi tafakkur shakllari bilan ishlash ustuvor

faoliyatga aylanishi lozimligini ta’kidlab, kreativ potensialni rivojlantirishda hissiy bilish aqliy tafakkur uchun empirik, hissiy-tajribaviy zamin bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlashadi. Chunki nazariy bilish asosida obyektning ichki xossalari va qonuniyatlari o‘rganiladi, bevosita hissiy idrok qilib bo‘lmaydigan tomonlar, qoidalar, aloqadorliklar kashf etiladi, tushuntiriladi. Bunda empirik darajada olingan faktlar, ma’lumotlar va bilimlar tafakkurning shakllari bo‘lgan tushunchalar va tamoyillar orqali tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, obyektning xossalari o‘rganiladi, qonunlar va qonuniyatlar kashf etiladi va bularning barchasi kreativ tafakkur orqali amalga oshiriladi.

Tizimli yondashuv shaxsning tizimli shakllanishida kasb va bilim egallash faoliyatiga, kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarga, kasb tanlashga qiziqish va ehtiyojlardan kelib chiqish zarurligini e’tirof etadi.

Tizimli yondashuv vakillari tartiblangan, o‘zaro uzviy bog‘langan va birgalikda umumiy funksiyani bajarishga bo‘ysundirilgan alohida elementlarning bir butun ketma-ketligini tizim deb qarab, obyektiv borliqdagi barcha narsa, hodisalar, jarayonlar, faoliyat shakllari ham o‘ziga xos tizimlarni tashkil etishini ilmiy asoslab bergan. Tizimli yondashuv tamoyilining o‘ziga xos, ancha murakkab xususiyatlari mavjud. Har qanday tizim ikki yoki undan ortiq qismdan iborat bo‘lib, ayni vaqtda o‘zi ham, o‘zidan yuqori pog‘onada turgan tizimga qism bo‘lib kiradi. Uning qismlari bir pog‘ona pastdagi tizimlar hisoblanib, ular ham bir necha qismlardan iborat bo‘ladi. Bu hodisa chekli va cheksiz bo‘lishi mumkin.

Tizimni tashkil qiluvchi qismlar deb faqat o‘zaro uzviy (funksional) aloqadorlikda bo‘lgan qismlarga aytiladi. Tizimni tashkil qiluvchi qismlarning bir xususiyati o‘zgarsa, shu tufayli boshqa qismlarning ham xususiyatlari o‘zgarishlarga uchrasa, u funksional aloqadorlik deyiladi. Tizim xususiyatlari faqat boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Har qanday tizim asosini aloqadorliklar tashkil qilib, ular o‘z asoslariga nisbatan tartibli va tartibsiz, harakatchan va statsionar, qarama-qarshi va ko‘p tomonlama, nuqtaviy, chiziqli, tiklanuvchan va tiklanmaydigan, oddiy va murakkab, determinlashgan, markazlashgan va markazlashmagan, bir yoki ko‘p pog‘onali hamda hokazo tarzda bo‘ladi. Tizimli yondashuv tamoyillariga ko‘ra,

pedagogning kasbiy pedagogik faoliyati o‘ziga xos tizim bo‘lib, bu tizim o‘z tarkibiga pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiyalarni, kasbiy bilim, ko‘nikma va pedagogik mahoratni ham qamrab olishiga e’tibor qaratiladi. Pedagogning kreativ kompetensiyasi mana shu tizimning bir elementi sifatida faoliyat, mahorat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan o‘zaro funksional bog‘liq holda rivojlanadi. V.V.Morozov pedagogik faoliyat tizimida kreativlikni pedagogning novatorlikka undovchi pedagogik kategoriya sifatida ko‘rsatib, kreativ kompetentlik va o‘qituvchining konstruktiv (loyihalash) faoliyatiga oid malakalarining shakllanishini, o‘qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni tuzish talablarini va uning eng maqbul variantini har bir dars mavzusiga bog‘liq holda loyihalashini tizimli yondashuv bilan bog‘lab tushuntiradi.

Texnologik yondashuv – ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etishda ilmiy bilimlarni puxta o‘zlashtirilishini kafolatlash, ta’lim jarayonining mohiyati, bosqichlari, o‘ziga xos xususiyatlari, talaba va pedagog o‘rtasida kechadigan ta’limiy munosabatlarning mazmuni, aniq maqsadga va ijtimoiy g‘oyaga asoslangan hamda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirishni ilgari suradi. Pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirishda texnologik yondashuv tamoyillariga asosan texnik-texnologik malakalar shakllanadi va faoliyat jarayonida takomillashib boradi.

Integrativ yondashuv ta’limning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o‘zaro aloqadorligiga asoslanib, ta’lim mazmunini integratsiyalash ya’ni o‘zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o‘quv predmetlari mazmunini sintezlash, ularni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirish, o‘rganilayotgan obyektlarning xususiyatlarini tizimlashtirishni nazarda tutadi. P.Drapeau, V.V.Moroz, N.V.Vishnyakova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida kreativlik - pedagogning kasbiy mahorati va shaxsiy xususiyatlari integratsiyasi sifatida qaraladi hamda izchillikni ta’minlovchi (protsessual) malakalar shakllanishini tushuntirishda ushbu nazariy yondashuv asos sifatida olinadi.

Innovatsion yondashuv asosida pedagogning kreativ faoliyatidagi ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratish jarayonlari tahlil etiladi. Innovatsion yondashuv pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishning o'ziga xosligini, pedagogik innovatsion faoliyatni namoyon bo'lishida ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati; tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish; o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish; hamkasblar bilan hamkorlik; fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik; ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish; yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish" kabi malakalarni shakllanishini tushuntiradi [19]. Pedagoglarni kreativ faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy jarayoni: tashkil etish; hamkorlikda olib borish; rivojlantirish; tahlil qilish; qiyoslash; umumlashtirish; xulosa chiqarish; boshqarish; nazorat etish; baholashni ilmiy asoslashga yordam beradi.

Pedagogning yangilikni qo'llashga tayyorgarligi; pedagogik yangiliklarni qabul qilishi; novatorlik darajasi; kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi; ijodkorligi, ijodiy faollik; faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik; yangicha fikrlash; yuksak muomala madaniyati, innovatsion faoliyati innovatsion yondashuv tamoyillariga asoslanadi.

Individual-faoliyatli yondashuv kasbiy faoliyat sharoitlari bilan bog'liq qobiliyatlarni shakllantirish muammosi, muhim kasbiy jihatlarning shakllanishida yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlar darajasi, shaxsning faoliyat borasidagi qiziqishlari, maqsadlari va faoliyat tizimi, pedagogning innovatsion faoliyati, talabaning faol o'quv bilish faoliyati, pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati asoslarini nazariy jihatdan tahlil qiladi. Kasbiy ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish malakalari, pedagogning shaxsiy-kasbiy axborot maydonini yaratish ko'nikmalarini

rivojlantirish mexanizmlari individual-faoliyatli yondashuv tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Akmeologik yondashuv – insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarni namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadigan nazariy yondashuv sifatida individ, shaxs, individuallik va subyektning kasbiy faoliyati haqidagi fanlar integratsiyasidan tashkil topgan. Akmeologik yondashuvga ko‘ra, shaxs kasbiy faoliyatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish masalalarida kreativ qobiliyatlarning subyekti sifatida qarab chiqiladi. O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish asosida insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, faol hayot tarafdori bo‘lish, ezgu fikrlash, o‘z imkoniyatlariga ishonish, hayot mazmunini tushunish yotadi. Yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda, kasbiy faoliyat natijalari, ijtimoiy tan olinish, o‘z yetukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qila olishni shakllantirish akmeologik yondashuvning asosini tashkil etadi. Kasbni egallash, ijtimoiy va mehnat faoliyati, ta’lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish; reflektsiya, ijodiy tafakkur qilish, ta’limni ichki ehtiyojga aylanishi, bilish motivlarining rivojlanishi ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Akmeologik yondashuv kasbiy kommunikativ sifatlar va malakalarni tarkib topishini ilmiy asosda tushunishni ta’minlaydi.

Antik davr falsafasida kreativlik mazmuniga ikki jihatdan yondoshilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bularning birinchisida: kreativlik kosmoontologik tushuncha sifatida izohlangan bo‘lsa, ikkinchisi individual xususiyatga ega bo‘lgan biosotsial tushuncha sifatida talqin etilishidir. Arastuning asarlarida “kreativlik” va “kreativ tafakkur” tushunchalari ishlatilgan bo‘lib, faylasuf ularni bir-biridan alohida ajratib tahlil qilishga harakat qilganligini ko‘rish muumkin. Olimning fikricha, “kreativlik”ni ijodiy imkoniyatdan ijodiy voqealikka o‘tish jarayoni, “kreativ tafakkur”ni esa mazkur jarayonning natijasi sifatida tushunish lozim [103].

O‘rta asrlar Sharq falsafasining yetakchi vakillari al-Forobiy, Ibn Sino, al-Kindiy, Ibn Rushd va al-G‘azzoliy o‘z asarlarida kreativ tafakkur tushunchasini ma’no-mohiyatini, mazmun va shaklini aniqlab berishga harakat qilganlar va bu tushunchani

insonning qobiliyati bilan bog‘laganlar. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida “...shoirlar chindan tug‘ma qobiliyatli, she’r bitishga tayyor tabiatli bo‘lishi, ularda tashbeh va tamsilga layoqat yaxshi ishlashi”ni ta’kidlab o‘tilganligini ko‘rishimiz mumkin [11]. Mazkur davr sharq falsafasida kreativlik insonning qobiliyati sifatida qaralganligini anglatadi.

O‘rta asrlar G‘arb falsafasida D.Skott, U.Okkam kabi faylasuflar va ularning izdoshlari kreativlikni insonning ijodiy tafakkuri sifatida emas, balki bilishning yuqori bosqichi “ilohiy bilish” usuli sifatida talqin etishi o‘sha davr falsafasida o‘ziga xos bahs-munozalarni keltirib chiqardi. Ular kreativlikni irodaga bo‘ysunuvchi, ilohiy bilish usuli, ya’ni bilishning oliy shakli ekanligiga urg‘u berib, uni mutloqlashtiradilar va inson tafakkuriga qarama-qarshi qo‘yadilar.

Foma Akvinskiy esa kreativlikni tahlil qilishda Arastuning “ijodiy imkoniyatdan ijodiy voqelikka o‘tish jarayoni” to‘g‘risidagi fikrlariga tayanib, inson irodasi kreativlikka bo‘ysunishini falsafiy jihatdan tahlil qilib, ilmiy asoslab beradi. F.Akvinskiyning qarashlariga ko‘ra, kreativlik deganda kishining voqea va hodisalarni faqat ijodiy aql bilan anglanadigan jihatlari va xususiyatlari tushunilishi lozim.

Falsafadagi bu bahs-munozalar natijasida kreativlik tushunchasi voqea va hodisalarning mohiyatini ijodiy aql-idrok orqali bilish xususiyatini ifodalovchi fundamental tushunchaga aylantirdi.

Shaxsning kreativlik sifatlari

Kreativlik – bu shaxsning yangi g‘oyalarni yaratishi, tafakkurning an’anaviy qoliplardan chetga chiqib, o‘ziga xos, original qarorlar qabul qilishga qodirligi sifatida tafsiflanib, pedagogik-psixologik yo‘nalishdagi tadqiqotlarda 1922 yilda D.Simpson ilk bora mazkur atamaga “tafakkurning nostandart usuli” deb ta’rif bergan. Pedagogik, psixologik manbalarning tahliliga ko‘ra, kreativlik keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, fanning faqat bitta sohasiga tegishli emas.

Psixologiyada kreativlik asosan ikki jihatdan: yangi narsalarni yaratishning psixologik jarayoni va ushbu jarayonda shaxsni ishtirok etishini ta’minlaydigan shaxsiy xususiyatlar to‘plami sifatida o‘rganiladi. Binobarin, agar kreativ jarayonning borishini baholash qiyin bo‘lsa, unda bu xususiyatga ega bo‘lishni ta’minlaydigan

shaxsiy xususiyatlar (qobiliyatlar, motivlar, bilimlar, ko‘nikmalar) mavjudligiga e’tibor qaratiladi.

Kreativlikni o‘rganish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarni quyidagi yo‘nalishlarda guruhlashtirish mumkin:

birinchi yo‘nalish kreativlikni yaratilgan mahsulotlar bo‘yicha o‘rganadi, bunda ijodiy mahsulotning asosiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi: miqdori, sifati va ahamiyati (E.P.Torrens, A.V.Brushlinskiy, K.Shefer, T.Amabayl, M.Ferson, K.Teylor, D.Teylor va boshqalar)ga asosiy e’tibor qaratiladi;

ikkinchi yo‘nalishda kreativlik jarayon sifatida o‘rganiladi (V.I.Andreyev, P.Drepau, Ye.Ye.Tunik, A.V.Moroz, Barisheva, I.S.Bekeshova, A.R.Aripjanova, M.M.Kashapov, G.A.Sukerman). Har qanday jarayon, shu jumladan kreativ jarayon ham boshlanishi, davomiyligi, o‘zgarishi va shunga mos ravishda qandaydir yakuniga ega bo‘ladi. Bunday holda obyektiv yoki ideal kreativ mahsulot yaratilishi emas, kreativ fikrlash jarayonining turli bosqichlari, darajalari va turlari aniqlanadi hamda tahlil etiladi;

uchinchi yo‘nalishda kreativlik qobiliyat sifatida tahlil etiladi (D.Simpson, E.P.Torrens, J.A.Maslou, Gildford, A.V.Brushlinskiy, .M.Rubinshteyn, E.P.Ilin, E.L.Grigorenko), turli yosh davrlari, har xil kasb egalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlanish mazmuni va dinamikasiga ko‘proq ahamiyat qaratilgan;

to‘rtinchi yo‘nalishda kreativlik jarayoni shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirishi, o‘zini o‘zi rivojlantirishi bilan bog‘lanadi va o‘zini o‘zi faollashtirgan shaxsning kreativligiga e’tibor qaratiladi (R.J.Hallman, K.Rodjers, N.V.Vishnyakova, D.B.Bogoyavlenskaya, I.E.Bryakova, A.V.Morozov, V.N.Drujinin).

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy yechimlarni ishlab chiqishida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, kreativ fikrlash jrayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir.

A.Maslou fikriga koʻra, kreativlik faqat erishilgan natija bilan emas, balki shaxsning oʻz-oʻzini faollashtirishi, yangiliklarga ochiqligi, kreativ maqsadlarni oʻz oldiga qoʻyishi, oʻzini oʻzi rivojlantirishi uchun kam kuch va vaqt sarflashi bilan ajralib turadi. Muallif kreativ muhit, kreativ jarayon, kreativ shaxs, kreativ mahsulot kabi aspektlarni ajratib koʻrsatadi.

V.N.Drujinin kreativlik faqat vaziyatga (situativ) bogʻliq xususiyat - javob reaksiyasi boʻlishi mumkinligini, u nafaqat xulq-atvorga (vaziyatli-situativ) xos, balki atrof-muhit ta'sirida shaxsiy xususiyat boʻlib shakllanishini ta'kidlaydi [50]. Olim kreativlik xususiyat boʻlib, faqat atrof- muhit imkon bersagina faollashadi deb tushuntiradi, muallif kreativlikning dastlabki bosqichlarini inson hayot faoliyatining muayyan sohasiga ixtisoslashtirilmagan umumiy ijodkorlik qobiliyati ekanligi haqida fikr yuritadi.

Kreativlik atamasining hosilalari sifatida "kreativ fikrlash", "kreativ shaxs", "kreativ xulq-atvor", "kreativ tafakkur", "kreativ jarayon", "kreativ mahsulot", "kreativ kompetensiya", "kreativ kompetentlik", "kreativ potensial" kabi tushunchalar keng qoʻllaniladi. Bu tushunchalar pedagogik-psixologik jihatdan bir-biriga yaqin, biri ikkinchisini toʻldiruvchi xususiyatga ega boʻlsada, ular bir masalanining turli tomonlarini izohlaydi.

Kreativ fikrlash. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun asarlarida kreativ fikrlash insonning turli tushunchalarni yaratishga qaratilgan mushohada yuritish qobiliyati sifatida izohlanadi. Psixolog olim D.Veksler oʻz tadqiqotlarida kreativ fikrlashni bir muammo yoki masala yuzasidan bir vaqtda bir nechta yechimlarni ishlab chiqish jarayoni sifatida tushuntirib, kreativ fikrlashni stereotip, shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, voqea, hodisa va jarayonlar mohiyatidagi oʻziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam berishini ta'kidlaydi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun shaxs tarbiyasida bolaligidan boshlab uning fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada oʻz oʻrniga ega ekanligini his qildirib borish; jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish; boshqaruv jaryonida avtokratik usullardan koʻra demokratik usullarni koʻproq qoʻllashga ahamiyat qaratish lozimligi ta'kidlanadi.

Kreativ shaxs. Kreativlik xususiyatiga ega bo‘lgan insonlarga nisbatan kreativ shaxs yoki kreativlar atamasi qo‘llaniladi. Muammolarni yechishda nostandart usullarni qo‘llashga moyil, original va nostandart fikrlash ko‘nikmasiga ega, voqea, hodisa jarayonlarni tahlil qilishda har qanday g‘ayrioddiy fikrlarni rivojlantirib, ulardan yangi g‘oyalar yarata oladigan shaxs kreativ shaxs hisoblanadi. Kreativ shaxslar muloqot jarayonida ochiq bo‘ladilar, bu shaxslarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, hazilni tushunish tuyg‘usi yaxshi shakllangan bo‘lib, qiziquvchan, sezgir, fikrlashda boy fantaziyaga, moslashuvchanlik va o‘z g‘oyalarini sinchkovlik bilan batafsil ishlab chiqish malakalariga ega bo‘ladilar. Kreativlik o‘zida idrok, xatti-harakatlar yoki shaxslararo muloqotga javob sifatida boshqalarga muhtoj bo‘lmaslikni namoyon etadi. Agar kreativlik muhtojlik yoki xavf-xatarning mahsuli sifatida shaklanganda edi unda dunyoda kreativlik hozirgiga nisbatan ancha ko‘proq bo‘lishi kerak edi. Qachonki shaxs atrof muhitdan o‘ziga xavf xatar sezsa, u o‘ziga ehtiyotkor va tormozlangan bo‘ladi va o‘z fikr, g‘oyalarini erkin ifoda etmaydi. D.Gilfordning fikricha, kreativ shaxs o‘zida tavvakkal qilish, divergent fikrlash, fikrlashning moslashuvchanligi, tezkor fikrlash, boy tasavvur, buyumlarning ko‘p funksiyaliligini anglash, yuqori estetik qadriyatlar, intuitsiyaning rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Kreativ xulq-atvor. Kreativ xulq-atvor individning o‘z muloqotida tashqi motivatsiya va insonning o‘z harakatlarini tashqi motivatsiyaga javob reaksiyasi sifatida yuzaga keltirish jarayoni hisoblanadi. Kreativ bo‘lish uchun insonga rag‘batlantiruvchi muhit kerak. Inson o‘zini qanday bo‘lsa shunday qabul qilishayotganini his qilishi va u o‘ziga ishonchini yo‘qotmasdan o‘z iste’dodini erkin va har qanday vaziyatda ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lishi uchun xulq-atvorida kreativlik xususiyatlari shakllanishi kerak. V.V.Moroz fikriga ko‘ra kreativ muhit bu shaxsiy tassavvurlar, fikrlash, bilim, hissiyotlar harakatlar taassurotlar, his tuyg‘ular orqali namoyon bo‘ladigan muhit hisoblanadi. Kreativlik hulq-atvor sifatida atrof muhitdagi salbiy holatlar va xavf-xatarlar mavjud bo‘lmaganda rivojlanadigan xususiyatdir.

Kreativ tafakkur. Falsafiy nuqtayi nazardan tafakkur o‘rganilayotgan obyektning xossalari va qonuniyatlarini tushuncha, tamoyil va aksiomalari bo‘lgan abstraktsiyalar orqali umumlashtirish va bilvosita in’ikos etish jarayonidir. Inson tafakkurining

an’anaviy qoliplardan chetga chiqishi, o‘ziga xos, original qarorlar qabul qilishga qodirligini ifodalovchi ushbu tushuncha haqida tadqiqotchilar kreativ tafakkur faqat kattalarda to‘liq rivojlanishga erishadi, chunki u tug‘ma qobiliyat va hayot tajribasining o‘zaro ta’sirida shakllanadi deb hisoblaydilar. Pedagog tafakkurini original yechimlar topish va ularni targ‘ib qilishga chaqirish, g‘oyalarni ishlab chiqishga majburlash; keng mushohada etish, an’anaviy bo‘lmagan usullardan foydalanish, o‘z tafakkur tarzi va stereotiplar qobig‘idan chiqib ketish kreativ taffakurga bog‘liq bo‘ladi. Kreativ tafakkur yordamida obyektning belgilari va xossalari idrok qilinadi, hosil bo‘lgan obrazlar yoki ilmiy faktlar tahlil qilinadi, bir – biri bilan taqqoslanadi, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki munosabat umumlashtiriladi, keyinchalik obyektga xos bo‘lgan yangi aloqadorlik, bog‘lanish, qonun yoki qonuniyatlar ochiladi, kashf etiladi.

Kreativ jarayonda tafakkur shakllari tushuncha, hukm, xulosalardan iborat bo‘lib, u ikkita vazifani – tushunish va tushuntirishni bajaradi. Kreativ tafakkurning xususiyati shaxsning muammo, undan kelib chiqadigan masalalar va savollarni qo‘yish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik muammoni qo‘yish va hal qilish bilan bog‘langan bo‘lib, muammoning vujudga kelishi, uning xususiyatlari (dolzarbligi, yangiligi, keng qamrovligi, chuqurligi va x.k) oldingi bilimlar, odamlardagi ijtimoiy va gnoseologik (bilish) ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ya’ni fikr va muammoni aniq, ravshan ifodalash; huqm va mulohazalarning chin bo‘lishi; tatbiq qilinayotgan vositalar va usullarning masalaning maqsadi va natijasiga mos kelishi; muammoni masala va vazifalarga aylantirishda izchillik talabi qondirilishi lozim; natijani tekshirib ko‘rishning ishonchli usuli mavjud bo‘lishi talab etiladi.

Kreativ tafakkurning yana bir muhim xususiyati nostandart g‘oyalar yaratish, ilgari surish hisoblanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan g‘oya intuitiv (nogahon) ravishda hosil bo‘ladigan, aqlan anglaniladigan, ilmiy faraz va nazariyalarning asosini tashkil qiladigan bilish shakli bo‘lib, u masalani qo‘yish, tajribaviy ma’lumotlarni umumlashtirish, murakkab muammoli vaziyatni tushunish imkoniyatini beradi. G‘oyaning asosiy vazifasi o‘rganilayotgan obyekt, hodisa yoki jarayonning xossalarini tushuntirish, tushunishga yordam berish bo‘lib, u inson ruhiyatida yangi fikr tarzida tug‘iladi. Paydo bo‘lish jihatdan g‘oya kreativ tafakkurni hosilasidir. Har qanday yangi

fikr, faraz, muammoni qo‘yilishi va yechimi kreativ g‘oya shaklida vujudga keladi. Kreativlik tafakkurni odatdagi fikrlash yo‘lidan ancha qiziqarli bo‘lgan noan’anaviy usullarga olib ketadi, shu bois inson tafakkurida original qarorlar vujudga keladi. Original va noana’naviy qarorlar esa zamonaviy jamiyatlarni ilg‘orlik, taraqqiyot, iqtisodiy takomil sari yetaklovchi kuch hisoblanadi.

Kreativ tafakkur mehnat va faoliyat jarayoniga erkinlik, ozodlik, ilhom va ijodkorlik kabi xususiyatlarni baxsh etadi. Demak, intellekt – insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik – mana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlatish qobiliyati hisoblanadi. Ya’ni, intellektuallik – pedagoglarda kasbiy salohiyatni shaklantirish, ularni zamonaviy jamiyatda ishlashga tayyorlashning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi, kreativ tafakkur esa aqliy salohiyat orqali mavjud muammolarning yangicha yechimlarini topish hisoblanadi. Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kreativ tafakkuri maqsadga yo‘naltirilgan, shu vaqtgacha ma’lum bo‘lmagan yoki an’anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul, yo‘l, vositalarni tanlashni va ishlab chiqishni anglatadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda odatda katta biznes strukturalarini tahlil qilish, o‘nlab, yuzlab kreativ tafakkurga ega bo‘lgan odamlarning fikrlari, qarashlarining tahlillarini o‘tkazish, umumlashtirish, rejalashtirish, o‘rganish va umumiy yechimga keltirish talab etiladi. Shu sababli, ijtimoiy-gumanitar fanlarda kreativ tafakkur tushunchasining o‘zi korporativ manfaatlar tafakkuri sifatida targ‘ib qilinganligi va katta biznes strukturalari faoliyatining vujudga kelishiga turtki bo‘lganligi ta’kidlanadi.

Kreativ tafakkur jamiyatlar taraqqiyotining industrial va postindustrial, ilmiy-texnik inqiloblar va keskin o‘sish davrida shakllangan hamda zamonaviy texnik taraqqiyotning yangi bosqichlarini inson zahiralari bilan boyitish uchun xizmat qiladigan shaxsning noan’naviy fikrlash qobiliyati va tafakkuri hisoblanadi. Kreativ tafakkur faqat ba’zi bir insonlarga xos alohida in’om etilgan g‘ayri oddiy tafakkur, o‘zini tutish qobiliyati emas. Kreativ tafakkur – aqlning peshqadamligi, ish vazifasi va sohasiga sodiqlik, tafakkurning egiluvchanligi, noan’anaviyligi, tezlikda qarorlar qabul qilish, nostandart yechimlar qabul qilishdan cho‘chimaslik, ong, tafakkur va aqlni barcha yo‘nalishlarida istiqbolni ko‘rish va anglashga o‘rgatish, prognoz qila olish kabi

xususiyatlarning maqsadli tarbiyalanishi va shakllantirilishiga bog‘liq pedagogik jarayondir.

Kreativ mahsulot erishilgan natija (yutuq) orqali aniqlanadi. Bunda yaratilgan mahsulot yoki taklif etilayotgan g‘oyaning qiymati unga bo‘lgan talabning yuqori yoki pastligiga qarab baholanadi. G‘oyalar yoki elementlarning yangi konstruksiyasi voqelik talablariga javob berganda, shaxsning muloqot doirasiga, uning ichki dunyosiga, madaniy qadriyatlar tizimiga ham ta’sir qiladigan mahsulot xususiyatiga ega bo‘ladi. Kreativ mahsulotlar tabiatan juda xilma-xil bo‘lishi mumkin: matematik masalani yechishning yangi usullarini o‘ylab topish, kimyoviy jarayonni kashf etish, musiqa, rasm yoki she’r yaratish, yangi falsafiy yoki diniy tizim, huquqshunoslik sohasida yangi huquqiy normaning yaratilishi, ijtimoiy muammolarni yangicha yondashuv asosida hal qilish ham kreativ mahsulot bo‘lishi mumkin.

Kreativ jarayon muammolarni yechishda, qaror qabul qilish vaziyatida, mavjud ma’lumotlar bilan ishlashda insonning yangi tajribasi, g‘oyasi yoki mahsulot sifatida, yangi fikr sxemalari shaklida paydo bo’ladigan aloqalarni topish jarayoni hisoblanadi. Kreativ jarayon turli sohalarda o‘zini spetsifik xususiyatlariga ega bo‘lsada, u barcha sohalarga xos umumiy jihatlari bilan asoslanadi, ma’lum vaqt oralig‘ida vujudga keladi (chegaralar) va aniq bosqichlarda shakllanadi, kreativlik shakllanishi uchun insayt daqiqasi kerak, kreativlik jarayon sifatida shaxsning o‘ziga xos sifatlari va atrof muhitning qulayligiga bog‘liq.

Kreativ kompetentlik. Kasbiy-pedagogik kompetentlikning alohida turi (qismi) sifatida kreativ kompetentlik shaxsiy sifatlar, kasbiy mahorat, kasbiy bilimlarni kreativ jihatlarini anglash, o‘ziga xoslikni o‘z ichiga oladi. Kreativ kompetentlik doimo rivojlanib boruvchi dinamik hodisa sifatida notekis rivojlanish trayektoriyasiga ega bo‘ladi. Buning sababi shaxsning o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga, o‘z malakasi va kasbiy darajasini oshirishga intilishi turli vaziyatlar va jarayonlarga, shaxsning ichki va tashqi motivatsiyasiga, o‘zining kasbiy ehtiyojlarini qay darajada anglay olishiga, moddiy va ma’naviy omillarga bog‘liq bo‘ladi. Jamiyat, ta’lim tizimi, ta’limning mazmuni, ishlab chiqarishdagi real o‘sishlar va pasayishlar, yangi texnologiyalarni kirib kelishi jamiyatni o‘zini, odamlarni, ularning dunyoqarashini,

muammolarni o‘zgartiradi, yangi vazifalar va yangi muammolarni yechish esa kerativ kompetentlikni talab etadi.

Kreativ kompetentlik vaziyatlarni tez idrok qilish, muammoga tez kirishish, mustaqil fikrlash asosida muammoga original yechim topish, fikrlash tezligi, fikrlashning keng qamrovliligi, tahliliy malakalar, tanqidiy fikrlash, muammolarni yangi diapozonda ko‘rish, uning sabablarini aniqlashda va yechimlar taklif etishda o‘zgacha yondashuvning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Kreativlik va ijodkorlik tushunchalarining farqi

Kreativlik va ijodkorlik tushunchalari bir -biriga yaqin, ammo aynan bir xil ma’noni anglatmaydi. Jumladan, falsafiy talqinda “ijod insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko‘rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o‘tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko‘riladi, noto‘g‘ri bo‘lsa yangilanadi va h.k. Izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va b.) yuzaga chiqadi”- deb izohlanadi O’zbekiston milliy ensiklopediyasida [31].

M.Abdullaeva kreativlik va ijodkorlik tushunchalarining mazmun-mohiyati va bir-biridan farqini quyidagicha izohlaydi [10] (3.1-jadvalga qarang):

3.1-jadval.

Kreativlik va ijodkorlik tushunchalari

Xususiyatlar	Kreativlik	Ijodkorlik
Tushuncha	individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati	yangilikning ahamiyati va foydaligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi
Qobiliyat	shaxsning ijodiy faoliyatini tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta’minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati	ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo‘ladigan individual xususiyat

Topshiriqlar	o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi muhim	muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo‘naltirilgan masalalar tizimi
Faoliyatdagi tushunchalar	Shaxs kreativligini rivojlantirish jarayonida “tabaqalashtirish” (butunning turli bosqich yoki darajalarga ajratilishi), “davrlashtirish” (muayyan hodisani o‘zida qandaydir yakunlangan jarayonni qamrab olgan ma’lum vaqt birliklariga ajratilishi) tushunchalari, tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etishlari	shaxsning ijodiy faoliyatida o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi – o‘zini-o‘zi ijodiy faollashtirish

Kreativlik–insonning ijodiy qobiliyati sifatida dastlabki tadqiqotlarda aqlning vazifasi sifatida qaralgan va intellektning rivojlanish darajasi bilan aniqlangan. Keyinchalik esa kreativlik juda yuqori intellektga bog‘liqligi asoslab berildi. Hozirgi vaqtda kreativlikni o‘rganishda markaziy yo‘nalish u bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni aniqlashga va kreativ kompetentlikning rivojlanish bosqichlari va ularning pedagogik-psixologik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Kreativ kompetentlik mavjud muammolarning yangicha yechimlarini izlab topish faoliyati sifatida rivojlantiriladigan mahorat va boshqariladigan jarayon bo‘lib, fundamental bilim, intizomni o‘rganish va ijodiy fikrlash mahoratidan boshlanadi.

V.I.Andreev kreativlikni inson faoliyatining turi deb belgilaydi va uning “qarama-qarshilik, muammoli vaziyat yoki ijodiy vazifaning mavjudligi; ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatlilik, progressivlik; kreativ faoliyat uchun obyektiv (ijtimoiy, moddiy) shart-sharoitlarning mavjudligi; kreativ fikrlash uchun subyektiv zaruratlarning mavjudligi (shaxsiy fazilatlar, bilim, ko‘nikmalar, ijobiy motivatsiya); jarayon yoki natijaning yangiligi va o‘ziga xosligi” kabi xususiyatlarini qayd etadi [41; 126]. Muallif tomonidan taklif qilingan kreativ shaxs tipologiyasida har bir inson kreativlik xususiyatlariga ko‘ra u yoki bu guruhga tegishli ekanligi ta’kidlanadi.

Zamonaviy ta’limining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o‘z o‘rnini topishga qaratilganligini ongli ravishda anglash, maqsadning aniqligi, o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning kuchliligi, o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini rivojlantirishi, o‘z-o‘zini mukammallashtirishi bilan tavsiflanadi.

Professor A.Xaliqov “o‘z-o‘zini rivojlantirish – shaxs tashqi ta’sirlarning emas, o‘z harakatlarining natijasi sifatidagi faol, izchil, ijobiy sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir. O‘z-o‘zini rivojlantirish shaxsning o‘zida bor bo‘lgan, insonga tabiat tomonidan berilgan psixik va shaxsiy xususiyatlarni, masalan, iqtidor, xotira, tafakkur, diqqat, tuyg‘ular sohasi, umumiy va kasbiy qobiliyatlar va yangilikka intilish kurtaklarini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan faoliyati deb ham qaralishi mumkin. O‘z-o‘zini mukammallashtirish (qaysidir ma’noda o‘z-o‘zini tarbiyalash darajasi bilan bir xildir) – bu insonning o‘zida yangi fazilatlarni, xususiyatlarni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va mavjud bo‘lganlarini esa kuchaytirishga, shuningdek, kamchiliklarni to‘g‘rilashga yo‘naltirilgan faoliyatdir. “O‘z-o‘zini mukammallashtirish” tushunchasi insonparvarlik ma’nosini ham aks ettiradi, chunki insonning o‘ziga ta’sir qilishni nazarda tutadigan o‘z-o‘zini tarbiyalashdan farqli o‘laroq, o‘zidagi eng yaxshi fazilatlarga suyanishni, ijobiy hislatlarini kengaytirishni va o‘zining kasbiy cho‘qqisi tomon harakatlanishini va nihoyat akme (grekcha acme – gullab-yashnash, cho‘qqi) ga erishishni ifodalaydi”-deb tushuntiradi [30].

Kreativ fikrlashni shakllantirish mexanizmlari

Kreativ fikrlash uni subyekti bo‘lgan shaxsga taaalluqli tajriba, bilim va kompetensiyalarning tarbiyalanganlik darajasini talab etadigan o‘ziga xos tizim sifatida o‘z-o‘zini tahlil qilish asosida rivojlanadi. Kreativ fikrlashda o‘z-o‘zini tahlil qilish quyidagi tartibda amalga oshadi:

1. *Analitik tahlil* – tayyorgarlik, axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish, axborotlarni umumlashtirish, ko‘rsatkichlarni taqqoslash.

2. *Konsentratsiya jarayoni* – muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma’lum faktlar va ularning tizimli tahlili. Aqliy salohiyat yetishmovchiligi jarayonidan o‘tish. Mazkur jarayonni bosib o‘tishga intilish, ong faolligining ko‘tarilishi yoki pasayishi, insonning muammo tahliliga berilishi, natijada turli yangi nostandart g‘oyalarning tug‘ilishi va shakllanishi asosida kechadi.

3. *G‘oyalar inkubatsiyasi* – aqliy konsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g‘oyalar tafakkur yordamida metodologik asoslarda qayta tahlildan

o‘tkaziladi va guruhlanadi. Shaxsiy senzura yangi g‘oyalarning barchasini axloqiy-ma’naviy va qadriyatlar nuqtayi nazaridan nazoratdan o‘tkazadi.

4. G*‘oyalar qidirish yo‘lidagi past-balandliklar, to‘lqinli taraqqiyot jarayoni* – g‘oyalar tahlili amalga oshirilganda inson tafakkuri tinch va osuda emas, balki fikrlarni keskin o‘zgartirishga moyil bo‘ladi. Shu bois, odam birdaniga bir mavzuga, saldan keyin boshqa bir mavzuga o‘tib ketadi. Bu inson tafakkurida kechayotgan faoliyatli jarayon bo‘lib, bu jarayonning natijasi sifatida yangi g‘oya yaratiladi.

5. *Analiz va sintez* – kreativ tafakkur faoliyati natijalarini tahlil qilish jarayoni. Bunda mantiqiy tahlil jarayoni sifatida inson tafakkurida tahlil etilayotgan muammo doirasida yaratilgan barcha g‘oyalar yaxlitlik va umumiylikda tahlildan o‘tkaziladi, hamda kreativ tafakkur jarayonining natijasi sifatida so‘nggi kreativ (original) g‘oya yaratiladi.

Kreativ shaxs tipologiyasi aniqlandi (3.2-jadvalga qarang):

3.2-jadval.

Kreativ shaxs tipologiyasi

№	Tiplar	Kreativlik xususiyatlari
1.	Nazariyotchi-mantiqchilar	Kreativ shaxsning bu turi keng mantiqiy xulosalar qilish, ma’lumotlarni tasniflash va guruhlashtirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ushbu turdagi shaxslar o‘zining ijodiy ishlarini aniq rejalashtiradilar, ilgari ma’lum bo‘lgan ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanadilar. Ular onglilik va bilimlilik darajasi bilan ajralib turadi. Oldindan ma’lum bo‘lgan nazariy tushunchalarni yanada rivojlantiradilar, boshlagan har bir yangilikni mantiqiy yakuniga yetkazishadi, dastlabki manbalarga havolalar sifatida o‘zlarining asoslarini yaratadilar
2.	Nazariyotchi-intuitivist	Yangi, o‘ziga xos g‘oyalarni shakllantirish qobiliyati yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadi, ushbu tipdagi kreativ qobiliyatga ega insonlar yirik ixtirochilar, yangi ilmiy tushunchalar, maktablar va tendensiyalarni yaratuvchilardir
3.	Eksperimentatorlar	Ular har doim o‘zining yangi, original farazlarini tajriba asosida sinab ko‘rishga intiladi. Bunday shaxslar asbob-uskunalar bilan ishlashni yaxshi ko‘radi va biladi, ular amaliy masalalarda alohida qobiliyatga ega bo‘ladi
4.	Tashkilotchi-ijodkorlar	Kreativ shaxsning bu turi boshqalarni uyushtirish qobiliyatiga, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun jamoani rivojlantirish malakasiga ega. Bunday odamlar rahbarligida asl ilmiy maktablar va ijodiy jamoalar yaratiladi. Ushbu turdagi odamlar o‘zining yuqori energiyasi, jamoatchiligi, boshqalarni o‘z irodasiga bo‘ysundirish va ularni katta muammolarni ijodiy hal qilishga yo‘naltirish qobiliyatiga egaligi bilan ajralib turadi
5.	Tashabbuskor	Tashabbuskor, ayniqsa muammolarni hal qilishning dastlabki bosqichlarida o‘zining g‘ayratliligi bilan ajralib turadi. Ammo, qoida tariqasida, tashabbuskor tezda soviydi yoki boshqa muammolarni ijodiy hal qilishga o‘tib ketadi

Krativ fikrlashni rivojlantirishda kreativ topshiriqlar tizimi kata ro`l o`ynaydi. *Kreativ topshiriqlar tizimi* deganda ierarxik tuzilgan va o‘quv jarayonida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan obyektlar, vaziyatlar, hodisalarni bilish, yaratish, o‘zgartirish va yangi sifatda foydalanishga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘liq vazifalarning tartiblangan to‘plami tushuniladi. Kreativ topshiriqlar yordamida J.Gilford tomonidan asoslab berilgan quyidagi parametrlarga tayanish lozim:

muammolarni aniqlash va qo‘yish qobiliyati;

ko‘p sonli yechimlarni yaratish qobiliyati;

semantik spontan moslashuvchanlik-turli g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

o‘ziga xoslik-uzoq assotsiatsiyalarni ishlab chiqish qobiliyati, g‘ayrioddiy javoblar, nostandart yechimlar;

tafsilotlarni qo‘shish orqali obyektni yaxshilash qobiliyati;

nostandart moslashuvchanlik qobiliyati, ya’ni obyektdagi yangi xususiyatlarni ko‘rish, ulardan yangicha foydalanishni topish qobiliyati.

Vazifalarni bajarish jarayonida yaratilgan kreativ mahsulotni baholashda yangilik, mazmunlilik, o‘ziga xoslik mezonlari asos qilib olindi.

A.Osbornning muammoni o‘zgartirish texnikasi. A. Osborn kreativlikni rivojlantirishda ishtirokchi bajarishi kerak bo‘lgan 10 ta oddiy harakatni taklif qiladi va bu kutilmagan yechimga olib kelishini kafolatlaydi. Masala juda oddiy: berilgan obyekt yoki muammo bor va u bilan bajarilishi mumkin bo‘lgan 10 ta harakat mavjud.

Teskari foydalanish imkoniyati. Savollar: ushbu obyektdan, g'oyalardan boshqa yo‘nalish doirasida foydalanish mumkinmi?

Analoglarni keltirish. Savollar: Shu kabi takliflar bormi? Ha bo'lsa, ular qanday ko'rinishga ega bo'lishi mumkin? Mo'ljallangan mahsulotni yaxshilash uchun analogdan aniq nimani olish mumkin?

O'zgartirish. Savollar: rangi, harakati, o'lchami, shakli, tovushi, hidi, maqsadi, tuzilishi, tuzilishi, tuzilishi yoki boshqa konstruktiv komponentlarini o'zgartirish mumkinmi?

Kattalashtirish. Savollar: hajmi, vazni, tezligi, miqdori, chastotasi, yuzi, narxi, masofasi, konsentratsiyasini oshirish mumkinmi? Mahsulotni ko'paytirish yoki uni biron bir kuchga ko'tarish mumkinmi?

Kamaytirish. savol: bu hajmini kamaytirish mumkinmi, hajmi, vazn, tezlik, miqdor, chastota, hajmi, qiymati, masofa, konsentratsiyasi? Biror narsani tozalashim kerakmi? Yehtimol, siz uni yengillashtirishingiz yoki aniqroq va ifodali qilishingiz kerakmi? Uni ajratish mumkinmi?

Almashtirishni amalga oshirish. Savollar: qanday xususiyatlarni almashtirish mumkin? Qismlar va elementlarni yanada takomillashtirilgan elementlar bilan qanday almashtirish mumkin? Mavjud bo'lmagan komponentlardan foydalanish kerakmi?

Harakat. Savollar: joylarda biror narsani almashtirish mumkinmi? Ha bo'lsa, buni qilishning eng yaxshi usuli qanday? Ketma-ketlikni o'zgartirish mumkinmi? Sabab va oqibatni o'zgartirish kerakmi?

Buning aksini bajaring. Savollar: qarama-qarshi fikr nima? Rolni o'zgartirish mumkinmi? Oynaga qarasangiz, u erda nimani topishingiz mumkin? Balki 90°, 180°, 270°, 360° aylantirishga ehtiyoj bordir?

Kombinatsiya. Savollar: boshqa narsa bilan birlashtirish mumkinmi? Ehtimol, uni tarkibiy qismlarga bo'lish yaxshiroqmi? Kombinatsiya. savollar: boshqa narsa bilan birlashtirish imkoniyati bormi? Yehtimol, uning tarkibiy qismlariga ajratish yaxshiroqmi?

Transformatsiya. Savollar: siqilish, deformatsiya, sinish yoki boshqa turdagi shikastlanishlar ehtimoli bormi? Uni qattiq, suyuq, gazsimon, shaffof, bulutli holga keltirish mumkinmi?

Har bir element uchun 2-3 ta g'oyani taklif qilish kerak, shunda siz muammoning umumiy va ahamiyatsiz echimini yoki vaziyatdan chiqish yo'lini olishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mazkur mavzuda “Kreativliklik” tushunchasining mohiyati, shaxsning kreativlik sifatlari, kreativlik va ijodkorlik tushunchalarining farqi, kreativ fikrlashni shakllantirish mexanizmlari o`rganilgan.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Sizningcha, kreativlik nima? Ijod nima?

2. Sizningcha, qaysi kasb egalarini kreativ deb atash mumkin? Nima uchun?

3. Kreativ faoliyat ko‘rsatkichlarini, mezonlarini aniqlash mumkinmi?

4. Kreativlik va ijodkorlik tushunchlarini bir-biridan farqini aniqlang?

5. Kreativ fikrlashni mexanizmlarini tahlil qiling?

6. Kreativ shaxs tipologiyasini o`rganib chiqing va o`zingizni qaysi tipga ko`proq mos kelishingizni aniqlang?

7. Kreativlikni o‘rganish mumkinmi?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:


1. Quyidagi chizma asosida xorijiy tillarni o`rganish bo`yicha kreativ oquv mashqlarini yarating.

Listening	**Speaking**
Writing	**Reading**

2. Kreativlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni kundalik kuzatuvlaringiz asosida tahlil qiling:


Vaziyatga bogliq omillar	**Shaxsiy omillar**
1. 2. 3. 4.	1. 2. 3. 4.

2. Kreativ goyalarni ilgari surish uchun topshiriqlar:



Hali yaratilmagan kasblarni o`ylab toping.

- 1
- 2
- 3



Hali yaratilmagan, ammo ehtiyoj mavjud bo`lgan uy-ro`zgor buyumini o`ylab toping.

- 1
- 2
- 3



Hali yaratilmagan dunyo xaritasining nomlarini o`ylab toping

1.

2.

3..



Hali yaratilmagan texnika vositasini oylab toping.

- 1
- 2
- 3

§ 3.2. EVRISTIK O`QITISH VA O‘Z-O‘ZINI IJODIY RIVOJLANTIRISH METODIKALARI

Reja:

1. Ta`lim oluvchining ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish uchun evristik ta'limning konsepsiyasi.

2. Mantiqiy fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish uchun evristika falsafasi va akmeologiyasi.

3. Ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasi (IVEN) nima?

Таянч so‘zlar: evristika, mantiqiy fikrlash, kreativ o`quv muhiti, o`zini o`zi ijodiy rivojlantirish.

Ta`lim oluvchining ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish uchun evristik ta'limning konsepsiyasi

Insonning ijodiy faoliyat masalalari falsafa, psixologiya, metodologiya, kibernetika, axborot nazariyasi, pedagogika kabi ko‘pgina fanlar tomonidan o‘rganilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda inson ijodiy faoliyatini o‘rganuvchi maxsus

fan- “Evristika”ni yaratish to‘g‘risidagi fikrlar tez-tez ko‘zga tashlanmoqda. XXI asr odami oldida to'plangan va yangi paydo bo'lgan murakkablik va o'ta murakkablik. bir o'lchovli fikrlashni emas, balki ko'p o'lchovli fikrlashni va kreativ o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

Falsafa, psixologiya, umumiy va kasbiy pedagogika sohasidagi so'nggi 50 yil ichida o`tkazilgan tadqiqotlar natijalari klassikadan keyingi paradigmalar insonning rivojlanishi va ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish muammolari borgan sari murakkab falsafiy, psixologik va pedagogik muammoga aylanib borayotganligini ko`rsatadi.

Evristika so‘zi “Evrika” - “topdim” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u biror muammoni hal etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan quvonch, biror yangi fikr tug‘ilishini olqishlashdir.


Evristika (yunoncha heurisko – izlayapman, topyapman, kashf etyapman) inson ijodiy faoliyatini, shuningdek, yangi kashfiyotlarni yaratishda qo‘llanadigan usullarni o‘rganadigan fan sifatida psixologiya, kibernetika, strukturali lingvistika, axborot nazariyasi chegarasida rivojlanadi. Evristikani yangi vaziyatda yangi harakatlarni qurish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan deb tushunish mumkin.

Falsafiy entsiklopedik lug'atda "evristika" tushunchasini (yunoncha -men qidiraman, ochaman) bir qancha ma`nolari keltirilgan 1) maxsus usul-muammolarni hal qilish (evristik usul); 2) samarali ijodiy fikrlash jarayonini tashkil etish; 3) fan-evristik faoliyatni, fikrlash fanining bir qismi deb keltiriladi.

Evristika falsafa, psixologiya, ta`lim nazariya chorrahasida fan sifatida qaralib, uning asosiy obyekti ijodiy faoliyatdir; eng muhimi muammolar-yechimlarni qabul qilish modellari bilan bog'liq vazifalar (nostandart muammoli vaziyatlarda)ni hal qilishda sun'iy intellekt, tarkibiy tilshunoslik, axborot makoni asosida rivojlanib boradi. Har birimiz tafakkuri nostandart, tasavvuri rivojlangan, o‘ziga xos va kutilmagan mulohazalari bilan bizni xayratda qoldiradigan shaxslarni uchratganmiz. Bunday insonlarni biz odatda ijodiy, yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatiga ega shaxs deb ataymiz. Lekin ta'lim jarayonida o‘xshatish-obrazli tafakkurni, yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli diqqat qaratilmaydi. Pedagoglar asosan masalalar yechilishining mantiqiy usullariga e'tibor berishadi, ayrim hollarda me'yoriy

hujjatlar va yangi avlodni oldingi avloddek tarbiyalash va o‘qitish an'analari ta'sirida bo‘ladilar.

Ta'lim oluvchining vazifasi nafaqat madaniy an'analarni o‘rganish va talqin qilish, balki yangilarini yaratishdan iborat. Ma'lumki, tabiat insonni yaratgan va unga tasavvur qilish, o‘ylab topish, bunyod qilish, yaratish qobiliyatlarini bergan. Demak, har bir inson evristik deb atalmish qobiliyatga ega. Shunday ekan, evristika, evristik uslublar va evristik o‘qitish deganda nimalar tushuniladi? Evristik uslublar juda murakkab, ko‘zda tutilmagan vaziyatlarda ham yechimni topish imkonini beradi. Evristika maqsadga erishishga ko‘maklashadigan harakatlar uslubini belgilaydi. Evristik o‘qitish jarayonida ta'lim oluvchining faoliyati quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi (3.1-rasmga qarang):



3.1-rasm. Evristik o‘qitish jarayonida ta'lim oluvchining faoliyati ketma-ketligi

Miyaga kelgan barcha o‘y-xayollar – bu *fikrlar*. Normal ta'lim oluvchini, insonni fikrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har on, har daqiqada odam miyasi qaydaydir fikrlar bilan band bo‘ladi. Ularni tartibga solish, keragida diqqatni jalb qilish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish, ya'ni ifodalash-fikrlash jarayoni. Fikrlash jarayoni aslida ma'lum bir masalani, muammo yoki jumboqni hal qilish kerak bo‘lganda paydo bo‘ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berishi shart, aks holda u boshqa jarayonga-xayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin.

Mustaqil fikrlash – shaxsning shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o‘z qarashlariga va nostandart yechimlarga ega bo‘ladi. Masalan, aniq predmet ruchkani nima ekanligini va nima maqsadda undan foydalanish mumkinligini ko‘pchilik biladi. Bu-yozuv quroli. Lekin mustaqil nostandart tafakkurga erk berilsa, uning ko‘rsatkich sifati yoki sanoq tayoqchasi sifati, yoki g‘altakka o‘xshatib ip o‘rash mumkinligi kabi o‘nlab vazifalarini sanab berish mumkin. Demak, mustaqil fikr insonning narsa va hodisalar, jamiyatda ro‘y berayotgan voqealarning mohiyati xususida o‘z qarashlari bo‘lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlarini chegarasini kengaytiradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqil fikrlash bir qarashda shaxsning individual xususiyati bo‘lsada, bu xususiyat jamiyatda, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar muhiti yaxshi bo‘lganda rivojlanadi.

Xayol – yangi obrazlar va taxminlarni shakllanish jarayoni bo‘lsa, fantaziya – xayolning borliqdan, haqiqatdan biroz uzoqlashuvi jarayoni. Shunday qilib, muammo yoki jumboq bizni fikrlashga majbur etadi. Psixologlarning fikricha, har qanday masalani yoki muammomni yechish mobaynida ta'lim oluvchi uning shartlarini bir necha variantda tasavvur qilsagina yechimga kelar ekan. Chunki kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir sekin fikrlaydi. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma-yon o‘tirgan ikki ta'lim oluvchi bir xil yechimni belgilasada, o‘sha yechimga kelishi yo‘llari har bir ta'lim oluvchida o‘ziga xos bo‘ladi.

Tafakkur – inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o‘rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo‘lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish jarayoni. Dunyoni tushunish, anglash va unga ongli munosabat bildirish jarayoni tafakkur, fikrlash deyiladi. Tafakkurning oliyligi shundaki, u idrokdan farqli ravishda bevosita aks ettirish bo‘lmay, narsalar va ularning xossalarini, voqealarni ular yo‘q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Masalan, Amir Temur davlati haqida so‘z ketganda ta'lim oluvchi Amir Temur haqidagi kinofilmni ko‘rmagan bo‘lsa ham markazlashgan davlat xususiyatlarini bilgani uchun ushbu axborotni tushunib, uni qabul qiladi. Buning asosida tafakkur jarayoni yotadi.

Afsuski, maktabda o‘xshatish-obrazli tafakkurni, yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli diqqat qaratilmaydi. Pedagoglar asosan

masalalar yechilishining mantiqiy usullariga e'tibor berishadi, ayrim hollarda me'yoriy hujjatlar va yangi avlodni oldingi avloddek tiklash an'analari ta'sirida bo‘ladilar. Evristik o`qitish – eng keng tarqalgan bir-birini to'ldiruvchi ko'rsatmalar-tavsiyalar tizimi sifatida fikrlash strategiyalari, vazifalar va (yoki) muammolarning ma'lum bir sinfini hal qilish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga qaratilgan oqitish metodikalarini o`zida ifoda etadi.

Mantiqiy fikrlash va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish uchun evristika falsafasi va akmeologiyasi


Evristik o‘qitish odamzotning barcha bilimi va tajribasini yangidan kashf etish maqsadini qo‘ymagan. Shuning uchun o‘qituvchi oldida har bir mavzuning eng muhim tomonlarini topish va ta'lim oluvchi uchun dastlabki ijodiy izlanish sharoitlarini yaratish masalasi turadi. Ta'lim oluvchi o‘z tushunchalari, taxminlari va bilishning boshlang‘ich mahsulotlarini yaratgandan keyingina unga mazkur muammolar bo‘yicha odamzotning yutuqlari bilan tanishish taklif etiladi. Bunda ham ta'lim oluvchi tayyor bilimlarni oddiy o‘zlashtirmaydi, balki ularni o‘z tajribasi natijalari bilan solishtiradi. Ta'lim faoliyatini olimlar tomonidan yaratilgan turli madaniy-tarixiy nuqtai nazarlar bilan dialog yoki polilogda davom etadi.

Shaxsning ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishi – bu alohida, ijodiy faoliyatning murakkab, ko'p o'lchovli turi bo`lib, subyekt - "o'z-o'zini anglash" samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'nalish sifatida shaxsning tizimli shakllantirish komponentlari va tegishli faoliyat turlari asosida o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi boshqarish, o'zini takomillashtirish va shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishini nazarda tutadi.

Evristik o‘qitishning qo‘llash chegaralarini o‘qituvchining o‘zi belgilaydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quv dasturining har qanday fan bo‘yicha, har qanday masalasini o‘rganishni, har qanday yoshdagi ta'lim oluvchilarning ijodiy izlanishi sifatida tashkil etish mumkin. Ta'lim oluvchilar, odatda, o‘zining ijodiy namoyon etish imkonini mamnuniyat bilan qabul qiladilar va belgilangan ta'limiy talablar va me'yorlarni oshirib bajaradilar.

Insonning yashirin bilimlarini ro‘yobga chiqarish – nafaqat uslub, balki butun ta'lim metodologiyasiga bog‘liq. Ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi uning faoliyati jarayonida yaratiladi. Evristik o‘qitish ta'lim oluvchiga nafaqat bilimlarni egallash, balki mashg‘ulotlarning shaxsiy maqsadlari, o‘rganilayotgan fanni o‘zlashtirish yo‘llarini, ta'lim natijalarini ifoda qilish shakllari va baholash imkonini beradi. Tasavvur cheksiz bo‘lgani va u namoyon bo‘lishi har bir insonga xos bo‘lgani uchun pedagog zimmasiga ijodiy faoliyat orqali o‘quv jarayonini yorqin, dinamik, qiziqarli va evristik qilish masalasi yuklanadi.

Mantiqiy fikrlashning rivojlanish jarayoni aniqlandi (3.2-rasmga qarang):



3.2-rasm. Mantiqiy fikrlashning rivojlanish jarayoni

Tizimli fikrlash quyidagi qobiliyatlarda namoyon bo'ladi [42]:

hodisani, jarayonni, pedagogik vaziyatni tizim sifatida ko'rib chiqish;

tizimning asosiy elementlarini ajratib ko'rsatish;

tizimni statik va dinamikada ko'rib chiqish, g'oyalarni yaratish, ilgari o'rganilgan narsalarni ijodiy qo'llash, tizimli tahlil va sintez sharoitidagi bilim;

tizimli sharoitda vaziyatni tanqidiy baholash, hodisalarni, jarayonlarni tahlil qilishga yondashuvlar;

tizimni amalga oshirish sharoitida aks ettirish jarayon hodisalarini tahlil qilishga yondashuvlar;

tizimning rivojlanishini tahlil qilish va bashorat qilish;

fikrlash tizimlarining samaradorligini obyektiv ravishda baholash;

tizimli sichqonchaning tarkibiy qismlarini o'z-o'zini takomillashtirish (Lyashko E.N., 2009) [61].

Tanqidiy fikrlash – bu motivatsion, ongli, ko'p o'lchovli baholashni talab qiladigan mezon bo`lib, baholovchi haqiqat yoki yolg'on, dalillar yoki nazariyalar, qoidalar, bayonotlarning muammoni hal qilish jarayonida to`g`ri qo`llashni talab qilivchi fikrlash uslubi hisoblanadi. Haqiqatni dalillarga asoslangan aks ettiruvchi o'z-o'zini baholash yoki faoliyat jarayoni va uning natijalarini baholashni bildiradi.

Pragnostik fikrlash – bu o'zini namoyon qiladigan va vaziyatlarda amalga oshiriladigan fikrlash turi va muayyan muammolari hal qilish usullari. Pragnoz qilish har qanday hodisa, jarayon uchun yuqori darajada rivojlangan va oldindan aytib berish qobiliyatini talab qiladigan holatni eng ehtimoliy aniqlashdir. Pragnostik fikrlash darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson voqealarni qaysi yo'nalishda va qanday rivojlanib borishi haqida oldindan ko'ra bilish ehtimoli ko'proq bo`ladi.

Muammolarni Ijodiy hal qilishda kognitiv va psixologik to'siqlarni yengib o'tishga asoslangan *ijodiy fikrlashning* o'zini rivojlantirishga quyidagilar to`sqinlik qiladi:

a) bu mumkin emas, chunki u hech qachon bo'lishi mumkin emas;

b) rasmiylar buni amalga oshirish mumkin emas va tavsiya etilmaydi, deb hisoblashadi;

c) mutaxassislarning fikriga ko'ra, buni amalga oshirish mumkin emas va amaliy emas;

d) sizning shaxsiy kasbiy va hayotiy tajribangiz buni amalga oshirish mumkin emasligini ko'rsatadi.

U bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarni yengib o'tishga mumkin bo'lgan yagona yechimning inertsiyasi; ushbu muammoni hal qilish bo'yicha an'anaviy qarashlarni yengib o``tish; tahlil va tadqiqot obyekti yoki predmetining odatiy xususiyatlari, holatlari va xarakterlarining inertsiyasi; mavjud bo'lmagan taqiqlarning inertsiyasi asosiy ro`l o`ynaydi.

Bunda ta`lim oluvchi yo odatiy fikrlash va harakat qilishdan qo'rqmasligi, ijodiy tasavvurni faollashtirish uchun yangi ko'p o'lchovli ijodiy fikrlashni qanday

rivojlantirishi, xotira va tasavvurni ma'lum obyektlar, hodisalarni o`rganish, qayta tiklanadigan tasavvurga, mahoratga suyanish, obyektni, hodisani tasavvur qilish asosida tahlil etishi muhim.

Tasavvur – fantaziyani, ijodiy tasavvur va yaratish jarayonida yangi g'oyalar birinchi navbatda divergentsiya printsipiga asoslanadi, ya'ni qidiruv maydonini kengaytirishni talab etadi.

Ijodiy tasavvur jarayonida kombinatorika usullaridan foydalanish, shuningdek, intuitiv fikrlashga sharoit yaratish muhom. Ijodiy tasavvurga asoslangan holda juda ko'p sonli g'oyalar, usullar yaratiladi, muammoni ijodiy hal qilishda eng yaxshi, eng samarali usl ya'ni konvergentsiya prinsipiga tayanish lozim.

Insonning *refleksiv fikrlashi, tafakkuri,* "Falsafiy entsiklopedik lug'at" da tushuncha "refleksiya (lat. reflexio-orqaga qaytish) – bu fikrlash prinsipi bilish usullaridan tanqidiy tahlil qilish; o'z-o'zini anglash faoliyati, ma'naviy qiyofa va o'ziga xoslikni ochib beruvchi insonnning ichki dunyosi" sifatida tavsiflanadi. Metodologik jihatdan refleksivlik falsafasi, o'zini o'zi boshqarishni nazarda tutadi. O'zini o'zi boshqarish, o'z-o'zini aniqlashda quyidagi beshta bosqichi ajralib turadi:

1. Harakat, faoliyatni amalga oshirish.
2. Faoliyat yakunlangach ortga qaytib tahlil o`tkazish. Orqaga qarash.
3. Muhim bosqichlarni anglash.
4. Muqobil harakat usullarini yaratish.
5. Yangi harakatni sinab ko'rish.

Akmeokvalitativ evristik o`qitish kontseptsiyasi-bu bir-birini to'ldiruvchi printsiplar to'plamiga asoslangan holda akmeologiya, kreativlik, tizimlilik, evristika, subyektivlik va ko'p o'lchovlilik, talabalarni ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishga o'rgatishning yaxlit didaktik tizimini yaratadi.

Ijodiy o'zini o'zi rivojlantiradigan shaxs-bu o'zini o'zi amalga oshirishga asoslangan bir yoki bir nechta faoliyat turlarida ijodkorlikka yo'naltirilgan shaxs bo`lib, borgan sari murakkab ijodiy vazifalar va muammolar, ularning yechimlari jarayonida o'z-o'zidan paydo bo'ladigan "o'zlik"ning ijobiy o'zgarishi, shaxsning o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini anglashi, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi boshqarish, o'zini-o'zi

3.3-jadval.

Evristik o`qitish nazariyasida XXI asr shaxsining ideal modeli

(Ijodiy o'zini o'zi rivojlantiradigan, O'zini o'zi ta'minlaydigan, Aqlli, Raqobatbardosh shaxs)	
Motivlar va qadriyat yo'nalishlari: * Ijodiy vazifalar va muammolarni yechish istagi. * Maksimal ijodiy o'zini o'zi amalga oshirish istagi. * Biznesga chuqur ijodiy qiziqish. * Har qanday holatda ham belgilangan ijodiy muammoni hal qilish istagi. * Qiziquvchanlik. Nekbinlik, * Maqsadlar va qadriyat yo'nalishlarining ravshanligi. * Mustaqillikka intilish. * G'oyalar dunyosiga va boshqalarning tajribasiga ochiqlik. * Haqiqatni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish. * Harakat erkinligini himoya qilish istagi. * Ustuvorliklarni anglash. * Yetakchilikka intilish. * o'z biznesining muvaffaqiyatiga ishonish. * Sog'lom turmush tarziga e'tibor. * faoliyatining yuqori sifatli yakuniy mahsulotiga intilish.	**Axloqiy fazilatlar:** * Axloqiy o'zini takomillashtirish istagi. * Bag'rikenglik. * Axloqiy madaniyat. * Mas'uliyat va Majburiylik. * Vijdon va Bag'rikenglik. * Xushmuomalalik. * Kamtarlik. va Halollik. * Hurmat. Samimiylik. * Javobgarlik. * Xayrixohlik * Mas'uliyat. Majburiy. * Bag'rikenglik. * Vaqtinchalik murosaga kelish qobiliyati. * Axloqiy tanlov sharoitida mustaqillik.
Fuqarolik fazilatlari: * Ijtimoiy faoliyat. * O'z huquqlarini himoya qilish qobiliyati. * Demokratiya. Jasorat. * Fuqarolik jasorati. *Fuqarolik pozitsiyasining ravshanligi va ravshanligi. * Fuqarolik javobgarligini his qilish. * Vatanparvarlik. Adolatga intilish. * Siyosiy va huquqiy madaniyatning yuqori darajasi. * Fuqarolaringizni oxirigacha himoya qilish qobiliyati * Haqiqatni sevish. * Internatsionalizm. * E'tiqodlarning mustaqilligi. * Qarashlarning progressivligi.	**Intellektual va ishbilarmonlik fazilatlari:** * Ijodkorlik, biznesga ijodiy yondashuv. * Kompetentsiya. * Professionallik. * Tizimli fikrlash. * Tanqidiy fikrlash. * Fikrlashning refleksivligi. * Prognostik fikrlash * Yuqori darajadagi ijodiy salohiyatga ega bo'lish. * Birinchi o'ringa qo'yish qobiliyati. * O'z-o'zini hurmat qilishning etarliligi. * Ehtiyotkorlik. * Boshqasini tushunish qobiliyati. * Norozilikka bag'rikenglik.

* Ijtimoiy faoliyat. * O'z huquqlarini himoya qilish qobiliyati.	* Ijodiy faoliyat va Fikrlash ijodkorligi. * Kompetensiya.
Xarakter va xulq-atvor xususiyatlari: * Ijodiy faoliyatga e'tibor. * Tobora murakkablashib borayotgan muammolarni qo'yish va hal qilish qobiliyati. * Innovatsion jarayonlar va loyihalarda ishtirok etish. * Mehnatsevarlik va Ishni tugatish qobiliyati. * Maqsadga muvofiqlik. Ehtiyotkorlik. * Sog'lom amaliylik. * O'zingizning qobiliyatingiz va imkoniyatlaringizga xotirjam ishonch. * Stressga chidamlilik. *O'z hayotining egasi (bekasi), uning taqdiri. * Xulq-atvor va harakatlardagi avtonomiya * Muloqot va xulq-atvor madaniyati. * Aqliy mehnat madaniyati. * Estetik va badiiy madaniyat. * Professional madaniyat. * Ekologik va Iqtisodiy madaniyat. * Huquqiy va Siyosiy madaniyat. * Tobora murakkablashib borayotgan muammolarni hal qilish qobiliyati. * Stressga chidamlilik. Energiya va Qat'iylik. * * Aloqa, Muloqot va moslashuvchanlik. * Ishontirish va Muzokara qilish qobiliyati. * Empatiya, Talabchanlik. * Jamoani yaratish va Jamoa faoliyatni tashkil qilish qobiliyati	**O'z-o'zini boshqarish:** * O'z-o'zini rivojlantirish bilan shug'ullanadigan aniq, chuqur o'ylangan "men-kontsepsiya". * O'z-o'zini bilish qobiliyati. * O'z taqdirini o'zi belgilash qobiliyati. * O'zini o'zi boshqarish qobiliyati. * Shaxsiy va o'zini takomillashtirish qobiliyati * Ijodiy o'zini o'zi anglash qobiliyati * Hayotning aniq va puxta o'ylangan "men-tushunchasi". * O'z taqdirini o'zi belgilash qobiliyati. * O'zini o'zi boshqarish qobiliyati. * Shaxsiy va professional qobiliyat o'sish. * O'z-o'zini cheklash qobiliyati * O'z taqdirini o'zi belgilash qobiliyati. * O'zini o'zi boshqarish qobiliyati. * O'zini takomillashtirish qobiliyati. * Ijodiy o'zini o'zi anglash qobiliyati. * Doimiy shaxsiy va professional o'sish qobiliyati. * O'z taqdirini o'zi belgilash qobiliyati. * O'zini o'zi boshqarish qobiliyati. * Mustaqil qarorlar qabul qilish va javob berish qobiliyati.

tasdiqlash va ijodiy o'zini o'zi anglashni belgilaydi (3.3-jadvalga qarang).

Bunda XXI asr shaxsining ideal modeli – bu o'ziga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan professional bo`lishi uchun ijodiy o'zini o'zi rivojlantiradigan, o'zini o'zi ta`minlaydigan, aqlli va raqobatbardosh shaxs sifatida quyidagi xususiyatlarga ega bo`lishi talab etiladi.

IVEN pedagogikasi nima?

Ijodga moyillik inson o‘zini namoyon etishining yuqori faolligi, yangilikni yaratish qobiliyati, inson faoliyatining har qanday ko‘rinishida o‘ziga xosligidir. Bolalarni ijodkorlikka o‘rgatishda o‘qitishning innovatsion texnologiyalari orasida yuqori o‘rinni egallovchi texnologiyalardan birini G.S.Altshullerning Ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasi (IVEN, TRIZ) egallaydi. IVENnning asosiy g‘oyalari quyidagilar:

nazariya-muammolarni ijodiy yechimini topishda katolizator;

bilim ijodiy ish jarayonida bir vositadir, ya'ni hamma kashfiyot qilishi mumkin;

ijodkorlikni boshqa turdagi faoliyatlar singari, o‘rganish mumkin.

IVEN nazariyasida asosiy o‘rinni ijodiy tasavvurlarni rivojlantirish (ITR) masalasi egallaydi. IVENning asosida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi hisoblangan uamoli izlanish metodlar turadi. Ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasining o‘ziga xos tamoyillariga quyidagilar kiradi:

g‘oyani o‘zi rivojlantiruvchi o‘qitish va rivojlantiruvchi ta'lim hisoblanadi;

o‘qitishga faoliyatli yondashuv; nazariy xulosalarni shakllantirishga yo‘nalganlik;

o‘qituvchi va ta'lim oluvchi o‘rtasidagi ikkitomonlama muloqot;

ta'lim jarayonida muammoli masalalarni, muammoli vaziyatlarni qo‘llash.

An'anaviy ta'lim va IVEN o‘rtasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, ular quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (3.4-jadvalga qarang):

3.4-jadval.


An'anaviy va IVEN ta'lim o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlar

An'anvaiy ta'lim	IVEN ta'limi
1. Asosiy e'tibor nazariy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan	1. Asosiy e'tibor ijodkorlikka, nostandart fikrlashga qaratilgan
2. Ijodiy mahsulot olish metodikalari mavjud emas	2. Ijodiy mahsulot olish metodikasi ishlab chiqilgan

3. Muammolarni yechish algoritmi ishlanmagan (o‘qituvchining boshqarishdagi xatolari va sinab ko‘rish metodidan foydalanadi)	3. Masalalarni yechish algoritmi mavjud, ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda muammoli topshiriqning yechimiga yeta oladi
4. Taklif etilgan yechimni baholash mezonlari yo‘q, o‘qituvchi to‘g‘ri javobni “tashuvchi”, yetkazuvchi hisoblanadi	4. Natijani va yechim yo‘lini baholashni obyektiv mezonlari mavjud

IVEN dastlab muhandislik faoliyatida qo‘llash uchun yaratilgan bo‘lsada, keyinchalik boshqa sohalarda, jumladan, 1989 yildan boshlab pedagogikada ham qo‘llanila boshlagan.

IVEN pedagogikasining yetakchi vakillari V.G.Berezina, M.S.Ganfitulin, A.A.Gin, B.L.Zlotin, A.V.Zusman, A.F.Kaftrev, T.A.Sidorchuk, V.I.Timoxovlar-ning ko‘p yillik izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, IVENni ta'lim jarayonida qo‘llashni maktabgacha ta'lim va boshlang‘ich ta'lim bosqichidayoq boshlash kerak. Ma'lumotlarni tahlil qilishga IVENcha yondashuv bir qancha modellarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi, ular o‘rganilayotgan obyektga tizimli va dialektik nuqtai nazardan yondashuvni ro‘yobga chiqaradi va bunda asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatiga qaratiladi, ta'lim oluvchilarni samarali, yangi natija olishlariga yo‘naltiriladi. IVEN ma'lumotlarni ikki marta qayta ishlashni talab qiladigan tadqiqot jarayoni bo‘lib, hammaga ma'lum bo‘lgan va keng tarqalgan ma'lumotlarni qayta turkumlashtirish va ularga yangicha yondashi asosida yangilik yaratiladi va ijobiy natijalarga erishiladi. IVEN asosida muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algoritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi (3.3-rasmga qarang):



3.3-rasm. IVEN asosida muammoli vaziyatlarda yechimga kelish algoritmi

Boshlang‘ich sinflarda ta'lim oluvchilarning faoliyati tayyor o‘quv topshiriqlarini yechishga qaratilmasdan, bolalar o‘zlariga yaqin va real bo‘lgan holatlar, masalan, mustaqil holda topishmoq yaratishi, original taxminlar aytish, ertak yaratish, maqol, metafora, harakatli o‘yinlar o‘ylab topish, yangi o‘yinchoq o‘ylab topish va uni yasash kabi ijodiy faoliyatga jalb etuvchi mashg‘ulotlar orqali IVEN pedagogikasi amalga oshirilsa, yuqori sinflarda topshiriqlar mazmuni va hajmi biroz murakkablashtirilib, kengaytirilib boriladi.

Jumladan, nazariy darslarida IVEN pedagogikasi g‘oyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarni tayyor raqamlar, faktlarni “quruq yod olish yukidan” xalos etadi. Darslarda ijodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi, muammoli topshiriqlarni har qanday mavzuni o‘rganish jarayonida o‘ylab topish mumkin. Bu o‘qituvchining mustaqil ishlashi, faqat darslikdagi matn bilan chegaralanib qolmasdan qo‘shimcha manbalardan foydalanishiga bog‘liq, xolos.

Ta'limda ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasiga asoslangan pedagogik tamoyillardan foydalanish ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, tizimli fikrlashga, ziddiyatlarni topish va ularni yechim yo‘llarini izlashga, mustaqil holda yechimlarni topishga o‘rgatadi. Shu asosda ta'lim oluvchilar chuqur va keng amaliy bilimlarga ega bo‘ladilar, eng asosiysi esa ta'lim oluvchilarning fikrlash uslubi shakllanib boradi, ular tayyor bilimlarni egallashga emas, ularni mustaqil izlab topishga, o‘z faoliyati doirasidagi muammoli masalalarni ko‘rish, muammolarni to‘g‘ri qo‘yish va ularni yechish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Ta'lim oluvchilarda hayotiy ko‘nimalar shakllanib boradi. Bu esa ta'lim oluvchilarni kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, jamiyatning faol a'zosi bo‘lishiga yordamlashadi.

Ushbu mavzuda evristik ta’lim nazariyasi va uning o`ziga xos xususiyatlari mantiqiy fikrlashning pedagogic mexanizmlari, unga ta’sit etuvchi omillar, kreativ o`quv muhitini yaratishning o`ziga xos xususiyatlari haqida bayon etilgan.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Evristik o`qitish falsafasining asosi nimada?

2. Ta`lim oluvchining ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish uchun evristik ta'limning konsepsiyasini tushuntiring?

3. Mantiqiy fikrlash va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish uchun evristika akmeologiyasi nimani anglatadi?

4. XXI asr ideal shaxsiga qo`yiladigan talablarni sanang?

5. Ijodiy o`z-o`zini rivojlantirish metodikalarini bilasizmi?

6. Ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasi (IVEN) nima?

7. An'anaviy va IVEN ta'lim o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlarni tushuntiring?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Evristik o`qitish falsafasining mazmunini “Insert jadvali” metodi asosida tahlil qiling:

“V” Buni oldindan bilardim	**“+”** Men uchun yangi ma’lumot	**“-”** Bu ma’lumotni aniqlashtirish yoki to`ldirish kerak	“?” Tushunmadim yoki ochiq qolgan savollar

2. Shaxsning mantiqiy fikrlash xususiyatlarini “Toifalash jadvali” metodi asosida tahlil qiling:

Mavzu:		
1	2	3
	.	

3. “Tushunchalar tahlili” metodi asosida quyidagi tushunchalarni izohlang:

Tushuncha	Mazmuni
Evristika	
Akmeologiya	
Metodologiya	
Konsepsiya	
Tafakkur	
Fantaziya	
Mantiqiy fikrlash	
Prognostik fiklash	

4. Ijodiy o`z-o`zini rivojlantirish metodikalarini “T-chizma” (T-sxema) metodi asosida tahlil qiling.

Afzalliklari	Kamchiliklari

§ 3.3. TANQIDIY FIKRLASH TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. Tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan texnologiyalar haqida tushuncha.
2. Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish va uning shart-sharoitlari.
3. Tanqidiy fikrlashning bosqichlari va strategiyalari.

Tayanch so`z va iboralar: tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlash bosqichlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi strategiyalari va metodlar.

Tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan texnologiyalar haqida tushuncha

XXI-asrda tanqidiy fikrlash butun dunyo bo'ylab ta’limdagi o'quv dasturlarida diqqat markaziga aylandi va bu ta’lumni mustahkam rivojlanish zarurati bilan bog'lanmoqda. Turli xil aniqlik va sifat bilan o'zaro aloqada bo'lish asosida yosh avlodni fikrlash qobiliyati va ijodkorligi, axloqiy sifarlarni rivojlantirish, axborotning ortib borayotgan hajmlari muhitida raqamli ko'nikmalarni shakllanishning samarali mexanizmlarini yaratish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni talab etadi.

Tanqidiy fikrlash nima? Tanqidiy fikrlash – axborotlarni o`zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o`ylash jarayoni. Biroq tanqidiy fikrlash bilish faoliyatining yuqori darajasi sifatida talabalarda matn bilan ishlash ko`nikmasini rivojlantirish, og`zaki va yozma nutq malakasini egallash, topshiriq bo`yicha guruh bilan birgalikda harakatda bo`lishiga qaratilgan pedagogik texnologiya. Tanqidiy fikrlash o`quv auditoriyasidagi ruhiyatni o`zgartira oladigan strategiyalar majmuidir, ya`ni mashg`ulot o`qituvchi va talabalarning ijodxonasiga aylanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta`sir etuvchi aqliy faoliyat ko`nikmalari:

esda saqlash – eng muhim fikrlash jarayoni bo`lib, busiz o`quv jarayonini amalga oshirib bo`lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi;

o`quv jarayonini amalga oshirib bo`lmaydigan «notanqidiy fikrlash» *murakkab g`oyalarni tushunish* bilan bog`liq;

«Tanqidiy fikrlash» tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu – *ijodiy yoki ichki his bilan (intuitiv) sezib fikrlashdir*. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo`ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham. *Tanqidiy fikrlashning elementlari* quyidagilardan iborat:

tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir;

axborot – tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;

tanqidiy fikrlash savolning qo`yilishi va hal qilinishi zarur bo`lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;

tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun mo'ljallangan muvaffaqiyatli o'quv dasturlarini amalga oshirishda pedagogika, pedagogik texnologiya fanlari talabalarning tanqidiy fikrlashiga qanday dalillar mavjud? Ta’lim muhiti omillari tanqidiy fikrlashga qanday ta'sir qilishini tadqiqi etishni talab etadi. Tanqidiy fikrlashning ta'riflari turlicha bo'lsa-da, tanqidiy fikrlashning asosiy mohiyati yoki yadrosi mavjud. Zamonaviy tadqiqotchilarning so'zlariga ko'ra, tanqidiy fikrlashning quyida xususiyatlari mavjud [104]:

nimaga ishonish yoki nima qilish kerakligi to'g'risida shaxslarni nazariy fikrlashga jalb qilish ("faktlar"ni aniqlash),

amaliy fikrlash (nima qilish kerak va buni qanday qilish kerakligigni aniqlash);

oqilona fikrlash (qaror qabul qilish uchun yaxshi sabablarga ega);

aks ettiruvchi fikrlash (muammoni turli darajalarda va turli nuqtai nazardan baholash);

tanqidiy fikrlash va qarashlari turli xil bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarning fikrlarini tushunish va baholashga e'tibor qaratish;

xuddi shu hodisalar bilan bog'liq asosiy tushunchalarning ta'riflari va izohlariga e’tibor qaratish (u bu jarayon tanqidiy fikrlashning asosini tashkil etishini taklif qiladi);

tavsiflash, tushuntirish va tushunishning turli usullariga imkon berish (bu etarlicha moslashuvchan baholash tizimlarini yaratish uchun juda muhimdir);

o`rganilayotgan jarayon, obyekt yoki hodisa haqida savollarni ko`paytirish;

ijodiy fikrlash – ijtimoiy fikrlashdir.

Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish va uning shart-sharoitlari

Samarali tanqidiy fikrlovchilar va tanqidiy fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi imkoniyatlar quyidagilar:

savol va javoblarni shakllantirish kabi muammo yoki hodisa bilan bog'liq tushunchalar va ta'riflarni aniqlashtirish;

baholash mezonlari, dalillarni tahlil qilish va taxminlarni aniqlash, dalillarni izlash va baholash va uning ishonchliligi;

manba(lar) va hukmni to'xtatib turish va muqobil tushuntirishlarni ko'rib chiqish ehtiyoji.

Bular shaxsni yo'naltiradigan quyidagi dispozitsiyalar orqali ishlaydi:

to'g'ri qabul qilish, shaxsiy qarorlar va istiqbollarni asosli dalillar bilan tasdiqlash va qo'llab-quvvatlash;

boshqalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning g'oyalari, tushuntirishlari, istiqbollari va xulosalarini qadrlash va qabul qilish orqali turli qobiliyatlar va tushunish darajalarini hisobga olish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo`l ham yo`q. Lekin tanqidiy fikrlash shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o`quv sharoitlari to`plami mavjud. Buning uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim (3.4-rasmga qarang):



3.4-rasm. Tanqidiy fikrlash shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o`quv sharoitlari

Shu munosabat bilan talabalar:

o`ziga ishonchni orttirish va shaxsiy fikri hamda g`oyalarining qadrini tushunish;

o`quv jarayonida faol ishtirok etishi;

turli fikrlarni e`tibor bilan tinglashi;

o`z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ijod qilish go`yo avvalgi g`oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib kelishini ta`kidlaganlar. Shuning uchun ham:

fikrlarini aniq, lo`nda va tushunarli bayon etish;

o`zaro tanqidiy fikr almashish;

konstruktiv takliflarga javob ola bilish;

fikrlarni muayyan g`oyalar qiyofasida, qulay muhitda to`la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo`lishi uchun talabalar ma`qul va noma`qul so`zlarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo`l qo`yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar. Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo`lgan, do`stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g`oyalar paydo bo`ladi. Rang-barang fikr va g`oyalar yakka-yu yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog`dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo`yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo`lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog`langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo`lishadi, chunki ularda o`qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan degan ishonch shakllanib qolgan. O`quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va mas`uliyati tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni bahs munozara, o`z g`oyalari va takliflari bilan o`rtoqlashishga da`vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o`stiradi. Mixali Chikjentmixaliy (1975) ta`kidlaydiki, talabalar o`sha murakkab darajadagi o`quv jarayonida faol ishtirok etishsa, jarayonda qatnashganligidan cheksiz bahra oladilar va o`zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Bilim faoliyatida qo`rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag`batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «axmoqona g`oyalar» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo`lishi mumkin. O`qituvchi uni o`quv jarayonining tabiiy holati sifatida

talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarda tavakkaldan xoli, yuqori motivatsiyalash imkoni bo`lgan muhitda o`ylash muhimligiga ularda ishonch hosil qildirish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarn fikrini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o`z g`oyalari, tasavvurlarining o`qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog`dagina chuqur mas`uliyat va e`tiborga yarasha javob qaytaradilar.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalar ongiga mustaqil nuqtayi nazar va tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini singdirish zarur. O`qituvchi talabalardan muayyan materialni qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andazalardan xoli bo`lishi lozim. Bu esa talabalarda o`zgalar g`oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o`z fikri, o`ziga taalluqli bo`lgan g`oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini isbotlay olish zarur. Talabalarham bunga ishonch hosil qilishlari joiz. Ular o`z qarshlari muhokama qilish jarayonida buning muhimligini tan olishlari kerak.

*O`zaro fikr almashish.* Fikrlash jarayoni talabalarning o`zaro fikr almashishni ko`zda tutadi. Talabalarning o`zaro fikrlashish bir-biridan o`rganishdagi o`rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o`zlaridagi original fikr va oddiy xatoga bo`lgan qobiliyatlarini ochib berish talab etiladi. O`zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, shaxsiy qarashlarini so`zlovchiga zo`rlab o`tkazish va boshqalarini tuzatishdan o`zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar jamoaning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o`laroq, talabalarda o`zlariga tegishli bo`lgan g`oyalarni tahlil qilishga qobiliyati orta boradi hamda ularni o`z bilim va hayotiy tajribalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o`tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular quyidagilardan iborat: o`ziga ishonch hosil qilish; ishda faol ishtirok etish; o`rtoqlar va o`qituvchi bilan fikr almashiish; o`zgalar fikrini tinglay olish.

Tanqidiy fikrlashning bosqichlari va strategiyalari

Tanqidiy fikrlash 3-bosqichda rivojlantiriladi (3.5-jadvalga qarang):

3.5-jadval.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bosqichlari

Chaqiriq (Da`vat)	Anglash	Fikrlash
1. Yangi ma`lumot larni ma`lum bo`lganlari bilan bog`lash. 2. Talabalarni faollashtirish. 3. Taklif etilgan mavzuni ko`rib chiqishga qiziqish tug`diriladi va maqsad aniqlanadi	1. Chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inersiyasini, faollikni qo`llab-qo`vvatlash. 2. Talabalarda o`z tushunishini kuza tishga doir intilish larini qo`llash. 3. Yangi o`quv material lining tushunilishiga erishish	1. Talabalar yangi fikr va axborotlarni o`z so`zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko`rishlari kerak. 2. Tushunganlarini o`z so`zlari bilan ifodalab, qayta tuzganda Shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi. 3. Jonli fikrlar almashinuviga erishiladi

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyalari quyidagilardan iborat (3.6-jadvalga qarang):

3.6-jadval.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyalari

Da`vat bosqichida qo`llaniladigan strategiyalar	Anglash bosqichida qo`llaniladigan strategiyalar	Fikrlash bosqichida qo`llanidigan strategiyalar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. BBB chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili	Semantik xususiyatlar tahlili. BBB chizmasi. O`qitish bo`yicha qo`llanma. Bir-biriga o`rgatish. Bir-biridan so`rash. Ikki qismli kundaliklar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O`n minutlik esse

Lateral fikrlash (Edvard de Bono) [105]. Britaniyalik psixolog Edvard de Bono ijodkorlik va fikrlashning ko'plab usullarini taklif qildi. U lateral fikrlash konsepsiyasining muallifi bo'lib, lateral fikrlashning bir misoli “Olti shlyapa” texnikasidir (oq - analitik fikrlash, qizil - hissiy fikrlash, odam muammoga bir necha nuqtai nazardan qarashi mumkin), qora - tanqidiy fikrlash, sariq - optimistik fikrlash, yashil - ijodiy fikrlash, ko'k - katta istiqbolda fikrlash)ni ya’ni oq-faktlar va obyektivlik; qizil-his-tuyg‘ular va hissiyotlar; qora-tanqid; sariq-afzalliklar va ijobiy tomonlar; yashil-ijodkorlik va kreativlik; ko‘k-tahlil va xulosaga olib kelishni anglatadi. Majoziy ma'noda, har bir shlyapa kiyib, odam muammoga bir necha nuqtai nazardan qarashi mumkin. Bu texnikani qo‘llash davomida barcha jamoa a’zolari bir

vaqtning o‘zida shlyapalarni ma’lum tartibda "sinab ko‘rishadi", chunki har bir shlyapa muhokama qilinayotgan mavzu bo‘yicha ma’lum bir nuqtai nazarni ko‘rsatadi.

“Ikki qismli kundalik” texnologiyasi – bu pedagogik texnologiya bo‘lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o‘qib chiqilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi. *Maqsadi*: o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otish, yozma nutqni rivojlantirish. O‘tkazish bosqichlari quyida keltirilgan (3.5-rasmga qarang):



3.5-rasm. “Ikki qismli kundalik” texnologiyasini o‘tkazish bosqichlari

“Bumerang” texnologiyasi – bu texnologiya o‘quvchi (yoki o‘quvchi)larni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Maqsad – o‘quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o‘quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash hamda o‘quv jarayoni mobaynida har bir o‘quvchi tomonidan o‘z baho (ball) larini egallashga imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Texnologiyaning qo‘llanishi – amaliy mashg‘ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg‘ulotlari hamda suhbat-munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida foydalanishi mumkin (3.6-rasmga qarang):



3.6-rasm. “Bumerang” texnologiyasi bosqichlari

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar. O‘quvchi dars jarayonida mustaqil o‘qishlari, o‘rganishlari va o‘zlashtirib olishlari uchun mo‘ljallangan tarqatma materiallar (o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha qisqa matnlar, suratlar, ma’lumotlar). Masalan, Forobiyning "Fozil odamlar shahri" nomli mashhur asarida xalq rahbari quyidagi 12 ta fazilat(sog‘lik, farosatli, zehnli, pok niyatli, haqgo‘y bo‘lishi kabi)ga ega bo‘lishi tilga olingan. Shu fazilatlarning qaysi biri haqida asosli fikr ayta olasiz? Savollar berilgach, guruh a’zolari o‘qigan bilganlari asosida bahslashadilar. O‘qituvchi savol-javob davomida yaxshi qatnashgan o‘quvchi qaysi guruhdaligini kuzatadi va uning bilimini baholaydi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi.

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” texnologiyasi. Maqsadi:

ta’lim oluvchilar muayyan muammoga o‘z nuqtai nazarini asosli dalillab, ximoya qilishga o‘rganadilar;

ta’lim oluvchilarga muammo muhokamasi jarayonida o‘z fikrini o‘zgartirish imkonini berish;

o‘qituvchi barcha ta’lim oluvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o‘quvchilar o‘rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” texnologiyasi ta’lim oluvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini o‘z guruhdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o‘zgartirishga ishontiradigan g‘oyalarni eshitib o‘zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonni berish maqsadida qo‘llanadi. Ta’lim oluvchilar shuningdek, maktab, mintaqa, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo‘lgan eng dolzarb muammolar o‘z nuqtai nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o‘rganadilar. Ta’lim oluvchilar ochiqdan-ochiq savollar usuli bilan odatda dars jarayonida faol bo‘lmagan o‘quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi (3.7-jadvalga qarang):

3.7-jadval.

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” texnologiyasi

Tayyorgarlik: o‘qituvchi sinfning to‘rt burchagiga yoki sinfning ma’lum ochiq makoniga to‘rtta tablichka osib qo‘yadi
Sinf o‘lchami yoki o‘quvchilar soniga bog‘liq holda olti yoki sakkiz ko‘ngillini chaqiradi. Bordi-yu, o‘yinda sinf o‘quvchilarning bir qismi ishtirok etsa, unda qolganlari o‘z joylarida o‘tiraveradilar
O‘yin paytida band bo‘lishi uchun ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga ham topshiriq berish zarur
O‘yining o‘zini boshlashdan avval o‘qituvchi darsga yo‘l-yo‘riqlar berishi zarur, jumladan: 1.Ta’kidlov o‘qib berilganidan keyin o‘z fikringizga muvofiq tablichkalar yonidan joy egallang. 2. O‘z nuqtai nazaringizni asosli dalillab berishga shay turing. 3. Agar muammoga nuqtai nazaringizni o‘zgartirishga undovchi asosli dalilni eshitsangiz, o‘z o‘rningizni almashtirishingiz mumkin. 4.Sinfdoshlaringiz takidlariga o‘z fikringizni bayon etishga shay turing
O‘qituvchi o‘yinda ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga topshiriqlar beradi, masalan: ularning fikricha eng ahamiyatli ta’kidlovlarni yozib borish; -o‘yin jarayonida o‘z o‘rnini o‘zgartirmagan o‘quvchilarni yozib borish; -eng asosli dalillab berilgan javoblarni yozib borish

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” usulining maqsadi shuki, o‘quvchini bevosita adibning ijodiy ishlari, ma’naviy merosimizga qo‘shgan ulkan hissalari to‘g‘risida (adibning o‘zidan, yoru-do‘stlari tomonidan bayon etilgan) videolavhalarda ko‘satish, asardagi so‘zlarni o‘quvchi tomonidan o‘qitilmay, balki asar qahramonlari tomonidan video-lavhalar orqali yetkazishni ta’minlashdan iboratdir.

Ma’lumki, inson ma’lumotning ko‘p qismini ko‘rish va eshitish organlari orqali qabul qiladi. Bu texnologiyalar orqali darsni tashkil etish o‘quvchilarni bir vaqtda ko‘rganlari asosida ishlashga, bu ulardagi tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi.

O‘qituvchi tayyorlangan bu lavhalarni ko‘rsatish bilangina maqsadga erishmaydi, uni izohlashi, to‘ldirib borishi, o‘quvchilarni jalb qila olishi, tanqidiy-mushohadali fikrlarini eshitishi, izohlab, xulosalab borishi lozim. O‘qituvchi fikrlarni umumlashtiradi, xulosalaydi, berilgan savollarning javobini o‘quvchining bildirgan fikrlarida ekanligini ta’kidlaydi, baholaydi.

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” usuli orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning kurash jarayonini baholay olishi, kurashda g‘olib bo‘lish yo‘llarini topishi, savol yuzasidan har kim o‘zining mustaqil (o‘rnida tanqidiy) fikrini bildirishga alohida e’tibor qaratadi

Xulosa qilib aytganda mazkur mavzuda Tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan texnologiyalar, Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish va uning shart-sharoitlari hamda Tanqidiy fikrlashning bosqichlari va strategiyalari o`rganilgan.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Tanqidiy fikrlash nima?
2. Tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan texnologiyalar haqida tushuncha yozing?
3. Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini izohlang?
4. Tanqidiy fikrlashning shart-sharoitlarini sanang?
5. Tanqidiy fikrlashning bosqichlari ketma-ketligini tushuntiring?
6. Tanqidiy fikrlash motodikalarini mustaqil ravishda izlab toping?
7. Tanqidiy fikrlashning strategiyalarini asoslang?
8. “Revisiting creativity and critical thinking through content analysis (Ji Hoon Park, Yitian Li, Weihua Niu)” nomli maqolani o`qib, tahlil qiling?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1-topshiriq. “Revisiting the Socratic method of teaching to improve third-year pharmacy students critical thinking and advanced pharmacy practice experience readiness in a critical care elective (Justin Kinney)” nomli maqolaga sharh yozing?

2-topshiriq. “Ko‘ryapman. O‘ylayapman. Meni hayratga soldi.....” mashqini bajarish. Ushbu mashq kuzatish (ma’lumot to‘plash) va talqin qilish (o‘z-o‘zidan

olingan ma’lumotlar haqida o‘ylash) o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi va talqinlarni savollar ko‘rinishidagi keyingi tadqiqotlar bilan bog‘laydi.

Ko‘rsatmalar: O‘rganish uchun mavzu yoki hodisani tanlang.

3 ta savolga navbat bilan javob bering:

Men nimani ko‘rmoqdaman? (kuzatuvlaringizni yozib oling)

Men nima deb o‘ylayman? (ko‘rgan narsangiz haqida fikrlaringizni tuzating)

Meni nima ajablantiradi? (sizni qiziqtirgan narsalarni yozib oling)

Mashqni umumlashtiring: nimani o‘rgandingiz, keyin nima qilmoqchisiz.

3-topshiriq. “Asosiy, qo‘shimcha, yashirin” mashqini bajaring. Mashq g‘oya, hikoya yoki muammoning asosiy, ikkinchi darajali va yashirin tomonlarini ochib beradi. Ko‘rsatmalar: Hikoya, kitob, film, rasm, voqeani tanlang. Hikoyani o‘qish/tomosha qilish/tinglashdan keyin quyidagi savollarga javob bering:

Asosiy:

ushbu hikoyada asosiy narsa, g‘oya, muammo nima? Agar mavjud bo‘lsa, hikoyaning asosiy belgilarini ta’kidlang. Ular bilan nima bo‘lyapti? Ular asosiy fikrni tushunishga qanday yordam beradi?

yon va chetda qoladigan qo‘shimcha, ikkilamchi hikoya yoki ma’lumotlar bormi? Hikoyada ikkinchi darajali belgilar bormi? Ular bilan qanday voqealar va harakatlar sodir bo‘lmoqda?

Yashirin: bizdan nima yashiringan? Biz tushunmaydigan narsa bormi? Biz darhol ko‘rmaydigan yoki tushunmaydigan narsami?

Muallif cizdan nimani bilishni xohlashini aniqlashga harakat qiling. Chunki hikoya, g‘oya yoki muammoda nima yashiringanini tushunish cizga asosiy voqeani yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

§ 3.4. O‘QUV-LOYIHAVIY TA’LIMNING ASOSIY TAMOYILLARI

Reja:

1. O‘quv loyiha va uning mazmun-mohiyati.
2. O‘quv loyihaning turlari.

Tayanch so`z va iboralar: o‘quv loyiha, o‘quv loyihaning turlari, loyihalashtirish, funksional loyihalashtirish, optimal loyihalashtirish, tizimli

loyihalashtirish.

O‘quv loyiha va uning mazmun-mohiyati

Ta’limni loyihalash – bu ta’lim jarayonini, uning alohida turlari va yo‘nalishlarini tashkil etishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidir. O‘quv loyiha quyidagilarda ko‘rish mumkin:

o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish turlaridan biri;

bu barcha elementlar o‘zaro bog‘langan, muayyan va barqaror yaxlitlikni tashkil etadigan ta’lim sifatini (ta’lim oluvchilar va o‘quv faoliyati) yoki alohida elementlarni takomillashtirish uchun boshqaruv tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidir;

ta’lim oluvchilar va kattalarning amaliy maqsadli birgalikdagi faoliyati, bu bolalarning atrof-muhitdagi dunyo bilan o‘zaro muloqot qilishning o‘z hayotiy tajribasini shakllantirish imkoniyatlarini ochadi;

ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning predmet o‘rnini aktuallashtirish ta’lim texnologiyasi;

ta’lim oluvchilarning haqiqiy ehtiyojlari va qiziqishlariga, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga asoslangan, ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zini faolligini va o‘z-o‘zini anglashini rag‘batlantiruvchi usul;

ta’lim oluvchilar va kattalar uchun muhim bo‘lgan jiddiy o‘yin;

ta’lim jarayonini bog‘cha devorlaridan atrof-muhitga (tabiiy va ijtimoiy muxitga) olib boradigan bir necha usullardan biri);

ta’lim oluvchi shaxsining o‘sishini ta’minlovchi, bu o‘sishni qayd etish imkonini beruvchi, bolalarni o‘sish bosqichlari orqali-loyihadan loyihaga olib boruvchi ta’lim texnologiyasi [72].

Loyiha – amaliy faoliyat bo‘lib, uning maqsadi hujjatlar to‘plami sifatida ishlab chiqilgan yangi yechimlarni topishdan iborat. Qidiruv jarayoni o‘zaro qarama-qarshi harakatlar, jarayonlar ketma-ketligi bo‘lib, u o‘z navbatida ma’lum usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Loyiha jarayonining murakkabligi (shuningdek, boshqa ijodiy faoliyat), nostandart dizayn (hayot) vaziyatlari turli usullarni bilishni va ularni o‘zlashtirish qobiliyatini talab qiladi [65].

Loyihalashtirish – bu tizimning yoki uning bir qismining arxitekturasi, tarkibiy qismlari, interfeyslari va boshqa xususiyatlarini aniqlash jarayonidir. Loyihalashtirish natijasi loyiha – tizimni amalga oshirish uchun mos shaklda tasvirlangan modellar, xususiyatlar yoki xususiyatlarning to‘liq to‘plami.

Loyihalashtirish talablari tahlil bilan birga tizim ta’rifi deb nomlangan tizim hayot aylanishiga katta bosqichdagi qismidir. Bu bosqichning natijalari tizimning amalga oshirish bosqichi uchun kiritish ma’lumotlaridir. Tizimni loyihalashtirish tizimni maqsadga muvofiq, prinsiplarga va maqsadga muvofiq taqdim yetishni maqsad qiladi; uning arxitekturasiga javob beradigan va belgilangan cheklovlarga mos keladigan tizim komponentlarini tanlash bo‘yicha baholash va qaror qabul qilishni o‘z ichiga oladi.

Me’moriy va batafsil loyihalashtirishni alohida tadbirlar sifatida ko‘rish uchun kuchli tendensiya mavjud; ularni alohida amaliyotlar sifatida aniqlashga urinishlar amalga oshirilmoqda, ammo bu loyihalashtrish turlari asosan o‘zaro bog‘langan. “An’anaviy” loyihalashtirish yechimlari bilan solishtirganda me’moriy yechimlar ko‘proq mavhum, konseptual va global deb hisoblanadi; ular tizimning eng yuqori darajadagi tuzilmalariga qaratilgan. Keng loyihalashtirish o‘z navbatida, detallashtirish va loyiha amalga oshirish uchun to‘liq tayyor nuqtaga dastlabki loyiha (arxitektura) kengaytirish jarayoni sifatida belgilangan [78].

Loyihalashtirishda quyidagi yondashuvlar mavjud:

funksional loyihalashtirish;

optimal loyihalashtirish;

tizimli loyihalashtirish (3.8-jadvalga qarang):

3.8-jadval.

Loyihalashtirish yondashuvlari

№	Loyihalashtirish yondashuvlari	Loyihalashtirish yondashuvlarining mazmun-mohiyati
1.	Funksional loyihalashtirish	Har qanday muhandislik obyekti foydalanadigan tizimlarda u yoki bu funksiyalarni bajarish uchun xizmat qiladi, boshqacha aytganda, funksiya birlamchi va obyekt ikkilamchi bo‘ladi. Demak, avtomobilning asosiy vazifasi tovarlar va odamlarni tashish, ruchkaning asosiy vazifasi sirtda siyoh iz qoldirishdir (qog‘oz va boshqalar.), kitob yozma axborot tashuvchi sifatida harakat qilish va hokazo.

		Funksional loyihalash – tizimlarni tavsiflashga eng umumiy yondashuv. Chegaraviy shartlar, kerakli kirish va chiqishlar aniqlanib, bajariladigan funksiyalar yoki operatsiyalarning batafsil ro‘yxati tuziladi. Funksional loyihalashda struktura sintez qilinadi, obyekt va uning tarkibiy qismlari (elementlari)ning asosiy parametrlari aniqlanadi, faoliyat jarayonlarining samaradorligi va sifat ko‘rsatkichlari baholanadi. Loyihalash natijasi, odatda, asosiy, funksional, kinematik, algoritmik sxemalar va kuzatuvchi hujjatlardir
2.	Optimal loyihalash	Loyihalashtirish jarayoni har doim barcha asosiy manfaatdor tomonlar (manfaatdor tomonlar) manfaatlarini hisobga olish kerak: mijozlar, ishlab chiquvchilar, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, iste’molchilar, utilizatorlar va boshqalar. Manfaatdor tomonlarning har biri o‘z ehtiyojlarini qondirishga intiladi, ularning ba’zilari ziddiyatga kelishi mumkin. Misol uchun, jalb turli partiyalar manfaatlari nuqtai nazaridan bir avtomobil bir vaqtning o‘zida yuqori tezlik va motor kuch, past baho, qulaylik, ekologik do‘stlik bo‘lishi kerak, ishlab chiqarish texnologik bo‘lishi, texnik qulay, tasarruf qilish oson, va hokazo. Bundan tashqari, amaliy muammoni hal qilish uchun deyarli har doim bir nechta variant mavjud va ishlab chiquvchi yakuniy variantni asosli tanlash muammosiga duch keladi. Loyihalashtirish maqsadi faqat funksional samarali yechimlarni topish emas, balki turli, ba’zan qarama-qarshi ehtiyojlarini qondirish uchun, yakuniy versiyasi oqilona tanlash, optimal loyihalashtirish (loyiha mezoni, loyiha varianti) deb nomlangan aylandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qaror qabul qilish nazariyasi va operatsiyalarni tadqiq qilish nazariyasi va kompyuter texnologiyalarining keng tarqalishi tufayli faol foydalanildi, bu bizga tegishli usullarni ishlab chiqish, yaqin kelajakda ko‘plab variantlarni hisoblash va murakkab matematik muammolarni hal qilish imkonini berdi. Optimal loyihalashtirishda texnik topshiriq bosqichida ishlab chiqilayotgan obyektga qo‘yiladigan talablarning to‘liq ro‘yxatini tayyorlashga, ular orasida sifat ko‘rsatkichlarini ta’kidlab, ulardan eng muhimini optimallashtirish mezonlariga aylantirishga katta ahamiyat beriladi. Yapon kompaniyasining shiori bu borada dalolat beradi - "biz texnologiya yaratmaymiz, inson yaratamiz"
3.	Tizimli loyihalashtirish	XX asr oxiriga kelib, faqat sezilarli mo‘ljallangan obyektlar murakkabligi, balki jamiyat va atrof-muhit, tufayli rivojlanish va operatsiya xatolar, sifati va narxi yuqori talablar, yangi mahsulotlar ozod shartlarini kamaytirish uchun hodisalari og‘irligiga o‘z ta’sirini oshirmaydi. Bu holatlarni hisobga olish zaruriyati loyiha faoliyatining an’anaviy xarakteri va metodologiyasiga majburiy o‘zgartirishlar kiritdi. Obyektlarni yaratishda ular allaqachon tizim deb hisoblanishi kerak edi, ya’ni muayyan tuzilishga ega bo‘lgan o‘zaro bog‘langan ichki elementlar majmuasi, keng xususiyatlar to‘plami va turli xil ichki va tashqi munosabatlar. Tizimli loyihalashtrish vazifalarni har tomonlama hal qiladi, alohida obyektlar-tizimlar va ularning qismlarini o‘zaro va tashqi muhit bilan o‘zaro va o‘zaro bog‘liqligini hisobga oladi, ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlarini hisobga oladi. Tizimli loyihalashtirish obyekti va loyihalash jarayonini puxta birgalikda

		ko‘rib chiqishga asoslangan bo‘lib, u o‘z navbatida boshqa bir qator muhim qismlarni o‘z ichiga oladi

Keng ma’noda *loyihalashtirish* – bu ma’lum belgilangan shartlar uchun hali mavjud bo‘lmagan obyektni yaratishga imkon beruvchi birlamchi tavsifni yaratishdir. Lotin tilidan “projectus” so‘zi “oldinga tashlangan” deb tarjima qilinadi. Matnli yozuvlar, hisoblashlar va jadval chizmalari kelajakda haqiqiy obyektga tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan tavsiflar uchun, algoritmlar esa shartli amallar ketma-ketligini ifodalash uchun ishlatiladi. Umuman olganda, batafsil hisob-kitoblar, qo‘shimchalar va optimallashtirishlardan so‘ng obyektning tavsifi g‘oyani amalga oshirish uchun asos bo‘ladi [79].

Loyiha metodi – loyiha xususiyatlarini amalga oshirish, loyiha texnik faoliyatini amalga oshirish, harakatlar va loyiha muammolarini hal qilish uchun ishlatiladigan jarayonlar (usullar, jarayonlar, algoritmlar, qoidalar, tadqiqotlar) [85].

Pedagogikada loyihalar metodi – bu muammoni ta’lim oluvchilar va o‘qituvchi tomonidan batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish yo‘li bo‘lib, u juda real, aniq amaliy natija bilan tugashi, u yoki bu tarzda belgilangan bo‘lishi kerak. Loyiha metodi – ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyati bo‘lib, o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi, ijodiy, tadqiqot, shaxsan yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammoni hal qilishga va moddiy yoki intelektual mahsulot shaklida muayyan natija olishga qaratilgan [66].

Zamonaviy ta’lim loyihasi ta’lim imkoniyatlari, tadqiqot va eksperimentni birlashtiradi. O‘qituvchi uchun o‘quv loyihasining asosiy mazmuni ta’lim oluvchining loyiha faoliyati asosida o‘zgarishi (yangi bilim, ko‘nikma, munosabat)dir. Talabalar uchun o‘quv loyihasini mustaqil bajarish kerak. Ta’lim loyihalari bugungi kunda uzluksiz ta’limning deyarli barcha bosqichlarida qo‘llaniladi.

Loyiha metodi talabalarning mustaqil faoliyatiga qaratilgan. Ta’limni loyihalash juda ko‘p umume’tirof etilgan afzalliklarga ega bo‘lib, ulardan biri ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatining aniq natijasidir. Shu bilan birga, jiddiy tashkil etilgan o‘quv jarayonisiz chinakam ijodiy natijaga erishish mumkin emasligini unutmasligimiz kerak. O‘quv loyihasi ustida ishlashda ta’lim oluvchilar yangi

bilimlarni yaratadilar, lekin bunga faqat oldindan olingan bilimlarga, shuningdek, umumiy ta’lim va mavzu malakalariga tayanib erishish mumkin [60].

Bugungi kunda ta’lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o‘quv loyihalarning tayyorlanishiga e’tibor qaratilmoqda. Xo‘sh, o‘quv loyihasining o‘zi nima? O‘quv loyihalarini tayyorlash jarayoni qanday kechadi?

O‘quv loyihasi – umumiy maqsadga, kelishilgan usullarga va loyiha ishtirokchilari uchun ahamiyatli bo‘lgan muammoni hal qilishda umumiy natijaga erishishga qaratilgan faoliyat usullariga ega bo‘lgan hamkor ta’lim oluvchilarning birgalikdagi ta’lim, bilim, ijodiy yoki o‘yin faoliyati. Ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini loyiha metodi doirasida tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi [97].

O‘quv telekommunikatsiya loyiha esa umumiy maqsadga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari resurslari (masalan, Internet) asosida tashkil etilib, talabalar-hamkorlar qo‘shma ta’lim, bilim ijodiy, o‘yin faoliyati, kelishilgan usullari, faoliyat usullari va loyiha ishtirokchilari uchun muhim bo‘lgan har qanday muammoni hal qilish uchun umumiy natijaga erishishga qaratilgan. Bunday loyihaga fanlararo (chet tili+informatika) “telekommunikatsiya loyihasi” misol bo‘ladi.

O‘quv loyihasi quyidagilarni nazarda tutadi:


1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli;

2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi;

3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita.

Loyiha ta’limi texnologiyalaridan o‘quv amaliyotida foydalanishda “o‘quv loyihaviy faoliyat” tushunchasi ham qo‘llaniladi [68].

O‘quv loyihaviy faoliyat – o‘quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo‘lida ta’lim oluvchilar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. Talabalarning o‘quv loyihaviy faoliyati muayyan bosqichlarda tashkil etiladi (3.7-rasmga qarang):



3.7-rasm. Talabalar o‘quv loyihaviy faoliyati bosqichlari

Talabalar tomonidan juftlik, kichik guruhlar yoki jamoa asosida turli mavzularda o‘quv loyihalarini tayyorlash quyidagi bosqichlarda kechadi:

1) loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish
2) loyihaviy faoliyatni tashkil etish;
3) loyihaviy faoliyatni rejalashtirish;
4) loyihaviy vazifalarni hal etish;
5) loyiha (mahsulot)ni rasmiylashtirish;
6) hisobot tayyorlash;
7) taqdimot tayyorlash;
8) loyiha taqdimoti, himoyasi va bahosi;
9) refleksiya;
10) hisobot topshirish [68].

O‘quv loyihasi – talaba yoki o‘quvchilar guruhi tomonidan tadqiqot, ijodiy yoki amaliy xarakterdagi muammoga mustaqil, batafsil yechim topishdir. Loyihalarni yaratish bosqichlari quyidagilardan iborat:

muammoni tanlash;

maqsadni belgilash;

maqsadlarni belgilash;

axborot ta’lim;

ijodiy guruhlarni shakllantirish (talabiga binoan);

ichki guruh yoki individual ish;

ichki guruh muhokamasi;

jamoaviy taqdimot [98].

O‘quv loyihalari muayyan topshiriq bo‘lib, uning natijasi oddiy bir mahsulotni tayyorlash (m: texnologik xaritani tayyorlash, biror-biror model, deylik, dizaynerlik modelini yaratishdan iborat bo‘ladi. Biroq, ayni o‘rinda shuni ham qayd etish kerak, “loyiha” tushunchasi negizida hamisha ham amaliy harakatlar natijasi tayyorlangan biror-bir mahsulot tushunilmaydi. Chunki loyiha doirasida nazariy, amaliy va metodik xarakterdagi g‘oyalarni yaratish negizida mahsulotni yaratishga to‘g‘ri keladi. O‘quv loyihalarini tayyorlashda amaliyot o‘qituvchisi muhim o‘rin egallaydi. Uning zimmasiga bir qator vazifalar yuklatiladi. Ular:

loyiha ishi uchun muayyan mavzu, muammoni belgilash;

loyiha topshiriqlarini ishlab chiqarish;

loyiha ishini o‘quv jadvaliga kiritishi;

loyiha jarayonini modelini avvaldan ishlab chiqish, topshiriqlarni talabalarning imkoniyatlariga moslashtirish;

talabalarni loyiha ishi bilan tanishtirish;

ularning amaliy faoliyatlari nazorat qilib turish [68].

Amaliyot o‘qituvchisi avvaldan quyidagi material va hujjatlarni tayyorlab olishi lozim:

loyihalar;

loyihaga taalluqli topshiriqlar bayoni;

ma’lumot yig‘ishga oid yo‘naltiruvchi savollar;

o‘quv maqsadlarni yorituvchi ma’lumotlar [68].

Loyihada faoliyat mantig‘i bosqichlar ketma-ketligida amalga oshiriladi:

o‘qituvchi tomonidan loyiha taqdimoti (nomi, mavzu, masala);

maqsadni o‘z-o‘zini bayon qilish va maqsadlari;

guruhlarni tashkil etish;

guruhlarda rollarning taqsimlanishi;

usulni tanlash;

rejalashtirish;

aslida uni amalga oshirish;

natijalar taqdimoti [75].

O‘quv loyihasi tomonidan quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:

1 bosqich – loyihada ishlash. Eng qisqa, lekin eng muhimi. O‘qituvchi loyiha mavzusiga qiziqish uyg‘otadi, muammoni bayon qiladi, muammoga ahamiyat qaratish, joylashtirish, taklif qilish, mavzuni ko‘rib chiqishning u yoki bu burchagi muammoni shakllantiradi. Umuman muammodan bir qator kichik muammolar ajratib olinadi, natijada loyihaning maqsad va vazifalari aniqlanadi.

2 bosqich – guruhlarga bo‘linishni ta’minlash zarur bo‘lganda faoliyatni tashkil etish, aniqlash, har bir guruh va har bir a’zoning maqsad va vazifalari guruhlar. Shu bosqichda, u ustida ishlash rejalashtirilgan loyiha topshirig‘i yechiladi.

3 bosqich – faoliyatni amalga oshirish. O‘qituvchi “kichik kuzatuvchi”. Bolalarga kerak bo‘ladigan narsalarni oldindan o‘rgatish kerak: misol uchun, intervyu savollar yozish, so‘rov o‘tkazish, so‘rov natijalarini qayta ishlash, kimyoviy, biologik va boshqa tadqiqotlar. Bolalar yetarli bilimga ega bo‘lmasa, yangi materialni taqdim etish vaqti keldi. "Qo‘l pulsda bo‘lishi kerak" - mumkin emas faollik o‘z yorini olsin!

4 taqdimot bosqichi – ishni yakunlash, tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va baholash hamda natijalarni namoyish etishni amalga oshiriladi. Taqdimot tayyorlash davomida ta’lim oluvchilar tayyorlagan narsalar loyiha faoliyati mahsuli deb ataladi (chizmalar, plakatlar, slayd-shoular, videolar, web-sayt, gazeta, almanax, kostyumlar va hokazo) [75].

Asosiy ish ustida ishlashning asosiy natijasini ko‘rsatish loyiha-faoliyat tahlili va taqdimoti loyiha muammosini qanday hal qilish mumkin. Misol uchun, konsertni ko‘rsatish uchun yetarli emas, bolalar bunga qanday kelganini, nima uchun uni tanlaganini tushuntirish kerak. Zamonaviy hayot mutaxassislarga sodir bo‘layotgan jarayonlarni tushunish va moslashtirish, muloqot qilish, jamoada ishlash va tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, natijalarga erishish qobiliyati kabi yuksak asosiy talablarni qo‘ymoqda.

O‘quv loyihaning turlari

O‘quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo‘yicha tayyorlanishiga ko‘ra quyidagicha ajratiladi (3.9-jadvalga qarang):

3.9-jadval.

O‘quv loyihalari

№	O‘quv loyihalar	O‘quv loyiha turlari
1.	Faoliyat mazmuniga ko‘ra	Axborotli loyihalar Tadqiqot loyihalari Amaliy loyihalar
2.	Fan sohasi (sohalari)ga ko‘ra	Mono loyiha (bir bilim sohasi, fan) bo‘yicha amalga oshiriladigan loyiha) Bir necha bilim sohasi, fan) bo‘yicha amalga oshiriladigan loyiha

Har bir o‘quv loyihasi o‘z maqsadi va kutiladigan natijasiga ko‘ra muayyan turga mansub bo‘ladi (3.10-jadvalga qarang):

3.10-jadval.

O‘quv loyiha turlari

№	O‘quv loyihalar	O‘quv loyihalarning mazmuni	O‘quv loyihaning natijasi
1.	Axborotli loyihalar	Muammoga oid ma’lumotlarni to‘plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini ëritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash	
2.	Tadqiqot loyihalari	Tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash	
3.	Amaliy loyihalar	Muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish	

O‘quv loyihalarining turlari quyidagilardan iborat (3.11-jadvalga qarang):

3.11-jadval.

O‘quv loyihalari

№	O‘quv loyihalari	O‘quv loyiha turlari
1.	Dominant faoliyat bo‘yicha	axborot, tadqiqot, ijodiy, amaliy yoki amaliyotga yo‘naltirilgan
2.	Substansiya maydoni uchun	monopredmet, fanlararo va fanlar ustidan
3.	Muddati bo‘yicha	loyihani rejalashtirish, amalga oshirish va aks ettirishda qisqa muddatdan boshlab bevosita sinfda yoki bog‘langan mashg‘ulotda, uzoq muddatli-bir oydan yoki undan ortiq muddatga amalga oshiriladi
4.	Ishtirokchilar soni bo‘yicha	individual, guruhli va jamoaviy
5.	Loyiha muvofiqlashtirish tabiati	to‘g‘ridan-to‘g‘ri (qattiq, moslashuvchan), yashirin (shubhasiz, loyiha ishtirokchisi taqlid), ochiq; aloqalar xarakteri (shu maktab, sinf, shahar, viloyat, mamlakat, dunyoning turli mamlakatlari ishtirokchilari orasida)

Axborot loyihasi axborotni keyinchalik tahlil qilish, ehtimol umumlashtirish va majburiy taqdim etish bilan obyekt yoki hodisa haqida ma’lumot to‘plashga qaratilgan. Bunday loyihalar puxta o‘ylangan strukturani, loyiha ustida ishlash jarayonida tizimli tuzatish imkoniyatini talab qiladi. Shuning uchun axborot loyihasini rejalashtirishda quyidagilarni aniqlash lozim:

a) ma’lumotlarni to‘plash obyekti;

b) talabalarga foyda keltiradigan manbalar (bu manbalarning talaba yoki ular izlanishlari bilan shug‘ullanishlarini ham hal qilishi kerak);

v) natijani taqdim etish. Bundan tashqari, mumkin bo‘lgan variantlar ham bor - faqat o‘qituvchi o‘qishi mumkin bo‘lgan yozma xabardan, sinfdagi ommaviy xabargacha yoki tinglovchilarga nutq (maktab konferensiyasida, yosh talabalar uchun ma’ruza bilan va hokazo) [60].

Axborot loyihasining asosiy umumiy ta’lim vazifasi axborotni topish, qayta ishlash va taqdim etish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat, shuning uchun barcha o‘quvchilar axborot loyihalarining turli davomiyligi va murakkabligida ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir. Muayyan sharoitlarda axborot loyihasi tadqiqot loyihasiga aylanishi mumkin.

Tadqiqot loyihasi tadqiqot predmeti va usullarining aniq ta’rifini beradi. Bu loyihalar puxta o‘ylangan loyiha tuzilishi, belgilangan maqsadlar, loyihaning barcha ishtirokchilar uchun dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati, puxta o‘ylangan usullar, jumladan, tajriba-sinov ishlari va natijalarni qayta ishlash usullari talab etiladi. Umuman olganda, bu taxminan ilmiy tadqiqotlarga to‘g‘ri keladigan ish bo‘lishi mumkin; mavzuni asoslash, muammo va tadqiqot maqsadlarini belgilash, gipotezani ilgari surish, axborot manbalari va muammoni hal etish yo‘llarini belgilash, natijalarni loyihalash va muhokama qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot loyihalari odatda uzoq va tez-tez talabalarning imtihon ishlarini yoki raqobatbardosh auditoriyadan tashqari ishlarni o‘z ichiga oladi [60].

Amaliy loyiha ham ishning haqiqiy natijasini beradi, lekin birinchi ikkitadan farqli o‘laroq qo‘llaniladi (masalan, geografiya idorasi uchun qoyalar ko‘rgazmasini tashkil qilish). Bu loyihalar loyiha ishtirokchilari faoliyatining avvaldan aniq belgilangan

natijasi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, bu natija ishtirokchilarning o‘zlari (gazeta, hujjat, video, ovoz yozish, ijro, harakat dasturi, qonun loyihasi, ma’lumotnoma materiallari va boshqalar)ning ijtimoiy manfaatlariga qaratilishi shart.) Bunday loyiha har birining vazifalari, aniq chiqishi va har birining yakuniy mahsulotni loyihalashda ishtirok etishi bilan yaxshi o‘ylangan tuzilmani, hatto ishtirokchilarining barcha faoliyatining ssenariysini talab qiladi. Bu yerda bosqichma-bosqich muhokamalar, qo‘shma va yakka tartibdagi say-harakatlarni sozlash, olingan natijalar taqdimotini tashkil etish va ularni amalda amalga oshirishning mumkin bo‘lgan yo‘llari bo‘yicha yaxshi muvofiqlashtirish ishlarini tashkil etish va loyihaning tizimli tashqi bahosini tashkil etish ayniqsa muhimdir [60].

Ijodiy loyiha o‘z ijrochilarining shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini eng katta darajada hisobga oladi. Bunday loyihalar, qoida tariqasida, batafsil tuzilishga ega yemas, u faqat loyiha ishtirokchilarining qabul qilingan mantig‘i va manfaatlariga bo‘ysungan holda rejalashtiriladi va yanada rivojlantiriladi. Eng yaxshisi, kerakli rejalashtirilgan natijalar (qo‘shma gazeta, insho, video, sport o‘yinlari, ekspeditsiya va boshqalar) haqida kelisha olasiz) [60].

Loyihani taqdim etish shakli turlicha bo‘lishi mumkin: chizma, insho, xarita, buklet, reklama, axborot dasturlari yordamida taqdim etish. Axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari bunday loyihalarning taqdimotlarini ayniqsa yorqin va qiziqarli tarzda o‘tkazadi. Har xil turdagi loyihalardan foydalangan holda o‘qituvchi talaba bilan birgalikda turli pedagogik vazifalarni hal etadi: ta’limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy.

Loyihalar uzoq muddatli va katta hajmli bo‘lishi shart emas, eng muhimi, bolani o‘rganish va yaratishning qiziqarli jarayoniga jalb qilishdir. Loyihalar muvofiqlashtirish bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

ochiq, aniq muvofiqlashtiruvchi loyihalarda loyiha koordinatori loyihada o‘z funksiyasida ishtirok etadi, zarur bo‘lganda, loyihaning alohida bosqichlari, alohida ishtirokchilarning faoliyati (masalan, rasmiy muassasada uchrashuv tashkil qilish kerak bo‘lsa, so‘rov o‘tkazish, intervyu berish bo‘yicha mutaxassislar, vakillik ma’lumotlarini to‘plash va hokazo.);

yashirin koordinatsiyaga ega loyihalarda koordinator tarmoqlarda ham, uning funksiyasida qatnashuvchi guruhlar faoliyatida ham o‘zini topa olmaydi.

loyihalar mavzusini talabalarning o‘zlari taklif qilishlari mumkin, ular, albatta, o‘z manfaatlari bilan boshqariladi, nafaqat bilim, balki ijodiy va amaliy.

Xulosa qilib aytganda mazkur mavzuda o‘quv loyiha va uning mazmun-mohiyati, o‘quv loyihaning turlari o`rganilgan.

Nazorat va muhokama savollari:

1. O‘quv loyiha nima?
2. O‘quv loyihaning qanday turlari mavjud?
3. Loyihalashtirish nima?
4. Funksional loyihalashtirish deganda nimani tushunasiz?
5. Optimal loyihalashtirish bilan tizimli loyihalashtirishning farqlari nimadan iborat?
6. Qanday loyihalar muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqishdan iborat?
7. Qanday loyihalar muammoga oid ma’lumotlarni to‘plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslashdan iborat?
8. Qanday loyihalar tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslashdan iborat?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli, nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi hamda rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita – nima?

a) o‘quv loyiha;

b) kompyuter dasturlari;

c) blended learning;

d) modulli kredit tizimi.

2. O‘quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo‘lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi?

a) o‘quv loyiha;

b) o‘quv loyihaviy faoliyat;

c) blended learning;

d) modulli kredit tizimi.

3. Talabalar o‘quv loyihaviy faoliyati nechta bosqichlarda amalga oshiriladi?

a) 2 ta;

b) 3 ta;

c) 4 ta;

d) 5 ta.

4. Talabalar o‘quv loyihaviy faoliyatinig qaysi bosqichida loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish (auditoriya ishi) amalga oshiriladi?

a) tayyorgarlik bosqichi;

b) loyihani bajarish bosqichi;

c) yakunlovchi bosqichi;

d) asosiy bosqichi.

5. Talabalar o‘quv loyihaviy faoliyatinig qaysi bosqichida auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan amaliy faoliyat amalga oshiriladi?

a) tayyorgarlik bosqichi;

b) loyihani bajarish bosqichi;

c) yakunlovchi bosqichi;

d) asosiy bosqichi.

6. Talabalar o‘quv loyihaviy faoliyatinig qaysi bosqichida loyiha taqdimoti, talabalar faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi (auditoriya ishi) amalga oshiriladi?

a) tayyorgarlik bosqichi;

b) loyihani bajarish bosqichi;

c) yakunlovchi bosqichi;

d) asosiy bosqichi.

7. O‘quv loyihaning qanday turiga axborotli, tadqiqot va amaliy loyihalar kiradi?

a) faoliyat mazmuniga ko‘ra;

b) fan sohasiga ko‘ra;

c) amaliy loyiha;

d) innovatsion loyiha.

8. O‘quv loyihaning qanday turiga mono loyiha (bir bilim sohasi, fan) bo‘yicha amalga oshiriladigan va bir necha bilim sohasi, fan) bo‘yicha amalga oshiriladigan loyihalar kiradi?

a) faoliyat mazmuniga ko‘ra;

b) fan sohasiga ko‘ra;

c) amaliy loyiha;

d) innovatsion loyiha.

9. Qanday loyihalar muammoga oid ma’lumotlarni to‘plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslashdan iborat?

a) axborotli loyihalar;

b) tadqiqot loyihalari;

c) amaliy loyihalar;

d) innovatsion loyihalar.

10. Qanday loyihalar tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslashdan iborat?

a) axborotli loyihalar;

b) tadqiqot loyihalari;

c) amaliy loyihalar;

d) innovatsion loyihalar.

11. Qanday loyihalar muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqishdan iborat?

a) axborotli loyihalar;

b) tadqiqot loyihalari;

c) amaliy loyihalar;

d) innovatsion loyihalar.

§ 3.5. TA`LIM MUASSASALARIDA BOLALAR FAOLIYATI TURLARI VA ULARNI TASHKIL ETISHGA QO`YILADIGAN UMUMIY TALABLAR. PEDAGOGIK MULOQOT VA PEDAGOGIK MUNOSABATLAR TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Ta`lim muassasalarida bolalar faoliyati turlari va ularni tashkil etishga qo`yiladigan umumiy talablar.

2. Bolalar bilan pedagogik muloqoning: funktsiyalari, tuzilishi, uslublari.

3. Ta`lim muassasalarida pedagogik nizo va uning sabablari hamda oldini olish yollari.

4. Jamoa tushunchasi. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari.

**Tayanch so`z va iboralar:** bolalar faoliyati, muloqot va uning funksiyalari, pedagogik nizo, jamoa, o`quvchilar jamoasi.

Ta`lim muassasalarida bolalar faoliyati turlari va ularni tashkil etishga qo`yiladigan umumiy talablar

Umumiy o`rta ta’lim o‘quvchilarning muntazam bilim olishini, asosiy o‘quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirishni; o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalari, kasb tanlashga va atrof-olamga ongli munosabatni hosil qilishni; milliy va umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashni, o‘z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirishni ta’minlashi lozim. “Umumiy o‘rta ta'lim to‘g‘risida” gi Nizomga ko‘ra, o‘rta ta'lim o‘quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi va bunda umumiy o‘rta ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o‘quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

o‘quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o‘z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish;

o‘quvchilarning individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish;

mehnat qilish va mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, o‘quvchilar uchun maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan mutaxassisliklar bo‘yicha kasbiy ta'lim berish.

Ta’lim muassasida bolalarning faoliyati o`quv faoliyati, darsdan tashqari faoliyati va dam olish (bo`sh vaqti) faoliyatiga ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”, “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va umume’tirof etilgan ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalatida ta’lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish tartibi ishlab chirilgan.

Ta’lim muassasasida o‘quvchilarga zamon talablari va milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya berish, sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, odob-axloq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, shaxs va uning huquqlarini hurmat qilish, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ta’lim muassasasi mulki, o‘quv

jihozlari va xodimlar xavfsizligini ta’minlash, o‘quvchilar sog‘lig‘ini saqlashga imkon beradigan do‘stona muhitni yaratish bolalar faoliyatining asssosini tashkil etadi.

Bolalalar faoliyati ta’lim muassasasi hududida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, tanaffus vaqtlarida, ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq tadbirlarda o‘zlarini tutishini tartibga soladigan me’yorlar asosida tashkil etiladi.

Jamoa a’zolari va o‘quvchilar uchun hamjihatlik, shaffoflik, o‘zaro ishonch, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilish, izzathurmat, do‘stona muhitni yaratish, zo‘ravonlikni oldini olish, hamda ahil-inoqlik jamoa a’zolarining o‘zaro munosabatlaridagi muhim shartlardan biri faoliyatni to`gri tashkil etish hisoblanadi.

Ta’lim muassasalarida har bir o‘quvchiga e’tiborli munosabatda bo‘lishni tashkil etish, o‘qitish jarayonida barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlarni yaratish, vujudga keladigan muammolarni, nizoli holatlarni ta’lim muassasasining ichki tartibiga ko‘ra hal etish ta’lim muassasasida faoliyatning asosiy sharti hisoblanadi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabatlari “Ustoz-shogird” an’anasi asosida tartibga solinishi nuqtai nazaridan irqi, millati, diniy e’tiqodi, jinsi, oilaviy ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra, o‘quvchilarga teng munosabat ta’lim muassasasi faoliyatida asosiy hisoblanadi. Ta’lim muassasasida qoidalarni buzganlik uchun majburiy ta’limdan chetlatishga yo‘l qo‘yilmasligi turli xarakterdagi bolalarni faoliyatini birgalikda tashkil etish imkonini beradi (Sud qarorlari bilan maxsus ta’lim muassasasiga yuborish holatlari bundan mustasno).

Ta’lim muassasasida bolalarning o`quv va boshqa faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarni jazolash maqsadida ularga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy tazyiq o‘tkazish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi;

ichki tartib va kiyinish madaniyatiga rioya qilmaydigan o‘quvchilarni sinfdoshlar yoki muassasa jamoasi oldida muhokama qilmasligi;

o‘quvchilar tomonidan uyga vazifani bajarmay kelgan o‘quvchini ommaviy izza qilish holatlarini uyushtirmasligi;

chet elga noqonuniy ravishda chiqib ketgan o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muassasa rahbariyatidan yashirmasligi;

o‘quvchining ota-onasi yoki qonuniy vakillari bilan shaxsiy adovatga bormasligi;

o‘quvchilarga ibrat bo‘lib, shaxsiy namuna ko‘rsatish, ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi;

ta’lim muassasasi manfaatlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlardan tiyilish;

biror-bir noxush voqea yoki hodisa ro‘y bersa, zudlik bilan ta’lim muassasasi rahbariyatini xabardor qilish;

ta’lim muassasasining sha’ni va nufuziga dog‘ tushiradigan har qanday holatlarning oldini olishi;

ta’lim muassasasi to‘g‘risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro‘siga ziyon yetkazish uchun yoki o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanmasligi;

yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni zararli odatlardan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda jamiyatimiz uchun yot bo‘lgan diniy va ekstremistik ta’sirlardan, past saviyali “ommaviy madaniyat” xurujlaridan ogoh etib borishi talab etiladi.

Ta’lim muassasasida bolalarning o`quv faoliyatini tashkil etishda *ota-onalar:*

o‘qituvchi sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, dars jarayonlarida aralashmasliklari, pedagoglarni haqorat qilmasliklari;

farzandini dars jarayonida ta’lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari talablariga rioya etishini nazorat qilishlari;

farzandini darslarga to‘liq qatnashishini (davomat) hamda fanlar bo‘yicha ish daftarlari va ta’lim olishi uchun zarur bo‘lgan boshqa barcha jihozlar bilan ta’minlashlari;

farzandini muassasaga darslik, o‘quv qurollari bilan kelishini ta’minlashlari;

farzandining ta’lim olishiga to‘sqinlik qilmaslik, uning ta’lim muassasasiga o‘z vaqtida kelishi, darsdan keyin farzandini bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishlari;

sinf rahbari va fan o‘qituvchilari bilan farzandining xulqi va davomati yuzasidan aloqada bo‘lishlari;

farzandi darslarga kelmay qolishi mumkin bo‘lgan paytlarda ta’lim muassasasiga (sinf rahbariga) uning sabablarini bildirgan holda ma’lum qilishlari;

ta’lim muassasasining taklifiga asosan muassasada o‘tkaziladigan ota-onalar yig‘ilishi, suhbat va turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etishlari talab etiladi.

O‘quvchilar ta’lim muassasasidagi faoliya jarayonida quyidagi talablarga rioya etishlari lozim:

a) ta’lim muassasasi binosi va uning hududida:

ta’lim muassasasiga mashg‘ulotlar boshlanishidan 10-15 daqiqa oldin, ta’lim muassasasi Ustavida belgilangan o‘quvchilar formasida kelishi.

toza va orasta kiyinish, sochlarni ozoda va tartibga keltirilgan holda tutish;

o‘zidan kichiklarga nisbatan izzatda bo‘lish, kattalarga esa hurmat ko‘rsatish;

o‘qituvchilar va ta’lim muassasasiga kelgan mehmonlar bilan uchrashganda salom berish;

ta’lim muassasasi mulki (parta, stol, stul, doska, o‘simliklar, hayvonot dunyosi va hokazolar) va o‘quv jihozlari (kompyuter texnikasi, laboratoriya jihozlari, sinfxonalardagi stend va bannerlar)ga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;

ta’lim muassasasi mulkiga zarar yetkazilgan hollarda ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qoplanishi;

ta’lim muassasasi yo‘laklarida tinchlikni saqlash, ichki tartib va odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya qilish;

ta’lim muassasasiga o‘quv-qurollari, dars jadvalida belgilangan darsliklar va daftarlar bilan kelish (o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan zarur o‘quv qurollarining bo‘lishi);

ta’lim muassasasi hududida telefonini o‘chirib, (smartfon, planshet va boshqa qurilmalar) portfel yoki sumkasi va shu kabilarga solib qo‘yish; chiqindilarni muassasa binosi va hududidagi maxsus belgilangan idishlarga tashlash;

b) dars mashg‘ulotlarida:

tegishli darslik va zarur o‘quv qurollari bilan ishtirok etish;

vaqtini va diqqatini o‘quv jarayoniga tegishli bo‘lgan maqsadlarga sarflash va qaratish;

o‘qituvchiga murojaat qilmoqchi yoki savoliga javob bermoqchi bo‘lganda qo‘lini ko‘tarib ruxsat so‘rash; sanitariya-gigiyena va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish;

d) tanaffusda:

o‘z o‘qish joyini toza saqlash va tartibga keltirish;

navbatdagi dars bo‘ladigan sinf xonasiga o‘z vaqtida o‘tish;

fan o‘qituvchisining ko‘rsatmasi bo‘yicha sinfni kelgusi darsga tayyorlash;

katta tanaffus vaqtida navbatchi o‘quvchilar tomonidan sinf xonasining tozaligini ta’minlash;

e) ta’lim muassasasi oshxonasida: - ovqatlanishdan oldin va keyin qo‘llarini yuvish; - umumiy ovqatlanish joylarida belgilangan tartib qoidalarga rioya qilish; - taomlarni olishda “navbatga turish” tartibiga rioya qilish va imkoni boricha ijtimoiy masofani saqlash; - tirbandlik holatida ustozlar, o‘zidan kichiklarga va qizlarga hurmat ko‘rsatish; - ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik; - issiq va suyuq ovqatlarni olishda va iste’mol qilishda ehtiyotkor bo‘lish; - oshxonadan olingan ovqat va ichimliklarni oshxonaning o‘zida iste’mol qilish; - ovqatlangandan so‘ng idishlarni yig‘ishtirib qo‘yish;

f) ta’lim muassasasi kutubxonasida: - kutubxona xodimlari bilan xushmuomalada bo‘lish; - kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish; - kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish;

g) sport zali (majmuasi)da: - sport zaliga xos bo‘lgan kiyim va poyabzalda kirish; - sport inventarlaridan oqilona va samarali foydalanish; - mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish; - sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga to‘liq rioya qilish.

O‘quvchilarga odob-axloq qoidalari doirasida quyidagilar taqiqlanadi:

a) ta’lim muassasasida va uning hududida: o‘zgalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy tazyiq o‘tkazish; dars mashg‘ulotlari vaqtida ta’lim muassasasi hududida sababsiz yurish; ta’lim muassasasi yo‘laklari, sinf xonalari, oshxona va kutubxonasida asossiz ravishda baland ovozda gaplashish; ta’lim muassasasi hududida baland ovozda so‘zlashish, qog‘oz va boshqa chiqindilarni (belgilangan joylardan tashqarida) qoldirib ketish; muqovasida ma’naviyatga zid bo‘lgan tasvirlar tushirilgan yozuv daftarlaridan foydalanish; turli narkotik va psixotrop moddalar, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish hamda tarqatish; - ta’lim

muassasasi hududiga turli xil pirotexnika vositalari, pnevmatik qurollar, o‘tkir kesuvchi va tig‘li buyumlarni olib kelish; uyali aloqa vositalari orqali “ommaviy madaniyat”, turli xil yot g‘oyalarni targ‘ib etuvchi va terroristik-ekstremistik xarakterdagi audio va video materiallar hamda pornografik xarakterdagi ma’lumotlarni ko‘rish va tarqatish, kiberbullingni o‘tkazish; uyali aloqa vositalarini bo‘yniga osib olishi, ko‘ylak, shim, yubkalari cho‘ntaklarida va shu kabilarda saqlash;

b) dars mashg‘ulotlari (sinf xonalari)da: dars vaqtida o‘rinsiz gaplashish, ovqatlanish, saqich chaynash; qog‘oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketish; mashg‘ulotlar yakunlangunga qadar ta’lim muassasasi hududidan o‘qituvchilar ruxsatisiz tashqariga chiqish; yozma ishlar va oraliq nazoratlarni bajarish vaqtida chetdan yordam so‘rash; boshqa o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o‘z nomidan topshirish; telefondan (smartfon, planshet va boshqa gadjet qurilmalar) foydalanish, uni parta ustiga qo‘yish.

Rag‘batlantirish va ta’sirchan choralar ko‘rish uchun yuksak ma’naviy axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, namunaviy xulqi va jamoat ishlaridagi faolligi uchun ta’lim muassasasida ijobiy sog‘lom muhitning qaror topishiga va yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan bolalar quyidagicha moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantiriladi:

mahalla raislari bilan birgalikda namunali ota-onalarga “minnatdorchilik xati”ni yuborish;

ta’lim muassasasi buyrug‘i bilan o‘qituvchilarga “Faxriy yorliq”, “tashakkurnoma” e’lon qilish, ularni tarmoq va davlat mukofotlariga tavsiya qilish;

esdalik sovg‘alar bilan taqdirlash;

muassasa radiouzel va ijtimoiy tarmoqlar orqali e’lon qilish;

“Eng faol o‘quvchi”, “Eng faol sinf” nominatsiyasi bilan taqdirlash;

o‘quvchilarning yashash manziliga, ularning ota-onasining ish joyiga yoki mahalla fuqarolar yig‘iniga tashakkurnoma yuborish;

Bolalar bilan pedagogik muloqotning funksiyalari, tuzilishi va uslublari

Muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni; sifatida sub’ektlarning o‘zaro ta’sirlashuvini anglatadi.

Muloqot – ta’lim oluvchining psixologik va ijtimoiy rivojining muhim omillaridan biri sifatida birgalikdagi faoliyat jarayonida umumiy natijalarga erishish, shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro muomala munosabati, harakati sifatida tasniflanadi. Muloqot ta’lim oluvchining asosiy ehtiyojlari bilan tig‘iz bog‘langan bo‘lib, pedagogik jihatdan uning uch muhim kategoriyasini ajratib ko‘rsatish mumkin: bilish, ishbilarmonlik va shaxsiy.

Psixologiyada muloqotni tahlil qilishda uning turli jihatlariga e’tibor qaratiladi: “kommunikatsiya” (axborot almashuv), “ijtimoiy persepsiya” (insonni idrok etishi va tushunishi), “interaksiya” (birgalikdagi harakat). Amaliy muloqot mazkur tarkibiy qismlarning yig‘indisi sifatida yuzaga chiqadi.

Pedagogik jarayonda muloqotning asosiy funksiyasi – axborot berish bo`lib, unda muloqotning barcha tarkibiy qismlaridan axborot almashuv va vazifalarni amalga oshirish, o‘zaro munosabatlarni tashkil etish, bola shaxsini bilish va unga ta’sir ko‘rsatishda foydalanish zarur.

Pedagogik muloqot deganda pedagog va o‘quvchilar jamoasi o‘rtasida o‘zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o‘quv-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish va o‘zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi.

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot – o‘qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni bilish va o‘rganish kaliti va o‘quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o‘quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta’lim-tarbiyada maqbul bo‘lgan emotsional muhitni ta’minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to‘siqlarning paydo bo‘lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga solib boshqarishni ta’minlaydigan va o‘quv tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchining o‘z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir.

Pedagogik faoliyatda muloqot o‘quvchilarga zamon talablari asosida ta’lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta’minlash tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funktsiyalar bilan xarakterlanadi: shaxsni o‘rganish (bilish), axborot almashish va faoliyatni tashkil etish.

Muloqotning axborot almashish funktsiyasi ma’naviy boylik va yangiliklar bilan o‘rtoqlashish jarayonini rivojlantirish uchun ijobiy ishtiyoqlar, hamkorlikda ishlash va fikrlash uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Rollar almashinishi yordamida muloqot o‘rnatish esa ularda u yoki bu ijtimoiy shakllanib qolgan xatti-harakatni dasturlaydi. O‘qituvchilar o‘quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar: darsning ayrim elementlarini bajarishga o‘quvchilarni taklif qiladilar. Bunda o‘quvchilar tomonidan o‘z shaxsi (men)ni, o‘z qadr-qimmatini, shaxsini munosib baholash va kelajagini tasavvur eta bilish uchun intilishlarini ta’minlash imkoniyati tug`iladi.

Muloqotning eng muhim funktsiyalaridan biri – hamdard bo‘lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunishi, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash qobiliyatini shakllantirishi jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me’yorga keltiradi. Bunda o‘quvchiga uning istaklarini tushunish va bular asosida o‘quvchiga ta’sir etish zarurligini anglash o‘qituvchi uchun juda muhimdir.

Pedagog faoliyatining didaktik va xususan tarbiyaviy vazifalarini o‘qituvchi bilan o‘quvchilar jamoasi o‘rtasidagi sermahsul muloqot jarayonini tashkil etmasdan turib, yetarli darajada unumli tarzda amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu tariqa pedagog faoliyatida muloqot:

birinchidan, xususan o‘quv vazifalarini hal etish vositasi sifatida;

ikkinchidan, tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy-psixologik jihatdan ta’minlovchi tizim sifatida;

uchinchidan, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatli olib borilishiga imkon beradigan o‘zaro munosabatlarning muayyan tizimini tashkil etish usuli sifatida;

to‘rtinchidan, busiz o‘quvchining individga xos xususiyatlarini tarbiyalab bo‘lmaydigan jarayon sifatida maydonga chiqadi.

Pedagogik muloqot pedagogik jarayon mantig‘iga mos keladigan dinamik tavsifga ega. Pedagogik muloqotning tuzilishida quyidagi bosqichlar alohida ajratib ko‘rsatiladi: 1. Modellashtirish (bashoratga doir) – pedagogik vazifalarga mos o‘zaro harakatning kommunikativ tuzilishini o‘ziga xos tarzda rejalashtirishni amalga oshirish. 2. Bevosita muloqotni tashkil etish (kommunikativ hujum) – pedagog tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oladi, guruhni tezlik bilan ishga jalb etish texnologiyasi 3. Muloqotni boshqarish – qo‘llaniladigan ta’sir ko‘rsatish metodlarining kommunikativligini ta’minlash (o‘quvchilarning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning tashabbus ko‘rsatishini tashkil etish, dialogik muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘z mo‘ljalini real sharoit bilan uyg‘un tarzda korrektsiyalash. 4. Amalga oshirilayotgan pedagogik muloqot texnologiyasining borishi va natijalarini tahlil etish. Mazkur bosqich ko‘pincha o‘zining mazmuniga ko‘ra muloqotda qayta aloqa bosqichi deb nomlanadi hamda kommunikativ vazifani hal etishning yakuniy bosqichiga mos keladi.

Pedagogik muloqotda uchraydigan kamchiliklar quyidagilarni kiritish mumkin**:** 1) ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshni ortiqcha majburlash; 2) passivlik, o‘zini yuqori qo‘yish; 3) haddan tashqari jonbozlik ko‘rsatish

Psixologiyada turli tipdagi boshqaruvchilarning ijtimoiy psixologik portreti ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ularning boshqaruvida bo‘lgan jamoa bilan muloqoti texnikasi tahlil qilingan. O‘qituvchi ham pedagogik jarayonda muloqotning eng keng tarqalgan uch turidan foydalanadi: avtoritar, demokratik va liberal.

Avtoritar uslub. Ta’lim oluvchilar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni, hattoki kim qayerda o‘tirishigacha o‘qituvchi yakka o‘zi hal qiladi, ta’lim oluvchilar tomonidan ko‘rsatiladigan barcha tashabbusni taqiqlaydi. Bu uslubni qo‘llovchi o‘qituvchining muloqot metodlari sifatida buyruq, ko‘rsatma berish va tanbeh xizmat qiladi.

Demokratik uslub. Bunda o‘qituvchi jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha ta’lim oluvchiga etkazishga harakat qiladi, faoliyatning

kechishini muhokama qilishga barchani jalb etadi; o‘z vazifasini faqat nazorat va munofiqlashtirish deb bilmay, tarbiya bilan ham shug‘ullanadi; barcha ta’lim oluvchilarni rag‘batlantiradi va ularda o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantiradi; jamoada o‘z-o‘zini boshqarish rivojlanadi. Bu uslubni qo‘llovchi o‘qituvchi barcha jamoa a’zolarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o‘rtasida vazifalarni teng bo‘lishga harakat qiladi; tashabbus va faollikni rag‘batlantiradi. Bunday o‘qituvchining muloqotda qo‘llaydigan metodlari – iltimos, maslahat, axborot berishdir.

Liberal uslub – boshqacha qilib aytganda, anarxik. O‘qituvchi jamoa hayotiga umuman aralashmaslikka harakat qiladi, faolligi sust, muammolarni yuzaki ko‘rib chiqadi, boshqalarning ta’siriga oson tushib qoladi. Ma’suliyatdan o‘zini olib qochadi va o‘z avtoritetini yo‘qotadi.

V.A.Kan-Kalik pedagogik muloqotni munosabatlar va o‘zaro ta’sir uslublari tashkil etishini ta’kidlab, ularni quyidagi tarzda turkumlaydi:

1) hamkorlikda olib boriladigan ijodiy ishga bo‘lgan qiziqishga asoslangan muloqot. Hamkorlikda olib boriladigan *ijodiy ishga bo‘lgan qiziqish asosidagi* muloqotda pedagog ta’lim oluvchilar va ishga nisbatan ijobiy yondashadi;

2) do‘stona munosabatlar asosida qurilgan muloqot. *Do‘stona munosabatlar asosida* qurilgan muloqot yuqorida ko‘rib chiqilgan muloqot turiga yaqindir. Ayrim pedagoglar do‘stona muloqotni noto‘g‘ri tushunib, chegaradan chiqib ketishadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ma’lum bir masofa bo‘lishi kerak. Ushbu masofani aniqlashda o‘qituvchining madaniyati, pedagogik takti muhim rol o‘ynaydi;

3) o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarni ma’lum masofada ushlab turuvchi muloqot. Ma’lum masofada ushlab turuvchi muloqotni ham samararali deb bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan bu keng tarqalgan uslubdir. Bunda pedagog va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida ma’lum chegara mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha ta’riflash mumkin: “Men bilaman – sizlar bilmaysizlar”; “Meni aytganimni qilinglar – mening yoshim kattaroq, tajribam ko‘proq, bizni tenglashtirib bo‘lmaydi”. Bu uslub ko‘proq avtoritarga yaqinroq bo‘lib, u tashqaridan qaraganda tartibli faoliyatni amalga oshirishga yordam berganday bo‘ladi, lekin yuqori samarani bermaydi;

4) qo‘rqitishga asoslangan muloqot. O‘qituvchi va ta’lim oluvchilarni ma’lum masofada ushlab turuvchi muloqotning yuqori darajadagi ko‘rinishi bu qo‘rqitishga asoslangan muloqotdir. U o‘zida ta’lim oluvchilarga salbiy munosabat va avtoritar boshqaruvni majassam etadi. Ushbu uslubni yorqin ifodasi sifatida quyidagi gaplarni keltirish mumkin: “Qunt bilan tinglanglar, bo‘lmasa ikki qo‘yaman”, “Hali kunlaringni ko‘rsataman”. Bunday uslub mashg‘ulot paytida salbiy muhitni yuzaga keltiradi.

Pedagogik nizo va uning sabablari

Nizo – istaklari, qiziqishlari, qadriyatlari yoki tushunchalari mos kelmasligi sababli yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq subyektlar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro aloqalar shakli (subyektlar individ/guruh/o‘z o‘zi bilan– ichki nizolar holatlarida bo‘ladi). “Nizo”va “nizoli vaziyat” tushunchalarini ajratishni bilish kerak, ular o‘rtasida katta farq bor.

Nizoli vaziyat – ijtimoiy subyektlar o‘rtasida haqiqiy qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi insonlar manfaatlarining mos kelmasligi. Asosiy belgisi – nizo predmeti yuzaga kelishi, lekin hozircha ochiq faol kurashning yo‘qligi. Ya’ni to‘qnashuv rivojlanishi jarayonida nizodan oldin har doim nizoli vaziyat yuzaga keladi, uning asosi hisoblanadi. *Nizolarni to‘rt turlari ko‘rsatiladi:*

*ichki shaxsiy,*shaxsning kuchi bo‘yicha tahminan teng motivlari, qiziqishlari, ishqibozligi, manfaatlarining kurashini aks ettiruvchi;

shaxslararo, o‘z hayotiy faoliyatida qarama-qarshi maqsadlarni amalga oshirishga intiluvchi shaxslarni ifoda etadi;

guruhlararo, biri-biriga mos kelmaydigan maqsadlarni ko‘zlagan va ularni amalga oshirish yo‘lida bir-biriga to‘sqinlik qiluvchi ijtimoiy guruhlar nizo tomonlari sifatida ishtirok etishlari bilan ajralib turadi;

shaxsiy-guruhli–shaxsning xulqi guruh qoidalari va umidlariga mos kelmasligi holatlarida yuzaga keladi.

Pedagogik jarayon o‘ziga xos murakkab ijtimoiy tuzilma bo‘lib, shaxslararo aloqalarning doimiy jarayonidan iboratdir. Albatta, bu jarayonda ikki subyekt

o‘rtasidagi munosabatlarni ijobiy shakl doirasidan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi.

Pedagogik konflikt – pedagogik jarayonda shaxslararo munosabatlarning keskinlashuvi natijasi sifatida yuzaga keluvchi muamoli vaziyatdir. Pedagogik konfliktlarning quyidagi shakllari yuzaga keladi:

1. O‘quvchi-o‘quvchi.
2. O‘quvchi-o‘qituvchi.
3. O‘qituvchi-o‘qituvchi.

Pedagogik jarayonning muhim ishtirokchisi o‘quvchi bo‘lib, ular orasidagi aksar konfliktlar kichik guruhlarda liderlikka intilish natijasida namoyon bo‘ladi. Bunda shaxslararo konflikt qoloq lider va guruhda e’tibor qozonayotgan ikkinchi lider o‘rtasida vujudga kelishi kuzatiladi. Konfliktli vaziyat guruhdagi ikki lider o‘rtasida vujudga kelib, ular konfliktga nafaqat o‘zlarini, balki tarafdorlarini ham tortishi mumkin. Bu esa konfliktik eskalyatsiyani, ya’ni uni miqyosini kengayishiga sabab bo‘ladi. Ayrim hollarda ikki lider o‘rtasidagi kofliktga tortilgan tarafdorlar hududiy manfaatlar doirasida yuzaga kelsa, shaxslararo konfliktning ko‘lami etnik yoki hududiy mojarolar darajasigacha ko‘tarilishi mumkin.

Pedagogik nizolarning oldini olish yo‘llari

Pedagogik nizolarni muvaffaqiyatli hal qilish odatda muammoni aniqlash, uni tahlil qilish, uni hal qilish bo‘yicha harakatlar va natijalarni baholash siklini o‘z ichiga oladi. Har qanday aniq bir vaziyatda nizolarni hal qilish bo‘yicha siyosatni ishlab chiqishga kirishishdan avval ularning manbalarini aniqlash zarur. Pedagog va ta’lim oluvchi pozitsiyalarining to‘g‘ri kelmasligi ko‘p konfliktlarga sabab bo‘ladi, shuning uchun konflikt vaziyatlarda qo‘llaniladigan sinalgan quyidagi qoidalarni bilish kerak:

Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o‘z qo‘liga olish. Bu emotsional taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoniy zo‘riqishdan, ortiqcha hatti-harakatlardan halos bo‘lish kerak. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta’sir ham ko‘rsatadi. Shunday qilib, tashqi vazminlik va xotirjamlik!

Ikkinchi qoida. O‘z xatti-harakatlari bilan sherigiga ta’sir ko‘rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o‘rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi.

Uchinchi qoida. Hamsuhbatning xatti-harakatlari motivlarini tushuna olish. Aqliy tahlilning ishga solinishi emotsional qizishni pasaytiradi. YAxshisi holatning murakkabligini tushunganligini ifoda etish (Men sizning holatingizni tushunib turibman...), o‘z holatini tushuntirish (Shu meni o‘ylantiryapti...) Ya’ni hatti-harakatni darrov baholamang, oldin tug‘ilgan vaziyatga bo‘lgan munosabatingizni bildirishga harakat qiling.

To‘rtinchi qoida. Maqsadni muvofiqlashtirish. Ta’lim oluvchi bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni ko‘rsatish.

Beshinchi qoida. Samarali yechim borligiga ishonishingizni namoyish qiling. Va nihoyat, konflikt hal qilinganidan so‘ng uni tahlil qilib chiqing (sababi va oldini olish yo‘llari).

Birinchi navbatda nima sodir bo‘lganligini aniqlash kerak. Muammo nimadan iborat? Ushbu bosqichda muammoni aniqlash bilan barcha rozi bo‘lishi uchun hodisalarni bayon etish muhim.

Nizo tahlil qilib chiqilganidan so‘ng hamkorlik ruhida birgalikda barchani murosaga keltirish yo‘lini izlashga o‘tish mumkin.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizoni hal qilishda nizoning sabablarini tahlil qilishdan tashqari yosh omilini hisobga olish kerak.

“O‘qituvchi-o‘quvchi” amaliy nizoli vaziyatlar bilan bir qatorda shaxsiy xususiyatdagi qarama-qarshiliklar ham uchrab turadi.

Nizoli vaziyatga tushib qolib o‘qituvchi o‘zining faolligini yoki suhbatdoshini yahshiroq tushunishga yoki nizoni bostirish yoki uni oldini olish maqsadida o‘z psixologik holatini boshqarishga qaratishi mumkin. Birinchi holatda nizoli vaziyatni hal qilishga insonlar orasidagi bir-birini tushunishlarini yo‘lga qo‘yish, anglashilmovchiliklarni, kelishmovchiliklarni yo‘qotish yo‘li bilan erishiladi. Umuman olganda, boshqa insonni tushunish ancha murakkab. Tajribali pedagoglar nimani gapirishni (dialogda mazmunini tanlash), qanday gapirishni (suhbatni

emotsional tusda olib borish), bolaga qaratilgan nutqda maqsadga erishish uchun qachon gapirishni (vaqti va o‘rni), kimning oldida va nima uchun gapirishni (natijaga ishonch) biladi.

Pedagog va o‘quvchi o‘rtasida haqiqatda yuzaga kelgan nizoni uch darajalarda tahlil qilish mumkin:

Ta’lim muassasasida o‘quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil qilish obyektiv husussiyatlari nuqtai nazaridan;

guruh, pedagogik jamoa, o‘qituvchi va o‘quvchining aniq shaxslararo munosabatlari ijtimoiy-psixologik xususiyatlari nuqtai nazaridan;

nizo ishtirokchilari yoshi, jinsi, individual-psixologik xususiyatlari nuqtai nazaridan.

Agar butun ta’lim jarayonini tashkil qilish va sharoitlarida, jamoali qoidalar va tartiblar tizimida, ushbu jarayonning bir-birlariga nisbatan ijobiy munosabatlari, bo‘lajak nizolarda konstruktiv xulqlariga tayyorliklarida haqiqiy obyektiv va subyektiv o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlansa, nizo samarali hal qilingan hisoblanishi mumkin.


Jamoa tushunchasi. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari

Jamoa (lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta’minlaydi. Lekin har

qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

O‘quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi (3.8-rasmga qarang):



3.8-rasm. «Jamoa» tushunchasi tavsifi

Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi. Jamoaning maqsadi albatta ijtimoiy maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, Davlat konstitusisi va qonunlariga, jamiyat mafkurasiga qarama-qarshi bo‘lmasligi zarur.

Umumiy birgalikdagi faoliyat. Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a’zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishi zarur, faoliyat Umumiy tashkil eitilishi kerak. Jamoa a’zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

Majburiy mas’uliyatli munosabatning yo‘lga qo‘yilishi. Jamoa a’zolar orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g‘am-qayg‘ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

Saylangan umumiy rahbariy organga egalik. Jamoada demokratik munosabatlar o‘rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro‘li a’zolarini to‘g‘ridan-

to‘g‘ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi. Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o‘ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o‘ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a’zolari orasidagi munosabatlarda ko‘rinadi. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo‘g‘in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o‘qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o‘ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. O‘quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko‘zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo‘yilgan organiga ega bo‘lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a’zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhidir.

O‘quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O‘quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish to‘rt bosqichda amalga oshiriladi [12].

Jamoa shakllanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o‘qituvchilar tomonidan qo‘yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang‘ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo‘lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan talablarning qo‘yilishiga e’tiborsiz qaraydilar. Jamoa a’zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O‘quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a’zolarida mas’uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo‘lishi, shuningdek, o‘quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo‘lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasdagi tajribaga ega emasliklari

bois so‘z yuritilayotgan bosqichda o‘qituvchining asosiy maqsadi jamoa a’zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo‘ladi. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo‘lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a’zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o‘qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Faollar o‘qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o‘qituvchi talabini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo‘yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda o‘qituvchi jamoada paydo bo‘lgan va u bilan bog‘liq muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya’ni, jamoa o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tadi. O‘quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o‘tkazishga tiyyorgarlik, uni o‘tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko‘rsatuvchi omillar sanaladi. Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to‘xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko‘rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to‘xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a’zolari bilan qarama- qarshi qo‘yish xavfli tug‘ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a’zolarining alohida faollik ko‘rsatishga erishishlari zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Jamoa faliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. Bu davrda butun jamoa «ayrim o‘zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo‘ya boshlaydi. Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a’zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O‘qituvchi mazkur yo‘nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va

uning a’zolari xatti- harakati jamoa bo‘lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma’ruzalar uyushtiriladi, o‘quvchilar o‘rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g‘oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ‘iboti tashkil etiladi. O‘qituvchi jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a’zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo‘shish imkonini beradigan o‘zaro munosabatlarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoa rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a’zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o‘z-o‘zlariga talablar qo‘ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a’zolarining o‘ziga nisbatan muayyan talab qo‘yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo‘yilgan har bir talab o‘ziga xos yo‘nalishi (masalan o‘yindan umuminsoniyat baxti yo‘lida kurashishiga intilish o‘rtasidagi farq) bilan ajralib turadi. To‘rtinchi bosqich jamoa a’zolarining o‘ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo‘ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a’zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o‘ rnini pasaytirmaydi. To‘rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas’uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo‘yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

O‘quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlari. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi shart- sharoitlarni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an’analarni qaror toptirish. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an’analarni qaror toptirish. Jamoani shakllantirishda jamoa a’zolari va ularning faoliyatlariga qo‘yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o‘quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq- atvor qoidalarni o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchilar tomonidan qo‘yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

qo‘yilayotgan talablar o‘quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg‘usi bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak;

talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo‘yilishi lozim;

jamoaga nisbatan qo‘yilayotgan talablar aniq bo‘lishi lozim;

o‘quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar, ularda ma’ naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Talablarning qo‘yilishi jarayonida ularga o‘quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o‘rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo‘yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo‘lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o‘quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda sinf faolini tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Har bir o‘qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o‘quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur. Jamoa faolini shakllantirishda o‘quvchilarning jamoadagi obro‘sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o‘zlari, albatta, o‘qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a’zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma’lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish

maqsadga muvofiq. O‘qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo‘yadi. O‘quvchilar jamoasida faol rahbarligida o‘z-o‘zini boshqarish jamoa a’zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois o‘qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O‘quvchilar jamoasini shakllantirishda an’analar muhim o‘rin tutadi. Jamoa an’analari jamoa a’zolari tomonidan birdek qo‘llab- quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo‘lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi. Jamoa an’analari shartli ravishda ikkiga bo‘linadi: kundalik faoliyat an’analari; bayram an’analari. Kundalik faoliyat an’analari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati (o‘zaro yordam turlari), va mehnat faoliyati (ko‘chatlar o‘tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi. Bayram an’analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog‘liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro‘z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

Xulosa qilib aytganda mazkur mavzuda ta`lim muassasalarida bolalar faoliyati turlari, ularni tashkil etishga qo`yiladigan umumiy taladlar, bolalar bilan pedagogik muloqoning funktsiyalari, tuzilishi, uslublari, ta`lim muassasalarida pedagogik nizo va uning sabablari hamda oldini olish yollari, jamoa tushunchasi, o‘quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari o`rganilgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:


1. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlriga tavsif yozing.
2. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.
3. Faoliyatni rag‘batlash va motivatsiyalash metodlarini qo‘shimcha manbalardan o‘qib to‘ldiring.
4. “Jamoa” va “o‘quvchilar jamoasi” tushunchalariga izoh bering.
5. O‘quvchilar jamoasining o‘ziga xosliklarini sanab bering.
6. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlarini izohlang.
7. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalariga doir ma’ lumotlarni topib

o‘qing.

8. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlriga tavsif yozing.

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:


1. Ta`lim muassasalarida bolalar faoliyati turlari va ularni tashkil etishga qo`yiladigan umumiy taladlarni quyidagi sxemada aks ettiring:



2. Ta`lim muassasalarida pedagogik nizo va uning sabablari hamda oldini olish yollarini kundalik kuzatuvlaringiz asosida qiyidagi jadvalga mos tahlil qiling:

Pedagogik nizolarning sabablari	**Oldini olish yo`llari**
1. 2. 3. 4. 5. 6.	1. 2. 3. 4. 5. 6.

3. Ta’lim muassasasida o`quvchilar jamoasini “Idrok xaritasi” metodi asosida tahlil qiling.



4-MODUL. ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

§ 4.1. ZAMONAVIY TA’LIMDAGI ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Reja:

1. Modulli-kredit tizimi.
2. Masofaviy ta’lim.
3. Blended learning.
4. Mahorat darslari.
5. Assesment texnologiyasi.
6. Vebinar texnologiyalar.

Tayanch so`z va iboralar: modulli-kredit tizimi, masofaviy ta’lim, blended learning, mahorat darslari, assesment texnologiyasi, vebinar texnologiyalar.

Modulli-kredit tizimi

Modulli-kredit tizimi zamonaviy ta’limning eng takomillashgan shakli sanaladi. Bugungi kunda taraqqiyparvar insoniyat davlatlar o‘rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy sohalarda o‘zaro kelishuvga erishish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning yangidan yangi yo‘llarini izlashda davom etmoqda. Binobarin, yuqorida aytib o‘tilganidek, insoniyatning omon qolishi va rivojlanishda davom etishining yagona chorasi irqiy, etnik, diniy ziddiyatlarga barham berish va o‘zaro birlik, hamkorlik, hamjihatlikka erishishdir.

Modul - mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo‘lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat бўлган бирликдир

Zamonaviy Yevropada yagona kasbiy ta’lim makonini yaratilishi uchun ilk qadamlar 1949 yilda qo‘yildi. Xuddi shu yili asosiy maqsadi Yevropada ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar kechishi va birligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan birinchi xalqaro tashkilot – Yevropa Kengashi tashkil etildi.

Bolonya jarayoni yagona Yevropa oliy ta’limi makonini yaratish maqsadida Yevropa mamlakatlari oliy ta’lim tizimining bir-biriga yaqinlashishi va o‘zaro uyg‘unlashuvi jarayonidir. Ushbu jarayonning rasman boshlanish muddati 1999 yilning 19 iyuni deb e’tirof etilgan. Binobarin, xuddi mana shu sanada 29 mamlakat vakillari ishtirokida Bolonya deklaratsiyasi imzolangan edi.

Modul dastur - bir fan doirasidagi modul bloklarining yig‘indisi bo‘lib, erishish lozim bo‘lgan didaktik maqsad, qo‘llaniladigan usullar va vositalar yig‘indisidir

.

O‘quv moduli – nisbatan mustaqil, mantiqiy yakunga ega bo‘lgan o‘quv kursining bo‘lagidir. U o‘quv metodik ta’minotdan nazariy va amaliy qismlardan, topshiriq va joriy hamda yakuniy nazorat kabi qismlardan iborat

Bolonyaning maqsadi ijtimoiy subyektlar tomonidan oliy ma’lumot olish imkonini kengaytirish, Yevropa oliy ta’limining sifati va samara-dorligini istiqbolli oshirish, tala-balar hamda o‘qituvchilarning hara-katchanligi, faolligini rivojlantirish, shuningdek, akademik daraja va boshqa kasbiy malakalarning meh-nat bozoriga yo‘naltirgan holda bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash

Ayni vaqtda mazkur tizim o‘ziga 1954 yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan Yevropa madaniyati Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan (oliy davlat hokimiyati organi tasdiqlagan) 49 mamlakatdan 47 ishtirokchi mamlakatlarni qamrab olgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab barcha sohalarda bo‘lgani kabi oliy ta’lim tizimida ham xalqaro hamkorlikka erishish, oliy ma’lumotli, malakali kadrlarni tayyorlashga yagona yondashuvni qaror toptirish yo‘lida amaliy harakatlar olib borilmoqda. 1954 yilning 19 dekabrida qabul qilingan Yevropa kengashining Yevropa madaniyati konvensiyasi ham dastlab mazkur mintaqa davlatlari miqyosida oliy ma’lumotli, malakali kadrlarni tayyorlashga nisbatan yagona yondashuvning qaror topishi uchun zamin tayyorlagan edi. Hozirda esa u jahonning ko‘plab mamlakatlari universitet (institut, akademiya)lari faoliyatining o‘qitish tizimida yagona malakaviy talablar asosida tashkil etilishida muhim hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur Konvensiya g‘oyalari Yevropa hududida shaxs tafakkurini shakllantirishda ko‘p tillikka asoslanish uchun zarur shart-sharoitlarni hosil qilishdan iborat edi. Konvensiyani imzolovchi tomonlar o‘z hududlarida fuqarolar tomonidan Yevropa hududida mavjud bo‘lgan tillar, turli millatlarning tarixi va rivojlanish taraqqiyotini o‘rganish hamda o‘z hududida boshqalarga o‘z tili yoki boshqa tillarni o‘rgatish imkoniyatini yaratib berishlari zarur edi [86].

Mazkur tizimni qabul qilgan mamlakatlar oliy kasbiy ta’limni zamonaviylashtirish, oliy o‘quv yurtlarining Yevropa komissiyasi tomonidan moliyalashtiriladigan turli loyihalarda teng huquqlilik, hamkorlik asosida qatnashish, talabalar va o‘qituvchilarni o‘zaro akademik almashtirish uchun yangi imkoniyatlarga ega bo‘lmoqdalar.

Modulli o‘qitish – o‘quv jarayonini o‘quv axborotlarini modul shaklida taqdim etilishi asosida tashkil etilish yo‘li. Modulli o‘qitish mazmuni didaktik maqsadda, kasbiy va ta’lim oluvchilarning darajasiga mo‘ljallangan avtonom tashkiliy-metodik modullar mazmuni va hajmi asosida ishlab chiqiladi. Modullar konkret o‘quv materialini o‘rganishga (yoki mustaqil o‘rganish) yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim [86]

Modulli texnologiyalar - eng zamonaviy texnologiya bo‘lib, modul bloklaridan tashkil topgan axborotni tizimli ravishda qayta ishlash va tahlil qilishga, talabaning mustaqil faoliyatiga asoslangan, bilim, ko‘nikma va malakalar diagnostikasida turli shakllaridan foydalangan holda tashkil etiluvchi yaxlit jarayon

Tizimning umumiy asoslari Bolonya shahrida imzolangan deklaratsiyada o‘z ifodasini topgan. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Diplom ilovasiga ko‘ra fuqarolarni ishga samarali joylashtirish, Yevropa oliy ta’lim tizimining xalqaro raqobatga bardoshliligini oshirish imkoniyatini yaratadigan o‘zaro muvofiq keluvchi akademik darajalar tizimni qabul qilish.

2. Ikki siklli: tayyorgarlik va bitiruv ta’limiga o‘tish. Ta’limning birinchi sikli uch yil davom etadi. Ikkinchi sikl esa magistrlik va doktorlik darajalarini olish uchun yo‘naltiriladi.

3. Keng ko‘lamda talabalar almashinuvini qo‘llab-quvvatlash uchun mashaqqatli sinov birliklarini qayta topshirishning Yevropa tizimiga o‘tish. Mazkur tizim talabalarning o‘rganiladigan fanlarni tanlash huquqiga ega bo‘lishlari uchun imkoniyat yaratadi. Buning uchun asos sifatida “Umr bo‘yi ta’lim olish” konsepsiyasi doirasida qo‘llash imkonini beradigan tizim - ESBT (Yevropa sinov birliklari tizimi)ni qabul qilish taklif etiladi.

4. O‘qituvchilar almashinuvini rivojlantirish. Yevropa hududida ishga sarflanadigan vaqt davrini inobatga olgan holda o‘qituvchilar va b. xodimlar almashuvini kengashtirish. Transmilliy ta’lim standartlarini o‘rnatish.

5. O‘zaro mos mezon va metodologiyalarni ishlab chiqish hamda sifatini ta’minlashda Yevropa hamkorligini qaror topshirishga ko‘maklashish.

6. Oliy ta’lim muassasasining ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini ishlab chiqish va oliy o‘quv yurtlari talabalari va xodimlari faoliyatini tashqi baholashga tortish.

7. Oliy ta’limda, ayniqsa, o‘quv rejalarini takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalariaro hamkorlik, talaba va o‘qituvchilar almashinuvi va birgalikdagi ta’lim dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishga oid amaliy tayyorgarlik va ularni olib borish borasida zarur yevropacha nuqtai nazarlarning shakllanishiga ko‘maklashish.

Deklaratsiyaga a’zo bo‘lish uchun quyidagi dastlabki talablar qo‘yiladi:

oliy o‘quv yurtigacha 12 yillik ta’lim;

ikki bosqichli oliy ta’lim-bakalavriat va magistratura;

o‘quv jarayoni va o‘qitish natijalarini baholash ESTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi.

Bolonya deklaratsiyasiga a’zo davlatlarda ta’lim modul-kredit tizimiga asoslanadi. 1989 yilda Yevropada Yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) va TEMPUS kabi dasturlar joriy etildi. 2001 yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta’lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolandi. Bugungi kunda ERASMUS dasturi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati universitetetlari o‘rtasidagi talabalar almashinuvi 145 ta oliy o‘quv yurtlarini qamrab olgan. Ular o‘rtasida Yevropa universitetlari ta’limi natijalarini o‘zaro tan olish tizimi – ESTS (European Credit Transfer System) shakllantirilgan.

Kredit” atamasi (ESTS-credit) – “sinovdan

Kredit birliklarining soni talabalar tomonidan sarflanadigan mehnat sarfiga mos holda belgilanadi. Talabaning mehnat sarfi – auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ishlar va o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan boshqa faoliyatlarini o‘z ichiga oladi

O‘quv fani (moduli)ni o‘rganish uchun talaba tomonidan sarflangan umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya va mustaqil ish soatlari) bir o‘quv yilida 750-800 soatni tashkil etishi lozim. Ayni o‘rinda aytib o‘tish zarurki, kreditlar auditoriya soatlari bilan chegaralanib qolmay, balki talabaning auditoriyadan tashqari sharoitda ham o‘quv fani (moduli)ni o‘zlashtirish uchun sarflaydigan yuklamani ham inobatga olgan holda belgilanadi. Odatda o‘quv rejasiga kiritilgan fanlar bo‘yicha ajratiladigan kreditlar soni 3 ga teng. Ba’zan o‘quv fani uchun ajratilgan kredit soni 3 tadan ko‘p yoki kam bo‘lishi mumkin. Kreditlar barcha (majburiy va ixtiyoriy) tanlangan o‘quv fanlari bo‘yicha taqsimlanadi. Kreditlarning taqsimlanishida fan bo‘yicha kurs

loyihalari va amaliy ishlarining mavjudligi inoatga olinadi. O‘quv fani uchun ajratiladigan kreditlar miqdori fanning murakkabligi hamda talabalar tomonidan uning o‘zlashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi. ESTSda kreditlar yig‘indisi semestrda – 30 tani, o‘quv yili davomida – 60 tani, bakalavriat davrida esa – 240 ni tashkil etadi.

“Modul-kredit tizimi – har bir o‘quv fani (moduli)ning talabalar tomonidan ma’lum miqdordagi kredit birliklari asosida o‘zlashtirilishini ta’minlovchi tizim

ESTS kredit texnologiyasiga o‘tishdan ko‘zlangan maqsad talabalarga xorijda o‘qishni davom ettirish uchun oliy yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish; muayyan davlatdagi mavjud ta’lim olish muddatining xorijiy davlatlarda tan olinishini ta’minlash; Yevropa oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejalarini o‘rganish va shu asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish; talabalar qobiliyatini to‘la rivojlantirish va o‘qitishning yuqori natijalariga erishish. Modul-kredit tizimi ham muayyan tamoyillarga tayanadi. Ular:

1. Transferancy – ESTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to‘siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targ‘iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi

2. Agreement – talaba bilan ikkala oliy ta’lim muassasasining YESTS koordinatorlari orasida tayyorlash mazmuni, o‘quv tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o‘quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o‘zaro kelishuvlarini anglatadi

3. Sredits – Host (talaba qabul qiladigan) universitetida muvaffaqiyatli o‘tilgan barcha fanlar Post (talabani boshqa OTMga yuborgan) universitetda hisobga olinishi zarur

4. Ta’limning insonparvarlashuvi – shaxsning turli ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi va ta’lim jarayonida inson qobiyatining ochilishini anglatadi. ESTS ta’limni davom ettirish uchun oliy ta’lim muassasasini, o‘quv fanlarini va o‘qituvchilarni tanlish imkoniyatini beradi

5. Ta’limning individuallashtiruvi har bir talabaning individual reja va ta’lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70 % ni, majburiy fanlar esa 30 % dan oshmaydi. Talabaning mustaqil ish hajmi 70 % ni, auditoriyadagi ishi esa 30 % ni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar individual ta’limni tashkil qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi

6. Ta’limning samaradorligi guruhda individual o‘qitishli auditoriya mashg‘ulotlari va talabaning mustavqil ishlarini uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi. Auditoriya o‘quv vaqtining 70% gacha qismini individual o‘qitishga, shuningdek umumiy o‘quv vaqtining 70%gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o‘quv fanlarining talabalar tomonidan o‘z qobiliyatlari darajasida o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Bu asosida ta’limning samaradorligi ta’minlanadi

Axborot targ‘iboti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) almashish sxemasiga kiritilgan talabalarning o‘qish natijalari haqida bir-biriga o‘z vaqtida axborot yetkazib turish;

2) oliy o‘quv yurtlarining o‘z axbrot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta’lim xizmatlari doirasida bir-birini imkoniyatlarini o‘rganish;

3) oliy o‘quv yurtlarida, ESTS haqida to‘la ma’lumotlarning mavjudligi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyasi, OTMning jihozlanganligi, professor-o‘qituvchilar tarkibi faqat darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo‘lishi, o‘qitishning yuqori sifatlari – ESTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O‘quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘quv rejasi bo‘yicha barcha o‘quv fanlari ikki guruhga bo‘linadi:

1) majburiy fanlar;

2) talaba tomonidan ixtiyoriy tanlanadigan fanlar.

Ular taxminan 1:2 nisbatda bo‘ladi. Har bir talaba shaxsiy o‘quv rejasiga ega bo‘lishi zarur. Qolaversa, talaba har bir o‘quv fani bo‘yicha o‘qituvchini tanlash huquqiga ega. Modul-kredit tizimi uchun har bir semestrda o‘rganiladigan fanlarning soni kamida 3 ta, ko‘pi bilan 7 ta bo‘lishi, mustaqil ishga ajratilgan soatlarning auditoriya soatlaridan ko‘pligi o‘ziga xos jihatlar sanaladi.

Asosiy hujjat transkript (transcript of ruords) – unifikatsiyalashgan hujjat bo‘lib, yagona shaklga ega

Transkript ta’lim natijalarining tan olinishi uchun majburiy hujjat sanaladi. Unda talaba o‘qiyotgan davlatda qabul qilingan baholash tizimi hamda o‘z mamlakatida olgan baholari to‘g‘risidagi ma’lumot beriladi. O‘quv fanlari bo‘yicha dasturlar “sillabus” deb nomlanib, ular quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo‘ladi:

o‘quv fanining to‘liq nomi va uning o‘quv rejasidagi tartib raqami;

o‘quv fanini o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad;

o‘quv fanining qisqacha mazmuni; - mashg‘ulotlar jadvaliilovasiga asoslangan taqvimiy reja;

o‘qitish texnologiyasi;

talabaning mas’uliyati va unga qo‘yilgan talablar;

talabalar bilimini baholash tartibi va mezonlari;

asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati.

Modul-kredit tizimiga ko‘ra o‘quv mashg‘ulotlari shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari va talabaning mustaqil o‘qib-o‘rganishiga asoslanadi. Ta’limning birinchi bosqichida har bir talabaga axborot paketi beriladi. Unda ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ular talabalarga modul- kredit tizimi bo‘yicha muvaffaqiyatli ta’lim olish shartlaridan xabardor bo‘lish imkoniyatini yaratadi:

oliy ta’lim muasasasi haqida ma’lumot;

o‘quv rejasi;

o‘quv jarayonining grafigi;

o‘quv fanlarining mazmuni;

OTMda mavjud bo‘lgan o‘qitish tizimining - metodik xususiyatlari haqida ma’lumotlar;

talabalar bilimini baholash tizimi va baholar shkalasi haqida ma’lumotlar;

ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarga oid ma’lumotlar;

OTM faoliyatining tarixiy taraqqiyoti va uning zamonaviy rivojiga oid ma’lumotlar;

qo‘shimcha ta’lim xizmatlari to‘g‘risida ma’lumotlar.

O‘quv kreditlarini hisoblashda haftalik auditoriya o‘quv yuklamasi 36, talabalarning haftalik mehnat sarfi o‘rtacha 54 soat miqdorida qabul qilingan. Modul-kredit tizimi bo‘yicha tashkil etiladigan ta’lim uchun ham ta’lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv rejasi ta’lim jarayoni uchun asosi bo‘lib xizmat qiladi. Aynan o‘quv rejasiga muvofiq o‘quv faoliyatining turlari bo‘yicha talabalar tomonian sarflanadigan mehnat sarflari aniqlanadi. O‘quv faoliyati turlari bo‘yicha mehnat sarflarini hisoblash taxminan shunday kechadi (4.1-jadval):

4.1-jadval.

O‘quv faoliyati turlari bo‘yicha kreditlar taqsimoti (namuna)

№	DTS asosida o‘quv faoliyatining nomi	Haftalar soni	Auditoriya soatlari	Umumiy o‘quv yuklamasi	Kredit
1.	Nazariy va amaliy ta’lim	136	[136·36]	136·54=7344	7344·0,029=213
2.	Pedagogik amaliyot	8	288	432	13
3.	Bitiruv ishi	5	5·36=180	5·54=270	8
4.	Attestatsiya	19	-		6
5.	Ta’til	32	-		
	Jami	**204**	**5508**	**8262**	**240**

Kreditlarni hisoblash va ularni o‘quv faoliyatlari turlari, bloklar - alohida fanlar bo‘yicha taqsimlashda o‘tish koeffitsiyenti (Ko‘t)ni aniqlash talab etiladi: $K_{o‘t}$= 240:8262-0,029. Bu yerda: 240 – bakalavriatning ESTS bo‘yicha umumiy mehnat sarflari yig‘indisi, soat. Jami kreditlar soni talabalarning mehnat sarfiga ko‘ra o‘tish koeffitsiyenti (0,029)ga ko‘paytiriladi. O‘quv faoliyatining turlari, bloklar va alohida o‘quv bo‘yicha kreditlarni hisoblash quyidagi namuna bo‘yicha amalga oshiriladi (4.2-jadvalga qarang):

4.2-jadval.

Fanlar bloklari bo‘yicha kreditlar taqsimoti

№	Fanlar bloklarining nomlanishi	Auditoriya soatlari	Umumiy o‘quv yuklamasi	Kredit
1.	Umumgumanitar va ijtimoiy fanlar	1214 (≈25 %)	1726	50
2.	Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar	846 (25 %)	1292	37
3.	Umumkasb fanlari	2034(50 %)	3682	89
4.	Ixtisoslik fanlar	468 (≈10 %)	794	23
5.	Qo‘shimcha fanlar	334 (≈5 %)	450	14
6.	Malakaviy amaliyot	432	648	19

		6	9	
7.	Bitiruv ishi	180	270	8
	Jami	**5508**	**8262**	**240**

O‘quv jarayoni modul-kredit tizimi asosida tashkil etilganida, odatda 4 balli yoki 100 foizli baho shkalasi qo‘llaniladi (4.3-jadvalga qarang):

4.3-jadval.

Modul-kredit tizimi asosida baholash shkalasi

4 balli baho shkalasi	100 foizli baho shkalasi
A-4 b	mashg‘ulotlarda qatnashishi – 5%
B-3,5 b	joriy nazorat (test) – 30 % (odatda 10 % dan 3 marta)
C-3 b	mustaqil ta’lim – 15 % (o‘rtacha 5 % dan 3 marta)
D -2,5	laboratoriya ishi – 10 %
E-2 b	kurs loyihasi (ishi) – 10 %
F-1,5 b	yakuniy imtihon – 30 %
F-1 b	

Yevropa mamlakatlarida modul-kredit tizimi bo‘yicha faoliyat yuritayotgan universitetlarda baholash mezonlari va darajalari quyidagicha (4.4-jadvalga qarang):

4.4-jadval.

Baholash mezonlari va darajalari

Baholar ta’rifi	Shartli belgisi	O‘zlashtirish %	Baholash mezoni	Tayyorgarlik darajasi
A’lo	A	90-100 (baholash)	Bilimlarni umumlashtira oladi, ma’lumotlarni baholaydi, tahlil qiladi, tushunadi, biladi	4-daraja (ijodiy daraja)
Juda yaxshi	B	80-90 (sintez va tahlil)	Bilimlarni sintezlaydi, tahlil qiladi, qo‘llaydi, tushunadi, biladi	3-daraja (ko‘nikma va malakalarga egalikni to‘la namoyish etish darajasi)
Yaxshi	C	70-80 qo‘llash	Bilimlarni qo‘llaydi, tushunadi, biladi	3-daraja (ko‘nikma va malakalarga egalik darajasi)
Qoniqarli	D	tushunish	Bilimlarni tushunadi, biladi	2-daraja (bilimlarni qayta tiklash darajasi)
Yetarli	E	50-60 bilish	Bilimlardan xabardor	1-daraja (tasavvur etish darajasi)
Yetarli emas, qo‘shimcha yana ishlash talab qilinadi	F	40-50	Bilimlardan yomon xabardor	0-daraja (yomon tasavvur etish darajasi)

Yetarli emas, qo‘shimcha yana juda ham qo‘p ishlash talab qilinadi	F	40 kam	Bilimlardan mutlaqo xabardor emas	0-daraja (mutlaqo tasavvur eta olmaslik darajasi)

O‘quv fani (moduli) materialining 90-100 % o‘zlashtirilishi uchun “a’lo” baho qo‘yiladi. Bu kasbiy tayyorgarlikni 4-darajasiga teng bo‘lib, “ijod darajasi” deb belgilanadi. Agarda o‘quv fani (moduli) dasturi bo‘yicha materiallar kamida 50 % o‘zlashtirilsa, u holda “yetarli” bahosi qo‘yiladi va u o‘zlashtirishning “tasavvur etish darajasi” deb belgilanadi. O‘quv fani materiallarining 40 % dan kam o‘zlashtirishi, tayyorgarlikning 0-darajasi (“mutlaqo tasavvur eta olmaslik darajasi”)ga teng hisoblanadi. Har bir kurs yakunlangandan so‘ng talaba kreditni yakunlaganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabr 824-son Qarorida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab respublika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etish hamda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizom oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibini belgilaydi. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi oliy ta’lim muassasalari, oliy harbiy ta’lim muassasalariga, O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z faoliyatini yuritayotgan, nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi [9]. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

GPA (Grade Point Average) – ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA=\frac{K_1*U_1+K_2*U_2+K_3*U_3\ldots+K_n*U_n}{}$$, bunda:

$$K_1+K_2+K_3\ldots+K_n$$

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho;

akademik mobillik – oliy ta’lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta’lim muassasasiga o‘qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi – ikki yoki undan ortiq oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida o‘zaro ta’lim to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

kredit – ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

oliy ta’lim muassasasi – belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta’lim va malaka to‘g‘risidagi hujjat beruvchi muassasa;

kreditlarni berish – malaka yoki uning alohida qismlariga qo‘yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba yoki boshqa ta’lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko‘chirish – talabalarning akademik mobilligini ta’minlash maqsadida bir oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturi bo‘yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta’lim muassasasiga ko‘chirish va tan olish;

kredit to‘plash – ta’lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to‘plash;

talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to‘plash va xohlagan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan yo‘nalish (marshrut). Ta’lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo‘riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta’lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta’lim dasturi – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv jarayonini amalga oshirishga mo‘ljallangan ta’limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-

sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta’limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot-resurs va o‘quv-metodik ko‘rsatmalar majmui;

ta’lim dasturi katalogi – oliy ta’lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o‘quv fanlari dasturlari, aniq ta’lim dasturlari elementlari tavsifi to‘g‘risidagi axborot;

ta’lim natijalari – talaba tomonidan o‘zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o‘zlashtirgan ko‘nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

o‘qish yuklamasi – talaba tomonidan o‘quv faoliyatining barcha turlari – ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o‘quv natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan soatlar hajmi;

ro‘yxatga olish xizmati – ta’lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalar bo‘yicha ta’lim jarayoniga oid ma’lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o‘quv natijalarini ro‘yxatga olish, bilimini nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

ta’lim elementlari – ta’lim dasturining bir qismi bo‘lib, ta’lim olish natijalariga erishish va ta’lim dasturida ko‘rsatilgan bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi o‘qitish turi;

transkript – ta’lim olishning tegishli davrida o‘zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko‘rsatib o‘tilgan fanlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

Ta’lim dasturi tuzilmasi. O‘quv yili uchun ta’lim dasturi tuzilmasi bir yoki bir nechta modullardan iborat ta’lim elementlaridan tashkil topgan bo‘lib, oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta’lim dasturi auditoriya mashg‘ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta’lim

elementlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Ta’lim dasturi tuzilmasi uning har bir ta’lim elementiga mos keladigan ta’lim olish natijalari (kamida 6 ta ko‘rsatkich)ni ko‘rsatgan holda bir akademik o‘quv yiliga 60 kredit mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta’lim dasturida kreditlarning miqdori o‘quv yuklamasi asosida ko‘rsatiladi.

Talabalarning ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo‘lishi uchun talablar aniq belgilanadi. O‘zlashtirish qoidalari tanlangan ta’lim dasturi bo‘yicha o‘qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida yoki kreditlar oralig‘ida ifodalanishi mumkin. Ta’lim dasturining talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun oliy ta’lim muassasasining tegishli bo‘linmalari va xodimlari, shu jumladan, ta’limning kredit tizimini boshqarishga mas’ul boshqarma yoki bo‘limi, guruh murabbiyi tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida talabalarga ta’lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribani tan olish imkoniyatlari tushuntiriladi.

Oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturi katalogi va o‘qitish sharoitlari to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlar hamda dolzarb axborotni oliy ta’lim muassasasi veb-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda o‘quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin joylashtirishi va e’lon qilib borishi shart. Ta’lim dasturi va uning elementlarini amalga oshirishga mas’ul o‘qituvchilar ta’lim dasturida ko‘rsatilgan o‘qitish natijalari bilan dars berish va baholash jarayoni o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashlari lozim. O‘qitish natijalari, dars berish va baholash jarayoni o‘rtasidagi ushbu konstruktiv bog‘liqlik ta’lim dasturlariga qo‘yiladigan muhim talab hisoblanadi.

Ta’lim elementlarining amalga oshirilishiga mas’ul professor-o‘qituvchilar ta’lim dasturida ko‘rsatilgan natijalar bilan ta’lim berish hamda baholash jarayonlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashi lozim.

O‘quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlash. O‘quv jarayoni o‘quv va nazorat tadbirlari majmuini o‘z ichiga oladi. O‘quv tadbirlarida barcha turdagi auditoriya mashg‘ulotlari, amaliyot va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi. Nazorat tadbirlari ta’lim oluvchilarning o‘quv rejasidagi tegishli fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi.

O‘quv jarayoni talabalar, ish beruvchilar, o‘qituvchilar va ma’muriyat o‘rtasida ochiq muloqot shaklida talabaga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim standartlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda ish beruvchilar va talabalarning talab va istaklari muhokama qilinadi. Barcha manfaatdor tomonlar ta’lim dasturining yaratilishi va o‘zlashtirilishi bo‘yicha o‘tkaziladigan muhokamaga jalb etilishi mumkin. Bunday bahslarda talabalar vakillari ovoz berish huquqi orqali ishtirok etishlari mumkin.

O‘quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

namunaviy o‘quv rejasi va fanlar katalogini ilg‘or xorijiy ta’lim tajribasi asosida respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar iste’molchilari talablari va milliy qadriyatlarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqish hamda qo‘shimcha ravishda tanlov fanlar katalogini shakllantirish, mahalliy va xorijiy yangi avlod adabiyotlariga tayangan holda fanlar katalogi bo‘yicha namunaviy fan dasturlarini ishlab chiqish;

fanlarning ishchi dasturini (sillabusni) ishlab chiqish;

o‘quv rejasi va tanlov fanlari ro‘yxatiga mos ravishda guruh murabbiyi yordamida o‘quv-metodik bo‘lim (boshqarma) va fakultet dekani nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish;

ishchi o‘quv rejalarini tuzish;

o‘quv jarayoni jadvalini tuzish;

akademik guruhlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari jadvalini tuzish.

Semestr davomida talaba tomonidan to‘planishi lozim bo‘lgan kreditlar miqdori o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Majburiy fanlar tarkibi va ularni o‘rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Tanlov fanlari tarkibi va ularni o‘rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori oliy ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi. Talabalar shaxsiy ta’lim trayektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

O‘quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo‘lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro‘yxatdan o‘tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga

ajratiladi. O‘quv yili davomiyligi o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq oliy ta’lim muassasasi kengashining qarori bilan o‘zgacha tartibda belgilanishi mumkin.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda – 40-50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ish soatiga, magistraturada – 30%-40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o‘quv yuklamasi miqdori oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta’lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o‘quv yilida 60 kredit to‘plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan kreditlar hajmi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Talaba o‘zining shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o‘zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o‘quv rejasidagi majburiy fanlar bo‘lishi shart.

Talaba bakalavriatda o‘qish muddati kamida 3 yil bo‘lganda 180 kredit, o‘qish muddati kamida 4 yil bo‘lganda 240 kredit to‘plashi zarur. Magistraturada o‘qish muddati kamida 1 yil bo‘lganda 60 kredit, o‘qish muddati kamida 2 yil bo‘lganda 120 kredit to‘plashi talab etiladi.

16. O‘quv jarayonining monitoringi ta’lim olishning belgilangan natijalariga erishish, nominal mehnat hajmi hamda ularning haqqoniyligi va mosligini baholash maqsadida o‘tkaziladi.

Ta’lim sifati samaradorligini ta’minlash oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ta’lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga moslikni ta’minlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim sifatini oshirish va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida oliy ta’lim muassasasi kengashi qaroriga asosan talabalarga

fan doirasida professor-o‘qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Bunda talabalar ta’limni boshqarish axborot tizimi portali orqali o‘quv semestri boshida 1 hafta muddat davomida o‘zi tanlagan professor-o‘qituvchining mashg‘ulotida qatnashish uchun onlayn tarzda ro‘yxatdan o‘tadi.

Akademik qarzdor talabalarning tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestr oliy ta’lim muassasasi tomonidan odatda ta’til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi.

Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar bo‘yicha belgilanadi.

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:

talaba yozgi semestr boshlanguniga qadar oliy ta’lim muassasasi o‘quv-metodik bo‘limi (boshqarmasi)ga o‘zining yozgi semestrda o‘qishi istagini bildiradi;

oliy ta’lim muassasasi ushbu talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to‘lov pulini to‘laganidan so‘ng darslarga kiritiladi;

yozgi semestr amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimini shaffof baholash tamoyiliga ko‘ra tashkil qilinadi.

Yozgi semestrga jalb qilingan professor-o‘qituvchilarga soatbay asosida ish haqi to‘lanadi.

Akademik mobillik va kreditlarni tan olish. Akademik mobillikni ta’minlash va talabaning kreditlari oliy ta’lim muassasasi tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

fanlar katalogi;

belgilangan shakldagi ta’lim to‘g‘risidagi kelishuv, ma’lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta’lim olish natijalarini aks ettiradi va oliy ta’lim muassasasiga kreditlarni tan olish va ko‘chirib o‘tkazish uchun asos hisoblanadi.

Talaba tomonidan oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturi bo‘yicha to‘plangan kreditlar miqdori boshqa oliy ta’lim muassasasida belgilangan ta’lim olish natijalariga muvofiq o‘zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi. Talaba jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasi tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi oliy ta’lim muassasasiga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi. Jo‘natuvchi

oliy ta’lim muassasasi tomonidan talabaga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi. Talabaning akademik mobillik davrida o‘zlashtirilishi belgilangan ta’lim elementlarini jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasining roziligisiz va u bilan kelishmasdan o‘zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor oliy ta’lim muassasalari, markazlar va tashkilotlarning ta’lim dasturlarida belgilangan ta’lim olish natijalari jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasining ta’lim dasturi bo‘yicha ta’lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to‘ldirishi lozim. Mobillik vaqtida akademik yil ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi va ushbu Nizomga asosan kreditlar tan olinishi belgilanadi.

Qabul qiluvchi oliy ta’lim muassasasida talaba tomonidan o‘zlashtiriladigan o‘quv elementlarining to‘plami va ular oliy ta’lim muassasasining ta’lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta’lim to‘g‘risidagi kelishuvda aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Qabul qiluvchi oliy ta’lim muassasasida o‘zlashtiriladigan kreditlar miqdori xorijda o‘qish davriga (3-6 oy yoki 1-3 yil) mutanosib bo‘lishi kerak. Jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasi tomonidan mobillik davrida talabaning o‘zlashtirgan (to‘liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi. Talaba jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasiga qaytib kelgach, mobillik davrida to‘plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o‘tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

Oliy ta’lim muassasasi akademik mobillik dasturi bo‘yicha rejalashtirilgan ta’lim elementlarini o‘zlashtirish uchun talabani belgilangan shakl asosida ro‘yxatdan o‘tkazadi va mobillik davrida ushbu elementlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari ta’minlanishi majburiyatini oladi.

Hamkor universitetlar, markazlar va tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta’lim to‘g‘risidagi kelishuvlarni tuzish zarur hisoblanmaydi.

Ta’lim to‘g‘risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlovchi ko‘rsatkichlar oliy ta’lim muassasalarining baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali asosida qabul qilinadi.

Stajirovkani o‘tash bo‘yicha kelishuv talaba, oliy ta’lim muassasasi va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama imzolanadi. Stajirovka davomida talaba

tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta’minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi muassasa tomonidan stajirovkani o‘taganlik to‘g‘risida sertifikat beriladi.

Baholash, baholarni konvertatsiya qilish. Talabalar ta’lim dasturi doirasida o‘qitish shaklidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta’lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi. Baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og‘zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar kabi turlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Baholash mezoni ta’lim olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart. Kreditlarni ko‘chirish oliy ta’lim muassasasida baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvalini boshqa oliy ta’lim muassasasida tuzilgan shunga o‘xshash jadval bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

Kredit-modul tizimida ro‘yxatga olish xizmatini tashkil etish. Ro‘yxatga olish xizmatlari ta’lim va talabalar bilimini baholash jarayonlarini alohida yuritish, talabalar haqidagi akademik ma’lumotlarni elektron tarzda avtomatik boshqarish hamda yakuniy nazoratlarni o‘tkazish maqsadida tashkil etiladi. Ro‘yxatga olish xizmati talabaga tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha yuqori darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarga erishishda yordam berishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi funksiyalarni qamrab oladi:

o‘quv jarayoni jadvalini tuzish va u o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;

talabalarning fanlarga ro‘yxatdan o‘tishini nazorat qilish;

akademik guruhlarni shakllantirish;

oraliq, yakuniy baholashlar va yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazilishini nazorat qilish;

ma’lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish;

ta’lim olayotgan talabalarning ma’lumotlarini arxivga qadar saqlash;

transkript formalarini shakllantirish va talabalarning ma’lumotlarini kiritish;

talabalar kontingenti bo‘yicha statistikani yuritish.

Ro‘yxatga olish xizmatlari o‘quv-metodik bo‘lim (boshqarma) tarkibida olib boriladi. Oliy ta’lim muassasalarida budjet mablag‘lari doirasida yoki ularning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan ta’limning kredit tizimini boshqarish bo‘limi tashkil etilishi mumkin.

Ro‘yxatga olish xizmati belgilangan jadvalga muvofiq talabalarni fanlarga ro‘yxatdan o‘tkazadi va talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantiradi. Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi ular tomonidan mustaqil ravishda guruh murabbiyi yordamida namunaviy o‘quv rejasi va tanlov fanlari katalogi asosida umumiy o‘qish davri uchun tuziladi. Shaxsiy ta’lim trayektoriyasiga har o‘quv yilidan oldin o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Talabalarning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi asosida ro‘yxatga olish xizmati akademik guruhlarni shakllantiradi va biron-bir fanga yozilish yetarli bo‘lmagan taqdirda, shaxsiy ta’lim trayektoriyasini o‘zgartirish zarurligi to‘g‘risida talabalarga xabar beradi. Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi shakllantirib bo‘lingandan so‘ng ro‘yxatga olish xizmati dars jadvalini tuzish uchun oliy ta’lim muassasasi o‘quv-metodik bo‘limi (boshqarmasi)ga akademik guruhlar to‘g‘risida ma’lumot beradi. Ro‘yxatga olish xizmati har bir talabani ro‘yxatdan o‘tkazish sanasi va vaqtini belgilaydi (odatda, talaba tomonidan yetarli GPA ko‘rsatkichlarini to‘plaganligi va kontrakt to‘lovlari amalga oshirilganligiga qarab). Birinchi kurs talabalarini ro‘yxatdan o‘tkazish ular bilan akademik va kasbga yo‘naltirish tadbirlari amalga oshirilganidan keyin boshlanadi. Talabalar tanlagan fanlarini har semestrning dastlabki birinchi haftasi ichida o‘zgartirishi mumkin.

Birinchi kurs talabalarini ro‘yxatga olish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

guruh murabbiyi ro‘yxatga olish xizmatidan biriktirilgan guruh talabalarining login va parollarini oladi, talabaga ta’lim jarayonini tushuntiradi, ta’lim dasturi bilan tanishtiradi, login va parol beradi hamda talaba portalidan foydalanishni o‘rgatadi;

talaba professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha tanishtiruv taqdimotlariga qatnashadi, majburiy va tanlov fanlari bilan tanishadi va fanlarga ta’limni boshqarish tizimidagi talaba portali orqali ro‘yxatdan o‘tadi;

talaba ta’limni boshqarish tizimidagi portali orqali dars jadvalini aniqlaydi va darslarga qatnashadi.

Talabalarni o‘qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga o‘tkazish mexanizmlari. Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo‘yicha tegishli kreditlarni o‘zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo‘yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalar ta’til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o‘zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to‘lovni amalga oshirgandan so‘ng o‘zlashtirilmagan fanlarni o‘z hisobidan qayta o‘qish huquqiga ega bo‘ladi.

Ta’lim oluvchini kursdan kursga o‘tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. OTM talabalarni kursdan kursga o‘tkazishda GPA ko‘rsatkichini mustaqil belgilash huquqiga ega. Bunda GPA ko‘rsatkichi 2,4-3,0 oralig‘ida bo‘lishi talab etiladi. GPA o‘tish ballini to‘play olmagan talaba qayta o‘qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o‘quv yili yakuni natijalari bo‘yicha akademik qarzdorligi bor ta’lim oluvchilar o‘qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag‘larini to‘laydi. Shartnoma asosida bir kursda qayta o‘qish soni chegaralanmaydi. Jami ta’lim olish muddati bakalavriat uchun 1 kursga o‘qishga qabul qilinganidan so‘ng 8 yilgacha, magistratura uchun 1 kursga o‘qishga qabul qilinganidan so‘ng 4 yilgacha deb belgilanadi.

Ta’lim oluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari asosida o‘qishni qayta tiklash va ko‘chirish huquqiga ega. Ta’lim oluvchi tomonidan chetlashtirilgunga qadar o‘zlashtirgan kreditlar miqdori oliy ta’lim muassasasi tomonidan to‘liq hajmda hisobga olinadi.

Masofaviy ta’lim

Masofali o‘qitish zamonaviy ta’limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda axborot- kommunikatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta’lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda yetakchi xorijiy mamlakatlar masofadan o‘qitish borasida boy tajriba to‘plangan.

Masofaviy ta’lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televideniye va b.) yordamida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdai an’anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta’lim resurslaridan foydalanishga yo‘naltirilgan ta’lim

Masofaviy ta’lim texnologiyasi 1969 yilda Angliya premer-ministri G.Vilson tashabbusiga ko‘ra shakllantirilgan deb hisoblanadi. Ammo masofadan o‘qitish ancha oldinroq, ya’ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan. 1858 yildan boshlab London universitetida barcha xohlovchilarga ularning mustaqil bilim olishlari, barcha ixtisosliklar va barcha sohalardagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan. 1938 yildan buyon Sirtqi ta’lim bo‘yicha Xalqaro kengash, 1982 yildan boshlab, Masofaviy ta’lim bo‘yicha Xalqaro Kengash nomi bilan mashhur xalqaro ta’lim tashkilotlari sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ochiq universitetlardagi o‘qish xarajatlari an’anaviy institutlarda o‘qitishga qaraganda 8-10 marta arzon. M: Angliyada turg‘un o‘qishga 3000, masofaviy o‘qitish orqali bilim olishga esa atiga 300 funt sterling to‘lanadi. Binolarga xizmat ko‘rsatish, jihozlar va laboratoriya uchun xarajatlar, o‘qituvchi, ma’muriyatlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar shtati qisqaradi. Ta’lim oluvchilarga filiallar tarmog‘i, telestudiya va kompyuter tarmog‘i orqali maslahatlar beriladi. Angliyada o‘quvchilarni tayyorlash dasturi 130 ta kursni o‘z ichiga qamrab oladi, ularning ko‘plari fanlararo bog‘lanish xususiyatiga ega. Masofaviy ta’lim AQShda o‘tgan asrning 60-yillarning o‘rtalaridan, Yevropada esa 70-yillarning boshlarida jadal rivojlana boshlandi.

O‘qitishning bu shakli ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarning bir-birlari hamda o‘qitish vositalari bilan o‘zaro ta’sirining maqsadga yo‘naltirilgan interfaol

jarayonidan iborat bo‘lib, bunda ta’lim jarayoni ularning geografik fazoviy joylashishiga bog‘liq bo‘lmaydi. Ta’lim jarayoni kichik tizimlardan iborat, ya’ni o‘qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari, nazorat, o‘quv-moddiy, moliyaviy-iqtisodiy, meyoriy-huquqiy va marketing kabi elementlarni qamrab olgan o‘ziga xos pedagogik tizimda kechadi. Axborot-ta’lim muhiti ma’lumotlarni uzatish vositalari, axborot resurslari, o‘zaro muloqot bayonlari, foydalanuvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan apparat- dasturiy, tashkiliy-uslubiy ta’minot va boshqalar masofadan ta’limning tizimiy-tashkiliy majmui sanaladi. Masofaviy ta’lim o‘qitishning an’anaviy usullaridan foydalanish, turg‘un sharoitda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart-sharoitlar tufayli chegaralangan shaxslar, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining tinglovchilari, xorijiy mamlakatlarning ta’lim muassasalarida o‘qitish istagida bo‘lgan abituriyentlar, ikkinchi mutaxassislikni egallashni xohlovchi kadrlarga juda qulay sharoitni yaratib beradi. Mazkur ta’limni tashkil etishda o‘qituvchilarning faoliyati faqat o‘quv axborotlarini uzatish bilan cheklanmaydi. Shu sababli bu turdagi ta’limni tashkil etishga bir necha mutaxassis jalb qilinadi. Ular o‘z vazifalariga ko‘ra turlicha nomlanadi. Xususan:

1. O‘qituvchi – masofaviy ta’limni tashkil etishda foydalaniladigan o‘quv-metodik qo‘llanmalarning muallifi

2. Moderator – masofaviy ta’lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbati va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog (muloqot jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlaydi, bildirilayotgan fikrlarni umumlashtiradi, zarur bo‘lganda ularni to‘g‘rilaydi, ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bilish faoliyatlarini faollashtiradi)

3. Tyutor (lot. “tutorem”) – o‘quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma’ruza o‘qituvchisi bilan talaba o‘rtasida ta’limiy aloqani o‘rnatuvchi pedagog (ustoz, murabbiy)

4. Edvayzer (fr. “avisen” – “o‘ylamoq”, “advisor” – “o‘ylovchi”) bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining ta’lim oluvchilar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi

5. Fasilitator (lot. “facilis”, ingl. “facilitator” – yengil, qulay) – masofaviy ta’lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarning faoliyatini muammoning yechimini topishga yo‘naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog

6. Invigilator – masofaviy ta’lim asosida tashkil etiladigan o‘qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog

Masofaviy ta’lim tizimida produktiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va ilmiy izlanish (tadqiqot) metodlari qo‘llaniladi. Mazkur tizimda o‘qitish vositalari sifatida quyidagilardan foydalaniladi:

kitoblar (bosma va elektron shaklda);

didaktik materiallar;

kompyuter o‘quv tizimlari (oddiy va multimedia shaklida);

audio o‘quv axborotlari;

video o‘quv axborotlari;

virtual stendlar;


trenajyorlar;

ma’lumotlar bazasi;

texnik vositalar – radio, televideniye, magnitofon, videomagnitofon, kinoproyektor, diaproyektor, videoproyektor, kodoskop, kompyuter, Internet tarmog‘i va b.

O‘quv kurslarida bir tinglovchining o‘rniga boshqa tinglovchi qatnashishi, uning o‘rniga sinov topshiriqlarini topshirishning olini olish maqsadida masofaviy ta’lim tizimida nazorat videokonferensiyalarni tashkil etilishiga asoslanadi. Masofaviy ta’lim tizimiga ko‘ra mashg‘ulotlar ma’ruza, seminar, laboratoriya mashg‘uloti, kurs ishi,

sinov, imtihon, maslahat, mustaqil ish kabi shakllarda yo‘lga qo‘yiladi. Avvaldan yozib olingan videoma’ruzalar ta’lim oluvchilarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish uchun sharoit yaratsa, faksimal aloqa, xabar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda telekommunikatsiya vositalari – bosma matnlar, audio va videoyozuvlar o‘rni elektron o‘quv-axborot resurslari, dasturlari bilan to‘ldirilmoqda. Masofadan o‘qitishning tashkiliy-metodik modeli sifatida quyidagilar tavsiflanadi: Hozirda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda masofaviy ta’limning quyidagi modellari (YUNESKO, 2000 yil) amal qilmoqda (4.1-rasmga qarang):



4.1-rasm. Masofaviy ta’limning yetakchi modellari

Quyidagi ushbu modellarning mohiyati ochib beriladi.

1. Birlamchi model (u faqat masofaviy ta’limni tashkil etishga xizmat qiladi; unga ko‘ra ta’limning kunduzgi shakli zarur bo‘lmaydi; ta’lim barcha holatlarda masofadan tashkil etiladi; o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatining shakl, metod va vositalarini erkinlik tanlash huquqiga ega; vaqt va o‘quv jadvallariga qat’iy chegaralar qo‘yilmaydi; hududiy markazlar tashkil etilgan bo‘lib, ularda ta’lim oluvchilar o‘qituvchilardan maslahat olish, yakuniy imtihonlarni topshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi; Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti (United Kingdom Open University) ana shu model asosida faoliyat ko‘rsatadi).

2. Ikkilamchi model (unga ko‘ra ta’lim qisman OTMda, qisman masofali dastur asosida tashkil etiladi; har ikki holatda ham dars jadvallari, o‘qitish dasturlari, imtihonlar va baholash mezonlari bir xil bo‘lib, e’tibor amaliy tajribaga, pedagogika innovatsiyalarni tadqiq etishga qaratiladi; Avstraliyadagi Yangi Angliya universiteti (University of New England) shu model asosida ishlaydi).

3. Aralash model (masofaviy ta’limning turli shakllari, bir necha shakllarning integratsiyasiga asoslangan model; ta’lim oluvchilar masofaviy ta’lim kurslari va universitet dasturlarini o‘zaro parallel ravishda o‘zlashtiradi; an’anaviy kurslar doirasida virtual seminar, taqdimot va video-ma’ruzaga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etiladi; bu kabi integrallashgan kurslar Yangi Zelandiyaning Massey universiteti (Massey University, New Zealand)da tashkil etiladi.

4. Konsorsium (lot. “consortium” – “sheriklik”, “birgalikda ishtirok etish”; masofaviy ta’limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma; universitetlar o‘quv materiallarini o‘zaro almashtiradi yoki muayyan vazifalarni o‘zaro bo‘lishib olgan holda bajaradi; m: bir universitet masofaviy ta’lim uchun o‘quv materiallarini tayyorlasa, ikkinchisi virtual o‘quv guruhlarini o‘qituvchilar bilan ta’minlaydi yoki masofaviy ta’lim dasturlarining akkreditatsiyasini ta’minlaydi; bunday holatda universitet, uning markazlari, fakultetlari, nodavlat tashkilotlari, davlat muassasalari universitetlar bilan hamkorlikka erishishlari mumkin; Kanadadagi Yetakchi modellar.

5. Franchayzing (ingl. “franchise” – “litsenziya”, “huquq”; o‘zaro hamkor universitetlarning bir-birlariga o‘zlari tomonidan tashkil etiladigan masofaviy ta’lim kurslarini tashkil etish huquqining berishi; ushbu model asosida ta’lim oluvchilar garchi muayyan universitetda tahsil olsalar-da, konsorsiumga a’zo yetakchi oliy ta’lim muassasasining talabasi oladigan hajmda sifatli ta’lim xizmatlaridan foydalanish huquqiga, qolaversa, ular kabi diplomga ega bo‘ladi; Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti qoshidagi Biznes Maktabi (Open University Business School, Great Britain) bilan o‘zaro hamkorlikka erishgan Sharqiy Yevropadagi qator universitetlar ana shu modelga asoslanib faoliyatni tashkil etadi).

6. Validatsiya (ingl. “validation” – “qondirish”; ta’lim mahsuloti, ta’lim xizmatlari yoki ta’lim tizimi iste’molchilari ehtiyojlarining qondirilishi; masofali

ta’limning keng tarqalgan bu modeliga ko‘ra o‘zaro hamkor ta’lim muassasalari tenglik tamoyiliga muvofiq masofaviy ta’limni barcha darajada birgalikda tashkil etish xususida kelishib oladi; ularning biri diplom validatsiyasi, ikkinchisi o‘quv kurslari, dasturlarini akreditatsiya qiladi, uchinchisi namunadagi diplom hamda sertifikatlarni berish uchun mas’ul bo‘ladi, ilmiy darajalar beradi va h.k.).


7. Uzoqlashtirilgan auditoriyalar (unga ko‘ra zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion xarakterdagi ta’lim vositalari keng qo‘llaniladi; bir oliy o‘quv yurtida tashkil etilayotgan o‘quv kurslari, ma’ruza va seminarlar undan uzoq masofada joylashgan ta’lim muassasalarining o‘quv auditoriyalarga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko‘rsatuv, videoanjuman va radioeshittirish ko‘rinishida uzatiladi; o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi; AQShning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA), Xitoyning markaziy radio va televedeniye universiteti (China Central Radio and TV University)da masofaviy ta’limning ushbu modelidan foydalaniladi.

8. Loyihalar (u davlat ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot dasturlari doirasida keng qamrovlik loyihani amalga oshirish uchun mo‘ljallanadi; asosiy e’tibor o‘quv materiallarini tayyorlovchi yetakchi mutaxassislar, xodimlar, masofaviy ta’lim kurslarini tashkil etadigan o‘qituvchi va olimlardan iborat ilmiy-metodik markazni shakllantirishga qaratiladi; markaz tomonidan tayyorlangan masofaviy ta’lim kurslari muayyan davlat hududida katta auditoriyaga uzatiladi; loyiha doirasida rejalashtirilgan ishlar bajarilgach (tugatilgach) yakunlanadi; Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlarida turli xalqaro tashkilotlar tomonidan qishloq xo‘jaligi, agrotexnika, ekologiya bo‘yicha tashkil etiladigan ana shu modelga misol bo‘la oladi).

Masofaviy ta’lim ham barcha ta’lim turlari kasbi muayyan tamoyillar asosida tashkil etiladi (4.2-rasmga qarang). Quyida ushbu tamoyillarning mohiyati ochib beriladi.

1. Interfaollik tamoyili (u talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqani ta’minlab qolmay, balki talabalar o‘rtasida o‘zaro aloqani yuzaga keltiradi).

2. Boshlang‘ich bilimlarga egalik tamoyili (masofaviy o‘qitish tizimida tinglovchilarning oldindan tayyorgarlik ko‘rishlari, texnik vositalari – kompyuter, model, elektron doska va b. bilan ta’minlanishi, Internet aloqa tizimiga ulanishi, tizimda samarali ishlay olish malakalariga ega bo‘lishlar muhim).



4.2-rasm. Masofaviy ta’limining ustuvor tamoyillari

3. Individuallik tamoyili (bu tamoyil real o‘quv jarayonida kirish va oraliq nazoratlari o‘tkazilishini, ularning natijalarini tahlili asosida individual o‘quv rejalari tuzilishini ifodalaydi).


4. Identifikatsiyalash tamoyil (u masofaviy o‘qitish tizimida mustaqil ta’lim natijalarini nazorat qilish shakli bo‘lib, talabalarning BKM darajasini o‘rganishda bevosita muloqot videokonferensiyalaridan foydalanish, shu maqsadda samarali texnik vositalarni qo‘llashni nazarda tutadi).

5. Ta’limning aniq vaqtga asoslanishi tamoyili (unga ko‘ra o‘quv jadvali qat’iy rejalashtiriladi va rejalashtirilgan jadvalga qat’iy rioya qilinishi nazoratga olinadi).

6. Ta’limning oshkoraligi va o‘zgaruvchanligini ta’minlash tamoyili (masofaviy ta’limning yosh, ma’lumoti jihatidan turlicha bo‘lgan talabalar uchun qulayligini, o‘qitishning ochiq rejalashtirilishini; ta’lim vaqti, sur’ati va joyini erkin tanlash imkoniyati mavjudligini; o‘quv mashg‘ulotlarida ixtiyoriy qatnasha olishini, izchillik, tizimlilik, uzviylik nuqtai nazaridan o‘quv materiallarining muntazam o‘zgarib borishini ta’minlash imkoniyatiga egaligi tavsiflaydi).

7. Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik maqsadga egaligi tamoyili (unga ko‘ra masofaviy ta’lim tizimini loyihalashtirish, yaratish va tashkil etishda mavjud texnik vositalarini maqsadga muvofiq qo‘llanilishi tahlil qilib borilishi hamda ularni qo‘llashda yo‘l qo‘yilishi ehtimoli bo‘lgan xatolarning oldi olinishi lozim).

O‘quv yurtlarida masofaviy ta’limning tashkil etilishi muayyan jarayon sifatida kechadi. Tabiiyki, har bir jarayon ma’lum bosqichlarda amalga oshiriladi. Masofaviy ta’limni tashkil etish bosqichlar quyiagilardir: O‘quv muassasaslarida masofaviy ta’limni amalga oshirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (4.3-rasmga qarang):



4.3-rasm. Masofaviy ta’limni amalga oshirish bosqichlari

Ayni o‘rinda masofaviy ta’limni amalga oshirish bosqichlarining mohiyati xususida so‘z yuritiladi.

1. Tahlil bosqichi (unda o‘quv muassasining masofaviy ta’limni tashkil etishga bo‘lgan ehtiyoji, ta’lim oluvchilarning soni, ta’lim shakli, metod va vositalari, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihani iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi).

2. Loyihalashtirish bosqichi (unda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko‘lami va texnik topshiriqlar loyihalashtiriladi).

3. Joriy qilish bosqichi (ushbu bosqichda masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmua tegishli serverda o‘rnatiladi, tizimga muvofiq domen tanlanadi; masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuadan foydalanish

va unga texnik xizmat ko‘rsatishni ta’minlovchi xodimlarga ish o‘rgatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etiladi).


4. O‘quv kontentlarini yaratish bosqichi (unda soha mutaxassislari bilan hamkorlikda masofaviy ta’limning asosiy elementlaridan biri – o‘quv kontentlari yaratilib, ular ekspertlar tomonidan ekspertizadan o‘tkaziladi).

5. Ishga tushirish bosqichi (unda masofaviy ta’lim jarayoni ishga tushiriladi; o‘quv jarayoni doimiy nazoratga olinadi; tizim xavfsizligi monitoring qilib boriladi).

6. Rivojlantirish bosqichi (unda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar to‘g‘rilanadi, yangi o‘quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo‘lgan ishlar ko‘lami bajariladi).

Masofaviy ta’lim texnologiyalari ta’limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir

Masofaviy ta’lim texnologiyalari quyidagicha asosiy talablarga javob bera olishi zarur (4.4-rasmga qarang):



4.4-rasm. Masofaviy ta’lim texnologiyalariga qo‘yiladigan talablar

Ushbu texnologiyalar ta’lim axborotlarini taqdim etish, ta’lim axborotlarini uzatish hamda ta’lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari orasida elektron axborot-ta’lim resurslari (EATR) muhim o‘rin tutadi (5-rasmga qarang). Shu bilan birga masofaviy ta’lim texnologiyalari quyidagi qo‘shimcha talablarga javob bera olishi zarur:

1. Adaptatsiya (ta’lim oluvchining o‘z shaxsi, turar-joy sharoiti, moliyaviy ahvoli, psixologik va fiziologik xususiyatlari ko‘ra ta’lim jarayoniga moslasha olishi zarurligini ifodalaydi).




4.5-rasm. EATRning asosiy turlari

2. Iqtisodiy muvofiqlik (bu talab ta’lim tizimini moliyalashtirishda mablag‘lar miqdorining cheklanganligini bildiradi).

3. O‘zgaruvchanlik (u ta’lim sifati va mazmunini tezkor, izchil, uzluksiz yangilab borish, o‘quv manbalari va materiallarini modernizatsiyalash zarurligini anglatadi).

4. Nazorat (o‘qitishning barcha bosqichlarida ta’lim natijalarini sifatli nazorat qilish, tinglovchi shaxsini aniqlash muhimligini ifodalaydi)

Masofaviy ta’lim tizimida EATR elektron axborot tashuvchi vositalar – disketa, SD-ROM, DVD kabilarda o‘quv axborotini tashish yoki Internet tarmog‘i orqali elektron pochta orqali yuborish imkoniyatini ta’minlaydi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari quyidagicha asosiy talablarga javob bera olishi zarur (4.5-rasmga qarang). Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda bu tizimda faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilar malakasini oshirishga yuqori talablar qo‘yiladi. O‘qituvchi malaka oshirish tizimiga kelishlari bilan ta’lim berish subektidan ta’lim olish obyektiga aylanadi va o‘quv jarayonidagi o‘zaro munosabatlar xarakteri o‘zgaradi.



3. Blended learning. Blended learning (aralash o‘qitish) zamonaviy ta’limning nisbatan yangi, biroq, tobora ommalashib borayotgan shakli sanaladi. Ushbu shakldagi o‘qitish jarayonida talaba mustaqil ta’lim oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o‘qituvchi tomonidan yordam ko‘rsatiladi.

Guruhli mashg‘ulotlar davomida “blended learning” (aralash o‘qitish)ning qo‘llanilishi tufayli har bir talaba o‘quv materiallarini o‘zlashtirish borasida o‘zida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirib boradi, o‘tilgan materiallarni takrorlaydi va yangi mavzuni o‘rganishga tayyorlanadi. Blended learning (aralash o‘qitish) ko‘p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma’lumotlar negizida tashkil etiladi, qo‘shimcha materiallar esa talabaga onlayn platforma orqali uzatib beriladi.

Blended learning (aralash o‘qitish) – onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shakli93 Talaba mustaqil ta’lim olar ekan, guruhning boshqa a’zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi. Auditoriyada va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar vaqt miqdori bo‘yicha o‘zaro mos kelishi turlicha o‘zgarib turishi mumkin. Ta’limning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta’lim samarali ravishda qorishtirib yuboriladi. Aralash ta’lima o‘qituvchi rahbarligida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar uchun soatlar hajmi kamaytiriladi degan faraz noto‘g‘ridir. Vlended learning (aralash o‘qitish)ning muvaffaqiyati ta’lim vositalarining to‘g‘ri tanlanishi bilan belgilanadi. Bu ta’lim shaklining afzalligi shundaki, talabaning o‘zi o‘quv materialini o‘zlashtirish tezligi va ta’lim jarayonining intensivligini o‘zi belgilaydi. Aralash o‘qitish o‘zida quyidagi Yevropa ta’limi modellarini jamlaydi:

1. Masofaviy ta’lim (distance learning).
2. Auditoriya ta’limi (face-to face learning).
3. Internet ta’limi (online learning).
4. Uzluksiz ta’lim (lifelong learning)

Bu shakldagi ta’lim quyidagi shaxslar uchun nihoyatda ahamiyatlidir: ish vaqti qat’iy tartibga solinmagan sohalarning xodimlari; ishlab chiqarish ajralmagan holda ta’lim olishlari lozim bo‘lgan korxona, tashkilot va firmalarning xodimlari; “jonli muloqotga asoslangan ta’lim” muhitida o‘qishni xohlovchi shaxslar uchun. Aralash ta’limning tarkibiy tuzilmasi ham o‘zgaruvchan hisoblanadi. Ayni vaqtda xorijiy mamlakatlarda aralash ta’limning o‘ndan ortiq shakllari mavjud. O‘qitish amaliyotida aralash ta’lim o‘z “o‘lcham” (ko‘rsatkich)lariga ega. Ular quyidagilardir:

malakali kadrlar guruhining shakllantirilganligi;

mahorat darslariga asoslangan ta’lim;

yuqori darajadagi yutuqlari kafolatlovchi muhit;

talabalarning o‘z shaxsiy ta’limiy yutuqlari uchun javobgarligi

OTMda blended learning (aralash o‘qitish) quyidagilarga asoslanadi:

1. Onlayn ma’ruza mashg‘ulotlari.
2. Onlan amaliy mashg‘ulotlar.
3. Internet tarmog‘ida muhokama qilinadigan loyiha va guruh ishlari.
4. Onlayn rejimda tashkil etiladigan laboratoriya mashg‘ulotlari.
5. Onlayn rejimda mustaqil topshiriladigan test.
6. Onlayn rejimda tashkil etiladigan maslahat.

Blended learning – aralash o‘qitish tizimi bo‘lib, ta’limiy konsepsiya hisoblanadi, qaysiki mustaqil ravishda bilimlarni onlayn orqali va kunduzgi holatda o‘qituvchi ishtirokida o‘rganiladi. YA’ni “shu yerda va hozir” degan ma’nolarni tushuniladi. Brick and Mortar (kirpich i rastvor) ingliz tili idiomasi bo‘lib, an’anaviy ma’noni anglatadi. Demak, Brick and Mortar Education kunduzgi o‘qitishning an’anaviy shaklidir. Bu holatda kompyuter ta’limda mediatr bo‘lib xizmat qiladi. Aralash o‘qitish shakllari:

Blended learning;
Hubrid learning;
Technology-Mediated Instruction;
Web-Enhanced Instruction;
Mixed-Model Instruction

XX asrning 60 yillarida mavjud bo‘lib, tushunchasi 1999 yilda amerika pressasi Interctive learning Center markazi EPIC Learning deb o‘zgartirdi. Ularning ma’ruzasida internet orqali o‘qitishni tavsiya qilingan. Blended learning metodologiyasidan foydalanishi e’tiborga olingan. 2006 yilda Bonk va Grem kitoblarida “yuzma-yuz” va kompyuter orqali o‘qitish ekanligi e’tiborga olingan. 1998 yilda Aleksandr Mak Kenzi tadqiqotida kompyuter yordamida BKMlarini o‘zlashtirishini osonligi qayd etilgan. Blended learning uch qismdan iborat:

Masofali o‘qitish (Distance learning);
Sinfda o‘qitish (Face – To – Face learning);
Internet orqali o‘qitish (Online learning)

Foydali jihatlari: bilimlar to‘plami va baholash imkoniyati hamda o‘qituvchiga ko‘p odamlarni o‘qitish imkoniga ega.

Kamchiliklari: Akt bo‘yicha

Blended learning modellari:

Face – To – Face Driver (Drayver kunduzgii ta’lim)

Rotation Model (Rotatsiya modeli)

Flex Model (Moslashuvchan model)

Online lab (Onlayn laboratoriya)

Self-Blend Model (O‘zing aralashtir)

Online Driver Model (Drayver onlayn ta’lim) [13].

Mahorat darslari – ochiq tashkil etilib, ilg‘or pedagogik tajribalarni targ‘ib etishga yo‘naltirilgan samarali o‘qitish shakli

4. Mahorat darslari. Mahorat darslari zamonaviy ta’limning yana bir tobora ommalashayotgan shakli sanaladi. Bu shakldagi o‘qitish bir martalik sanaladi.

Mahorat darslarini tashkil etishda ko‘p yillik ish tajribasiga ega, shuningdek, samarali metodika yoki texnologiyaga ega innovator pedagoglarning kasbiy malakalari ochiq tarzda, interfaol muloqot asosida hamkasb pedagoglar hamda talabalarga namoyish etiladi. Malakali pedagoglar tomonidan mahorat darslarini tashkil etishda quyidagi vazifalar bajariladi:

muayyan muammo bo‘yicha tajribali, mahoratli pedagogning ish tajribasining ommalashtirilishi;

tajribali, mahoratli pedagog tomonidan izchil harakatlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri va izohli namoyish etish orqali pedagogik faoliyatda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish tartibining ko‘rsatilishi;

malakali, mahorali pedagogning metodik yondashuvlarini belgilangan muammoni hal etish usullari bilan o‘zaro muvofiqlashtirish;

mahoratli pedagog tomonidan o‘zining kasbiy malakalarining shogird (talaba)larga o‘rgatilishi;

talabalarning kasbiy takomillashuvlari uchun mahorali pedagog tomonidan yoram ko‘rsatilishi;

pedagog xodimlar o‘rtasida innovatsion g‘oya, texnologiyalarni ommalashtirish;

mahorat darslari ishtirokchilari (talabalar)ning kasbiy kompetentliklarini oshirish;

mahorat darslarning har bir ishtirokchisida individual ijodiy pedagogik faoliyat uslubini shakllantirish.

Mahorat darslarini tashkil etish natijasi sifatida quyidagi mahsulotlar yaratilishi mumkin:

pedagoglarning ijodiy ishlari mahsuli (dastur, metodik qo‘llanma); - mashg‘ulotlar uchun tarqatma materiallar;

pedagogik adabiyot va manbalar kartotekasi;

ta’lim va tarbiyaning yangi shakllarini metodik jihatdan asoslash;

yangi pedagogik texnologiyalarni shakllantirish;

malaka oshirish kurslari, seminarlar, praktikumlarning dasturlari;

ijodiy va ommaviy xarakterdagi tadbirlar Nizomi va b.

Master-klass (MK) — o‘qituvchi tomonidan kasbiy tajribasini harakatlar ketma-ketligi hamda natijasi mahorat bilan ko‘rsatib berish

Mahoratli darslar (Master-klass ta’lim tizimida quyidagi imkoniyatlar asosida tizimlashtiriladi.

1. Ishtiroki asosida:

masofali tarzda

pedagogning shaxsiy ishtiroki.

2. Auditoriya bo‘yicha:

o‘qituvchilar uchun;

ta’lim oluvchilar uchun;

aralash guruh.

3. O‘tkazish joyi bo‘yicha:

auditoriya (sinf);

ustaxonalarda;

plenerda.

4. Auditoriyani taqsimlash bo‘yicha:

individual;

guruhli

Shuningdek:

1. Mahorat darslarini tashkil etishning an’anaviy shakli:

Nazariy qismi

Amaliy qismi

Refleksiya (amaliy faoliyat bo‘yicha tavsiyalar, savol-javoblar).

2. Mahorat darslari (Master-klass)da materialani tanishtirishning yangi texnikasi va usullari:

mavzu, maqsadi va vazifalari e’loni;

o‘tkazish joyi;

topshiriqni bajarish texnikasi va materialari;

ilgari bajarilgan ishlardan namunalar;

mavzu doirasida topshiriqlarni bajarish bosqichlari;

yakuniy bosqich.

3. Mahorat darslari (Master klass) fan bo‘yicha o‘qitish metodikasi yoki yangi dasturlar bilan tanishni hohlovchi o‘qituvchilar uchun:

mavzu, maqsadi va vazifalari e’loni;

o‘tkazish joyi;

o‘qitish metodikasi va dasturi bilan tanishtirish;

yangi dastur va o‘qitish metodkasi asosida bajarilgan ishlardan namunalar;


tinglovchilar savollariga javob berish.

Zamonaviy ta’limda tyutor, supervizorlik va moderatorlik faoliyati

Zamonaviy pedagog – ta’lim oluvchining qanday o‘qiyotganligi va rivojlanayotganligini to‘liq tushunib, his qila oladigan, ya’ni uning hayotini o‘z shaxsiy hayoti singari his qilib, o‘quvchining ichki, axloqiy-ma’naviy, umummadaniy o‘sib rivojlanishiga, bolalar hamda kattalar hamjamiyatining mustahkamlanishiga ko‘maklasha oladigan o‘qituvchi.

Tyutor – bu o‘qituvchi. Muhim o‘qituvchi, uning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, bolaning maqsadga erishishi uchun mustaqil ravishda harakat qilishga

o‘rgatish. Tyutor – pedagog ta’lim oluvchilarning mustaqil ravishda maqsadini belgilashiga, o‘z kamchiliklarini tushunishga, ajdodlar tajribasini amalda qo‘llashga o‘rgatadi (4.6-rasmga qarang):



4.6-rasm. Tyutor

Supervayzer (ingliz “supervise” – kuzatish ma’nolarini bildiradi) – kuzatuvchi. U ta’lim jarayonidagi kamchilik va yutuqlarini kuzatadi. Shuningdek, adminstator savollarini yechishga harakt qiladi u kreativ, ambitsioz, kuzatuvchi, kommunikativlik, analitik, ijrochi, mas’uliyatli, strategik fikrlovchi xususiyatlariga ega shaxs. Uning vazifalari:

shaxsni tanlash va o‘qitish;

ta’lim oluvchilar o‘rtasida topshiriqlarni bo‘lib berish;

ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatga kirisha olish;

ta’lim sifatini nazorat qilish;

ta’lim oluvchilar faoliyatidan xabardor bo‘lish.

Moderator – axborotlarni tekshiradi, o‘rnatilgan tartibda taxrir qiladi yoki o‘chirib tashlaydi.

Assesment texnologiyasi

Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalaria ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilishda “assesment” sinovi keng qo‘llanilmoqda. Mazkur texnologiya shaxsning kasbiy tayyorgarligi, mutaxassis sifatida shakllanganlik darajasi hamda kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligini aniqlash, baholashga xizmat qiladi. Bozor

munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. “Assesment” texnologiyaning yaratilish tarixi o‘tgan asrning 30-40- yillariga borib taqaladi. Dastlab texnologiya mavjud harbiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholay oladigan, harbiy harakatlar jarayonini samarali boshqaradigan, zarur o‘rinlarda oqilona harakatni tashkil eta oladigan ingliz hamda nemis harbiylari orasidan bilimdon, tadbirkor, mahoratli harbiylar, shuningdek, ofitserlarni tanlash maqsadida qo‘llanilgan. Keyinchalik ushbu texnologiya tadbirkorlik sohasiga ham samarali tatbiq etildi.

“Assesment” texnologiyasi (ingl. “essesment” – “baho”, “baholash”) – talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami

Texnologiya birinchi marta 1954-yilda “AT&T” kompaniyasi tomonidan tadqiqot dasturlarini amalga oshirish doirasida qo‘llanilgan To‘rt yildan so‘ng malakali menejerlarni tanlash maqsadida qo‘llanila boshlangan texnologiya negizida tadbirkorlar psixologlar bilan hamkorlikda mazkur texnologiya yordamida ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish korxona hamda tashkilotlari uchun malakali mutaxassislarni tanlash xizmati – “Assesment-markaz” (“The Assessment Centre”)ni yo‘lga qo‘yildi. 1960 yilda “IBM”, “Standart oyl of Ogayo”, “Sirs Robaks” kabi yirik amerika kompaniyalari o‘z faoliyatlariga texnologiyani samarali tatbiq etdilar. Agarda 1980 yilda 2000 ta firma “Assesment-markaz” asosida malakali mutaxassislarni tanlashni ma’qul ko‘rgan bo‘lsa, ayni vaqtda bu texnologiya o‘n minglab korxona, tashkilot, firma va kompaniyalarda samarali qo‘llanilmoqda. Ayni vaqtda ishlab chiqaruvchi va savdo kompaniyalar malakali menejerlarni tanlash maqsadida mazkur texnologiyandan muvaffaqiyatli foydalanmoqda. So‘nggi yillarda mazkur texnologiya ta’lim tizimiga ham samarali joriy etildi. Uning yordamida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasi har tomonlama, xolis baholanmoqda. Ayni vaqtda respublika ta’lim muassasalarida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari kamida to‘rtta topshiriq bo‘yicha baholanmoqda. M:

Izohli lug‘at	Muammoli vaziyat
Ijodiy ish	**Test**

Ushbu metoddan darsning kirish, asosiy yoki yakuniy qismida ya’ni uyga vazifa berish jarayonida qo‘llash mumkin. Darsning kirish qismida talabalarning uyga vazifalarini qay darajada bajarganliklarini aniqlashda yoki mavzuni umumlashtirish jarayonida egallangan bilim, ko‘nikmalarni aniqlashda foydalanish mumkin. “Assesment” metodini dars jarayoniga tatbiq etish muayyan texnologiyaga asoslanadi. O‘qituvchi tomonidan talabalarga jadval ko‘rinishdagi vazifalarni qisqa vaqt ichida bajarishlarni topshiriq sifatida beriladi. Topshiriq bajarilganidan so‘ng, javoblar o‘qituvchi tomonidan e’lon qilinadi talabalar esa aynan javob ko‘ra o‘z-o‘zini tekshirishni amalga oshiradi hamda oldindan e’lon qilingan mezonlar asosida baholaydi. Bunda talabalar mavzu mazmunini qay darajada o‘zlashtirganligi bo‘yicha o‘z-o‘zini tekshirish va baholash orqali xulosa chiqaradi. Assesment texnologiyasini qo‘llash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Yaxlitlik (talabalar turli mashq va testlar yordamida sinovlardan o‘tadi).
2. Reallik (talabalarning kuzatib borilayotgan xatti- harakati baholanadi).
3. Mustaqillik (har bir talaba bir necha mutaxassislar tomonidan baholanadi).
4. Obyektivlik (xulosalar standartlashtirilgan baholarga asoslanadi).
5. Ishonchlilik (xulosalar talabalar tomonidan mustaqil bajarilgan vazifalarning natijalariga asoslanadi)

Talabalarning umumiy-madaniy kompetentligini baholashda assesment baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) talabalardagi baholanishi lozim bo‘lgan kasbiy kompetentlik sifatlari ro‘yxatini tuzish;

2) kasbiy kompetentlik sifatlari namoyon bo‘ladigan faoliyat turlarini modellashtirishga imkon beruvchi, muammoli vaziyat vazifasini ishlab chiqish;

3) ma’lum bir kompetensiyalarning shakllanglanlik darajasini belgilar beruvchi mezonlarni ishlab chikish; ekspertlar uchun baholash varaqalarini tayyorlash;

4) so‘rov anketalarinni ishlab chiqish; assessmentdan imtihon shakli sifatida foydalanish;

5) savol-javob anketasini tuzish;

6) xulosa chiqarish.

Vebinar texnologiyalar

Vebinar texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimida vebinar texnologiyalar tobora keng qo‘llanilmoqda.

Vebinar texnologiyalar (ingl. “webinar” – web-based seminar) – 1) web-texnologiyalari va an’anaviy ta’limning o‘zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminar; 2) Internet texnologiyalari va maxsus dasturlar qo‘llanilgan holda talaba (tinglovchi)lar bilan interfaol o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish shakli

Garchi “vebinar” tushunchasi shu ma’noni anglatsa-da, biroq, ta’lim amaliyotida keng ma’noda qo‘llanilib, turli onlayn tadbirlar (seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, ayrim holatlarda trening, turli hodisalar bo‘yicha tarmoq translyatsiyalari (kompyuter yoki Internet tarmog‘ida namoyish etiladigan lavhalar) va ta’lim vositalarini anglatishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtni va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta’lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud. Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko‘nikmalarga ega bo‘lish, bir qator shart va qoidalarga rioya etish talab qilinadi. Bu turdagi texnologiyalarning yaratilish tarixi 1980-yillardan – birinchi marta matnli xabarlarni almashish tizimi yaratilgan vaqtdan boshlangan. O‘tgan asrning 90-yillarida yanada takomillashgan muloqot tizimi veb-chat hamda juda qisqa vaqtda xabarlarni almashish tizimlari payo bo‘ldi. 90-yillarning oxirlariga kelib, birinchi konferens-aloqalarni tashkil etish tizimi ishlab chiqildi.


Mashg‘ulot ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqa Veb-ilova xizmati orqali ta’minlanadi. Vebinarga ulanishi uchun ishtirokchi (talaba, tinglovchi) o‘z manzilini sayt manzilidagi brauzer qatoriga kiritishi zarur. Talabalar pedagogni tinglagan holda unga savollarni og‘zaki hamda yozma tarzida berishlari mumkin. Pedagog o‘z kompyuterida o‘quv materiallari (matnli hujjatlar, taqdimot slaydlari va b.)ni namoyish etish, virtual doskaga yozish, chizish imkoniyatiga ega. U ishtirokchilarning barchasini ko‘rib turadi va istalgan talaba, tinglovchiga yoki ularning barchasiga bir vaqtning o‘zida e’tiborni qarata oladi. Boshqacha aytganda mashg‘ulot o‘tayotgan virtual auditoriya to‘la ravishda pedagogga ko‘rinib turadi.

Tushuncha sifatida “vebinar” 1998 yilda Erik R.Korb tomonidan qo‘llanilgan va bugungi kunda “InterCall” kompaniyasining savdo belgisi sifatida e’tirof

Vebinar mashg‘ulotlarni olib borish uchun pedagoglarning oldiga veb-kamera o‘rnatilib, u tomonidan tashkil etilgan mashg‘ulot tarmoq orqali namo-yish etiladi. Bu mashg‘ulotni Yer sharining istalgan nuqtasida ko‘rish, Internet tarmog‘iga ulangan kompyuter vositasida talabalar va pedagog o‘rtasida muloqotni tashkil etish mumkin.Shundan so‘ng ko‘plab boshqa muloqot tizimlari, jumladan, Internet tarmog‘idagi konferensiya aloqalarni amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi. Odatda vebinar mashg‘ulotlar turli shakllarda tashkil etiladi (4.7-rasmga qarang).


Ta’lim shaklining tanlanishi pedagog tomonidan qo‘yilgan maqsadan kelib chiqib belgilanadi. Vebinar mashg‘ulotlarni o‘tkazish maqsadlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- talabalar tomonidan o‘quv materialining puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- talabalarning mavjud bilimlarini mustahkamlash;
- jamoada ishlash metodlarini o‘zlashtirish;
- o‘zaro tajriba almashish;
- kasbiy faoliyat ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish;
- bilish faoliyati mustaqil tashkil etishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarini to‘g‘rilash



4.7-rasm. Vebinar mashg‘ulotlarning asosiy shakllari

Odatda vebinar mashg‘ulotlar talabalar tomoni o‘quv moduli, uning muayyan bo‘limi, mavzulari mustaqil o‘rganilgandan keyin tashkil etiladi. Bu mashg‘ulotlarning an’anaviy darslardan farqi – ularda har bir talaba, tinglovchi o‘quv materialini muhokama qilish va muayyan ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish masalalarini muhokama etisha faol ishtirok etishi mumkin. Mashg‘ulotning muvaffaqiyati pedagogning mahoratiga, muloqot jarayonining to‘g‘ri tashkillashtirishiga, auditoriyaning faolligiga va mashg‘ulot shaklining maqsali tanlanganligiga bog‘liq. Vebinar mashg‘ulotlar uch bosqichda tashkil etiladi. Ya’ni (4.8-rasmga qarang):



4.8-rasm. Vebinar mashg‘ulotlarning tashkil etilish bosqichlari

Mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi texnik vosita (qurilma)lar kerak bo‘ladi:

1. Shaxsiy kompyuter (u Internetga ulangan bo‘lishi lozim).
2. Veb-kamera (kompyuterga ulangan yoki avtonom).
3. Garnitura (mikrofon yoki ovozni qabul qiluvchi moslama – qulqochin, ovozli kranay (kolonka)).
4. Exoni bartaraf etadigan moslama (ishtirokchilardan kimnidir kompyuteridagi karnay miqrofon oldida bo‘lib qolsa, u holda boshqalarning ovozi mikrofonga “tushib qoladi” va bu exo hosil qiladi).
5. Dasturiy ta’minot (shaxsiy kompyuterlarda Adobe Flash Player plaginining so‘nggi modeli, shuningdek, veb-brauzer (Mozilla Firefox, Google Chrome) o‘rnatilishi zarur)

Vebinar mashg‘ulotlardan oldin talabalar bu haqida xabardor qilinadi. Shu maqsadda ularga xabarnoma yuboriladi. Unda quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

- mashg‘ulotning nomi;
- vebinar mashg‘ulotni olib boruvchi haqia ma’lumot;
- mashg‘ulot sanasi, boshlanish vaqti va davomiyligi;
- mashg‘ulot maqsadi va vazifalari;
- vebinarning tarkibiy tuzilmasi va mazmuni (bo‘limlar bo‘yicha) haqida qisqacha ma’lumot;
- kutilayotgan natijalar

Vebinar turlari:

Virtual laboratoriya ishi va amaliyoti;

Leksiya;

Seminar;

Konferensiya;

Breyn ring;

Guruhli intervyu;

Dumaloq stol;

Aqliy hujum;

Jamoaviy yechim;

Guruhli bahs;

Disput;

Dasturiy mahsulotlardan foydalanishga o‘rgatish.



Qo‘shimcha ravishda ishtirokchilarga “Vebinarda qanday ishtirok etish mumkin?” nomli qisqacha yo‘riqnomani yuborish maqsadga muvofiqdir.

Vebinar mashg‘uloti haqidagi xabar masofaviy o‘quv kursining “Yangiliklar forumi”da tarqatilishi va tavqimda qayd etilishi kerak. Agarda vebinar mustaqil tashkil etilayotgan bo‘lsa, u holda ishtirokchilar mashg‘ulot haqida bir hafta oldin xabardor qilinishi, shuningdek, mashg‘ulot haqida yana bir bor bir kun va bir soat avval xabar yuborilishi maqsadga muvofiqdir. Bu turdagi mashg‘ulotning dasturiy ta’minoti mutaxassislar tomonidan ta’minlanadi. Ayni vaqtda vebinar mashg‘ulotlar turli tijorat (Webinar.ru, Comdi, Mirapolis Virtual Room va b.) hama erkin tarqatuvchi (OpenMeetings, OnWebinar va h.k.) serverlar yordamida tashkil etiladi.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Modulli-kredit tizimi va Blended learning farqi nimada?
2. Case study qanday ishlab chiqiladi?
3. Masofali o‘qitish jarayonlarini tahlil qiling.
4. Mahorat darslari deganda nimani tushunasiz?
5. Vebinar qanday ma’noni anglatadi?
6. Zamonaviy ta’limda tyutor, supervizorlik va moderatorlik faoliyati qanday tashkil qilinadi?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajaring.

Keys bayoni 1. Zamonaviy Yevropada yagona kasbiy ta’lim makonini yaratish zamonaviy o‘qitishning eng muhim talabi deya e’tirof etildi. Ana shu maqsadda Bolonya jarayoni tashkil etili. Bu jarayon yagona Yevropa oliy ta’limi makonini yaratish maqsadida Yevropa mamlakatlari oliy ta’lim tizimining bir-biriga yaqinlashishi va o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlovchi jarayon sanaladi. 1999 yilning 19 iyunida Yevropaning 29 mamlakati vakillari ishtirokida Bolonya deklaratsiyasi

imzolandi. Unga ko‘ra keng ko‘lamda talabalar almashinuvini qo‘llab-quvvatlash uchun Yevropa sinov birliklari (kredit) tizimi (YESBT) joriy etildi. “Kredit” atamasi (YESTS-credit) – “sinovdan o‘tdi” ma’nosini anglatib, talabaning o‘quv yurtida ma’lum bir kurs (modul)ni muvaffaqiyatli yakunlaganligi to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Keys savoli: kredit (sinov birligi) nima anglatadi: ma’lum o‘quv fani (moduli)ni o‘zlashtirish va sinovlarni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinishda topshirish mumkinliginimi yoki ma’lum o‘quv fanini talabaga yuklatiladigan yuklanma hajmi (mehnat sarfi)dan kelib chiqqan holda modul (blok – qism) holda o‘zlashtirish va har bir modul (qism) o‘zlashtirilgandan so‘ng sinovdan o‘tish zarurliginimi?

O‘qituvchining javobi. Kredit ma’lum o‘quv fani (moduli)ni o‘zlashtirish va sinovlarni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinishda topshirishni anglatmaydi. Aksincha, kredit har bir o‘quv fanining umumiy hajmi, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soatlar (nazariy mashg‘ulotlarga nisbatan amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta’lim soatlarining ko‘pligi), bir so‘z bilan aytganda, talabaning mehnat sarfidan kelib chiqib ajratiladi. Kredit – o‘quv fanini o‘zlashtirish va sinovlarni topshirish uchun birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinish emas. Balki bir o‘quv fani uchun ajratilgan umumiy soatni bir necha modul (blok – qism)ga ajratgan holda o‘zlashtirish va sinov topshirib borish deganidir.

Keys bayoni 2. Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimida vebinar texnologiyalar tobora keng qo‘llanilmoqda. “Vebinar texnologiyalar” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“webinar” – web-based seminar) web-texnologiyalari va an’anaviy ta’limning o‘zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminarni anglatadi. Biroq, keng ma’noda web-texnologiyalari yordamida tashkil etiladigan nafaqat seminarni, balki turli onlayn tadbirlar (seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, ayrim holatlarda trening, turli hodisalar bo‘yicha tarmoq translyatsiyalari (kompyuter yoki Internet tarmog‘ida namoyish etiladigan lavhalar)ni yoritishga ham xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtni va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta’lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud.

Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko‘nikmalarga ega bo‘lish, bir qator shart va qoidalarga rioya etish talab qilinadi.

Keys savoli: ko‘pchilikning fikricha vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta’minotiga bog‘liq. Bu fikr qanchalik to‘g‘ri.

O‘qituvchining javobi: vebinar darslarning sifati web- texnologiyalarining ta’minoti ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, boshqa turdagi darslar kabi vebinar darslarning sifat hamda samaradorligi ularning metodik jihatan tashkil etilishiga bog‘liq. Tashkiliy- texnologik masalalar, ya’ni vebinar darsining Internet tarmog‘igi orqali talaba, tinglovchilarga uzatib berilishining hal qilinishigina vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta’minoti bilan bog‘liq. Bordi-yu, vebinar darslarining translyatsiyasi juda sifatli bo‘lgani holda kutilgan ta’limiy natija qo‘lga kiritilmasa, u holda o‘quv mashg‘uloti pedagog tomonidan samarali, sifatli tashkil etilmagan bo‘ladi.

2. Test topshiriqlarini bajaring.

1. Ta’lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar, yangilangan, yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni qanday jarayon?

a) zamonaviy ta’lim;

b) an’anaviy ta’lim;

v) modulli ta’lim;

g) innovatsion ta’lim.

2. O‘quv mashg‘ulotlarining barchasi yoki ko‘p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladigan masofadan turib o‘qitish nima?

a) masofaviy o‘qitish;

b) an’anaviy ta’lim;

v) modulli ta’lim;

g) innovatsion ta’lim.

3. O‘quv materiali yoki ta’lim mazmunini o‘zaro uyg‘unlashtirilgan namunasi, o‘quv axborotining mantiqiy bo‘lakka bo‘lingan qismi, ushbu qism mantiqan yaxlit va tugallangan bo‘lib, uning o‘zlashtirilishini nazorat

qilish mumkin bo‘ladi hamda fanning fundamental tushunchasini taqdim etuvchi muayyan jarayon yoki qonun bo‘limi, muayyan mavzu doirasida o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhi nima?

a) tizim;

b) modul;

v) innovatsiya;

g) interfaol ta’lim.

4. Modullashtirilgan o‘quv dasturi asosida tashkillashtiriladigan o‘qitish jarayoni nima?

a) masofaviy o‘qitish;

b) modulli ta’lim;

v) an’anaviy ta’lim;

g) innovatsion ta’lim.

5. Ta’lim jarayonini modullar (o‘quv predmeti va uning bo‘limlari mazmunini tartibga solish, ta’limning muayyan bosqichidan boshlab bo‘linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajratish) asosida loyihalashtirilgan tizim nima?

a) pedagogik texnologiya;

b) interfaol metodlar;

v) innovatsion texnologiya;

g) modulli texnologiya.

6. Modulli o‘qitish qanday tashkil qiladi?

a) o‘qitishning izchil tizim asosida amalga oshiriladigan turi;

b) pedagogik texnologiyalardan foydalanilib loyihalashtiriladi;

v) yangilangan, yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni;

g) pedagogik taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni.

7. O‘qitishning tabiiy-samarali usuli, muammoli vaziyatlar yaratish orqali ilmiy bilimlar mantiqini namoyish etadigan o‘qitish jarayoni nima?

a) masofaviy o‘qitish;

b) muammoli o‘qitish;

v) an’anaviy ta’lim;

g) innovatsion ta’lim.

8. Ta’lim jarayonida kompyuter Internet tarmog‘iga ulangan vaqt davomida qo‘llanadigan o‘qitish vositasi nima?

a) matnli vositalar;

b) tasvirli vositalar;

v) online vositasi;

g) haqiqiy vositalar.

9. Ta’lim oluvchilar bilimdonlikni tarkib toptirish imkonini beradigan mujassamlashgan dars nima?

a) yangi bilimlarni shakllantiruvchi dars;

b) sinov dars;

v) mustahkamlash darsi;

g) binar dars.

10. Aralash o‘qitish bo‘lib, ta’lim konsepsiya hisoblanadi, qaysiki mustaqil ravishda bilimlarni onlayn orqali o‘qituvchi ishtirokida o‘zlashtiriladi?

a) blended learning;

b) yangi bilimlarni shakllantiruvchi dars;

v) sinov dars;

g) mustahkamlash darsi.

11. Blended learning necha qismdan iborat?

A) 2 ta B) 3 ta V) 4 ta G) 5 ta.

12. Drayver kunduzgi ta’lim, Onlayn laboratoriya, Drayver onlayn ta’lim – bular nimalar?

a) keys tiplari;

b) kompyuter dasturlari;

v) blended learning modellari;

g) modulli kredit tizimi.

§ 4.2. TA’LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARILARI VA ULARNI AMALDA QO`LLASH

Reja:

1. Xalqaro baholash dasturlari va ularning afzalliklari.
2. STEAM ta’limi. Geymifikatsiya: o‘yin orqali o‘rgatish (Gamification: learning through play).
3. PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi.
4. PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot.
5. TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring.
6. ICILS – kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot.

Tayanch so‘z va iboralar: xalqaro baholash tizimlari, STEAM, PISA, PIRLS, TIMSS.

Xalqaro baholash dasturlari, etimologiyasi va afzalliklari

Ta’lim tizimining mazmuni, mohiyati hayotimizning, jamiyatning moddiy, madaniy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi vosita hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda ta’lim siyosati, ta’lim sifati, ta’lim tizimidagi xalqaro tajribalarga alohida e’tibor qaratilib, bevosita xalqaro baholash tadqiqotlariga ham qatnashish jarayoni jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Bugungi kunda dunyoda ta’limning sifati, saviyasi va darajasi aniqlash va o‘rganishga qaratilgan bir qator xalqaro baholash dasturlari mavjud bo‘lib, ular ko‘pgina rivojlangan davlatlarda ta’lim sifatini yanada oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti - (IHTT yoki ing.: Organisation for Economic Cooperation and Development - OECD) Yevropadagi davlatlar birlashmasi bo‘lib, ushbu tashkilotga a’zo davlatlarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yuksaltirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni saqlashni nazarda tutadi.

IHTT 1948-yilda AQSH tashabbusi bilan tuzilgan bo‘lib, bu tashkilotni tuzish haqidagi konvensiya 1961-yil 1- oktabrdan kuchga kirgan [32]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

ish o‘rinlarini yaratish;

iqtisodiy o‘sish va yashash standartlarini o‘sishi uchun pul, moliyaviy va iqtisodiyotning sohalariga oid iqtisodiy siyosat yurgizish;

xalqaro raqobatbardoshlikni boshqarish, ayniqsa, global ishlab chiqarish va savdo uchun chegaralarning ochilishi jarayonida hukumatlarga iqtisodiy samaradorlik va sifat tizimlarini oshirishga ko‘maklashish;

ta’lim orqali inson kapitali o‘sishini ta‘minlash [14].

Ushbu tashkilot bugungi kunda bir nechta xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilar savodxonligini baholash va davlatlarning ta’lim tizimiga qancha mablag‘ sarflayotgani, uning qay darajada samara berayotganligi haqida ma’lumotlar to‘plab, tashkilotga a’zo mamlakatlalr o‘rtasida reyting ko‘rsatkichlarini e’lon qilib bormoqda. Bugungi kunda IHTT tashkilotiga a’zo davlatlar soni ortib bormoqda. O‘zbekiston ham IHTT tashkilotiga a’zo davlatlar qatorida hisoblanadi. IHTT davlatlari 1950-yillarda turli ta’lim tizimlari statistik tahlil qilishni boshlagan. Ushbu statistikaning maqsadi davlatlarning ta’limini rejalashtirish orqali malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarini hozir va kelajakda ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Bu statistika iqtisodiy nuqtai nazardan, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham katta ahamiyatli bo‘lib, ta’lim oluvchilarning teng huquqlilik masalalarini ham tahlil qilishda juda kerakli statistik ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi. IHTT davlatlarining dastlabki yondashuvi miqdoriy xususiyatlarga qaratilgan bo‘lib, davlatlarning ta‘limga sarflayotgan mablag‘lari, ya’ni ta’limni davlat tomonidan moliyalashtirish va moliyalashtirish resusrlari taqqoslangan. 1992-yildan buyon mazkur statistik hisobotlar IHTT tomonidan „Education at a Glance“ nom ostida Hisobot shaklida nashr etila boshlandi. IHTT ning mazkur tashabbusi bilan ishlab chiqilgan ta’limni baholash mezonlari ta’limdan boshqa sohalarda jumladan iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiysohalarda va ta’lim tadqiqotlarida keng foydalanildi [24].

Ta’lim tizimiga xalqaro baholash tadqiqotlarining kirib kelishi XX asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. 1958-yilda bir qator Yevropa davlatlari va AQSH tomonidan Gamburg shahrida IEA (International Association for the Evaluation of Educational Archivement- Xalqaro ta’lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi) ga asos solindi. Mazkur uyushma davlatga aloqador bo‘lmagan ilmiy tashkilot hisoblanar edi. Xalqaro

ta’lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tuzilgunga qadar ham turli xil davlatlarda ta’limni tadqiq etuvchi olimlar o‘quv jarayoni ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy jihatdan tadqiq etib chiqishgan. 1960–yilda Xalqaro ta’lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi (IEA) tomonidan birinchi xalqaro taqqoslash tadqiqotlari o‘tkazila boshlandi. 1964-yilda Xalqaro ta’lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tomonidan birinchi xalqaro matematika fani bo‘yicha baholash tadqiqoti – FIMS (The First International Mathematics Study) o‘tkazildi. Mazkur baholash tadqiqotining asosiy tashkilotchilaridan biri – Germaniya xalqaro pedagogik tadqiqotlar instituti (DIPF Deutsche Institut fu’r Internationale Pa’dagogische Forschung) bo‘ldi. Ushbu baholash dasturi 7-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan [27].

1966-yildan 1973-yilgacha 21 ta davlat ishtirokida dunyoga ta’lim bo‘yicha mashhur, jumladan, Y.B.Karoll (J.B.Caroll) singari olimlar tashabbusi bilan “Oltita fanlar bo‘yicha tadqiqot” (Six Subjects Survey) o‘tkazildi. Mazkur baholash dasturida 6 ta fanlar: tabiiy fanlar, adabiyot, o‘qish, ingliz tili, fransuz tillari chet tili sifatida, shuningdek, siyosiy ta’lim fanlari bo‘yicha baholash tadqiqoti o‘tkazildi [25].

1990-yillar boshida esa Xalqaro ta’lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi – IEA tashkiloti tomonidan 9-14 yoshli o‘quvchilarga mo‘ljallangan savodxonlik bo‘yicha baholash tadqiqoti (Reading Literacy Study) o‘tkazila boshlandi [106].

Keyinchalik esa bu tadqiqot PIRLS/IGLU baholash tadqiqotini o‘tkazilishiga turtki bo‘lgan. 1991-yildan buyon 21 davlatni qamrab olgan Xalqaro kattalar uchun mo‘ljallangan savodxonlikni baholash tadqiqotlari (IALC – International Adult Literacy Survey) 16 yoshdan 65 yoshdagilar uchun o‘tkazila boshlandi [24, 107].

2010-yildan boshlab, Xalqaro katta yoshdagilarni kompetensiyalarini baholovchi xalqaro baholash tadqiqotlari (PIAAC – Programme fort he International Assesment of Adult Competencies) o‘tkazilmoqda. Mazkur baholash tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tashkillashtiriladi va bu kattalar ko‘nikmalari bo‘yicha eng katta so‘rov hisoblanadi.

1995-yildan buyon o‘tkazilayotgan Uchinchi xalqaro matematika va fan tadqiqotlari (TIMSS – Third International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash tadqiqoti har to‘rt yilda Xalqaro ta’lim muvaffaqiyatini tekshirish tashkiloti

– IEA tomonidan o‘tkazilib kelinadi. Mazkur tadqiqot boshlang‘ich ta’lim, in der Sekunddarstufe I und II da matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘tkazilib kelinadi. Mazkur tadqiqotning uchinchi xalqaro tadqiqot deb yuritilishi esa avvallari o‘tkazilgan va yuqorida ta’kidlab o‘tilgan baholash tadqiqotlari: FIMS (The First International Mathematics Study, 1964, 12 davlat) va Ikkinchi Xalqaro Matematika tadqiqotlari SIMS (Second International Mathematics Study, 1980-1982, 20 davlatlar) shuningdek, Birinchi va Ikkinchi fan bo‘yicha baholash tadqiqotlari (First and Second International Science Study, 1968-1972 and 1982-1986) larning davomi sifatida o‘tkazilgan. Hozirda mazkur xalqaro baholash dasturi TIMMS (Third International Mathematics and Science Study) Xalqaro matematika va tabiiy fanlar sifati deb yuritiladi [25].

Bugungi kunda IHTT va IEA kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning ta’lim tizimida olib borilayotgan xalqaro baholash dasturlari bir nechta bo‘lib, ular o‘quvchilar bilimlarini xalqaro ta’lim standartlari asosida baholash va tahlil qilishda muhim sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 yilda gi 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish vazifa etib belgilangan:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun [8].

Ushbu qaror ijrosi yuzasidan yurtimizda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazish, ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amaliy ishlar jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Xususan 2022-yilda O‘zbekiston PISA – o‘quvchilarni savodxonlik darajasini baholovchi ta’lim tadqiqotlarida birinchi bor ishtirok etdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat ins’ektsiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi (4.9-rasmga qarang):



4.9-rasm. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi hamda 2020 yil 31 yanvar kuni matematika, kimyo, biologiya va geologiya ilm-fanini rivojlantishga bag‘ishlangan yig‘ilishida ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlari sifatida matematika, kimyo, biologiya va geologiya sohalari belgilandi.

Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi. Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada? So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda

malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O‘zbekistonga nima beradi?

milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi;

tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;

xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi;

xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi;

O‘zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi;

milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

STEAM ta’limi. Geymifikatsiya: o‘yin orqali o‘rgatish (Gamification: learning through play)

STEAM ta’lim texnologiyasi maktab o‘quvchilarini yangicha o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o‘quvchilarni

bir vaqtning o‘zida to‘rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san’at (Art), matematika (Math) bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan. STEAM fan bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish tizimidir. STEAM bu:

S – science;

T – technology;

E – engineering;

A – art;

M – math.

Ingliz tilida bu shunday bo‘ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika. Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

STEAM yondashuviga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalari Cambridge University Press, Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o‘quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o‘quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga urg‘u berishdir.

O‘quvchilarga mazkur fanlarni o‘qitishda malakali mahalliy o‘qituvchilar bilan bir qatorda, xorijlik o‘qituvchilar ham hamkorlikda saboq beradilar. Yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga yollashda mazkur yo‘nalishda ko‘p yillik tajribaga ega “Teachaway” (Kanada) va “TIC Recruitment” (Buyuk Britaniya) kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusets Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori “Mens et Manus” (Aql va qo‘l). Massachusets Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o‘rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba’zi ta’lim muassasalarida STEAM o‘quv markazlarini yaratdi. Statistikaga

ko‘ra, 2011 yildan buyon STEAM – kasblarga bo‘lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo‘lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo‘ylab ushbu ta’lim tizimiga katta talabni ko‘rsatadi.

Xo‘sh, bu ta’lim tizimi va fanlarni o‘qitishning an’anaviy usuli o‘rtasidagi farq nima? STEAM – ta’lim o‘quvchilar ilmiy usullarni amalda qanday qo‘llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo‘yicha talabalar, matematika va fizika bilan bir qatorda, o‘z robotlarini ishlab chiqadigan va ishlab chiqaradigan robotlarni o‘rganadilar. Darslarda maxsus texnologik uskunalar ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta’kidlashni istardikki, an’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o‘rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o‘qishni osonlashtiradi.

STEM va STEAM o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, STEM tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyati bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan fan va unga tegishli fanlarga zamonaviy yondashuvni anglatadi. STEAM, STEM dasturidagi fanlar bilan birgalikda ijodiy fikrlash va san'atni ham hayotiy vaziyatlarga bog‘lab o‘qitadi.

STEAM “A” – bu gumanitar fanlar, tilshunoslik, ijtimoiy tadqiqotlar, jismoniy san'at, tasviriy san'at va musiqa uchun atama. STEAM o‘qitish – bu STEM loyihalarida ijodiy fikrlashni qo‘llash, san'at orqali o‘quvchilarning tasavvur va ijodini uyg‘otishdir. San'at obyektlarini o‘rganish hamkorlik, muloqot, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, u o‘quvchining moslashuvchanligi, mahsuldorligi, mas'uliyati va yangiliklarini oshiradi. Bu ko‘nikmalarning barchasi har qanday o‘qish sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun zarurdir.

STEM + Artni joriy etish natijasida o‘qitishning yangi usullari paydo bo‘ldi. O‘qituvchilar loyihalarga grafiklar, chizmalarni qo‘llay olishlari kuzatildi. O‘quvchilar

STEM loyihasi haqida muloqot qilish uchun sahna san'atidan ham foydalanishlari, o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun ishlatishlari ham mumkin bo‘ldi.

An'anaga ko‘ra, san'at va fan ikki xil o‘qish sohasi sifatida qaraladi, lekin STEAM ta’limi bu ikki sohani birlashtirib, texnologiya, robototexnika, sanoat dizayni, muhandislik va boshqalarga fanlararo yondashuvni yaratdi.

STEM qisqartmasi ta’lim, sanoat va mehnat bozoridagi 4 ta eng istiqbolli yo‘nalish – fan, texnologiya, muhandislik va matematika haqida gapirishni osonlashtirish uchun yaratilgan. Kompyuter tizimlarini tahlil qilish, dasturiy ta’minot muhandisligi, tibbiyot va biomedikal muhandislik kabi kasblarda ko‘proq ish o‘rinlari o‘sishi kutilmoqda, shuning uchun kelajakda STEM darajasiga ega bo‘lgan bitiruvchilarga talab katta bo‘ladi. Ammo, taniqli STEM kurslaridan tashqari, xorijiy universitetlarda STEMM, STREAM va STEAM dasturlari mavjud.

STEMM, STREAM va STEAM – bir xil fan, texnologiya, muhandislik va matematika + san'at olamiga tegishli qo‘shimcha komponent.

STEMM – bu 4 ta asosiy fan va musiqa

STREAM – bu 4 ta asosiy fan va qo‘shimcha adabiyotlarni o‘z ichiga oladi (reading).

STEAM – san'at (Art).

Bu turdagi dasturlarning barchasi (tabiiy, muhandislik, aniq fanlarni o‘rganish bilan bir qatorda) ijodiy idrokni rivojlantirishga, modellashtirish va badiiy-texnik dizayn asoslarini o‘rgatishga qaratilgan.

STEM va STEAM / STEAM / STEMM o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, STEM ilmiy tushunchalarga e'tibor qaratadi, boshqa tadqiqot dasturlari ham xuddi shu tushunchalarni o‘rganadi, lekin ijodiy yondashgan holda tadqiq etadi.

STEM ta’lim – ilmiy usullardan, texnik dasturlardan, matematik modellashtirish, muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu o‘quvchining innovatsion fikrlash, XXI asrning qobiliyatlari, ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladi. STEM ta’limining afzalliklari quyidagilardan iborat (4.10-rasmga qarang):



4.10-rasm. STEM ta’limining afzalliklari

STEAM yondashuvining asosiy g‘oyasi quyidagicha: amaliyot ham nazariy bilim kabi muhimdir. Ya’ni, o‘rganayotganda biz nafaqat miyalarimiz bilan, balki qo‘llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf xonasidagi ta’lim tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam bo‘lmaydi. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bu yerda bolalar ko‘plab fanlarni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun miyalaridan va qo‘llaridan foydalanishadi. Bilimlarni ular mustaqil “kashf etadilar”.

Gamifikatsiya – bu foydalanuvchilarni rag‘batlantirish va jalb qilish uchun o‘yin tajribasiga o‘xshash tajriba yaratish maqsadida tizimlar, xizmatlar, tashkilotlar va faoliyatni takomillashtirishning strategik urinishidir. Bunga odatda o‘yin dizayni bo‘lmagan kontekstlarda o‘yin dizayni va o‘yin tamoyillari (dinamikasi va mexanikasi) elementlarini qo‘llash orqali erishiladi. Bu, shuningdek, o‘yin elementlarining xususiyatlaridan foydalangan holda yoki ularni qo‘llashda muammolarni hal qilish bo‘yicha harakatlar va jarayonlar majmui sifatida ham belgilanishi mumkin.

Oddiy qilib aytganda, gamifikatsiyaning ta’rifi – bu o‘yin dizaynining elementlari va o‘yindan tashqari sharoitlarda o‘yin tamoyillaridan foydalanishdir. Oddiy o‘yin elementlari yangi bo‘lmasa-da, ular haqiqatan ham veb-saytlar, raqamli marketing, korporativ ilovalar, hatto virtual bajariladigan ishlar ro‘yxati va unumdorlik vositalari kabi o‘yin bo‘lmagan kontekstlarda keng tarqalgan. Biroq, gamifikatsiya keng tarqalgan katta sohalardan biri bu ta’limdir.

Ta’limdagi gamifikatsiya nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar o‘yin-kulgini yaxshi o‘tkazadilar. Bu nafaqat - ular maqsadlari, vazifalari va yutuqlari bo‘lganida, eng yaxshi narsani o‘rganishadi, albatta, bu ma’noda o‘quvchi buni hali ham qiziqarli deb biladi.

Bolalarni (va kattalarni) qiziqtiradigan va o‘ziga jalb qiladigan video o‘yinlarning o‘ziga qaramligi tufayli, o‘yin elementlari o‘quv materiallariga qo‘llanilganda, biz o‘zaro ta’sir natijalarini ko‘rishimiz tabiiy.

O‘qishdagi gamifikatsiya faollikni rag‘batlantirish, o‘quvchilarga yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish va o‘z bilimlarini sinab ko‘rish uchun ballar, tengdoshlar bellashuvi, jamoaviy ishlash va baholash jadvallari kabi o‘yin elementlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. U maktab fanlarida qo‘llanilishi mumkin, lekin o‘z-o‘zini o‘rganish dasturlari va kurslarida ham keng qo‘llaniladi, bu shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiyaning ta’siri biz o‘sib ulg‘ayganimizda tugamaydi.

Texnologiya bizning kundalik hayotimizning ko‘p qismini qamrab oladi, yashash tarzimizni, xarid qilishimizni, ishlashimizni, o‘ynashimizni, ovqatlanishni, odamlar bilan uchrashishni va muloqot qilishni o‘zgartiradi. Siyosatchilar o‘qituvchilarning yuklamalarini optimallashtirish uchun texnologiyadan foydalanishning potentsial afzalliklarini jiddiy o‘rganishni boshlaydilar. Biz, shuningdek, bir qancha vaqtdan beri bilamizki, ko‘p bolalarga yoqadigan o‘yin - o‘yinlardan foydalanish va o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash uchun ma’lum xususiyatlardan foydalanish. Gamifikatsiya quyidagi sabablarni asoslaydi:

o‘yinlar asosiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan (avtonomiya, qadriyat, malaka va boshqalar);

o‘yinlar ijtimoiy bo‘lishi mumkin (masalan, o‘yinlarda peshqadamlar taxtasi yoki eng yuqori ballarni ko‘rsatadigan joylar bo‘lishi mumkin, shunda o‘yinchilar o‘zlarini yaxshi his qilishlari mumkin. O‘yinchilar do‘stlariga qarshi chiqish yoki boshqalarni o‘ynashga taklif qilishlari mumkin);

o‘yinlar ishtirok etishni rag‘batlantiradi (gamification foydalanuvchilarni o‘yinni davom ettirishga va ko‘proq ball to‘plashga, mukofot olishga yoki ko‘proq ma’lumot topishga undash orqali ushlab qolishga yordam beradi);

bu o‘yinchilarga (talabalarga) nazoratni beradi (ular o‘zlarini A nuqtadan B nuqtagacha bo‘lgan o‘qish safari uchun mas'ul deb hisoblaydilar);

zamonaviy iqtidorlik konsepsiyasi;

iqtidorli bola shaxsining o‘ziga xosliklari. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash;

“Noosfera” modeli asosida iqtidorli o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish.

PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi

1990 yillarning oxirida ta’lim siyosatini ishlab chiqish uchun tadqiqotlarda aniq ilmiy yondashuvni qo‘llash g‘oyasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o‘quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur – PISAtadqiqoti yaratilishiga olib keldi.

PISA tadqiqotida baholashning asosi, bu – matematika, o‘qish, tabiiy fanlar va qator innovatsion sohalar bo‘yicha jahon miqyosida muvofiqlashtirilgan to‘shiriqlar to‘’lamidir. Bunday baholash har 3 yilda ishtirokchi mamlakatlarning 15 yoshli o‘quvchilari o‘rtasida tasodifiy tanlov asosida o‘tkaziladi. PISA *(inglizcha - programme for International Student Assessment)* – o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur.

Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan. PISA bo‘yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yal’i ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o‘sishini ta’minlaydi. PISAda o‘quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo‘nalish bo‘yicha aniqlanadi. Tadqiqot yo‘nalishlari quyidagilardan iborat (4.11-rasmga qarang):



4.11-rasm. Tadqiqot yo‘nalishlari

PISA fanlarga oid bilimlarni, shuningdek, o‘quvchilarning shu bilimlarni hatto notanish kontekstda ham ijodiy qo‘llash qobiliyatini baholaydi. Shuningdek, bu dastur 16 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan insonlar o‘rtasida o‘qish savodxonligi, matematik

savodxonlik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyasi (AKT) sohasidagi bilimlarni o‘lchaydigan PIAAC dasturi bilan chambarchas bog‘liq. PISA tadqiqotlari har bir mamlakatga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini dunyo ta’lim tizimi bilan qiyoslash imkonini beradi. SHuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etadi, ya’ni investorlar mamlakatda bilimli, malakali kadrlar bormi, degan savolga bu tadqiqot natijalari orqali javob topadi.

2021 yildagi PISAtadqiqotida matematik savodxonlik darajasini tekshirish ustuvorlik kasb etadi. Ma’lumot uchun, PISA tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish uchun matematik savodxonlik yo‘nalishi bo‘yicha smartfondan foydalanish, daraja xossalarining go‘zalligi, xarid qilish qarori, navigatsiya kabi to‘shiriqlarni bajarib, shug‘ullanish kerak bo‘ladi.

PISA tahlillari: Estoniya eng yuqori reytingga erishgan mamlakatlardan biri Estoniya PISA-2015 tadqiqotida matematika, o‘qish va tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha eng yuqori reytingga ega bo‘lgan o‘nta mamlakatning biri edi. Bu muvaffaqiyat uchun kichkina Boltiqbo‘yi davlati “Yangi Finlyandiya” deya atala boshlandi. Chunonchi, 2015 yilda Estoniya matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha Finlyandiyadan o‘zib ketdi. Finlyandiyalik eks’ertlar 1990 yillardagi ta’lim islohotlari masalalari bo‘yicha estoniyalik hamkasblariga maslahatlar berdi. Darhaqiqat, bu mamlakatlar muvaffaqiyatida qandaydir umumiylik bor: har ikki mamlakatda, ongli ravishda qilingan niyat bo‘ladimi yoki madaniy xususiyatmi, ta’limdagi tenglik katta qadriyat sifatida tan olinadi. Bu yaxshi ta’minlangan yoki kam ta’minlangan oilalardan chiqqan bolalarning natijalaridagi minimal tafovutlar bilan tasdiqlanadi. Estoniyada ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta’siri boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha past. Bu jihatdan Estoniya o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi va ularning natijalari orasidagi bog‘liqlik ancha ochiq bo‘lgan Avstriya, Frantsiya va Germaniya kabi mamlakatlarga qaraganda Kanada, Gonkong va Norvegiyaga yaqinroqdir.

PISA-2015 natijalari yuzasidan alohida e’tiborga molik omil, bu – maksimal darajaga erishgan o‘quvchilar soni emas, 3 muhim yo‘nalishning har birida ‘ast ko‘rsatkichlarga ega o‘quvchilar sonining kamligi. Majburiy ta’lim 7 yoshdan boshlanadi, 3-4 yoshli bolalarning katta qismi davlat bog‘chalariga boradi. Bitta

tarbiyachiga to‘g‘ri keladigan tarbiyalanuvchilar sonining nisbati Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti reytingi bo‘yicha o‘rtachaning yarmini tashkil etadi.

Yosh shkalasining ikkinchi uchida – o‘rta maktabni muvaffaqiyatli tugatgan ko‘p sonli o‘quvchilar turadi (sanoati rivojlangan mamlakatlar ichida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri), buni ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar har bir o‘quvchiga ko‘rsatilayotgan yuqori darajadagi ishonch tasdiqlaydi. Mustaqillikka erishganidan so‘ng Estoniya markazlashmagan ta’lim tizimiga o‘tdi va maktablarga ma’lum darajada avtonomiya, ta’lim dasturi va byudjet bo‘yicha qaror qabul qilish huquqi, o‘qituvchilarni ishga olish va bo‘shatish imkonini berdi.

Maktab yoshidagi bolalar sonining qisqarishi eston ta’lim tizimi yetarli darajada kontingent yashaydigan joylarda maktablar bo‘lishini, shu bilan birga maktab uchun zarur bo‘lgan kontingent sonini nazorat qilishi shartligini talab qiladi. Demografik tanazzul eston universitetlari uchun ham katta muammoga aylandi. Endi ular soni kamayib borayotgan abiturientlarning har biri uchun nafaqat milliy oliy o‘quv yurtlari, balki boshqa mamlakatlarning universitetlari bilan ham raqobatlashishiga to‘g‘ri kelardi. Estoniya kompaniyalari katta miqdorda bitiruvchilar yetishmasligidan xavotirga tushishgandi. Bundan tashqari, Estoniyaning pedagog kadrlari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo mamlakatlar bilan qiyoslaganda katta yoshli kadrlardir. Maktabga yosh mutaxassislarni jalb etish zarurati o‘qituvchi ish haqining bir muncha oshishiga olib keldi.

Estoniya, Shimoliy Yevropa va Boltiqbo‘yi davlatlarida ta’lim davlat tomonidan moliyalashtiriladi, ta’limga xususiy investitsiya kiritish nisbatan kam. Shunga qaramasdan Estoniya ta’limga, masalan, Norvegiyadek mablag‘ sarflamaydi, maktabgacha ta’limda bir muncha ko‘p pedagog bo‘lsa-da, ularning maoshi nisbatan kam. Estoniyaning ichki yalpi mahsuloti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo davlatlar bo‘yicha o‘rtachadan ancha past, shuning uchun ham uning ta’limdagi muvaffaqiyatlari moliyalashtirishga bog‘liq emas.

Estoniyaning yuqori natijalarga erishgani sabablarini tushunish uchun past natijali o‘quvchilar foizini o‘rganib chiqish lozim. PISA baholayotgan 3 yo‘nalishning har biridagi yuqori natijalar haqida ga’ borar ekan, Estoniya ko‘rsatgan natijalar yaxshi,

lekin ularni zo‘r deb bo‘lmaydi. Reytingda 1-o‘rinni egallagan Singa’urda 39,1 foiz o‘quvchilar maksimal natijalarni ko‘rsatdi, Estoniyada esa bu ko‘rsatkich atigi 20,4 foizni tashkil etdi. Biroq Estoniya past natijaga ega o‘quvchilar sonining juda kamligi bilan liderlik qilmoqda. Estoniyalik 15 yoshli o‘quvchilarning atigi 4,7 foizi 3 yo‘nalish bo‘yicha tayanch darajadan past ko‘rsatkichni namoyish qiladi. Bu reyting liderlari – Finlyandiya, Gonkong, Singa’ur va Janubiy Koreya orasidagi eng yaxshi natija shuningdek, bu Germaniya va AQSHdagiga qaraganda ikki marta kam.

XXI asr o‘rtalarida jahon mamlakatlari tomonidan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida bir qator tashkilotlar tuzildi. Ular orasida eng ko‘zga ko‘ringani AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Norvegiya, SHveytsariya, Turkiya, shuningdek, Yevropadagi yana bir necha, jami 24 mamlakat a’zo bo‘lgan tuzilma - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)dir. 1961 yilda ish boshlagan IHTT o‘tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarni hal etib kelmoqda. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta’limining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish maqsadida PISA (Programme for International Student Assessment) -o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturi ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta’lim sohasiga murojaat etishi bejiz emas. Boisi, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg‘ayadi. Shu ma’noda IHTTdek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta’lim tizimiga qancha mablag‘ sarflayotgani va ular nechog‘li samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo‘ldi. Bugun turli davlatlardagi ta’lim ko‘rsatkichlarini o‘rganish, tahlil etish, solishtirish va istiqboldagi taraqqiyot maqsadlarini belgilash uchun xalqaro baholash dasturi ayni muddao bo‘lmoqda. Unga ko‘ra, xalqaro ta’lim ekspertlari yuqori sinf o‘quvchilarining fanlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun universal test tizimi ishlab chiqdi. Bundan tashqari, dastur ijodkorlari o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini ham tekshiradi. Jumladan, har uch yilda 15 yoshli o‘quvchilar test sinovlari orqali 3 yo‘nalishda baholanadi.

Bular:

1) tabiiy fanlar – o‘quvchilarning tabiiy fanlar bilan bog‘liq ilm-fan, texnologiya yangiliklariga qiziqishi, ularni asoslay olishi, tabiiy hodisalarni tushuntira bilishi, baholashi, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni rejalashtirishi tekshiriladi;

2) matematika – ilmiy va hayotiy hodisalarni asoslashda matematik amallarni qo‘llay olishi va ularni matematik tushunchalar, teorema va aksiomalar yordamida tushuntirishi, qolaversa, shu orqali o‘quvchilarda ongli qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllangani darajasi aniqlanadi;

3) o‘qish – o‘quvchining savodi, kitobxonligi va mustaqil fikrlashi, dunyoqarashi, tahlilchilik qobiliyati, xotirasi, ijtimoiy faolligi baholanadi.

Buning uchun o‘quvchilarga ikki soat vaqt beriladi. Turli fanlar bo‘yicha sinov yagona markaziy tizimga ulangan kompyuterlarda olib boriladi. Bundan tashqari, muammo va yutuqlarni aniqlashda o‘quvchilar hamda maktab ma’muriyatidan alohida so‘rovnomalar olinadi. Bu so‘rovnomalarda o‘quvchilarning maktab va uydagi hayot tarzi qanday kechishi oydinlashadi. Shuningdek, bugungi kun talabi - axborot texnologiyalari va mobil aloqa vositalaridan qanday va nima maqsadda foydalanishi, o‘qishdagi uzilishlar sabablari haqida ma’lumotlar to‘planadi. Bu ta’lim samaradorligini ortga tortayotgan kamchilik va muammolarni, ta’lim dargohidagi o‘zaro ijtimoiy munosabatlar va turli hayotiy vazifalarni yechishdagi to‘siqlar haqida tasavvur hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. E’tiborlisi, ayni vaqtgacha aniqlangan reyting natijalarida 3 yo‘nalish (matematika, o‘qish, tabiiy fanlar) bo‘yicha ham Osiyoning rivojlangan davlatlari ta’limi 1-o‘rinni egallab kelyapti. Xususan, Xitoy, Tayvan, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya ta’lim sohasida namunali faoliyat olib bormoqda. Ular bilan izma-iz borayotgan Finlyandiya, Lixtenshteyn, Niderlandiya, Shveytsariya, Estoniya, Polsha, Irlandiya, Kanada kabi davlatlar ham yetakchilar qatorida turgan bo‘lsa, Indoneziya, Qatar, Iordaniya, Kolumbiya, Albaniya, Tunis, Qozog‘iston quyi pog‘onalarni egallagan. Hatto AQSH va Buyuk Britaniyaning umumiy o‘rta ta’limdagi natijalari o‘rtacha ekani ko‘pchilikni hayratga solishi tabiiy.

Ta’lim bo‘yicha AQSHlik mutaxassis Denis van Roukel mazkur holat xususida fikr yuritarkan: “Biz o‘quvchilarimiz saviyasidan xafa emasmiz. Boisi ushbu ko‘rsatkichlar bizda ta’lim sifati yomonligini anglatmaydi, aksincha - Sharq va

G‘arbda ta’lim taqsimoti turlichaligini bildiradi. Ya’ni, bizda oliy ta’lim tizimi hal qiluvchi o‘rinda turadi”, deya munosabat bildirdi. Biroq Denis umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirmay turib, maorifning keyingi bosqichlarida zafar qozonish tavakkalchilik ekanini ham qo‘shimcha qilgan. PISA xulosalari AQSHda ham tez orada maktab o‘quvchilarining o‘zlashtirishiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lsa, ajab emas.

PISA tashkiloti rivojlangan davlatlarda ta’lim sifatini yanada yaxshilashda muhim mezon bo‘layotgani quvonarlidir, - deydi IHTT direktori, ayni paytda PISAning kuratori Andreas SHlyaxer. Bu tashkilotning baholash mezonlarini ishlab chiqishda Niderlandiya axborot texnologiyalarini rivojlantirish Amro R3 Konsortsiumi, Yaponiya milliy ilmiy-tadqiqot instituti, AQSH pedagogik test xizmati va boshqa ta’limga ixtisoslashgan nufuzli tashkilotlar ko‘mak berib kelmoqda. Har bir davlat o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o‘zining ta’lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini bilib, boshqalarga nisbatan ta’limdagi mavqeini yaqqol ajratib oladi. Bu esa yanada takomillashish, o‘sishga xizmat qiladi.

Darvoqe, PISA 1997-yilda tashkil topgan bo‘lsa-da, 2000-yildan to‘laqonli ish boshlagan. Dastlab 32 mamlakatdan 265 ming nafar o‘quvchi sinov jarayoniga qamrab olingan va asosan, o‘qish qobiliyati tekshirilgan bo‘lsa, 2003-yilga kelib 43 davlatdan 275 ming o‘quvchi bilimi matematika, o‘qish va tabiiy fanlar bo‘yicha baholandi. Aytish mumkinki, yildan-yilga baholashda ishtirok etishni istovchi davlatlar va o‘quvchilar soni ortmoqda. Bu esa xalqaro ta’lim standartlariga mos keladigan ta’lim tizimiga ega davlatlar soni ortishiga ham sabab bo‘ladi.
2015-yilda PISA tahlillarida Singapur yoshlari barcha yo‘nalishlarda birinchilikni qo‘lga kiritdi. Xususan, so‘nggi natijalarga ko‘ra, matematika bo‘yicha bilimdonlik borasida Singapurlik o‘quvchilar 564 ball bilan yaqqol yetakchiga aylandi. PISAning yana bir foydali jihati shuki, u qay yo‘nalishga e’tibor qaratsa, shu yo‘nalish bo‘yicha o‘quvchilar bilim darajasini test sinovlari, ruhiy olami va hayotidagi muammo va yutuqlarni esa so‘rovnomalar orqali aniqlaydi. Ko‘rsatkichlar o‘rganilib, yechim topiladi, foydali metodlar ishlab chiqiladi. Misol uchun, 2015-yili quyidagi matematik metod tavsiya etilgan: 4 ta musiqiy guruh tanlanadi. 6 oy davomida o‘quvchilar bu

guruhlar musiqiy albomi sotilishini kuzatib, natijalarni ustunli diagrammada ifodalashadi. Uni o‘quvchilar o‘qituvchilari yordamida solishtirishadi. Bu ularni grafiklarda axborot berish va olishga, shu bilan birga, voqealarni raqamlar bilan ifodalashga o‘rgatadi. Yoki tabiiy fanlar bo‘yicha metod: har bir o‘quvchi kompyuterni uzoq ishlatgach, charchaydi. Ko‘pchilik bu paytda suv yoki qahva ichib, hordiq chiqaradi, ammo bu xato ekan. Aksincha, ishchanlik qobiliyatini saqlab qolish va o‘stirish uchun issiq yoki sovuq havoda yengil yugurishi kerak. Har bir o‘quvchi shunday qilishi lozim. Bunda tana harorati, tashqaridagi harorat, havo namligi inobatga olinadi. Muhimi, buni o‘quvchi mustaqil tarzda tadqiq qiladi.

O‘qish savodxonligini oshirish uchun ‘eshlavhalardagi e’lonlarga e’tibor qaratish mumkin. Uni o‘quvchi o‘qib, tahlil qiladi. E’londa mahsulot haqida batafsil ma’lumotlar berilgan, matn yakunida “mahsulot yoqmasa, pulingizni qaytib olishingiz mumkin” deyilgan. Aynan shu jumla o‘quvchining xulosa chiqarishi uchun turtki beradi, savodxonligi darajasini belgilaydi.

2015-yilgi test sinovlariga 72 davlatdan 29 mingta maktabda ta’lim olayotgan 540 ming o‘quvchi jalb etildi. Unga ko‘ra, IHTT davlatlarida o‘qish samaradorligi o‘rtacha, Singapur, Yaponiya, Estoniya, Finlyandiya va Kanadada yuqori darajada ekani ma’lum bo‘ldi. IHTTga a’zo o‘lkalardagi o‘quvchilar o‘rgangan bilimini amalda qo‘llay olish darajasi 8, singapurlik o‘quvchilarning natijasi esa 24 foizni tashkil etgan. Agar jarayon shunday maromda davom etaversa, IHTT mamlakatlari SHarqdan intellektual ishchi kuchlari “sotib olish”ga ulkan ehtiyoj sezishi muqarrar. 2006-2015-yillar oralig‘ida Kolumbiya, Isroil, Xitoy, Portugaliya, Qatar, Ruminiya o‘quvchilarining bilimlardan ijodiy foydalanish darajasi oshdi. 33 ta mamlakatda ilm-fanda qiz bolalar tafakkurda o‘g‘il bolalardan o‘zib ketgani e’tiborlidir. Masalan, finlyandiyalik qizlar ilmiy saviyasi juda yuqori bo‘lgan yagona davlatdir. Ayollar ko‘pincha sog‘liqni saqlash sohasida ishlasa, erkaklar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muhandislik sohalarida faol. 2009-yilgacha IHTTga a’zo davlatlarning 20 foizida tanlangan fanlarni o‘zlashtirish darajasi o‘rtachadan ham past edi. 2009-2015-yillar oralig‘ida qizlarning o‘qishi 12 ballga pasaydi, o‘g‘il bolalarning natijasi

esa yaxshilandi. Xitoyning ‘ekin, SHanxay, Jiangsu, Guangdong kabi shaharlari, Singapur va Tayvan o‘quvchilari matematika bo‘yicha yuqori natijani saqlab kelyapti.

PISA qizlar va o‘smirlarning o‘zlashtirishi bo‘yicha alohida reyting shakllantirishdan tashqari, dunyoning eng a’lochi 20 nafar o‘quvchisini ham aniqlaydi. Unga Xitoy va Vetnamdan ko‘proq yoshlar kirgani e’tiborga molikdir. Bundan tashqari, aksariyat muhojir o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi tabiiy ravishda mahalliy tengdoshlaridan ikki barobar ‘ast bo‘ladi. Ammo keyingi paytlarda 24 foiz muhojir o‘quvchilar bilim darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichni qayd etmoqda. Demak, o‘quvchilarning bilim olishi muhitga ham bog‘liq. Noqulay muhitdagi o‘quvchilar qulay muhitdagi tendoshlaridan ko‘p hollarda kam ball to‘playdi. PISA esa ta’limda tenglik bo‘lishi uchun kurashadi.

Maktab ta’limi muhitida davomat, tartib, darslarga xalaqit beruvchi turli omillar, o‘qituvchi bilimi va farosati, saviyasi, shogirdini munosib qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maktab jamoasi va ota-onalar o‘rtasidagi munosabat ham maktab faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, maktab ma’muriyati yaxshi o‘qituvchilarni ko‘paytirishi, qo‘llab-quvvatlashi, sifatli o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishini yo‘lga qo‘yishi lozim. Bu esa kelgusida PISA kabi tashkilotlar “chig‘irig‘i”ga ehtiyoj sezmaslik, ushbu tuzilmaga to‘lanadigan minglab mablag‘ni tejab qolish imkonini beradi.

Aytish joizki, shu vaqtga qadar mamlakatimiz ta’limi PISA baholash tizimi doirasiga tushmagan. Ammo bu borada harakatlar boshlangan. Yurtimiz ta’limi PISA ning 2021-yilgi xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi va “Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” ochilishi haqidagi murojaati ma’qullangani buning bir tasdig‘idir. Bu markazning zimmasiga mamlakatimiz ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, 2019-2021-yillar oralig‘ida amaliy ko‘nikmalar shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazib borish, o‘quv adabiyotlarini modernizatsiya qilish, xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan holda o‘qish, matematika, tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish kabi bir qator vazifalar yuklatiladi.

PISA so‘zi yaqindagina bizning milliy ta’lim tizimimizga kirib keldi. Bu test turi haqida ko‘’chilikni xabari yo‘qligini inobatga olib, bugun sizlar uchun shu test turi haqida ma’lumot taqdim etish niyatidaman.

Mamlakatimizda ta’limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylangan bugungi kunda 2021 yilda o‘tkaziladigan PISA baholash dasturida 85 davlat qatori O‘zbekiston ham ilk marotaba qatnashadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning tadqiqotga munosib tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi. Bunda o‘quvchilarimiz qimmatli tahlil va xulosalarni olishi hamda xalqaro miqyosda o‘zini munosib namoyon etishi mumkin.

PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot

PIRLS (inglizcha – progress in International Reading Literacy Study – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlarda boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta’lim institutlari assosiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assosasiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas’uliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan.Tadqiqot uchun to‘shiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma’lumotlar markazida amalga oshiriladi.Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o‘tkazilgan. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. PIRLS tadqiqotda ishtirok etuvchi turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfga maktab o‘quvchilarini qabul qilish yoshi turlicha. Ko‘plab mamlakatlarda maktabga olti yoshdan qabul qilishadi va to‘rtinchi sinfni 10,5 yoshda tugatishadi.Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad Tobagoda maktabga 5 yoshdan qabul qilishadi va ahamiyatli jihati PIRLS xalqaro tadqiqotida ushbu

mamlakatlarning 5-sinf o‘quvchilari xalqaro tadqiqotda ishtirok etishadi. Shvesiya, Daniya va ko‘plab Sharqiy davlatlarda maktabga 7 yoshdan qabul boshlanadi va ushbu mamlakatlarning o‘quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta (10,7-10,9) yoshni tashkil etadi. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko‘ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda.

Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo‘ylab ta’limni baholash, tushunish va yaxshilash bo‘yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog‘ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta’lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o‘qish salohiyati bo‘yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta’lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

25-yanvardagi uchrashuvda PIRLS dasturining 2021-yil uchun mo‘ljallangan tadqiqotlarida O‘zbekistonning ishtirok etishi tashabbusi IEA tashkiloti tomonidan katta olqishlar bilan qarshi olindi va tashkilot tomonidan barcha kerakli yordam va tavsiyalar berilishi ta’kidlandi. Shuningdek, yig‘ilishda PIRLS-2021 tadqiqotlarida ishtirok etish bilan bog‘liq tashkiliy masalalar, ya’ni ishtirok etish shartlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bosqichlari, tadqiqotlarning samarali tashkil etishiga qaratilgan yo‘riqnomalar va boshqa ko‘‘lab vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring

TIMSS (inglizcha Trends in Mathematics and Science Study) - maktabda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatining xalqaro monitoringi bo‘lib, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat ins’eksiya vakillari Fransiyaga qilgan xizmat safari davomida Xalqaro iqtisodiy hamkorliklar tashkiloti (OECD)da bo‘lib, tashkilot mutasaddilari bilan muzokara o‘tkazgan. Uchrashuv davomida TALIS (Teaching and Learning International Survey) xalqaro baholash tadqiqotlarida O‘zbekistonning ilk ishtiroki yuzasidan kelishuv imzolash bo‘yicha ham muzokaralar olib borildi.

TALIS o‘qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta’lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqot hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi – ishtirokchi mamlakatlarga samarali o‘qitish va o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish qaratilgan ta’lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo‘nalishlarni ko‘rib chiqish va aniqlash imkonini beradigan ishonchli, dolzarb va qiyosiy ma’lumotlar taqdim etishdan iborat.

Tadqiqotlar maktab o‘qituvchilari va direktorlariga nafaqat milliy, balkim xalqaro daraja o‘z fikrini bildirish imkonini beradi. Uchrashuv avvalida OECDning TALIS bo‘yicha mas’ul bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari Karine Trembley ushbu tadqiqotda ishtirok etish shartlarini tushuntirib berdi. Ushbu tadqiqotda 200 ta maktab, 4000 nafar o‘qituvchi va 200 nafar maktab direktori ishtirok etadi. Ularni tanlash ham PISAtadqiqotlariga o‘xshash bo‘lib, qaysi bosqich o‘qituvchilarini tanlash, nechta tilda so‘rovnomalar bo‘lishini belgilash OECD va davlat o‘rtasida tuziladigan shartnomaga asosan ko‘zda tutiladi.

Ilgari TALIS tadqiqotlari har 5 yilda o‘tkazilgan bo‘lsa, endi 6 yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan. 2018-yilda o‘tkazilgan TALIS xalqaro baholash tadqiqotlarida 48 ta davlat qatnashgan bo‘lib, natijalari 2020-yilda mart-a’rel oylarida e’lon qilinadi.

Uchrashuv davomida OECD mutasaddilari TALIS tadqiqotlari aynan PISAo‘tkazilgan maktabda bo‘lishi shart emasligi, ularning natijalari alohida chiqarilishi, TALIS o‘tkazishdan maqsad ta’lim muassasalaridagi ahvolni, o‘qituvchilar kom’etensiyalarini va muammolarini aniqlash, lekin uning natijalari ham ‘ersonal muhokama qilinmasligi, natijalariga ko‘ra reyting chiqarilmasligini qayd etib o‘tishdi.

Shuningdek, navbatdagi TALIS tadqiqoti 2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgani va unda ishtirok etish uchun O‘zbekiston hukumati rasman murojaat qilishi lozimligi ta’kidlandi. Shundan so‘ng, shartnoma tuzilib, rasmiylashtirish masalalari ko‘rib chiqilishi ma’lum qilindi. Yakunda ushbu tadqiqotda ishtirok etish bo‘yicha boshqa davlatlar, xususan 2018-yilda 1-marta TALIS tadqiqotlarida ishtirok etgan Qozog‘iston tajribasini o‘rganishga kelishib olindi.

Ma’lumot uchun, Shanxayda TALIS-2013 natijalariga ko‘ra o‘qituvchilar oylik maoshi 10 % oshirilgan. Avstraliyada o‘qituvchilarni oliy ta’limdan keyingi tayyorgarligi bo‘yicha yangi dasturlar joriy etilgan, ‘rofessional standartlar yangilangan. Italiyada “Yaxshi maktab” loyihasi doirasida o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘ ajratilib, o‘qituvchilarga haq to‘lash tizimiga o‘zgartirish kiritgan bunda asosiy e’tibor o‘qituvchilar faoliyat samaradorligiga qaratildi. Angliyada maktablar uchun 1 kun (yiliga 3-marta) davom etadigan “qisqa tekshiruvlar” joriy etilib, ushbu holat navbatdagi tadqiqotlarda pedagoglar tomonidan “yaxshi” deb baholangan.

Yosh avlod bilimini baholashda xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga qo‘llash bilan birga milliy baholash tizimini yanada takomillashtirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xalqaro dasturlarda ishtirok etish yosh avlodning intelektual salohiyatini qay darajada rivojlanayotganini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash bilan birga ularning kreativligini va kom’itentligini va o‘z navbatida ta’lim sifatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Zero, ayni davr ta’limi va global taraqqiyot bilimlar universalligini ham talab etmoqda. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume’tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

O‘zbekiston Res’ublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarning

maktabgacha ta’limga to‘liq qamrab olinishi, 11 yillik o‘rta ta'limning joriy qilinishi munosabati bilan yuzaga kelgan malakali pedagog kadrlarga ehtiyoj masalasi oliy ta'limning pedagogika yo‘nalishlarida sirtqi (maxsus sirtqi), kechki (smenali), ikkinchi Oliy ta'lim hamda xorijiy davlatlar bilan qo‘shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish bilan o‘z yechimini to‘moqda.Hozirgi kunda yoshlarni bilim saviyasini yanada oshirish uchun xalqaro baholash tizimlaridan foydalana boshlandi. Bu Xalqaro baholash dartutlari (PIRLS, TIMSS, TALIS va boshqalar) boshlang‘ich sinf, nafaqat yuqori sinf o‘quchilari uchun ham qo‘llanila boshlandi.Bu xalqaro dasturlar o‘quvchi o‘ylantirishga, balki fikrlay olish doirasini kengaytirishda, uni har tamonlama tarbiyalashda muhim turtki vazifasini bajaradi.Bu baholash dasturlarining asosiy maqsadi shundan iboratki, umumta’lim maktablarining o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini xolisona baholash, o‘quvchilar olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirsh va ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim berish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish lozim. Xalqaro baholash dasturlari asosan 3xil fan doirasida olib boriladi. Bular quyidagilar:

1. O‘qish savodxonligi – insonning yozma matnlarni tushunish va qo‘llay olish, ular haqida fikrlash va o‘z bilimi hamda imkoniyatlarni kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish, maqsadlariga erishish uchun o‘qish bilan shug‘ullanish qobiliyatidir.

2. Matematik savodxonlik – bu insonning u yashayotgan dunyoda matematikaning o‘rnini aniqlash va tushunish, asoslangan matematik xulosalar yuritish hamda fikrlaydigan, qiziquvchan va ijodkor fuqaroga mansub hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida matematikadan foydalanish qobiliyatidir.

3. Tabiiy-ilmiy savodxonlik – bu shaxsning tabiiy fanlarga bog‘liq masalalar bo‘yicha faol fuqarolik ‘ozisiyasiga ega bo‘lishi va tabiiy g‘oyalarga qiziqishga tayyorgarlik qobiliyatidir.Tabiiy-ilmiy savodli inson tabiiy fanlar va texnalogiyalarga oid muammolar muhokamasida ishtirok etishga intiladi va buning uchun quyidagi kom’etensiyalarga ega bo‘lishi talab etiladi, hodisalarni ilmiy tushuntiradi, baholaydi va ilmiy tadqiqotlarni rejalashtiradi, ma’lumot va dalillarni ilmiy jihatdan sharxlaydi.

O‘quv dasturlarida o‘quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishning uchta o‘zaro bog‘liq kom’onentlari qo‘llab-quvvatlanadi: tushunchalar, ko‘nikmalar, jarayonlar. Ushbu tizim o‘quv dasturlarini o‘qitish, o‘rganish va baholash yo‘nalishlarini ta’minlab beradi.

ICILS – kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot

Xalqaro kompyuter va axborot savodxonligini o‘rganish (*ICILS-International Computer and Information Literacy Study*) - IEA tomonidan tashkil etilgan tadqiqot. Bu tadqiqot dunyoning turli mamlakatlaridagi 8-sinf o‘quvchilarining kompyuter va axborot savodxonligi darajasini solishtirish, shuningdek, milliy ta’lim tizimlaridagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot vaqti-vaqti bilan o‘tkazilib kelinmoqda. Bugungi kunga qadar 2013 va 2018-yilda o‘tkazilgan. ICILS-2013 so‘rovi 21 mamlakatda o‘tkazildi. Birinchi uchta o‘rinni Chexiya (553 ball), Kanadaning Ontario viloyati (547 ball) va Avstraliya (542 ball) egalladi.

ICILS dasturiga Xalqaro ta’lim yutuqlarini baholash assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan homiylik qilinadi va AQSh ta’lim statistikasi milliy markazi tomonidan joylashtiriladi. Ushbu tadqiqot Qo‘shma Shtatlarga amerikalik talabalarning kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari va tajribalarini kuzatish, amerikalik talabalarning ko‘nikmalarini xalqaro miqyosda taqqoslash va talabalarining mahoratiga ta’sir etuvchi omillar haqida ma’lumot berish imkonini beradi. ICILS orqali to‘plangan ma’lumotlar raqamli bo‘linishning tabiati va miqyosi to‘g‘risida qimmatli ma’lumot beradi va texnologik ko‘nikmalar, tajriba va boshqa asosiy fan sohalarida o‘quvchilarning yutuqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi.

Qo‘shma Shtatlar 2018-yilda birinchi marta 13 ta ta’lim tizimi bilan birgalikda ICILSda qatnashdi. ICILS-2018 o‘quvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko‘nikmalarining ikki jihatini baholaydi. Birinchi o‘lchov - kompyuter va axborot savodxonligi, kompyuterdan foydalanishni tushunish, ma’lumot to‘plash, axborot ishlab chiqarish va raqamli aloqaga qaratilgan. Ikkinchi o‘lchov - hisoblash

tafakkuri, muammolarni kontseptualizatsiya qilishga va yechimlarni amalda qo‘llashga qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda mazkur mavzuda xalqaro baholash dasturlari va ularning afzalliklari, STEAM ta’limi, geymifikatsiya: o‘yin orqali o‘rgatish (Gamification: learning through play), PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi, PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot, TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring, ICILS – kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot o`rganilgan.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?
2. STEAM so’zining ma’nosi nima?
3. STEAM ta’limning afzalliklari nimalardan iborat?
4. STEAM yondashuvining asosiy g’oyasi an’anaviy yondashuvdan qanday farq qiladi qanday?
5. PISAda o‘quvchilarning bilim sifati monitoringi nechta yo‘nalish bo‘yicha aniqlanadi?
6. PISA tadqiqoti imkoniyatlari haqida ma’lumot bering.
7. PIRLS xalqaro tadqiqoti imkoniyatlari haqida ma’lumot bering.
8. TIMSS xalqaro monitoringi ta’lim tizimida qanday maqsadlarda qo‘llaniladi?
9. TALIS qanday xalqaro tadqiqot hisoblanadi?


Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Xalqaro baholash tizimlarining tamoyillarini “Ikki qismli kundalik” metodi yordamida yoritib bering:


Xalqaro baholash tizimlarining tamoyillari	Mazmun-mohiyati
STEAM	
ta’lim jarayonini tashkil etishning shakli;	
o'quv vazifalarininig amaliy xususiyati;	
fanlararo ta’lim xususiyati;	
tartibni qamrab olish, muhandislik tayyorgarligining kaliti	
PISA	
ta’lim jarayonini tashkil etishning shakli;	
o'quv vazifalarininig amaliy xususiyati;	

fanlararo ta’lim xususiyati;	
tartibni qamrab olish, muhandislik tayyorgarligining kaliti	
PIRLS	
ta’lim jarayonini tashkil etishning shakli;	
o'quv vazifalarininig amaliy xususiyati;	
fanlararo ta’lim xususiyati;	
tartibni qamrab olish, muhandislik tayyorgarligining kaliti	
TIMSS	
ta’lim jarayonini tashkil etishning shakli;	
o'quv vazifalarininig amaliy xususiyati;	
fanlararo ta’lim xususiyati;	
tartibni qamrab olish, muhandislik tayyorgarligining kaliti	
ICILS	
ta’lim jarayonini tashkil etishning l shakli;	
o'quv vazifalarininig amaliy xususiyati;	
fanlararo ta’lim xususiyati;	
tartibni qamrab olish, muhandislik tayyorgarligining kaliti	


2. Xalqaro baholash tizimlarini qo`llash zaruratini “Nima uchun” metodi asosida tahlil qiling:



3. Xalqaro baholash tizimlari qiyosiy tahliliga oid nostandart topshiriq



4. STEAM va TIMS ta’limini Venn diagrammasi yordamida yoriting:



§ 4.3. XXI ASR PEDAGOGIKASIDA AMALGA OSHIRILGAN ILMIY TADQIQOTLAR YO`NALISHLARI VA PEDAGOGIK KONSEPSIYALAR

Reja:

1. Pedagogik konsepsiyalar va ularning yo`nalishlari.
2. Yangi pedagogika konsepsiyalarining nazariy asoslari va ulardan foydalanish yo‘llari.
3. Google Classroom va uning mazmuni.
4. Onlayn ta’lim platformalari.
5. Ommaviy onlayn ochiq kurslari.

Tayanch so`z va iboralar: pedagogik konsepsiyalar, Google Classroom, onlayn ta’lim platformalari, ommaviy onlayn ochiq kurslari.

Pedagogik konsepsiyalar va ularning yo`nalishlari

Pedagogik nazariyalar insonning tabiati (uning kamoloti, o'sishi, rivojlanishi, ta'lim va tarbiya imkoniyatlari) va turfa odamlar guruhlari haqidagi g'oyalarga

asoslanadi. Bugun jamiyatning g'oyalari o'zgargan, ilmiy bilimlar kengaygan va ulardan keyin ta'lim, uning asoslari, maqsadlari hamda imkoniyatlari to'g'risida yangi qarashlar paydo bo'lgan.

Dasturlashtirilgan yechimlar vaqti tobora o'tmishga aylanib bormoqda, vazifalar va vaziyatlar borgan sari noaniqlashmoqda. Bu holat mutaxassisning muhim psixologik fazilatlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Masalan, sanoat iqtisodiyoti mutaxassisdan aniqlik, hokimiyatga bo'ysunish qobiliyati va umrbod bir turdagi ishga moslasha olish qobiliyatini talab qiladi. Axborot iqtisodiyoti esa o'zgarishlarga tezda javob berish, tashabbuskor, kommunikativ va boshqalar kabi talablarni qo'ymoqda.

Insoniyat o'zining butun tarixi davomida shakllantirgan ko'plab nazariyalar orasida pedagogika uchun dolzarbligi bugungi kunda yo'qolmaydigan o'ntasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin (4.5-jadvalga qarang):

4.5-jadval.

Pedagogik konsepsiyalarning tarixiy asoslari

№	Pedagogik konsepsiyalar	Pedagogik konsepsiyalarning tarixiy asoslari
1.	Strukturalistik nazariyalar	Pifagorning uyg'unlik haqidagi g'oyalariga, mavjud bo'lgan barcha narsalarning, shu jumladan insonning ham tamoyillaridan biri sifatida aks ettiriladi. Bunda ta'limning asosiy vazifasi - turli xil aqliy harakatlarni uyg'unlashtirish, insonning jismoniy va aqliy tomonlari o'rtasida to'g'ri muvozanatga erishish shakllantirildi
2.	Sensualistik nazariyalar	antik davrda ham paydo bo'lgan. Aristotel va boshqa mutafakkirlar inson tug'ilishi bilanoq ta'lim olish qobiliyatiga ega deb hisoblashgan. Biroq, hamma ham ta'lim bera olmaydi, faqatgina talabaning ruhiy hayoti uchun zarur texnika va shart-sharoitlarni yaxshi biladiganlargina ta'lim bera oladi. Bunda ta'limning uch turi mavjud: jismoniy, axloqiy va aqliy. Ta'lim vositasi sifatida grammatika, ritorika, dialektika (mantiq), matematika, grafika, siyosat, musiqa va astronomiya kabi fanlarni o'rganish taklif qilingan. Ushbu yondashuv Ya.M.Komenskiy tomonidan eng to'liq ishlab chiqilgan. Sensualistik nazariyalarning rivojlanishiga L.N.Tolstoy, S.T.Shatskiy, A.S.Makarenko kabi mutafakkirlar va o'qituvchilar katta hissa qo'shishgan.
3.	Tomistik nazariyalar	uning asoschisi, XIII asr faylasufi va ilohiyotchisi Tomas Akvinskiy bo'lib, u aql va e'tiqod, falsafa va ilohiyot, faoliyat va tafakkurni tahlil qilib chiqqan. U Vahiy kitobiga asoslangan tushunchalardan boshladi va inson va tabiatni falsafiy o'rganishga o'tdi. Uning pedagogik jarayon modelida eng muhim vosita o'quvchi bo'lib, uning maqsadi o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatiga ega bo'lishdan iborat bo'lgan. Bunda intellektual jihatdan mustaqil bo'lgan o'quvchi yoki talaba o'z tadqiqotlari va kashfiyotlarini o'zi boshqarishi kerak. Tomas Akvinskiy intellektual intizomning ahamiyatini alohida ta'kidlagan (qat'iy intizomli ratsionallik insonga axloqiy takomillashtirish yo'liga kirish imkoniyatini beradi) va qadriyatlar iyerarxiyasida aqlning amaliy qo'llanilishiga alohida o'rin ajratgan

4.	Gumanistik nazariyalar	XIV-XV asrlarda paydo bo'lgan gumanistik nazariyalar (P.Vergerio, H.L.Vives va boshqalar) o'z e'tiborlarini antik davrning tarbiyaviy ideali bo'lmish sog'lom ruh va tanaga ega odamga qaratgan. XX asr boshida gumanistik pedagogika navbatdagi rivojlanishni boshdan kechirdi (E.Kay, G.Gaudig, A.Nil va boshqalar). Zamonaviy xorijiy pedagogikada ushbu yondashuv psixologlar A.Maslou, K.Rojers va ularning izdoshlari g'oyalariga asoslanadi
5.	Apperseptiv nazariyalar	o'rganish g'oyalar va tajriba elementlari uyg'unligiga asoslangan degan pozitsiyadan kelib chiqadi. Tafakkur ong va ong osti o‘rtasida g‘oyalarning taqsimlanishini apperseptsiya (lot. ad – va percep – idrok so‘zidan) – har qanday taassurotni, sezgini aniq va ongli ravishda idrok etishni belgilaydi. Yangi g'oyalar mavjud g'oyalar bilan assotsiativ muloqotga kirishib, konseptual matritsani (appertseptiv massa) hosil qiladi. O'rnatilgan apperseptsiyalar massasi yangi tajribaga moslashishni talab qiladi. Bu o'rgatuvchining intellektual ilg'orligini ham, o'quvchilarning o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ijodiy faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Ushbu nazariyaning asosiy g'oyalari J.Lokk, keyin I.Gerbart asarlarida ishlab chiqilgan va J.Piajening eksperimental tadqiqotlari katta rol o'ynagan
6.	Marksistik nazariyalar	tarixi Aflotun, I.Kant, G.Gegel va A.Smitning mantiqiy tuzilmalariga borib taqaladi. Nazariya insonning o'sishi va to'liq kamoloti uchun mustaqil, ijtimoiy faol hamda mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashni belgilaydigan qulay muhit, oqilona tartibga solingan jamiyat zarur degan taxminga asoslanadi. Shaxsning erkinligiga uning ijtimoiy muloqotlardan qochishi bilan emas, balki aksincha, ular tufayli erishiladi. Ta'lim shaxsning begonalashishini yengib o'tishi kerak. Davlatning ta'limga aralashuvi unga kirishni demokratik ravishda kengaytirish bilan bog'liq, ammo insonda chinakam insoniy bo'lgan narsalarni takrorlash har bir shaxsning vazifasidir
7.	Bixevioristik nazariyalar	B.F.Skinnerning asarlarida eng takomillashgan shaklda taqdim etilgan. Amerikalik psixolog ilmiy jihatdan tashkil etilgan pedagogik jarayon orqali insonning ijtimoiy ijobiy xatti-harakatlarini boshqarish imkoniyati va zarurligini ta'kidlagan. Muqobil bo'lmagan xatti-harakatlarni boshqarish bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun sharoit yaratishni o'z ichiga oladi. Bu yerda dasturlashtirilgan o'qitish va pedagogik jarayon maqsadlarining operatsion jihatdan aniqlangan taksonomiyasi boshlanadi
8.	Pedosentrik nazariyalar	fazilat bilim hisoblanib, uni ham o‘rganish mumkin deb hisoblagan Suqrot g‘oyalari va amaliyotiga borib taqaladi. Suqrot o'z nomini olgan maxsus o'qitish usulini yaratdi. Bir qator murakkab savollar talabada g'oyalar paydo bo'lishiga yordam beradi. Pedosentrik yondashuv bolani maktabga emas, balki maktabni bolaga moslashtirishga qaratilgan. Uning zamonaviy talqini J.J.Russo, I.G.Pestalotssi, F.U.Parker, K.D.Ushinskiy asarlarida aniq bayon etilgan. O'qituvchilar o'quv, tarbiya va rivojlantiruvchi madaniy muhitni yaratadilar, ular orqali bolalar o'z-o'zini tarbiyalaydilar va o'zlarini tahlil qiladilar (M.Montessori, J.O. Dekroli, S.T.Shatskiy va boshqalar). O'qituvchining roli o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini rivojlantirishda maslahat va yordam berishdan iborat bo'ladi
9.	Ekzistensialistik nazariyalar	bu tanlov va qaror qabul qilish jarayonini tushunishga asoslangan pedagogik jarayon modellari demakdir (S.Kierkegaard, M.Buber, N.I.Pirogov va boshqalar). Ekzistensial holatlar hozir va shu yerda, ayni damda sodir bo'ladi hamda uning natijalarida faqatgina an'analar va

		tamoyillar muhim ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Bunda faqatgina biron bir guruhning a'zosi sifatida emas, balki yagona, alohida, noyob shaxs sifatida o'zini o'zi anglash uchun o'sib borayotgan odam boshqa Men va Siz (Xudo) bilan munosabatlarni o'rnatishi kerak. Pedagogik jarayonda asosiy narsa - bu shaxsning dunyo bilan muloqoti va bu jarayonda o'zi hamda dunyo uchun mas'ulligi vujudga kelishi va kuchayishi hisoblanadi. Ushbu jarayonning ijobiy natijasi shaxsning haqiqat darajasiga bog'liq ("ko'rinish emas, balki mavjud bo'lishlik"). Hayot oqimi va o'rganish o'rtasida doimiy bog'liqlik mavjud, shuning uchun hayotdan ajralgan bilim na ta'limning maqsadi, na mazmuni bo'lishi mumkin emas. Bunda o'quv materiallari talabaning ichki ruhi bilan to'yingan bo'ladi
10.	Shaxsga yo'naltirilgan nazariyalar	uning asoschilari birinchi navbatda birgalikdagi faoliyatda amalga oshiriladigan o'zaro ta'sirning subyekt turiga e'tibor berishadi. Bunda o'z motivlari, faoliyat maqsadlari va uni amalga oshirish uchun ma'lum bir qobiliyatlarga ega bo'lgan ikkita to'liq shaxs mavjud. O'rganuvchi universal, yuqori darajadagi ko'nikmalarga tayanib, o'zining shaxsiy tajribasiga asoslangan holda, faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirishga qodir bo'ladi. Shu bilan birga, o'rgatuvchi o'zaro munosabatlarga ochiq bo'lib, o'rganuvchining shaxsiga qaratilgan, demokratik, rag'batlantiruvchi yetakchilik metodikasini namoyon etadi. O'rganuvchi faol, tashabbuskor va o'qituvchi hamda guruh bilan o'zaro munosabatda bo'lishga ochiq

Pedagogikada turli xil nazariyalar va ilmiy yondashuvlar bir-birini istisno qilmaydi, aksincha to'ldiradi, ularning bilimlari o'qituvchining tafakkurini kengaytiradi, uning professional instrumentlarini (vositalari, usullari, texnikasi, shakllari) boyitadi. Pedagogik fikrlashning mohiyatiga ko'ra, barcha majburiy tamoyillar har qanday amaliy jarayon bilan o'zgartiriladi. Aniqroq aytganda, nazariy bilimlar o'ziga xos individual vaziyatga va/yoki holatga moslashadi. U o'zgartiriladi va qayta ko'rib chiqiladi [47].

Zamonaviy pedagogika tushunchalari. Zamonaviy pedagogikada ta'limning maqsadlari, mazmuni va texnologiyasini tushunishda bir xillik yo'q, balki pedagogik jarayonning ayrim jihatlariga urg'u beradigan turli xil yondashuvlar mavjud. Garchi odatda o'tmishga nisbatan nigilistik munosabat bo'lmasada, ba'zi variantlarda o'tmish tushunchalari amalda qo'llaniladi, boshqalarida esa yangisi taklif etiladi. Birinchi taxminiy xulosa sifatida quyidagi ko'proq yoki kamroq o'ziga xos pedagogik tushunchalarni ko'rsatishimiz mumkin:

o'rganuvchilarga keng ko'lamli bilimlarni berishga qaratilgan an'anaviylik.

o'rganuvchilarda to'g'ri ijtimoiy xulq-atvor shakllarini shakllantirishga qaratilgan xulq-atvor.

pragmatik, ya'ni o'rganuvchilarga deyarli foydali bo'ladigan bilimlarni berishga qaratilgan.

inson qobiliyatlarini rivojlantirishga, uning ma'naviy o'sishiga, o'zini o'zi anglashga hissa qo'shishni maqsad qilgan gumanistik.

ta'limning asosi hisoblangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Insonning diniy his-tuyg'ulari va e'tiqodlarini rivojlantirishga qaratilgan teologik.

Ushbu ro'yxat tugallanmagan. Bundan tashqari, mazkur tushunchalar o'rtasida keskin farq bo'lmasligi umumiy konseptual sohalarga ega bo'lishi mumkin. Keling, pedagogik tushunchalarni tavsiflashni davom ettiramiz. Eslatib o'tamiz, pedagogika tarixida insonning shakllanish omillari to'g'risida ikkita pozitsiya mavjud edi va shu munosabat bilan ta'limning ikkita tamoyili – tabiatga muvofiqligi va madaniy muvofiqligi taklif qilingan.

Ya.Komenskiy, Russo, Pestalotssi tomonidan taklif qilingan va ishlab chiqilgan tabiatga muvofiqlik tamoyili inson tabiatning bir qismi sifatida ma'lum tabiiy mayllarga ega ekanligiga asoslangan edi. Tarbiyada siz bolaning tabiatiga moslashishingiz, uning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tug'ma xususiyatlarini rivojlantirishingiz kerak. Ushbu tamoyilga asoslanib, keyingi gumanistik pedagogikada shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Ta'lim jarayoni shaxsning o'zini o'zi anglashi va o'zini o'zi topishi uchun sharoit yaratishi kerak. Ta'limning maqsadi insonga o'zini shaxs sifatida yaratishga yordam berishdir.

Ushbu konsepsiyaning ba'zi tarafdorlari bolalar tug'ilishdanoq serharakatlilik, muvozanatsizlik, itoatsizlik, o'z xohish-irodasi va hokazolardan aziyat chekishadi va uni bostirish kerak, deb ishonishgan. Bundan tashqari, ularning salbiy omillar ta'siridan qochish va qandaydir tarzda zararsizlantirish kerak. Ushbu qarashlarning davomi sifatida avtoritar ta'lim konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda tarbiya shaxsning rivojlanishini boshqarish sifatida tushuniladi, bunda bola rivojlanishining deyarli barcha dasturlari kattalar – ota-onalar, o'qituvchilar va umuman jamiyat tomonidan belgilanadi. Bolalar uchun izoh, ko'rsatma, tanbeh, taklif, hukm va jazo choralari kabi bir qator tarbiyaviy harakatlar taklif etiladi. Maktabda avtoritar ta'lim ko'pincha jazodan qo'rqish orqali intizomni saqlashga qaratilgan. Avtoritar ta'limning maqsadi

oldindan belgilangan xususiyatlarga ega aniq bir qolipdagi shaxsni shakllantirish hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagogik faoliyatni turli xil ko'rsatmalar, texnologik xaritalar va boshqalar bilan tartibga solish istagi borligi xarakterlidir. Avtoritar ta'limning natijasi (ayniqsa totalitar rejimlarda) ommaviy odam, deb nomlangan. Mutaxassislar uning hokimiyat va xarizmatik shaxslarga bo'ysunuvchanlik, ko'p hollarda o'zlarining quyi pog'onada ekanligini his qilish, boshqa odamlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, tajovuzkorlik, kelajakdan qo'rqish kabi o'ziga xos xususiyatlarini belgilab berishgan.

Lokk, Gelvetiya, Disterveg ijodiga borib taqaladigan madaniyatlilik tamoyili tashqi muhit va madaniyat ta'sirini tarbiyalashda hal qiluvchi rolni ta'kidlaydi. "Ta'limda inson tug'ilgan yoki u yashaydigan joy va zamon sharoitlarini, bir so‘z bilan aytganda, keng va har qanday ma’noda olib qaraganda, butun zamonaviy madaniyatni, ayniqsa o'rganuvchining vatani bo'lgan mamlakat madaniyatini hisobga olish kerak".[189] Keyinchalik ta'kidlanganidek, madaniyatlilik tamoyili ham umuminsoniy qadriyatlarni, ham umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lmagan o'ziga xos milliy va mintaqaviy madaniyat qadriyatlarini hisobga olishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy pedagogika bir-birini to'ldirishning o'ziga xos tamoyilini taklif qilib, bu o'z-o'zini rivojlantirish va ijtimoiy nazorat ostidagi ta'lim ishlariga e'tiborni birlashtirishini ilgari suradi. Bu ta'limni ikki tomonlama jarayon sifatida tushunishda namoyon bo'ladi ya'ni bir tomon o'qituvchining faoliyati, ikkinchisi – ta'lim oluvchining faoliyati bo'lib, ikkinchisining faoliyatisiz ta'lim maqsadlariga erishish dargumon.

Aytilganlarga quyidagi fikrni qo'shishimiz mumkin. Avtoritar ta’lim tushunchasi umumiy falsafiy ma’noda shaxs rivojlanishining asosiy manbasini tashqi ta’sirlarda ko’radi. Ammo bu obyekt rivojlanishining ichki manbalari soyada qolishi bilan tengdir. Va bunda avtoritar ta'lim konsepsiyasidan farqli o'laroq, shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirishga e'tibor beradigan erkin tarbiya mazmunidagi tushuncha shakllanganligi bejiz emas. Ushbu umumiy yondashuv doirasida ular "shaxsga yo'naltirilgan" ta'lim, "shaxsga asoslangan" ta'lim, "rivojlanayotgan" ta'lim, "gumanistik" ta'lim va boshqalar haqida gapiradilar. Umuman olganda, ushbu konsepsiyada ta'limning vazifasi o'z-o'zini

tarbiyalash, shaxsning o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratish deb hisoblanadi va o'rgatuvchining faoliyati ushbu sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bola ham, umuman olganda, o'zi rivojlanib boradi.

Biz konsepsiyani biroz soddalashtirdik (odatda u gumanitar ta'lim tushunchasi deb ataladi). Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu konsepsiya doirasida ba'zida hatto bir-birini istisno qiladigan turli xil fikrlar mavjud. Keling, ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Shunday qarash borki, unga ko'ra, biror kishi shaxs sifatida o'ziga xos "dastur" asosida shakllanadi va unga xos bo'lgan shaxsiyat fazilatlari o'z-o'zidan rivojlanadi. K.Rojers (1902-1987) o'z-o'zini anglash uchun tug'ma tendensiya mavjudligini va u kelajakda shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga olishini ta'kidlagan. Xo'sh, bu dastur qayerdan paydo bo'lgan? Bunda ikkita variantni taxmin qilish mumkin: a) diniy variant – bu "dastur" Xudo tomonidan yaratilgan va b) biologik variant – bu biogenetik qonunga asoslanib unga ko'ra ontogenez filogeniyani takrorlaydi. Ammo bu "dastur" inson filogeniyasida qay darajada rivojlanganligi noma'lumligicha qolmoqda.

Zamonaviy pedagogikada ular insonning o'zini o'zi rivojlantirib borishi haqida ko'p ta'kidlab o'qituvchi bolaga shaxsiy maqsad va vazifalarini yuklamasligi, balki o'z-o'zini rivojlantirishga hissa qo'shadigan shart-sharoitlarni yaratishi kerak deyiladi. Ammo bularning barchasini qanday qilish kerak? Insonning haqiqiy da'vati nima ekanligini qanday tushunish va uni qay tarzda amalga oshirish kerak?

"Gumanistlar" o'zlarining konsepsiyasini avtoritar ta'lim konsepsiyasiga qarshi qo'yib, bolalarga nisbatan "insoniy" munosabat asosida tarbiyalashga, ularga erkinlik berishga chaqiradilar. Masalan, A. Nil, bolani "yolg'iz qoldirish" kerakligini va uning o'zi rivojlanishini aytadi. Bola o'ziga qiziq bo'lgan mashg'ulotlar bilan shug'ullansin. Ammo bu qanchalik to'g'ri? Bu yerda qiziq fakt esga olinadi. Yigirmanchi asrning 20-yillarida Rossiyada bolalarni hurmat qilish, ularga insonparvarlik bilan munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlanib, maktabda o'quvchilar o'rtasida tengsizlikni rivojlantiradigan va ular o'rtasida adovatni keltirib chiqaradigan akademik ko'rsatkichlar (baholash tartibi) bekor qilingan. Ushbu tajribaning qayg'uli natijalari ma'lum.

Avtoritar va gumanistik ta'lim tarafdorlari o'rtasidagi munozarada bolaning o'z faoliyatini pedagogik ta'sirlar bilan rag'batlantirish kerak degan fikr ilgari suriladi. Ammo bu yerda yana bir murakkab savollar tug'iladi.

Pedagogik jarayonning maqsadi sifatida shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishni hisobga olgan holda, uning ta'limini tashkil etish muammosini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ta'lim tizimi shaxsni atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhitda hayotga tayyorlashga hissa qo'shishi kerak. Va bunda birinchi navbatda, ta'lim mazmuni muammosi mavjud. Inson iloji boricha kengroq bilimga ega bo'lishi kerak degan fikr bor. Ammo boshqa fikr ham bor bo'lib, unga ko'ra, shaxs ko'plab bilimlarga berilmasligi kerak, balki hayotda aynan nimaga muhtoj bo'lishini, unga nima rostdan ham asqatishini bilishi kerak. Ammo kelajakda talaba uchun nima foydali bo'lishini va nima foydali emasligini qayerdan bilamiz?

Ba'zan ular qiziqarli narsalarni o'rgatish kerakligini aytishadi. Ammo inson hayoti va faoliyatida hamma narsa qiziqarli bo'lishi mumkin emas. O'qitish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'limda taklif qilinadigan hamma narsa talabaning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlariga mos kelmaydi va agar biz odam normal yashashini istasak, u o'ziga yoqmasligi mumkin bo'lgan narsalarni ham o'rganishi, o'zlashtirishi kerak bo'lib qoladi.

Ta'kidlanishicha, ko'p narsalarni bilish va yangi bilimlarni topish qobiliyatini o'rgatish shart emas. Ammo bu qobiliyat bilimlarni o'zlashtirish jarayonida shakllanadi. Shunday qilib, bu yerda aniq ko'rinayotgan muammolar mavjud.

Pedagogik faoliyat insonning ideali - u qanday bo'lishi kerakligi, dunyoqarashi, tashqi ko'rinishi va ma'naviy ko'rinishi, xatti-harakati qanday bo'lishi kerakligi haqidagi tushuncha bilan bog'liq. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi har tomonlama bo'lishi kerak. Umumiy jismoniy rivojlanish (kuch va chaqqonlikni oshirish) zarur bo'ladi. Shuningdek, mehnat ta'limi kerak bo'lib, u orqali shaxs mehnat odatini rivojlantiradi, mehnat harakatlarida vujudga keladigan yoqimsiz his-tuyg'ularni yengib o'tado, mehnatsevarlik rivojlanadi va ishdan qoniqish hamda zavq hissi paydo bo'ladi. Fikrlash qobiliyati, xotira, iroda kuchi, intellektual mehnat madaniyati, yangi ma'lumotlarga qiziqish va boshqalar rivojlanishi uchun esa aqliy rivojlanish kerak. Va

albatta, estetik, axloqiy tarbiya, huquqiy va siyosiy madaniyat va boshqalar ham kerak bo'ladi.

Ta'lim jarayonining ratsionalistik modeli deb ataladigan modeli (uning mualliflari B.S.Baum, D.Kratxon, E.Simpson, Gronlund) qiziqish uyg'otadi. Ushbu model o'quvchilarning bilim, hissiy va psixologik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan (4.6-jadvalga qarang):

4.6-jadval.

Ta'lim jarayonining ratsionalistik modeli

Darajalar	**Kognitiv ko'nikmalar**	**Hissiy ko'nikmalar**	**Psixomotor ko'nikmalar**
1-daraja	Faktlarni yodlash	Passiv: diqqatni safarbar qilish; hislar orqali signal olish	Identifikatsiya: sezgilar orqali vosita faoliyatini nazorat qilish
2-daraja	Faktlarning ma'nosini (tushunchasini) oshirish	Faol: biror narsaga e'tibor berish va to'g'ri javob berish orqali	Javob: identifikatsiyaga asoslangan harakat
3-daraja	Eslab qolinganlardan foydalanish	Baholash: qabul qilingan qarorga muvofiq biror narsani kuzatish, javob berish, aniqlash va harakat qilish	Taqlid: boshqalar tomonidan bajarilgan harakatni takrorlash
4-daraja	Tarkib va shakl tahlili (bo‘linish)	G'oyani tashkil etish: tanlash, bir qiymatni boshqasiga afzal ko'rish, nizolarni hal qilish, falsafani rivojlantirish	Tajriba orttirish
5-daraja	Qismlardan butunning sintezi	Qadriyatlarning tasdiqlangan bahosiga ko'ra, tegishli harakat yo'nalishi	Mutaxassis darajasidagi harakat
6-daraja	Biror narsaning qiymati yoki ahamiyatini aniqlash		Moslashuv: yangicha vaziyat monand harakatlarning shakllanishi
7-daraja			Yaratish: muammolarni hal qilish uchun yangi harakatlarni ishlab chiqish

